



“YANGI O‘ZBEKISTON MA’RIFATPARVARI”



ILMIY-MA’RIFIY MAQOLALAR TANLOVI
G‘OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARINING
MAQOLALARI TO‘PLAMI



“YANGI O‘ZBEKISTON MA’RIFATPARVARI”

*ilmiy-ma’rifiy maqolalar
tanlovi g‘oliblari va ishtirokchilarining
maqolalari to‘plami*

«ULUG‘ SO‘Z» nashriyoti
Toshkent – 2023

УЎК 37(575.1)(082)
КБК 74(50')я43

“Yangi O‘zbekiston ma‘rifatparvari” // ilmiy-ma‘rifiy maqolalar tanlovi g‘oliblari va ishtirokchilarining maqolalari to‘plami; – Toshkent: «ULUG‘ SO‘Z» nashriёti, 2023 – 224 б.

Mas‘ul muharrir:

Feruz Bafoyev, Abdurashid Obloqulov

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.D.Pardayeva – *Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, falsafa fanlari nomzodi, dotsent*
X.P.Kenjayeveva – *Buxoro davlat tibbiyot instituti katta o‘qituvchisi*
B.T.Adizov – *O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti tadqiqotchisi*

Taqrizchi:

Huseynova Abira Amanovna – *Oliy Majlis Senati a‘zosi*

Maqolalarda keltirilgan ma‘lumotlar uchun mualliflar javobgardirlar.

“Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” munosabati bilan ta‘lim muassasasi o‘qituvchilari, pedagog xodimlari, talabalari va tadqiqotchilarini qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish orqali ularda ta‘lim va ilm-fanga qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston ma‘rifatparvari” nomli ilmiy-ma‘rifiy maqolalar tanlovi g‘oliblari va ishtirokchilarining maqolalari aks ettirilgan mazkur to‘plamda respublikamiz ma‘naviyat va ma‘rifat targ‘ibotchilari, oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus kasb-hunar hamda xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar, madaniyat xodimlarining hukumati-miz tomonidan jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, barkamol avlod tarbiyasi, uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari xususida tahliliy mulohazalar bildirilgan.

Taqdim etilayotgan ushbu ilmiy-ma‘rifiy tanlov materiallari to‘plami turli soha mutaxassislari hamda keng ilmiy jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

Buxoro viloyati hokimligi, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Buxoro viloyati bo‘limi, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi, O‘zbekiston “Adolat” SDP Buxoro viloyati Kengashi, “Yuksalish” umummilliy harakati Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi, “Navqiron Buxoro” gumanitar tadqiqotlar ilmiy markazi, Osiyo Xalqaro universiteti, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Turon Zarmed universitetining qo‘shma qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-5122-2-1

© «ULUG‘ SO‘Z» nashriёti, 2023

SO‘Z BOSHI O‘RNIDA

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sa'y harakatlar ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga sodiq qolib, "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" degan tamoyilga amal qiladi.

Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamolga yetgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob xislatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. SHuning uchun tarbiya o'tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, mamlakatimizning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" buyuk maqsadiga erishuvda ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Prezidentimiz SH.Mirziyoev ta'kidlaganidek: *"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda"*.

Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. *"Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir... Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan."*

Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyevning keyingi yillarda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, Farmon va qarorlari, ilgari surayotgan ezgu tashabbuslari O'zbekistonda yangi Ma'rifat Renessansiga mustahkam poydevor yaratmoqda. Tarixdan ma'lumki, ajdodlarimiz yaratgan har ikki Renessans davrida dunyo ilmi bizga juda katta turtki bo'lgan. Jahon taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab bergan birinchi Renessans davrida Xorazmda barpo etilgan Ma'mun akademiyasi o'z bag'riga buyuk mutafakkirlarni to'plab, dunyoning eng ilg'or ilmlarini o'zlashtirdi, bu ilm butun dunyo uchun namuna vazifasini o'tadi. Temuriylar yaratgan ilm maktablari ham ayni shu yo'ldan bordi. Bu davrda ham ilm o'rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladi. Bugun dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan atalgan uchinchi Renessans g'oyasi o'z atrofiga davlatni, jamiyatni, butun xalqni birlashtira oladi.

Inson va uni tarbiyalash, yetuk shaxsni kamolga yetkazish masalasi qadimdan SHarq olimlari, mutafakkir va donishmandlarining diqqat- markazida bo'lib kelgan. Ular inson zotini yuksaklikka ko'targanlar, uni tirik mavjudotlar orasida eng a'loisi deb hisoblaganlar. Tarixiy taraqqiyot davomida ro'y bergan Renessanslar aynan shu buyuk g'oyalari asosida vujudga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni beshinchi yo'nalishi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" 71-maqsadidagi «**Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat**» konsepsiyasini amalga oshirish doirasida ma'naviy tarbiyani muntazam va uzluksiz olib borish, jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash, fuqarolarning ezgulik va insonparvarlik g'oyalari hamda yuksak ma'naviyat tamoyillariga asoslangan sog'lom dunyoqarashi va zamonaviy tafakurini "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasi asosida shakllantirishni umummilliy harakatga aylantirish borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini qo'llash, yoshlar qalbida bag'rikenglik,

shukronalik ruhini tarbiyalashda ta'lim muassasalarining rolini yuksaltirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlashda yoshlar faolligini oshirish, mafkuraviy immunitetini yuksaltirishning dolzarb masalalariga bag'ishlab, Buxoro viloyati hokimligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyati bo'limi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi, O'zbekiston "Adolat" SDP Buxoro viloyati Kengashi, "Yuksalish" umummilliy harakati Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi, "Navqiron Buxoro" gumanitar tadqiqotlar ilmiy markazi, Osiyo Xalqaro universiteti, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Turon Zarmed universiteti, "Buxoro 24" elektron OAV hamda "Istiqlol" teleradiokanali bilan hamkorlikda ko'p tarmoqli **"YANGI O'ZBEKISTON MA'RIFATPARVARI"** mavzusidagi ilmiy-ma'rifiy maqolalar tanlovini e'lon qildi. Bunda tarix sahifalaridagi izlanishlar; falsafa sohasi; huquqiy tadqiqotlar yo'nalishi; pedagogika va psixologiya sohalaridagi innovatsiyalar; filologiya fanlarini (adabiyot sohaları) rivojlantirish yo'lidagi tadqiqotlar; raqamli iqtisodiyot: yangilanayotgan O'zbekistonni IT platformalari, yangi texnologiyalar va biznes modellari orqali rivojlantirish yo'llari; iqtisodiyotda innovatsiyalarning tutgan o'rni; madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish; tabiiy va aniq fanlarning dolzarb masalalari; tibbiyot va tibbiy ta'limni rivojlantirish sho'balari bo'yicha maqola va tezislar qabul qilindi. Mazkur tanlov natijasida **"Eng yaxshi ilmiy maqola"**, **"Eng yaxshi maqola taqdimoti"**, **"Eng yosh ilmiy tadqiqotchi"**, **"Eng yaxshi ma'rifatparvar olim"** va **"Eng yaxshi innovatsion maqola"** nominatsiya bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Mazkur anjuman keyingi yillarda amalga oshiriladigan tarixiy vazifalarimizni belgilab olish va istiqbol rejalarimizni tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, milliy taraqqiyotimizning kelajak rivoji bevosita bugungi yoshlarimizda ta'lim va tarbiya asosida shakllanadigan tafakkur darajalari bilan bevosita bog'liqdir.

Mirali Hamroyev
Buxoro viloyati hokimining yoshlar siyosati,
ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha o'rinbosari,
Tashkiliy qo'mita raisi



Tarix sahifalaridagi izlanishlar

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORONING KONFESSIONAL STRUKTURASI

Rajabova Dilnoza YArashovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi
dilnozarajabova85@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Buxoro amirligining 1868-1917 yillardagi diniy-konfessional holati, ya'ni bu yerda mavjud islom, yahudiylilik, hinduiylik dinlari qatoriga xristianlikning kirib kelishi va ta'siri tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida o'rganiladi.

Tayanch tushunchlar: islom, yahudiylilik, hinduiylik, xristianlik, pravoslaviya, shia, sunniy, kanesso, sinagoga, cherkov, ibodatxona.

Kirish. Buxoro islom dinining yirik markazlaridan biri sifatida azaldan e'tirof etib kelinadi. SHunga qaramasdan sovet davri tarixshunosligining ko'plab tarixiy manbalari, shuningdek, ular asosidagi ayrim zamonaviy tadqiqotlarda ham hozirgacha Buxoroning konservativ diniy davlat sifatidagi talqinini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ushbu masalaning hozirda dolzarbligini ifodalaydi hamda uning qayta tadqiq etilishini taqozo etadi.

Maqolada Buxoroning Rossiya imperiyasi protektorati (1868-1917) bo'lgan davrning diniy-konfessional strukturasi tarixiy materiallar, manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida yaxlit ko'rib chiqiladi. Aniqrog'i, Buxoroda bo'lgan islom, yahudiylilik, hinduiylik kabi dinlar qatoriga pravoslav xristianligi va turli konfessiyadagilarning ko'chirib keltirilishi hamda ta'siri ilmiy asosda o'rganiladi. Rus imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini egallay boshlagan davrda Buxoro amirligini Mang'itlar sulolasi (1756-1920) boshqarayotgan edi. Protektoratga aylangan davlat so'nggi mang'it hukmdorlari Amir Muzaffarxon (1860-1885), Amir Sayid Abdulahadxon (1885-1910) va Amir Sayid Olimxonlar (1910-1920) tomonidan boshqarilgan. Ushbu masalaning tarixshunosligi va adabiyotshunosligi juda ham keng ko'lamli bo'lib, buni bir maqola doirasida yoritish nihoyatda murakkab. Ammo umumiy qilib: Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar bo'lgan, imperiya tarkibida bo'lgan (protektorat), sovet va keyingi mustaqillik davrlari mahalliy va xorijiy tarixiy manba hamda adabiyotlari deb klassifikatsiyalash mumkin.

Asosiy qism. Islom. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining maydoni 225 ming kv.km bo'lib, 27 viloyat va 11 tumandan iborat bo'lgan. Buxoro amirligi hududida 3 millionga yaqin aholi yashab, etnik tarkibi o'zbeklar, forslar, yahudiylar, turkmanlar, hindular, arablar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmoqlar bo'lgan. Buxoroda asosan islom, shuningdek, yahudiylilik, hinduiylik va juda kam sonli xristianlik dini vakillari yashab kelishgan. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi rasman islomning sunniylik yo'nalishi (hanafiylik mazhabi) SHariat qoidalariga asoslangan bo'lib, musulmonlardan boshqa barcha din vakillari "juz'ya"-g'ayridinlik solig'ini to'laganlar. Amirlik devonida sayyidlar, xo'jalar va Jo'ybor xo'jalarining nufuzi va ta'siri katta bo'lgan. YUqori mansablardan "shayx-ul-islom"lik lavozimi amir tomonidan

ayni shu yoʻnalish va nasabdagi din peshvolari orasidan tayinlangan¹.

Buxoroning islom dini markazi sifatidagi nufuzining IX-X asrdayoq ortishiga bu erdagi islom madaniyati, fikriy ilmlar va soʻfiylik tariqatlarining ravnaq topishi sabab boʻlgan². XIII asrga kelib soʻfiylik tariqatlari yanada rivojlanib, Bahouddin Naqshband (1318-1389) xoʻjagon tariqatining zikriy rashha (qoida)larini yanada takomillashtiradi³. XIX asrning oʻrtalariga kelib “SHarif” zaminda naqshbandiylik, kubraviylik, qodiriylik, suhravardiylik, dahbediylik, ishqiylik, ahroriylik, mujaddidiylik va yassaviylik kabi tariqatlarning shahobchalari keng yoyilgan edi⁴.

Buxoroda islomning sunniylik yoʻnalishidan tashqari, bu yerga turli davrlarda kirib kelgan shialik (“shia”-arabcha, “Alining tarafdorlari” degani) yoʻnalishidagi forsiy, marvlik va mashhadliklar ham koʻpchilikni tashkil etgan⁵. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib davlat boshqaruvida shia mulozimlarning soni ortib ketadi⁶. Ammo XX asrning boshlaridagi shia-sunniy mojarolari sabab siyosiy tizimdan chetlatilgan shialar Buxoro amirligining shaharga yaqin bekliliklarida istiqomat qilib kelganlar. Buxorodagi shialar jafariylik mazhabidan boʻlib, diniy taʼlim olish uchun Eron yoki Mashhadga borishgan. SHialarni buxorolik mahalliy mualliflardan Ahmad Donish va Abdulazim Somiy Boʻstoniyalar asarlarida “rofiziylar” (arabcha, “tark etgan”, “rad etgan” degani) deb ham uchratish mumkin⁷. Bundan “shialik” va “rofiziylar” soʻzlari bir maʼnoga egaligi anglashiladi. Buxoro amirligining SHarqiy Buxoro va Gʻarbiy Pomir sarhadlarida shialikning Ismoiliylik oqimidagi mahalliy xalqlar yashab, baʼzida oshkora, baʼzan yashirin tarzda diniy anʼanalarini davom ettirib kelishgan⁸. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroning markaziy hududlarida shialikning imomiylik va bobiylik firqalari taʼsiri boʻlganligini bir qancha arxiv hujjatlari tasdiqlaydi. Bundan Buxorodagi shia yoʻnalishi vakillarining YAqin SHarq, Arabiston va Eron davlatlari bilan faol savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari boʻlganligini koʻrish mumkin.

YAhudiylik. Markaziy Osiyo hududlariga yahudiy xalqlarining kirib kelishi haqida manbalarda turlicha maʼlumotlar keltiriladi. SHunga qaramay, tarixchi olim D.Ochildiyevning asarlariga koʻra, ularning tarixi bu yerlarda 2500 yillik oʻtmishga ega⁹. Buxoro amirlikdagi yahudiylarning miqdori ham turlicha uchrashining sababi, ushbu diasporaning tarixan migratsiyasi bilan bogʻliq. Asosan markaziy Buxoro shahri, Karmana, Kattaqoʻrgʻon va Qarshi bekliliklari boʻylab keng tarqalgan yahudiylarning umumiy soni 4 mingdan – 10 ming nafargacha boʻlgan deb keltiriladi¹⁰. Amirlik markazida ularning Mahallai Koʻhna, Mahallai Amirobod va Mahallai Nav kabi uchta yahudiy guzarlari boʻlgan¹¹. “Buxoro yahudiylari” termini xorijiy sayyohlar xotiralari va

¹ Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX — начале XX в. –Душанбе, 1972. –С.48-50; Семёнов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средне вековой Бухаре // Советское востоковедение, Т.V., 1948; Wennberg F. On the edge: the concept of progress in Bukhara during the rule of the Later Manghits. Uppsala: Uppsala Universitet, 2013. –P. 55; Wolfgang Holzwarth. Community Elders and State Agents: Īlbēgis in the Emirate of Bukhara around 1900 // Eurasian Studies 9, no. 1–2 (2011). –P. 224.

² Рахимов К. Мавороуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотларнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). –Т.: “Академнашр”, 2020. –Б. 58.

³ Itzchak Weismann. The Naqshbandiyya. Orthodoxy and activism in a worldwide Sufi tradition. –NY, Routledge, 2007. –P. 27.

⁴ Devin DeWeese. ‘Dis-ordering’ Sufizm in early modern Central Asia: suggestions for rethinking the sources and social structures of Sufi history in the 18th and 19th centuries // History and Culture of Central Asia. – P. 260-279.

⁵ Kimura Satori. Sunni-ShiʼI relations in Russian protectorate of Bukhara, as perceived by the local ‘ulama’ // Asiatic Russia: imperial power in regional and international contexts.-London, Routledge, 2011. –P. 189-215.

⁶ Şadr al-Dīn ‘Aynī. BUKHARĀ INQILĀBĪNING TAʼRĪKHĪ. Shimada Shizou va Sharifa Tosheva (Tokyo: Department of Islamic Area Studies, Center for evolving humanities. The University of Tokio. 2010). –P. 133-140.

⁷ Аҳмад Дониш. Меъёр ут- тадаййун. –Тоҷикчага Девонақулов А., Зокиров Н.таржимаси. Душанбе, 2008; Мирзо Сомий. Миръот ал-яқин. Бухоро вилояти давлат кутубхонаси қўлёзмаси, № 70.

⁸ Каландаров Т.С. Шугнанцы. –Москва, 2004. –С. 400.

⁹ Очильдиев Д. История бухарских евреев. Книги I, II (с древних времен до середины XIX в). – USA, NY, 2001. –С. 385.

¹⁰ Karimov E., Poujol C. The Jews of Bukhara: the End of a Doubly Minority Space-Time (1897-1918) // Revue des mondes musulmans et de la Méditerranée, n° 107-110 – Identités confessionnelles et espace urbain, septembre 2005: pp. 351–374 (in French).

¹¹ Альмеев Р.В. История регистрации и деятельности в г. Бухаре второй общины и синагоги бухарских евреев (1989-1999 гг.) –Бухара, 2001. –С. 3.

tarixiy adabiyotlarda XIX asrning 20-yillaridan uchray boshlaganligi sababli bu atama ular orqali tarqalgan deb hisoblaydi yahudiyshunos Albert Kaganovich¹. Ammo Temuriylar hukmronligi davrida poytaxt Samarqanddagi bunyodkorlik ishlariga jalb qilingan buxorolik yahudiy me'mor-ustalarni shu atama bilan atalishi orqali avval Samarqand-Buxoro yahudiylari, keyinchalik, XVII-XIX asrga kelib butun Markaziy Osiyo yahudiylariga nisbatan "Buxoro yahudiylari" deb kelinmoqda degan qarashlar ham mavjud².

XIX asrning o'rtalarida yahudiylar buxoroliklar bilan barcha boradagi munosabatlarda faol bo'lib, sudxo'rlik va ichki-tashqi savdodan tashqari, zargarlik, tabobat, sartaroshlik, soatsozlik, "kabo'tgari"-matoni bo'yash, kamar to'qish kabi aynan shu "mayda-millat" vakillari shug'illangan hunarmandchilik turlari bilan mashg'ul bo'lishgan. XX asrning boshlarida paxta hamda manifaktura mahsulotlari tashqi savdosi bilan ham shug'illana boshlagan yahudiylarning yirik mulkdor qatlami shakllangan. Sven Gedin, YUjin Skayler, Ole Olufsen, S.M.Prokudin-Gorskiy kabi shu davr sayyohlarining boy yahudiylarning hovlilari va turmush tarzi haqidagi qoldirgan ma'lumot hamda olgan suratlari keng tarqalgan. Diniy amallar yopiq yahudiy jamoasi ichida muntazam va qat'iy tartibda amalga oshirilib kelingan. Ular ibodatlari va diniy bayramlarini amirlikdagi cheklovlarga amal qilgan holda amalga oshirishgan. Jumladan, besh yuz yil oldin tiklangan shahardagi sinagogalarida Peysax va SHavvot bayramlarini nishonlayotganlari, ravvinning uyida juda ko'plab Tora kitoblari bo'lganligini ko'rgan, bunday sinagoga Qarshi bekligida ham bo'lganligini Genri Lansdel yozgan³. Buxoro amirligida umumiy 8 ta kanesso⁴ (sinagoga) bo'lgan. Buxoro yahudiylari haqida umumiy qilib, ular tarixan uzoq davr davomida Eron, Mashhad, Bobil, Isroil kabi hududlardan kelib assimlyasiyalashgan hamda XIX asrda turli din va millatlar bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlarda buxoroliklarniki kabi tili, yashash tarzi, urf-odatlariga ega, ammo dinigina boshqa bo'lgan o'ziga xos etno-madaniyatni shakllantirib ulgurgan subetnos edi.

Hinduiylik. Markaziy Osiyoda, xususan, Buxoro hududlarida hindlar va ularning e'tiqodi tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib taqaladi. SHuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ham hinduiylik amirlikdagi yirik konfessiyalardan biri edi. Hindlarning Buxorodagi munosabatlari eng avvalo iqtisodiy-savdo aloqalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ijtimoiy-diniy va madaniy munosabatlar shuning asnosida taraqqiy etgan. Buxoro amirligida Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlar hukmronligi davrida tashqi savdo rivojlangan bo'lib, Buxoro shahri juda muhim markaz sifatida ahamiyat kasb etgan⁵. Buxorodan Hindiston shaharlariga katta miqdorda zardo'zi mahsulotlari, ipak, shoyi, ro'mol, choyshab, dasturxonlar olib ketilgan bo'lsa, Hind yerlaridan indigo, bo'yoqlar, ziravor, ipak, shoyi matolar, choy, idish-tovoq va ingliz manufakturasi kiritilgan⁶.

Hindlar istiqomat qilgan Saroy Qarshi, Saroy Hindi (Filxona), Saroy Kalon, Saroy Poyi Ostona kabi karvonsaroylar nafaqat ularning istiqomat maskanlari, shuning barobarida, madaniyat markazi, kutubxona, ibodatxona vazifalarini ham o'tagan⁷. Buxoroda hindlarning o'ziga xos "Iydi charog'oni" (Holi) bayram marosimi nishonlanib, mahalliy aholi vakillari ham ularni qutlashga kelib birga nishonlashgan⁸. Markaziy Osiyoda yagona hind kutubxonasi ham Buxoro shahrida bo'lgan bo'lib, Buxoro amirligi qushbegisi hujjatlari fondida uning uchta xodimi bo'lganligi qayd etilgan⁹. Ular karvonsaroylardagi o'z xonalari ichidagi sun'iy ibodat burchaklari yoki

¹ Кaгaнoвич A. Дpузья пoнeвoлe: Poccия и бyxapckиe eвpeи, 1800—1917. –Mocквa: НЛЮ, 2016. –C.15.

² Ochildiev D. A History of the Bukharan Jews. – Mir Collection Publishing House, USA, 2005. –P. 188.

³ Lansdell Henry. Russian central Asia: including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. –London: Sampson Low, Vol. 2, 1885. –P. 48.

⁴ Канессо- бухоролик яхудийлар синагогани шундай аташган, ибодат уйи.

⁵ Ostonov O. The crafts, entrepreneurship and commerce in the Central Asia in the late XIX and early XX centuries (with the example of Zarafshon oasis). –Lambert academic publishing, 2020. –P. 31.

⁶ Morgan G. Anglo-Russian Rivalry in Central Asia.1811-1895. –London, 1981. –P. 24; Scott C. Levi, Ron Sela. Islamic Central Asia an Anthology of Historical Sources. –USA, Indiana University Press, 2010. –P. 111-115.

⁷ Сухарева О.А. Бухара XIX-начало XX в.–Москва.Наука, 1966. –С.59-61.

⁸ Дмитриев Г.Л. Из истории индийских колоний в Средней Азии (вторая половина XIX - начало XX в.) / Страны и народы Востока. Вып.ХII. Индия - страна и народ. Кн.2. –М., 1972. –С. 247.

⁹ Ўзбекистон миллий архиви, И-126, 1-рўйхат, 93-иш.

ibodatxonalarida diniy amallar hamda marosimlarini (juzya solig'ini to'lash orqali) davom ettirib kelishgan¹. Chunki Buxoroda hindlarning alohida ibodatxonalari bo'lmagan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro amirligidagi hindlarga islomni qabul qilgani yoki juzya to'lagani holda yashashiga ruhsat berilgan bo'lishiga qaramasdan, rus mustamlakachilari tomonidan "britan hukumati josuslari" sifatida ta'qibga olinishi va amirlikdagi siyosiy o'zgarishlar sabab XX asrning boshlariga kelib avval Turkiston general-gubernatorligi, so'ngra Buxoro va Xiva xonliklarini tark etishlariga to'g'ri kelgan. SHunga qaramasdan bu yerda juda kam sonli hindlar qolgan, buxoroliklar "mo'ltoni" deydigan lo'lilar aslida ularning avlodlaridir. SHunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi hindlar islom (xo'jalar kastasi), hinduiylik va kam sonli pravoslav xristianlik dinlariga e'tiqod qilishgan. Amirlikda hinduiylikning shivaizm va vishnuizm kabi yo'nalishlari (bxatiya, baniya, loxana, kxatri, boxra, kulli kastalari), sikxiylik, jayniylik kabi oqimlari vakillari yashashgan. Ammo XX asrning boshlariga kelib hinduiylik e'tiqodiga chek qo'yilgach, bu dinga e'tiqod qilmaydigan kam sonli hindlar yashab qolishgan.

Xristianlik. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro amirligi rus protektoratiga aylanishi bilan bu yerga pravoslav xristianligi ham kirib keladi. SHuningdek, ularning ibodat uylari bo'lgan xristian cherkovlari ham bunyod etila boshlanadi. 1886 yildan YAngi CHorjo'y manzilining tiklanishi bilan Buxoroda rus posilenilari (manzilgohlari) tashkil etila boshlanadi. Rus siyosiy agenti CHARikovning amirdan rasman ruhsat olishi bilan Buxoroda 1888 yili YAngi Buxoro, so'ng 1889 yili YAngi Karki, 1894 yili esa Patta-Hisor (Termiz) kabi dastlabki yangi rus shaharlari yuzaga keladi. Zamonaviy tadqiqotlar va hujjatlar ularda yigirmadan ortiq millat vakillari ko'chirib keltirilganligini ko'rsatadi. Bu manzilgohlarda slavyan aholisi (rus, ukrain, belorus), kavkazliklar (arman, gruzin, osetin, ozarbayjon va h.k.), SHarq mamlakatlaridan kelgan (Afg'oniston, Turkiya, Hindiston, Eron va h.k.) millatlar, nemis-mennonentlari, hatto, Boltiqbo'yi millatlari (litov, eston, latish), Birinchi jahon urushi davrida keltirilgan sobiq asirlari (nemis, avstriys, chex, polyak, slavyan, rumin, venger kabilar), mahalliy aholi vakillari (o'zbek, tojik, qirg'iz va qozoq) kabi millatlar yashaganlar². Ular islom (suniy, shia), yahudiy (Buxoro yahudiylari, ashkinazlar, sefaradi), hinduiylik va xristianlik (starover, baptist, minnonet, molokan, orlan, arman apostol, grigorian) dinlari vakillari edilar. Buxoro zaminidagi birinchi cherkov pravoslav xristianlik konfessiyasiga tegishli 1888 yilda YAngi CHorjo'y shahrida³, undan so'ng esa 1892 yilda YAngi Buxoroda doimiy bino sifatida qad rostlagan⁴. Keyinchalik Karki, Termiz shaharlarida, boshqa rus qishloq va harbiylar manzilgohlarida ham ibodat uylari (xram), boshqa cherkovlar qurilishi XX asrning boshlarida ham davom etgan. Ibodat uylari rus hukumati va savdogarlari homiyligi mablag'lari hisobidan, musulmon aholidan olingan qurilish materiallaridan tiklangan. Markaziy Osiyoga rus imperiyasi hukmronligi davriga kelib xristian dinining pravoslav, protestant va kam sonli katolik yo'nalishlari vakillari turli sabablarga ko'ra ko'chirib keltirgan bo'lsalarda, Buxoroda dastlabki ikki yo'nalishi vakillarining konfessiyalari yashab kelishgan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga Buxoro amirligida yahudiylik, hinduiylik, xristianlik kabi turli din va ularning konfessiyalari vakillari islom "qubbasi" ostida yashab kelayotgan edilar. Bu erda turli millat va din vakillari birgalikda yashagan tarixiy-madaniy jarayonlarda o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy aloqalar, subetnoslar, identiklik va turli etno-madaniyatlar taraqqiy etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devin DeWeese. 'Dis-ordering' Sufizm in early modern Central Asia: suggestions for rethinking the sources and social structures of Sufi history in the 18th and 19th centuries // History and Culture of Central Asia.

¹ Eugene Schyler. Turkistan: Notes of journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. –Vol.1, NY, 1876. –P. 186.

² Файзиева Ф.И. Бухоро амирлигида рус манзилгоҳларидаги ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаёт (1868-1920 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дисс.автореферати. –Бухоро, 2022. –Б.32.

³ Ўзбекистон Миллий Архиви, И-961-фонд, 1-Рўйхат, 1081-иш, 582-варақ.

⁴ Ўзбекистон Миллий Архиви, И-961- фонд, 1-Рўйхат, 1034-иш, 445-446 варақлар.

2. Eugene Schyler. Turkistan: Notes of journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. –Vol.1, NY, 1876.
3. Itzhak Weismann. The Naqshbandiyya. Orthodoxy and activism in a worldwide Sufi tradition. –NY, Routledge, 2007.
4. Karimov E., Poujol C. The Jews of Bukhara: the End of a Doubly Minority Space-Time (1897-1918) // Revue des mondes musulmans et de la Méditerranée, n° 107-110 – Identités confessionnelles et espace urbain, septembre 2005. (in French).
5. Kimura Satori. Sunni-Shi’I relations in Russian protectorate of Bukhara, as perceived by the local ‘ulama’ // Asiatic Russia: imperial power in regional and international contexts.-London, Routledge, 2011.
6. Lansdell Henry. Russian central Asia: including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. –London: Sampson Low, Vol. 2, 1885.
7. Morgan G. Anglo-Russian Rivalry in Central Asia.1811-1895. –London, 1981.
8. Ochildiev D. A History of the Bukharan Jews. – Mir Collection Publishing House, USA, 2005.
9. Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. –Gyldendal, Nordisk forlag.Copenhagen,1911.
10. Ostonov O. The crafts, entrepreneurship and commerce in the Central Asia in the late XIX and early XX centuries (with the example of Zarafshon oasis). –Lambert academic publishing, 2020.
11. Şadr al-Dīn ‘Aynī. BUKHĀRĀ INQILĀBĪNING TA’RĪKHĪ. Shimada Shizou va Sharifa Tosheva (Tokyo: Department of Islamic Area Studies, Center for evolving humanities. The University of Tokio. 2010).
12. Scott C. Levi, Ron Sela. Islamic Central Asia an Anthology of Historical Sources. –USA, Indiana University Press, 2010. –P. 111-115.
13. Wennberg F. On the edge: the concept of progress in Bukhara during the rule of the Later Manghits. Uppsala: Uppsala Universitet, 2013.
14. Wolfgang Holzwarth. Community Elders and State Agents: Ībēgīs in the Emirate of Bukhara around 1900 // Eurasian Studies 9, no. 1–2 (2011).
15. Альмеев Р.В. История регистрации и деятельности в г. Бухаре второй общины и синагоги бухарских евреев (1989-1999 гг.) –Бухара, 2001.
16. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX — начале XX в. –Душанбе, 1972.
17. Аҳмад Дониш. Меъёр ут- тадаййун. –Тоҷикчага Девонакулов А., Зокиров Н.таржимаси. Душанбе, 2008.
18. Дмитриев Г.Л. Из истории индийских колоний в Средней Азии (вторая половина XIX - начало XX в.) / Страны и народы Востока. Вып. XII. Индия - страна и народ. Кн.2. –Москва, 1972.
19. Каганович А. Друзья поневоле: Россия и бухарские евреи, 1800—1917. –Москва, 2016.
20. Каландаров Т.С. Шугнанцы. –Москва, 2004.
21. Mirzo Somiy. Mir’ot al-yaqin. Buxoro viloyati davlat kutubxonasi qo‘lyozmasi, № 70.
22. Очильдиев Д. История бухарских евреев. Книги I, II (с древних времен до середины XIX в). – USA, NY, 2001.
23. Rahimov K. Mavorounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotlarning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). –Т.: “Akademnashr”, 2020.
24. Семёнов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средне вековой Бухаре // Советское востоковедение, Т.V., 1948.
25. Сухарева О.А. Бухара XIX-начало XX в.–Москва: Наука, 1966.
26. O‘zbekiston milliy arxivi, I-126, 1-ro‘yxat, 93-ish.
27. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-2-fond, 1-Ro‘yxat, 41-ish, 3-11 varaqlar.
28. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-961- fond, 1-ro‘yxat, 1034-ish, 445-446 varaqlar.
29. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-961-fond, 1-Ro‘yxat, 1081-ish, 582-varaq.
30. Fayzieva F.I. Buxoro amirligida rus manzilgohlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot (1868-1920 yu). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati. –Buxoro, 2022.
31. Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском Эмирате. –Ташкент, 1958.

O‘ZBEK TARIXINING NOMA’LUM SAHIFALARI (TARAQQIYPARVAR ABDURAUFI FITRAT MISOLIDA)

*Ahmadova Zebiniso Shavkatovna,
O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi
Buxoro viloyati kengashi bosh mutaxassisi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
telefon: (+998905122324)*



Jahonda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar har bir davlat, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar tarixini, bu munosabatlarning faol ishtirokchisi bo‘lgan, xalq va yurt manfaati uchun jon fido qilgan tarixiy shaxslar faoliyatini keng, chuqur tadqiq etish muhimligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy ozodlik uchun kurashlari va jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan taraqqiyparvar shaxslarning xizmatlarini xolis o‘rganish, e‘tirof etish, har bir xalqning o‘z ajdodlari milliy qiyofasini teran anglash masalasi bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Xususan, milliy ozodlik harakati ishtirokchilari va qo‘rboshilari, taraqqiyparvarlar, davlat va jamoat arboblarning ibratli hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati ajdodlar merosini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda, yangicha yondashuvda tadqiq etish, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va yangi jamiyat qurishda xalqimizning boy tarixi, madaniyati, an‘analarini va tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini, ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, jamiyatimizda faoliyat olib borgan ma‘rifatparvar, taraqqiyparvar shaxslarning ibratli hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini asl manbalar hamda zamon talablari asosida o‘rganish bugungi kun yoshlarining ustuvor vazifasidir. Aynan shu fikrimizni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 20-fevralda Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni xalq kutubxonasi tanzimida o‘tkazilgan marosimida so‘zlagan nutqidan ham bilish mumkin: “XX asr boshida jadid bobolarimiz vatanimiz mustaqilligi yo‘lida fidoyilik bilan kurashganlar. Bu borada ular Turkiyalik ma‘rifatparvarlar bilan faol hamkorlik qilganliklari, bu diyorda ta‘lim olib, yangi g‘oya va qarashlarga ega bo‘lganliklarini yaxshi bilamiz” deb ta‘kidlab, o‘sha yillar Turkiyada tahsil olgan vatandoshlarimiz Abdurauf Fitrat, Said Ahroriylarning Turkiyada ta‘lim olgan atoqli adib va arboblarning sifatida ta‘kidlab “Biz bu ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini qancha ko‘p o‘rgansak, bizni o‘ylantirayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz, biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma‘rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsad yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”¹. deya takidlagan edilar.

Darhaqiqat milliy o‘zligimizni anglashda XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma‘rifiy harakat sanalgan jadidchilik va uning Turkistondagi namoyandalarning faoliyatini o‘rganish bugungi kunda muhim sanaladi. Buxoro taraqqiyparvarlik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitratning g‘oyaviy qarashlari bunga misol bo‘ladi.

Fitrat ko‘plab asarlari va she‘rlari orqali jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qildi. Asarlarida jamiyatdagi illatlarni tanqid qilib, ulardan qutulish yo‘llarini ko‘rsatdi.

XX asrning o‘rtalaridan erkin fikrlash doirasi torayib bordi. Ziyolilarga, xususan, jadidlarga munosabat o‘zgara boshladi. O‘tmishning har bir hodisasiga sinfiy-siyosiy yondashish kuchaydi. Fanda, adabiyot-madaniyatda soxtakorlik, tarixni inqilob va yangi tuzum manfaatlariga moslab yasash tamoyili paydo bo‘ldi.

¹ Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабр куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабр.

Bu kabi soxta qadamlar 1937-yilning 23-apreldan 24-aprelga o'tar kechasi Abdurauf Fitrat qamoqqa olinishi bilan yanada yaqqol ko'zga tashlandi. O'zbek ma'rifatparvariga ayblovlar qo'yish 1921-yildan boshlangani har bir o'zbek farzandini qalbiga qayg'u soladi. Shu yili Boshqird hukumatining boshlig'i, iste'dodli tarixchi Ahmad Zaki Validiy, qozoq "Alash O'rda"sidan Og'aydarov, Turkistondan Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Xorazmdan Bekjon Rahmonov Buxoroga kelishdi. Bekjon Rahmonov Xorazmgga borishi bilan qamalishi ayon edi. Shuning uchun Buxoroda poyezddan tushirib qolishdi. Besh jumhuriyat bir ovozda markaz tuzishni taklif qildilar. Ahmad Zaki Validiy, Fayzulla Xo'jayev, Abduqodir Muhiddinov, Bekjon Rahmonov, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Musojon Saidjonov, Hoshim Shoyiq, Rahim Nosirov, A.Shomansurov, A.Rasulov, Kushbegiyev, S.Jo'raboyev va T.Risqulovlardan iborat markaz tuzildi. T.Risqulov xuddi shu paytlari Moskvada edi. Moskva bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish unga topshirilgan edi. Asosiy maqsad – mustaqil Turk respublika – tili va dini, urf-udumi va turmush tarzi tarixan bir kelgan turkiy xalqlarning madaniy-adabiygina emas, davlat, hokimiyat birligiga ham erishish edi. Turk respublika g'oyasi bilan chiqqan barcha milliy rahbarlar esa 1929, 1931 va nihoyat 1937-yillarda qamoqqa olindi. Ular ichida Abdurauf Fitrat ham bor edi. Abdurauf Fitratga qo'yilgan ilk ayblov uning milliy mustaqil davlat tuzish borasidagi harakatlar va uning asoschilari bilan o'zaro aloqada bo'lgani edi¹.

Fitrat 1937-yil 24-aprelda O'zbekiston prokurorining ruxsati bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi 4-bo'limining boshlig'i DX leytenanti Og'abekov tomonidan hibsga olinib, unga quyidagi ayblar qo'yilgan:

a) Aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti "Milliy ittihad"ning a'zosi;

b) Cho'bonzoda bosh Ozarbayjondagi aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi respublikalarini Sovet Ittifoqidan ajratib, burjua Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan O'zbekistondagi aksilinqilobiy tashkilotning rahbarlaridan biri;

v) yosh adabiy xodimlarni aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga jalb qilgan, ularni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalagan;

g) aksilinqilobiy millatchilik ruhida asarlar, poemalar yozgan².

1937-yil 24-aprel kuni Og'abekovning o'rinbosari DX kichik leytenanti Mavrin 417-raqamli orderga asosan tintuv o'tkazadi. Tintuvga mahalla komissiyasining raisi Risqi Hojiyev, qo'shnilaridan Ibodulla Odilov taklif qilinganlar. Tintuv hujjati Mavrin tomonidan to'ldirilgan. Uydan Fitratning pasporti (№ 184671 YUJ), ilmiy xodimlik bileti (№ 10256), fotoqo'lyozma, pyesa qo'lyozmasi, uch dona kitob, 59 varaq har xil yozishmalar, bir dona ochilmagan konvert, bir dona ochilgan, ichida uch varaqlik xati bor konvert, ikkita yon daftar, ov miltig'ining 10 dona patroni olingani qayd etilgan. Qatnashchilarning imzolari bor³.

1935-yil 5-maydagi "Hujjatlar"da ham DX xodimlaridan Og'abekov va Matveyev 354-son order bilan Fitratning uyida tintuv o'tkazganliklari ma'lum. Xodimlar Fitrat nomiga Afg'onistondan yuborilgan "Taqqim" bilan qiziqqanlar. Hujjat qoidasi bilan rasmiylashtirilgan. Ishtirokchilarning imzolari bor. Protokolning bir nusxasi Fitratga tilxat bilan topshirilgan. Tergov tugagach, olingan narsalarning ish uchun ahamiyati qolmagan buyumlar sifatida yo'q qilinganligi haqida tuzilgan akt bor. 1930-yillari Otajon Hoshim Fan komitetining kutubxonasi uchun Fitratdan 28 ming so'mlik kitob xarid qilgani haqida ko'rsatma bergan⁴. Ammo bu kitoblar ro'yxati haqida ham, taqdiri haqida ham ma'lumot saqlanib qolmagan.

1937-yil oktabrida 4-bo'lim boshlig'ining yordamchisi DX kichik leytenanti Mavrin Fitrat "yetakchilaridan bo'lgan aksilinqilobiy tashkilot"ning Otajon Hoshimov, Anqaboy Xudoybaxtov, Usmon Nosirov, Sanjar Siddiqov kabi "vakillari" yoniga yana yangilari "fosh etilib" qo'shilayotgani, "tashkilot"ning "chet mamlakatlar bilan aloqasi, josuslik ishlari" "ochilayotganligi"ni ko'zda tutib, 4269-raqamli ish bo'yicha tergov muddatini yana bir oyga – 1937-yilning 7-dekabrigacha uzaytirish haqida SSSR MIKdan O'zSSR prokurori orqali so'rov-

¹ ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 52, 62-варақлар.

² ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 10-варақ.

³ ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 23-варақ.

⁴ ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 34-варақ.

qaror qabul qiladi. So‘rov-qarorni 4-bo‘lim boshlig‘i Og‘abekov ma‘qullagan. Respublika prokurorining maxsus ishlar bo‘yicha bosh yordamchisi Kuxarenko, IIXK yordamchisi DX mayori Leonov uni tasdiqlaydilar. Shu asosda, shu yo‘nalishda tergov davom ettiriladi. 1937-yilning 30-noyabrda DX leytenanti Trig‘ulov Fitrat ishi yuzasidan qo‘shimcha tergov asosida qaror – aybnoma tayyorlaydi. U endi Fayzulla Xo‘jayev ko‘rsatmasiga suyanib, Sovet hukumatini kuch bilan ag‘darib tashlash maqsadida Angliyaning Afg‘oniston va Erondagi vakillari bilan yashirin harbiy-siyosiy shartnomalar tuzganlikda, bosmachilikni tashkil qilganlikda, Turkiyadan Anvar poshoni boshlab kelganlikda, fashistlar Germaniyasining josuslik tashkilotlari bilan, chet ellarga ketgan muhojirlar bilan aloqadorlikda ayblanadi¹.

1937-yilning 4-dekabrda qo‘shimcha tergov ham tugaydi. Bu haqda ayblanuvchi xabardor qilinadi. Trig‘ulov buni protokollashtirib, Fitratga qo‘l ham qo‘ydiradi. Oradan besh oycha vaqt o‘tadi. Va yana 1938-yilning 20-mayidan yangi tergov boshlanadi. Bu gal DXQning katta leytenanti Kuposov va Trig‘ulov Abdurauf Fitratni tergov qiladilar. U 1918-yildan buyon inglizlar foydasiga josuslik qilib kelganlikda ayblanadi.

1937-yil 16-dekabrda DX leytenantlari Trig‘ulov va Matveyev Fitrat ishi yuzasidan qaror-aybnoma tayyorlaydilar. Fitrat ayblari yoniga O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining vatanga xiyonat qilganlik haqidagi 57-moddasi (1-punkt) – u “bosh bo‘lgan aksilinqilobiy tashkilot”ning troskiychilar bilan hamkorlikda ish olib borgani, “O‘zbekistonda german razvedkasining rezidensiyasini boshqargani” qo‘shiladi.

1938-yil 4-oktabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi Fitrat ishini brigvoyenyurist Alekseyev raisligida, brigvoyenyurist Zaysev, 1-darajali harbiy yuristlar Boldirev, Batner, Gep Shuls Ani ishtirokidagi ko‘chma sessiyasida ko‘rib chiqdi. Ish haqida prokuror o‘rinbosari Gep Shuls Ani axborot beradi. Sessiya 4 punktluk ajrim chiqargan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. Ayblov qaroriga qo‘shilish va ishni SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan amalga oshirish uchun qabul qilib olish;
2. Fitratni O‘zSSR JKning 57-1, 64, 67-moddalariga muvofiq sud qilish;
3. SSSR MIKning 1934-yil 1-dekabr qaroriga muvofiq ishni sudning yopiq majlisida oqlov-qoralovsiz, guvohlarsiz o‘tkazish;
4. Ayblanuvchini ehtimol chorasiga ko‘ra sudga qadar qamoqda ushlab turish².

O‘zbekning buyuk ziyolisi taqdiri yopiq harbiy sudda 15 daqiqa ichida hal qilingan. Millat ziyolisi o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Adibning qizi (Fitrat uni o‘z familiyasiga o‘tkazib, sevimli farzandi sifatida tarbiyalay boshlagan) Sevara Karomatillaxo‘jayeva o‘sha dahshatli yillarni yodlab, bunday yozgan edi: “Kunlarning birida besh-oltita shapka kiygan, shinelli odamlar bostirib kirdi. Ular so‘kinib, do‘q-po‘pisalar bilan uyimizni ag‘dar-to‘ntar qildi, keyin otamni oldilariga solib olib chiqib ketdi. Men va onam zor-zor yig‘lab qolaverdik. Shundan so‘ng otamni boshqa ko‘rmadim. Oradan to‘rt oy o‘tgach, onamni ham qamadilar. Meni esa Qumloqdagi bolalar uyiga topshirdilar...”³.

Sevara Karomatillaxo‘jayevaning tasvirlashiga ko‘ra, Guliston ko‘chasidagi uy-joy qo‘sh darvozali, ichkari-tashqarili, sahnalari keng, uylari peshayvonli, yorug‘ va bahavo, to‘rt tarafi turfa gullarga g‘arq bo‘lgan uy bo‘lgan⁴.

Taraqqiyparvar nomi uning ayoli Hikmatoy Fitratova tomonidan 1956-yili Abdurauf Fitratning taqdiri haqida so‘rab, SSSR Oliy sudiga murojaat qilan kundan oqlana boshladi. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi raisining o‘rinbosari, adliya polkovnigi V.Borisoglebskiy imzosi O‘zSSR IIM milisiya boshqarmasiga, ikkinchisi 1-maxsus bo‘lim boshlig‘iga yuborilgan “maxfiy” xatda shunday ma‘lumot beriladi:

“Ma‘lum qilamanki, 1886-yilda tug‘ilgan R.R.Fitrat SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan 1938-yil 15-oktabrda sudlangan va jazoni o‘tash paytida 1944-yil 3-noyabrda vafot

¹ ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 48-варақ.

² ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 56-варақ.

³ Кароматуллахўжаева С. Отам ҳақида // “Тафаккур” журнали. 1996. №2. – Б.15.

⁴ Кароматуллахўжаева С. Ота руҳи мададкор // “Қишлоқ ҳақиқати” газетаси. 1993 йил 29 июл.

etgan”¹.

Bu ma’lumot xato bo’lib, Fitratning o’lim jazosiga hukm qilinganligini yashirish uchun maxsus maxfiy ko’rsatma bilan uning o’limi sanasi boshqa yil qilib ko’rsatilgan.

SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi o’zining 1957-yil 1-avgustdagi majlisida Fitrat ishi yuzasidan SSSR Bosh prokurori xulosasini ko’rib chiqqan va ajrim chiqargan. Ajrimda Fitratning “hech qanday jinoyat qilmagan”ligi “aniqlanib”, unga nisbatan chiqarilgan 1938-yil 5-oktabrdagi hukm “bekor qilingan” va “ish to’xtatilgan”. Majlis raisi adliya polkovnigi P.Lixachev O’zbekiston DXQ hisob-arxiv bo’limi boshlig’iga Fitrat ishi bo’yicha oqlov majlisining 1957-yil 1-avgust qarorini bajarish uchun “maxfiy” xat yo’llagan. 1957-yilning 10-noyabrda Fitratning turmush o’rtog’i Hikmatoyga oqlov xabari yetkazilgan².

Shunday qilib, o’z kelajagidan, mustamlakalaridan ayrilib qolishidan xavfsiragan sovet hukumati o’n minglab millat oydinlari qatorida Abdurauf Fitratni ham qatag’on qildi, milliy ozodlik harakatining g’oyaviy kurashchisini “xalq dushmani” sifatida ko’rsatib, o’zbek xalqi buyuk farzandini unutishga majbur etildi, bu unutilish bu qatag’on o’zbek tarixni, millat ruhini sindira olmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O’zbekiston Respublikasi prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so’zi” gazetasi. 2022 yil 21 dekabr.
- 2.Karomatullaxo’jaeva S. Otam haqida // “Tafakkur” jurnali. 1996. №2. – B.15.
- 3.Karomatullaxo’jaeva S. Ota ruhi madadkor // “Qishloq haqiqati” gazetasi. 1993 yil 29 iyul.
- 4.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi, P-22934, 1-tom, 48-varaq.
- 5.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi, P-22934, 1-tom, 56-varaq.
- 6.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi, P-22934, 1-tom, 78-varaq.
- 7.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi. P-22934, 1-tom, 52, 62-varaqlar.
- 8.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi, P-22934, 1-tom, 10-varaq.
- 9.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi, P-22934, 1-tom, 23-varaq.
- 10.O’zR FA Tarix instituti joriy arxivi, P-22934, 1-tom, 34-varaq.

¹ ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 78-варақ.

² ЎзР ФА Тарих институти жорий архиви, П-22934, 1-том, 78-варақ.

O‘ZBEKISTON DAVLATI SIYOSATIDA TARIXIY TADQIQOTLARNI AMALGA OSHIRISH MASALALARINING TUTGAN O‘RNI

*Hamidov Baxtiyor Ilyasovich,
IIV Buxoro akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi*



So‘nggi yillarda tarix fanida kechgan chuqur ichki transformatsiya jarayoni fanning nazariy-metodologik, konseptual, mazmuniy, strukturaviy o‘zgarishlarida aks etdi. Yangi konseptual g‘oyalar ta‘sirida ko‘pgina mavzular yangicha mushohada qilina boshlandi. Haqqoniy talqini va tahliliga muhtoj bo‘lgan mavzular tarixchilar diqqat markazidan joy oldi va bugungi kunga qadar ba‘zi konseptual jihatlari haqida kat’iy bir xulosaga kelishda bu jarayon davom etmoqda. Sobiq ittifoq davrida o‘rganish ta‘qiqlangan, noto‘g‘ri talqin etilgan mavzular ilmiylik, xolislik asosida – milliy mustaqillik nuqtai nazaridan qaytadan o‘rganildi. Tarixiy tadqiqotlar ko‘lami kengayib, yangi ilmiy yo‘nalishlar vujudga keldi. Ayniqsa, Vatanimiz tarixini o‘qitish masalalariga bo‘lgan talab va e‘tibor har qachongidan kuchaydi. Chunki boy o‘tmish tarximizni bilish, biz kecha kim edig-u, bugun kim bo‘ldik, mustaqillikka qadar xalqimiz boshidan kechirgan kunlar va ulardan chiqariladigan saboqlar haqida butun xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz mukammal bilishlari lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1998 yil iyun oyida bir guruh tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda ular oldiga xalqimiz va Vatanimiz tarixini yangi nazariy-metodologik asoslarda o‘rganishni va tadqiq etishni, uni haqqoniy, xolislik asosida hamda hamda yangicha g‘oyaviy ruhda tadqiq etish vazifasini qo‘ygan edilar. Buning yaqqol isboti sifatida 1998 yil iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zR FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori tarix fanini chuqur, xolislik asosida o‘rganishda muhim huquqiy va ilmiy-nazariy asos bo‘ldi. SHu ma’noda, keyingi yillarda o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini haqqoniy, xolis o‘rganish masalasida tarixiy-ma’naviy merosimizga tayangan holda, mamlakatimizda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotganligi, darslik va qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy asarlar yozilayotganligi bunga misoldir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2015 yilning 12 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig‘ilishida so‘zlagan nutqida yana bir bor madaniy merosimiz va o‘tmish tarximizni o‘rganish masalalari, xususan, ta‘lim muassasalarida Vatanimiz tarixi, uning eng yangi davrlarini o‘rganish va o‘qitishning ahvoli bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirib, “Mustabid tuzumdan bizga qanday og‘ir, qanday nochor meros qolgani, xalqimiz qancha azob-uqubatlar tortganini hech qachon unutmasligimiz kerak, “paxta ishi” degan uydirma va bo‘htonlar, markazdan yuborilgan, o‘zini “desantchilar” deb atagan yovuz kuchlarning qonunni, adolatni, xalqimizning sha’ni va g‘ururini oyoqosti qilib amalga oshirgan kirdikorlari haqidagi bor haqiqatni to‘la ochib berish lozim. Unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozim. Maktablarimizda, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarimizda ayni shu mavzularni xolis va haqqoniy yoritib berishga yanada ko‘proq e‘tibor qaratishimiz kerak. SHuni esda tutish kerakki, tarixni unutgan xalq, jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo‘q” deya ta’kidlab o‘tdi¹.

Islom Karimov o‘z ma’ruzalarida tarix fanining jamiyatda, ayniqsa yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va roli, mustaqillik arafasida respublikadagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holat, sobiq ittifoq davridagi qizil imperiyaning mustabid siyosati, markazning milliy respublikalarga nisbatan olib borgan bir tomonlama siyosati va uning qanday oqibatlarga olib kelganligini ko‘rsatib o‘tdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan 2015 yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov belgilab bergan mazkur masalaning ijrosiga qaratilgan konferensiya tashkil etildi. Konferensiyada

¹ Халқ сўзи. 2015 йил 14 январь

respublikamizning ko'zga ko'ringan tarixchi olimlari, ta'lim tizimiga mas'ul bo'lgan vazirlik va idoralar vakillari, yurtimiz ziyolilari ishtirok etib, Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan dolzarb vazifalarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan aniq fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 14 yanvar kuni mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldiga yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish maqsadida chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi¹.

O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etishda eng avvalo, birlamchi manbalarni ob'ektiv o'rganish, tarixiy ma'lumotlarni xolis va haqqoniy tadqiq etish, tarixiy jarayonlarga baho berishda zamonaviy ilmiy nazariy metodlardan foydalanish, xalqaro talablarga mos keladigan ilmiy tadqiqotlarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlar mustaqillik davrini davriy jihatdan ham, soha yo'nalishlari bo'yicha ham to'liq qamrab olishi zarur. Bugungi kungacha amalga oshirilgan O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha tadqiqotlarning asosiy qismi madaniy-ma'naviy hayotga, O'zbekistonning ayrim davlatlar bilan xalqaro aloqalariga oid ishlar tashkil qilganligini ko'rsatadi. Himoya qilingan tadqiqotlarning aksariyatida ayrim sohalar yoritilgan bo'lib, ularning ilmiy tahlili etarli darajada emas. Ularning ayrimlari faktologik yondashuv, statistik ma'lumotlarni keltirish, voqea-hodislarni bayon etish tashkil qiladi. Muammoni tanqidiy o'rganish va ilmiy muammoning yechimini topishga qaratilgan ilmiy xulosalar, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, amaliy taklif va tavsiyalar mukammal emas.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan O'zbekiston tarixi fani darsliklarining mazmuni, sifati, o'qitilish holati, mazkur darsliklarda olis va yaqin tariximizning yoritilishi, mustaqillikni qo'lga kiritish arafasidagi jarayonlar, bugungi kun qahramonlari va ularni darsliklarda qanday yoritib berilayotgani, tarix faniga ajratilgan dars soatlari, shuningdek, Vatanimiz tarixi fanidan mashg'ulotlar olib borayotgan o'qituvchilar salohiyati, bilimi, ilmiy tadqiqotlarning holati kabi bir qator muhim masalalar yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin.

Birinchidan, mamlakatimiz ta'lim tizimida o'qitilayotgan tarix va birinchi blok fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, dasturlari, darsliklari, o'quv qo'llanmalari mazmun-mohiyatiga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan fikr-mulohazalarni, milliy g'oya, mustaqillik mafkurasi tamoyillarini singdirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarni o'rganish, o'qitish va ular bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni olib borish samaradorligini oshirish, ularning mazmun-mohiyatini O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb va kam o'rganilgan yo'nalishlarga, jumladan, kundalik turmush tarixi, fanlararo tadqiqotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, mintaqaviy havfsizlik masalalariga qaratish lozim.

Uchinchidan, ta'lim tizimida, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun elektron va multimediyali dasturlarni o'z ichiga qamrab oluvchi darsliklar va o'quv majmualar yangi avlodini yaratish, ularga bo'lgan ehtiyojni to'liq qoplashga erishish hamda oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis yo'nalishlarida o'qitiladigan O'zbekiston tarixi fani bo'yicha dars soatlari hajmini ko'paytirish lozim.

To'rtinchidan, tarix bo'yicha fan va ta'lim itegratsiyasini rivojlantirish, joylarda o'quv-laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil etish, mustaqillik yillarida iqtisodiy, ijtimoiy sohada olib borilgan, O'zbekistonda tinchlik va barqarorlik, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosatning ahamiyatini ko'rsatib beradigan va uni boshqalarga

¹ Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. "O'zbekiston". T.: 2017 y. 104 b.

oʻrnak sifatida namoyon qila oladigan chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlarni yaratish zarur.

Beshinchidan, mamlakatimiz ziyolilari, tarixchi olimlari, yozuvchilar, kino va teatr arboblari oʻrtasidagi oʻzaro ijodiy hamkorlikni rivojlantirib, boy olis va yaqin tariximiz aks etgan tarixiy asarlar, kino va spektakllar yaratish, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish mexanizmini yoʻlga qoʻyish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Mirziyoyev SH.M. YAngi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yoʻlini qatʼiy davom ettiramiz // YAngi saylangan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalari qoʻshma majlisidagi nutqi. www.president.uz/uz/lists/view/4743.
2. Mirziyoyev SH.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.–Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 29.12.2020.–52 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, doʻstona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir.– Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2018.–64 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.– Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017.–488 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlish kerak. Mamlakatimizni 2016 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yakunlari va 2017 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi kengaytirilgan yigʻilishdagi maʼruzasi, 2017 yil 14 yanvar, “Oʻzbekiston”. T.: 2017 y. 104 b.
6. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalari qoʻshma majlisidagi nutqi, “Oʻzbekiston”. T.: 2016 y. 56 b.
17. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. -Toshkent: «Uzbekiston» NMIU, 4-jild, 2020. - 452 b.

ISMOIL SOMONIY MAQBARASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Maxmud Hasanov

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti tyutori



Buxoroning moddiy va ma'naviy boy tarixi o'tmishning barcha bosqichlarida muarrixlarni o'ziga maftun qilib kelgan. Ayniqsa, o'rta asrlarda Buxoro shahri va uning atrofida bunyod etilgan tarixiy betakror obidalar, ularning musulmon dunyosidagi o'rni va roli beqiyos ekanligi isbot talab qilmaydi.

X-XII asrlarda Buxoro nafaqat Sharqda, qolaversa, butun dunyoda ilm va madaniyatning ulug' bir maskaniga aylangan. Buxoro "qubbatul islom", ya'ni "islom dinining gumbazi" va buyuk ulamolalar so'zi bilan aytganda "quvvati dini islom" deb tan olinishi ham Buxoroning jahonda, bugungi Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo'tabar markazlaridan biri bo'lishidan e'tirofdir. Ayni ushbu asrlarda iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, somoniylar va qoraxoniylar davri hukmdorlarining olimu fuzalolarga homiylik qilishi, ular tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlarga hadya va sovg'alar berilishi madaniyat rivojiga keng yo'l ochgan. Nafaqat Buxoroda, qolaversa, musulmon dunyosining turli mamlakatlarida olimlik rutbasiga erishgan ilmi va ilmparvar kishilar Buxoro hukmdorlari himmatidan bahramand bo'lishgan. Bugungi kunda o'zining qurilish san'ati va betakror jamoli bilan ming-minglab sayyohlarni o'ziga jalb qilayotgan Buxoro hukmdorlari qarorgohi- Ark, Ismoil Somoniy maqbarasi, Minori Kalon kabilar yuqorida qayd qilingan asrlarning me'moriy gultojilaridir. Shuning uchun moddiy va ma'naviy tariximiz haqida yurtdoshlarimizdan qaysi biri biror-bir kalom aytishga jazm qilar ekan, o'z ona yurti tarixiy osori-atiqalari haqidagi fikrlarni marjon shodalaridek oq qog'ozga tushirar ekan, mo'jizakor obidalar qurilish san'ati, tarixi, musulmon va Sharq me'morchiligidagi mavqei haqida faxr va ehtiros bilan yozadi.

Jumladan, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillari(1920-1924)da matbuot xodimlari safida faoliyat olib borgan, "birinchi muharrir" nomi bilan tarixga kirgan Mahmud Said Ahroriy ham "Ismoil Somoniyning sag'anasi (X asr yodgorligi)" nomli salmoqli maqolani yozgan. Maqolada: "Ismoilning (hukmronlik yillari: 874-907) buyrug'i bilan juda yaxshi ziynatlangan muhtasham, shohona bino soling'ondur, tarixning guvohligiga ko'ra, bu joy chiroyli bog'lar, ko'rkam hovuzlar, gulzor va fontanlar hamda doimo oqib turg'on ariqlar bilan qurshalg'on bo'lib, juda jozibali koshona bo'lg'ondur",- deb yozadi muallif.

Said Ahroriy Ismoil Somoniyning xo'jalik va obodonchilik sohasidagi xayrli ishlarini birma-bir sanab chiqadi. Sun'iy sug'orish sohasiga alohida e'tibor qaratilganligi, shahar obodonchiligi yo'lida bog'u rog'lar barpo etilganligi, madrasalar, maschit va xonaqolar qurilganligi haqida g'urur bilan yozadi. "Biroq, - deydi muallif, - ularning ko'pchiliklari zamonlar o'tishi bilan tarix qa'rig'a ketdi. Birdan-bir o'sha davr yodgorligi Somoniy sag'anasi hozirg'acha yo'qolmag'an bir atiqadur. U qimmatli nazar diqqatlarni jalb etg'on, arab va fors me'morchilig'ining qo'shilishidan paydo bo'lg'on bir usul kabi ko'rinsada, butunlay boshqacha bir ko'rinish arz etadur". Bu obida haqida yozar ekan, Said Ahroriy bunday me'morchilik san'ati usuli betakror ekanligi, o'ziga xosligi, bino oddiy bo'lib ko'rinsada, g'ishtlari juda san'atkorona, to'g'ri, tekis va zalvorli terilganligi bilan ajralib turishiga e'tiborni qaratadi. O'rta asrlarda pishiq g'ishtdan binolar barpo etish an'anasi shakllanganligi, g'ishtlarning devordan bir qadar chiqib turishi, bu esa soyali chiziqlar hosil qilishi barobarida tamoman o'zgacha latif bir shakl berishini sinchkovlik bilan ilg'ay olgan.

Maqola matni bilan tanishar ekanmiz, S.Ahroriy Somoniy maqbarasining qurilish usulini undan ikki asr keyin qurilgan Minorai Kalon bilan qiyosiy tahlil qiladi. "Ismoilning sag'anasig'a qarag'anda minorning g'ishtlari devoridan tashqarig'a juda oz chiqqondur. Ismoilning sag'anasida esa bu g'ishtlar juda ko'p ilgari chiqib, bundan hosil bo'lg'on soyali chiziqlar binog'a tamoman boshqacha bir shakl beradur", -deb yozadi muallif. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, minora "inqilob davri"da ko'p shikast ko'rgan. Shuning uchun Said Ahroriy Somoniylar maqbarasi Minori Kalonga

nisbatan yaxshiroq saqlanganligiga alohida urg'u beradi.

Somoniylar maqbarasi tarixning nodir me'moriy obidasi ekan, uning ko'rinishini saqlash, ko'zga yaqqol tashlanib turishiga erishish uchun obidaning latofatini yanada jozibali qilib ko'rsatishga xizmat qiladigan tavsiyalarni ham maqola matnidan o'rin olganligi uning ilmiy qimmatini oshirgan. S.Ahroriy shaxsiy tavsiyalariga ko'ra, keyingi asrlarda maqbara oldida bunyod etilgan uy (bino)lardan biri tarixiy obidaning to'laligicha ko'zga tashlanishiga to'siq bo'lib qolganligi, o'sha imoratni ehtiyotkorlik bilan olish kerakligi qayd etiladi. "Shunda,- deb yozadi Said Ahroriy, - Ismoil sag'anasi ko'rar ko'zdan yashiring'on tarafi ochilib, butun nafosatini arz eta oladur". Ikkinchidan, asrlar davomida sag'ana qanchalik mustahkam qurilgan bo'lmasin, uning shikasta bo'lgan, sal nuragan joylarini ta'mir etish hamda zax qumlardan tozalash zarur deb ta'kidlaydi. Matbuotga maqola bilan chiqish orqali muallif buxoroliklarni umumxalq xashariga chorlaydi.

"Yana bir vazifa – binoni ozoda tutib qubbasining ustidagi laylak uyasi tezdin ko'tarilgan taqdirda osori-atiqamizga hurmat etilg'on bo'lur edi", –degan fikrlar bilan maqolaga so'nggi nuqta qo'yiladi.

Bundan bir asr muqaddam yozilgan S.Ahroriyning maqolasi Somoniylar maqbarasining o'sha davrdagi holati va ko'rinishi haqida ma'lumot berishi bilan qimmatli manbadir. Maqola matnining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, u 3 qismdan iborat.

Maqolaning birinchi qismida muallif I.Somoni yashagan tarixiy davr, hukmdorning moddiy va ma'naviy madaniyat rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, bunyodkorlik faoliyati haqida fikr bildiradi.

Ikkinchi qismida esa maqbaraning Buxoro tarixiy obidalar orasidagi beqiyos o'rni, qurilish uslubi va san'ati, bundan yuz yillar oldingi ahvoli haqida fikr va mushohada yuritiladi.

Nihoyat, maqola so'nggi qismida Somoniylar maqbarasini asrab-avaylash, butunligi va jozibadorligini saqlash haqida aniq tavsiyalar beriladi.

Afsuski, BXSr yillarida Buxorodagi Somoniylar maqbarasi singari tarixiy obidalar ta'mirlashdek qutlug' ishlar to'laligicha bajarilmadi. Keyinchalik, 1925 yilda maqbaraning gumbazi ta'mirlangan. V.Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan. 1937-1939 yillarda B.Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligida ta'mirlash ishlari olib borilgan.

Hozirda Somoniylar maqbarasi shahar madaniyat va istirohat bog'i hududida joylashgan bo'lib, xorijiy va mahalliy mehmonlar uchun ziyoratgoh hisoblanadi.

Istiqlol tufayli moddiy va ma'naviy boyliklarimiz xalqimizga qaytarildi. Tarixiy obidalar qadriyatlarimizning muhim bir bo'g'ini sifatida qaralib, Buxorodagi Ismoil Somoni maqbarasi va Minorai Kalon Butunjahon nodir obidalar ro'yxatiga kiritilganligi S.Ahroriy singari ajdodlarimizning orzu-umidlari amaliyot ko'zini ochganligi bilan bir asrlik tarixiy dovon orqali bizni bog'lab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. –Toshkent. "Akademnashr", 2017. -592 b .
- 2.Buxoro: tarix sahifalari. Maqolalar to'plami. –Buxoro: Buxoro, 1999. – 184 b.
- 3.Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi. /Fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar muallifi To'rayev H.. Buxoro, 2004
- 4.Said Ahroriy. Ismoil Somoniyni sag'anasi (X asr yodgorligi) // "Ozod Buxoro". 146-son. 1924 yil 27 sentyabr.
- 5.Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida (1920-1924 yillar). - T.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2012. – 176 bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. –Toshkent, 2002. -B. 248
- 7.Hayitov Sh. Birinchi muharrir // Buxoronomi. 2003 yil 10 sentyabr

Huquqiy tadqiqotlar yo'nalishi

YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLANISHI

Abdullayeva Umida Jabborovna
Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti
Yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs talabasi
Email: abdullayevau01@gmail.com



Annotatsiya: Hozirgi kunda butun dunyoda, shu jumladan, yurtimizda ham bolalar farovonligi, tinchligi va huquqlarini mustahkamlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur maqolada ulkan o'zgarishlar chorrahasida turgan O'zbekistonimizda bolaning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini chuqur his etgan holda, ularning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash tizimida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar haqida so'z boradi, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda keltirilgan kelajak avlod vakillari huquqlariga oid normalarni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bola, konvensiya, huquq, islohot, jamiyat, shaxs, davlat, Konstitutsiya, qonun, ota-ona, sog'lik, mehnat, ta'lim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni e'lon qilgach, bir qator xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi, xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qildi. Yurtimizda BMT Bosh Assemblyesi tomonida qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida" gi konvensiyaning 1992-yil 9-dekabrda qabul qilinishi esa jamiyatimizda bolalar huquq va erkinliklarining kafolatlanishida dastlabki ulkan qadam bo'ldi. Darvoqe, mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq ilk marotaba ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyaning aynan bolalarni asrash, huquq va erkinliklarini, farovonligini ta'minlash to'g'risida ekanligi, davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi, avvalombor, ertangi kun vakillarini barkamol va har tomonlama yetuk inson sifatida voyaga yetkazish ekanligini o'zida namoyon etadi.

So'nggi davr mobaynida yurtimizda inson-jamiyat-davlat tamoyili ilgari surilgan holda, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalarida keng miqyosda islohotlar amalga oshirildi. Albatta, amalga oshirilgan ishlar zamirida inson qadri, uning huquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlari oliy qadriyat sifatida ulug'lanar ekan, mamlakatning kelajagi hisoblanuvchi bolalarning huquqlari va himoyasi ham doimiy e'tibordadir.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq 18 yoshga to'lmagan har bir inson, agar u bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha emansipatsiya qilinmagan bo'lsa bola hisoblanadi. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun konvensiyada nazarda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishsiz hurmat qilish hamda shu huquqlarni ta'minlash uchun barcha zarur qonuniy, ma'muriy va boshqa choralarni ko'radilar[1]. Jumladan, yurtimizda ham bolalar huquq va erkinliklarining ta'minlanishi, ularning sifatli ta'lim olishi, toza va ekologik muhitda hayot kechirishi uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasligi kerak. Hammasi o'zimizning, O'zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko'rsatsak, ishga, ilmga, kasb-u hunarga ezgu fazilatlariga o'rgatsak, ularning foydasi o'zimizga, jamiyatimizga tegadi"[2].

Bola huquqlari to'g'risidagi normalar qator normativ-huquqiy hujjatlarda va eng asosiy qonunimiz Konstitutsiyamizda kafolatlangan. Yurtimizda shu yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda bu sohadagi normalar soni ortdi, mavjudlari esa takomillashtirildi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining 77-moddasiga binoan: "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar"[3]. Ahamiyatlisi shundaki, ilgari Konstitutsiyada faqat ota-onalar o'z

farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, degan norma keltirilgan bo'lsa, endilikda ushbu majburiyat ota-ona bilan bir qatorda ularning o'rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga ham yuklatildi. Shuningdek, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, ya'ni, vasiy yoki homiy nafaqat farzandlarini boqishi va tarbiyalashi, balki ularning ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi uchun imkon yaratishi kerak.

Asosiy Qonunimizning 78-moddasiga ko'ra esa: "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir". Keltirilgan normaga biron endilikda davlat:

birinchidan, bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha qonunchilik tizimi va ijrosini yanada takomillashtiradi, sog'lik, ta'lim, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik, farzandlikka olish masalalarida va boshqa ijtimoiy sohalarida bolalar manfaatini ta'minlaydi;

ikkinchidan, bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun mamlakatimizning barcha shahar, tumanlarida zamon talablariga javob beradigan bolalar sport maktablarini, o'yingohlarini tashkil etadi;

uchinchidan, bolalarning aqlan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun maktabgacha va maktab ta'limini yaxshilaydi, o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish choralari ko'radi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantiradi;

to'rtinchidan, bolalarning madaniy jihatdan yuksalishi uchun teatr, san'at to'garaklari faoliyati kengaytiriladi, maktab o'quvchilarini muzeylar va san'at galleriyalariga ko'proq kirishi uchun sharoit yaratadi.

Bugungi kunda yurtimizda inson hayoti va faoliyating barcha sohalarida majburiy mehnat va bola mehnatining tugatilishi bo'yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda boladan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish, paxta dalalarida yoki boshqa ishlarda majburiy mehnatga safarbar etish barham topdi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslariga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra voyaga yetmagan shaxsni mehnatga biror-bir shaklda ma'muriy tarzda majburlagan shaxs to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi[4]. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 44-moddasida: "Bolalar mehnatining bolaning sog'ligiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi", degan normaning qat'iy mustahkamlanishi, voyaga yetmaganlar huquqlarining bu sohasida olib borilayotgan islohotlarni konstitutsiyaviy asosi yaratilganini anglatadi.

Bolaning shaxs sifatida yuksalib, unda jamiyatga bo'lgan qarashlar paydo bo'ladigan maktabgacha va maktab yoshidagi davri eng muhim va alohida e'tibor kasb etadigan davr hisoblanadi. Shu sababdan, so'nggi yillarda ta'limning bu ikki turi tubdan isloh qilindi. Fikrimiz isbotini ta'limning boshlang'ich bog'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida bo'layotgan so'nggi o'zgarishlar misolida ko'ramiz. Prezidentimiz bola hayotidagi bog'cha tarbiyasini yuqori baholab, "Farzandlarimizni bolaligidan sog'lom, aqlli qilib tarbiyalasak, ertaga maktabga bilimli yoshlar keladi. Maktabni o'quvchilar har tomonlama bilimli bo'lib bitirsa, institutlarimizga ilm-ma'rifatli, ma'naviyatli yoshlar boradi, mamlakatimiz uchun yaxshi kadrlar yetishib chiqadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim doim diqqatimiz markazida bo'lishi kerak", deb ta'kidlaganlar [5]. Shu boisdan, davlatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, mavjudlarini ta'mirlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalarni kichik yoshidanoq estetik va axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda vatanparvarlik hissini shakllantirish masalasiga e'tibor qaratmoqda. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ham maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat ekanligi bayon etilgan[6].

Darhaqiqat, so'nggi yillarda bolalarni maktabgacha ta'limga jalb qilishi salmog'i ortdi. 2016-yilda 5211 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi kunda 6598 ta

davlat hamda 22 mingdan ziyod turli shakllardagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda[7]. E'tiborli jihati shundaki, maktabgacha ta'lim to'g'risidagi normalar yangilangan Konstitutsiyamizda ham mustahkamlandi. Bosh Qomusimizning 50-moddasida: " Davlat uzluksiz ta'lim tizimini, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir" degan normalarning belgilab qo'yilishi, maktab ta'limi bilan bir qatorda maktabgacha ta'limga ham Konstitutsiya darajasida ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda boshqa sohalarda bo'lgani singari yangi avlod vakillarining huquq va erkinliklari kafolatlash tizimida ham ijobiy o'zgarishlar mavjudligi, shuningdek, ularning Asosiy Qonunda yanada to'liqroq holda belgilab qo'yilishi, shubhasiz, quvonarli holat. Albatta, qonunchilikka kiritilayotgan normalar ijrosini ta'minlash, bola huquqlariga oid huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish ham lozim bo'ladi. Zero, har tomonlama barkamol bo'lib o'sgan farzand millat tayanchidir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://www.slideshare.net/unicefceecis/crc-uzbek-languageversion-8452181>
2. <https://adolat.uz/partiya/bola-huquqlari-davlat-e-tiborida-hamisha>
3. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
4. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/mamuriy-javobgarlik-togrisidagi-kodeks-va-jinoyat-kodeksiga-qoshimchalar-kiritildi>
5. <https://sqb.uz/press-center/yangiliklar/wunderkinds-in-kungirad-bolalarni-bag-riga-oldi/>
6. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi –T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – bet 15.
7. M.E.Abdusalomov, A.J.Tashqulov. Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob –T.: Adolat, 2023. –bet 93.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ERKIN DEMOKRATIK SAYLOVLARNI O‘TKAZISHNING MUHIM BO‘G‘INI

Adizov Behzod

“Buxoro 24” elektron OAV bosh muharriri

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar mazmun mohiyati tadqiq qilingan. ”Saylov huquqi”, “siyosiy partiyalar” tushunchalarining huquqiy mazmuniga e’tibor qaratilgan. Ommaviy axborot vositalarining saylovlardagi faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Saylov, siyosiy partiya, demokratiya, ommaviy axborot vositalari, siyosiy huquqlar

KIRISH. Ma’lumki, saylov huquqi butun dunyoda umume’tirof etilgan eng muhim va konstitutsiyaviy siyosiy huquqlardan biridir [2]. O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimi umume’tirof etilgan xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan tamoyil va qoidalar asosida shakllantirilgan bo‘lib, bevosita milliy saylov qonunchiligimiz xalqaro saylov standartlari talablariga to‘la mos keladi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi [1]da yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat etib belgilandi va u milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. Taraqqiyot strategiyasi «**inson – jamiyat – davlat**» degan yangi tamoyil asosida ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Siyosiy partiyalarning yuzaga kelishi, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi, shuningdek saylovlardagi ishtiroki, jamiyatda demokratik qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni, parlamentarizmni rivojlantirish va davlat hokimiyatining taqsimlanishga ta’siri masalalari borasida xorijiy mamlakatlarda hamda respublikamizda qator tadqiqotlar o‘tkazilgan. Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ko‘ppartiyaviylik tizimi, O‘zbekiston siyosiy partiyalarining faoliyati, ularning siyosiy tizimdagi o‘rni kabi masalalarni A.Jalolov [3], R.Jumayev [4], S.Jo‘rayev [5], Q.Jo‘rayev [6], T.Rahmatullayev [7], J.Toshqulov [8], I.Ergashev [9], A.Qodirov [10] kabi qator olimlar muntazam tadqiq etganlar [3].

Tadqiqot metodlariga dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, bevosita va bilvosita kuzatuvlar, intervyu, retrospektiv tahlil, hujjatlar tahlili (kontent analiz), ekspertlar savol-javobi, umumlashtirish kiradi.

NATIJALAR. Saylov tizimi fuqarolik jamiyatida davlat vakillik organlarining saylanishi bilan bog‘liq tarzda yuzaga keladigan davlat – ijtimoiy munosabatlar tizimidir [11].

Hozirgi paytda dunyoda insonning saylov huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, erkin demokratik adolatli saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, ularni OAVda yoritish bilan bog‘liq 30 dan ziyod xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Insoniylik mezonlari bo‘yicha Kopengagen Kengashi hujjati, Inson huquqlari bo‘yicha Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi hamda boshqa xalqaro hujjatlarda fuqarolarning so‘z erkinligi va saylov huquqlaridan foydalanishi bilan bog‘liq alohida normalar qayd etilgan. Tabiiyki, bu normalar milliy qonunchiligimizda ham o‘z ifodasini topgan.

Saylov huquqi iborasi ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchidan, saylov huquqi - bu saylanadigan davlat organlarini shakllantirish qoidalarini tartibga soluvchi yuridik normalar tizimidir. Saylov huquqining manbalari quyidagilar hisoblanadi: Konstitutsiya, oliy va mahalliy davlat vakillik organlariga saylovlar to‘g‘risidagi qonunlar.

Ikkinchidan, saylov huquqi – bu fuqarolarning saylanadigan organlar tashkil etilishida ishtirok etish, ya’ni ular tarkibiga saylash va saylanish huquqidir.

Saylov tizimi iborasi kim deputatlik mandatiga nomzodlar ko‘rsatishi, deputatni saylash

uchun saylovchilarning qancha ovozi zarurligi, nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalar o'rtasida deputatlar mandatlarini qanday taqsimlanishi bilan bog'liq tarzda saylov natijalarini aniqlashni ham anglatadi. SHu ma'noda, saylov tizimi – saylanadigan davlat organida ovoz berishning natijalari bilan bog'liq tarzda mandatlarini taqsimlash usulidir.

Ommaviy axborot vositalari saylov jarayonlarida o'ziga xos o'rin tutadi. Binobarin, saylov jarayonida ommaviy axborot vositalari xalqning minbari sifatida turli xil siyosiy-huquqiy qarashlariga ega bo'lgan siyosiy tuzilmalarning bahs-munozaralari kechadigan maydon sifatida ushbu muhim tadbirlarning faol ishtirokchisi sifatida qatnashadilar. O'z navbatida, fuqarolar ommaviy axborot vositalari orqali saylov jarayoniga oid barcha axborotlarni olishlari ushbu institutning o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari erkin demokratik saylovlarni o'tkazishning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Saylov jarayonida barcha fuqarolarga saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi dasturi, shuningdek, saylov jarayonining mohiyati haqida to'liq axborot olish shart-sharoitlari ta'minlanadi. Mamlakatimizda saylov qonunchiligini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, jumladan, YAngi O'zbekiston Konstitutsiyasi saylov amaliyotini yanada takomillashtirishga, fuqarolarning saylovda erkin ishtirok etishi uchun shart-sharoitlarni kengaytirishga, Prezidentlikka nomzodlarga saylovoldi tashviqoti davrida keng va teng imkoniyatlar yaratishga qaratildi.

Saylovlar jarayonida fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshiradilar. Ushbu huquqni amalga oshirishda nafaqat siyosiy partiyalar, balki ommaviy axborot vositalari, o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni katta. Uning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchidan, ommaviy axborot vositalari saylov jarayonlarida o'ziga xos o'rin tutadi. Binobarin, saylov jarayonida ommaviy axborot vositalari xalqning minbari sifatida turli xil siyosiy-huquqiy qarashlariga ega bo'lgan siyosiy tuzilmalarning baxs-munozaralari kechadigan maydon sifatida ushbu muhim tadbirlarning faol ishtirokchisi sifatida qatnashadilar. O'z navbatida, fuqarolar ommaviy axborot vositalari orqali saylov jarayoniga oid barcha axborotlar ega bo'lishlari ushbu institutning o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi.

Ikkinchidan, saylov, nomzodlar to'g'risidagi axborotni izlash, yig'ish va tarqatish erkinligini, saylov jarayonlarining ommaviy axborot vositalarida xolisona yoritilishini ta'minlaydi. Ommaviy axborot vositalari qonunga muvofiq, aholini saylov, nomzodlar ko'rsatish, ularning saylovoldi dasturlari, saylov kampaniyasining borishi, ovoz berish yakunlari va saylov natijalaridan xabardor etib borish, o'z faoliyatini qonun, qonun hujjatlari va davlatning xalqaro majburiyatlari doirasida amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Saylovlar siyosiy partiyalarning strategik maqsadlarini amalga oshirishlarida juda katta ahamiyatga egadir. Siyosiy partiya deganda, ma'lum bir "ijtimoiy sinf yoki guruhning tub manfaatlarini o'z faoliyatida ifoda etuvchi, ularning eng ilg'or va eng faol vakillarini o'z atrofida jipslashtiruvchi hamda ularning muayyan maqsad-manfaatlarini, orzu-umidlariga erishishlari uchun kurashlarida ularga siyosiy rahbarlik qiluvchi siyosiy tashkilot" [12] tushuniladi. Demak, siyosiy partiya o'zining strategik maqsadiga muvofiq, siyosiy hokimiyat uchun kurashadi va bu borada "eng ilg'or va eng faol vakillarini o'z atrofida" birlashtiradi.

Siyosiy partiyalarning real holatini va O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish shartlarini hisobga olib siyosatshunoslik fanlari doktori, professor R.Z.Jumayev shunday yozadi: "...Siyosiy partiyalar ma'lum bir ijtimoiy guruhlar manfaatlarini aks ettirish bilan birga ularning hokimiyatga tomon real harakatini ta'minlashda davlat bilan hamjihat bo'lishi lozim. Siyosiy partiya muxolifat mohiyatidan kelib chiqib, bir tomondan fuqarolar jamiyati manfaati va siyosiy hokimiyat uchun bo'lgan xatti-harakatini chegaralangan sferada (doirada) ifoda etsa, boshqa tomondan, ularning bir-biriga muvofiqligini va hamjihatligini ta'min etadi. Bu esa, siyosiy partiya taraqqiyoti va mustahkamligining manbai bo'lib xizmat qiladi" [13].

Saylovlarda qatnashish siyosiy partiyalar hayotidagi eng muhim voqealardan biridir.

CHunki saylovlar orqali siyosiy partiyalar xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai bo'lishiga ko'maklashadilar, ijtimoiy hayotning siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishiga hissa qo'shadilar, eng muhimi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishdek konstitutsiyaviy huquqlarining ro'yobga chiqishida muhim siyosiy vosita bo'lib xizmat qiladilar. Siyosiy partiyalar fuqarolarimizning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining xohish va irodasini ifoda etish, ularning markazda va joylarda davlat hokimiyatini shakllantirish masalalarida bevosita ishtirok etishini ta'minlash, fuqarolar tashabbuslarini shakllantirish, odamlarning ijtimoiy faolligini oshirish, turmushimizning ko'pgina dolzarb muammolarini hal etishda muhim siyosiy kuch hisoblanadi. Demak, siyosiy partiyalarning saylovda qatnashishi ikkita yirik ijtimoiy-siyosiy vazifani hal etishga yordam beradi:

*Birinchi*dan, saylovlar demokratiyani amalga oshirishning bevosita shakllaridan biri bo'lib. u fuqarolarga uyushgan holda o'zlari yashab turgan davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga safarbar bo'lish imkoniyatini beradi. Bunda fuqarolar har qanday jarayonning qatnashchisi bo'lganidek, saylov jarayonida ishtirok etib o'ziga siyosiy tajriba orttiradilar va o'zlarining siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirib, ushbu jarayoda ishtirok etishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirib boradilar.

*Ikkinchi*dan, saylovlar demokratik davlatning muhim belgilaridan biri hisoblangan vakilik organlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'z navbatida vakillik organlari fuqarolarning manfaatlarini birlashtirib, ularning manfaatlarini ifodalovchi qonun va qarorlar qabul qilish uchun xalq tomonidan vakolatlantiriladi" [14].

XULOSA. YAngi O'zbekistonda kishilarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kengaytirish, fuqarolarning jamiyat va davlat hayotiga, boshqarish institutlarining faoliyatiga qiziqishi oshirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Mustafoyev B. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi. –T.:TDYUI, 2004, 3-b.
- 3.Джураев С. Время повышать активность // Народное слово. – 2002. – 20 дек.
4. Jalolov A. Xalq bilan hamnafas partiya // Mustaqillik mas'uliyati (falsafiy-siyosiy qirralar). – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 7–12.
5. Жумаев Р.З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Ташкент: Фан, 1996. – 207 с.
6. Жураев С., Ташкулов Ж. Многопартийность в структуре политической системы Республики Узбекистан // Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика. – Ташкент: Адолат, 1994. – С. 116–153.
7. Jo'rayev Q.A. Rivojlangan davlatlarda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi – demokratik taraqqiyotning muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida). – Toshkent: JIDU, 1999. – 25 b.
8. Rahmatullayev T. Siyosiy partiya va demokratik tamoyillar. – Samarqand: Zarafshon, 1989. – 80 b.
9. Ergashev I. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy qatlamlar // Fidokor. – 2000. – 3 may.
10. Qodirov A. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirishning konseptual muammolari // Huquq-Pravo-Law. – 2002. – №4. – B. 51–53.
11. Саидов А.Х. Избирательное право в РУз: вопросы реформы, законодательство и зарубежный опыт (юридические и политологические заметки). – Т.: "Узбекистон", 1993, 5-6.
12. SHaripov F.SH. Siyosatshunoslik. – Т.: O'zbekiston, 1992. – B. 247-248.
13. Jumayev R. Davlat va jamiyat: Demokratlashtirish yo'lida. – Т.: SHarq, 1998. – B. 33.
14. Ahmedov A., Turg'unov O. Saylov jarayoni va oshkoralik. – Т.: O'zbekiston, 2009. – B. 6-7.

KASBIY-OPERATIV TAFAKKUR BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA



Qurbonova Gulnoz Negmatovna
BuxTI pedagogika, psixologiya va tillar
kafedrasi mudiri, p.f.d., dotsent

Rezyume: maqolada tibbiy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar kasbiy-operativ tafakkurini rivojlantirish mazusi yoritilgan bo'lib, kasbiy-operativ tafakkur funksiyalari, ularning mohiyati pedagogik-psixologik vazifalarni yechishga qaratilgan o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, kasb, operativ, muloqot, bo'lajak o'qituvchi, rivojlanish, vazifa, vaziyat, yechim.

Tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, ob'ektiv voqe'likning ongda aks etish jarayoni hisoblanib, qadim zamonlardan boshlab, doimiy ravishda falsafiy, pedagogik, psixologik, fiziologik tadqiqotlar ilmiy qiziqishlari doirasida asosiy ob'ektlardan biri sifatida o'rganilib kelingan.

Kasbiy tafakkurni rivojlantirish inson kasbiy yyetuklik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borishiga imkon beradi. Kasbiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy o'rinni oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya olish jarayoni egallab, bu jarayonda bo'lajak mutaxassisning kasbiy yetuklikka erishish yo'liga muhim poydevor qo'yiladi.

Talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirish zaruriyati bir qator ob'ektiv holatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muassasasi bu avvalambor talabalar o'quv-biluv faoliyatining samaradorligini ta'minlaydigan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantiradigan mustaqil ijodiy tafakkur maktabi hisoblanadi.

Ko'pgina olimlar (V. S. Ilina, N. V. Kuzmina, YU. N. Kulyutkin, G. S. Suxobskaya, L. A. Regush, V. A. Slastyonin, O. Roziqov, B.R. Adizov va boshq.) fikricha zamonaviy oliy ta'limning salbiy tomonlaridan biri unda ijodiy hamda kasbiy tafakkur o'rniga verbal-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etiladi.

O'qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantirish muammosi amaliy tafakkurni tadqiq etish doirasida amalga oshiriladi. Muammo bo'yicha dastlabki tadqiqotlar E. N. Torndayk, V. Keller, K. Byuler, K. Kofka, N. A. Ruger, M. YA. Basov, S. L. Rubinshteyn tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Namlari keltirilgan olimlar kasbiy tafakkurni namoyon bo'lishini amaliy faoliyat nuqtai nazardan o'rgangan bo'lsalar, S. L. Rubinshteyn birinchilardan bo'lib kasbiy tafakkurning: sinchkovlik asosida kuzatuvchanlik, ma'lum muammoli vaziyatlarda o'ziga xos va yagona qaror qabul qila olish, qisqa vaqtda tafakkur qilishdan amaliy faoliyatga o'tish kabi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi.

O'z navbatida amaliy tafakkur muammosi tadqiqotchilar tomonidan yaqin vaqtlardan boshlabgina o'rgana boshlandi. G'arb psixologiyasida amaliy faoliyatga yo'naltirilgan tafakkur: elementar, noijodiy hisoblanib, nazariy tafakkurga nisbatan ikkilamchi shakl sifatida qarab kelingan. SHu nuqtai nazardan turli kasblarda tafakkurning murakkab shakllari hamda ko'rgazmali-faoliyatli komponentlari namoyon bo'lishi mumkin emas deb hisoblangan. Amaliy tafakkur muammosi rus olimlari F.N. Gonobolin, N.V. Kuzmina hamda B.M. Teplov tadqiqotlarida bir muncha o'z yechimini topdi. CHunonchi B.M. Teplov amaliy tafakkur, yaxlit tafakkur mexanizmlari (analiz, sintez, taqqoslash, tizimlashtirish, abstraksiya va aniqlashtirish) ning birligi asosida namoyon bo'ladi hamda u tafakkur faoliyatining alohida shakli hisoblanib, uning o'ziga xosligi amaliy faoliyatda inson tomonidan u yoki bu vazifalarni yechimini topishga qaratiladi deb hisoblaydi. "Inson intellekti va tafakkur mexanizmlari yagona, ammo tafakkur shakllari har xil,

chunki u yoki bu holatda inson aqli tomonidan yechimini topishi kerak bo'lgan vazifalar har xildir”¹

O'qituvchi tafakkuri murakkab hamda tizimli bilimlarga asoslanadi va kasbiy nuqtai nazardan bu bilimlar tarkibiga quyidagilar kiradi :

- Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ta'lim muassasalari rivojlanishini belgilaydigan davlat ta'lim standartlarini bilishi;
- Barcha fanlarning metodologik asosini tashkil etuvchi nazariy konsepsiyalar mazmunini tushunishi va bilishi;
- Ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarini bilishi;
- Ta'lim-tarbiya jarayonining metodologik hamda pedagogik-psixologik asoslarini bilishi;
- Tahsil oluvchilarning anatomo-fiziologik, yosh hamda psixologik xususiyatlarini bilishi;
- Ta'lim-tarbiya jarayoning mohiyati, mazmuni, o'quvchilar faoliyatini boshqarish shakllari, metodlari va usullarini bilishi ;
- Mutaxassislik fanini bilishi;
- Mutaxassislik fanini o'qitish metodikasini bilishi;
- O'zi va o'quvchilar ish faoliyati natijalarini hisobga olish va tahlil qilish metodikasi va metodlarini bilishi;
- Ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsiyalar, pedagogik hamda axborot texnologiyalarini qo'llay olishi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida operativ tafakkur alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy adabiyotlar va fanda “Operativ” atamasi 3 ma'noda keladi:

1) turli operatsiyalardan tashkil topgan faoliyat;

2) tez amalga oshadigan faoliyat;

3) opera (lot.) - mehnat, ya'ni operativ tafakkur degenda, mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan tafakkur deb tushunish lozim.

Operativ tafakkur degenda amaliy masalalarni, jumladan boshqarish masalalarini hal qilishning shunday jarayoni tushuniladiki, buning natijasida qo'yilgan masalaning hal qilinishini ta'minlaydigan harakatlarning (operatsiyalarning) taxmin qilinyotgan jamlanmasining sub'ektiv modeli shakllanadi.

Rus olimi V.N.Pushkin “Katta tizimlarda operativ tafakkur” , nemis tadqiqotchisi Ditrix Derner “Muvaffaqiyatsizlik mantiqi” asarlarida operativ tafakkurning inson faoliyatidagi ta'siri, uni amalga oshish jarayoni, mexanizmlari to'g'risida fikr yuritib, turli vaziyatlarda uning namoyon bo'lishini eksperimental tqadqi etganlar. Haqiqatdan ham o'qituvchining mehnat faoliyati uni tez hamda samarali tashkil etish va amalga oshirishga yuqori talablar qo'yilishi bilan xarakterlanadi. O'qituvchining operativ tafakkuri tizim boshqaruvchisi sifatida: rejalashtirish, tadbirlarni ishlab chiqish va boshqarish, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan keskin vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish operatsiyalaridan iborat bo'ladi. Bu operatsiyalarni amalga oshirishda operativ tafakkur funksiyalari xizmat qilib, pedagog va psixolog olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan:

¹ [Теплов, Б.М.](#) Практическое мышление / [Б.М. Теплов](#). – Москва // Психология мышления : хрестоматия / – Издание 2-е, переработанное и дополненное. – Москва : АСТ : Астрель, 2008. – С.224.

OPERATIV TAFAKKUR FUNKSIYALARI

MUALLIFLAR	FUNKSIYALAR	TAFAKKUR DARAJASI
YU.N.Kulyutkin (1990)	anglash-bilish	Yetakchi g'oyalar darajasi
	refleksiv	Sxemalarni amalga oshirish
	boshqaruv	Konstruksiyalar tuzish
I.YA.Lerner (1985)	metodologik	Strategik daraja
B.T.Lixachev (1990)	refleksiv	Sxemalarni amalga oshirish
	boshqaruv	Sxemalarni amalga oshirish
	bashoratlovchi	Konstruksiyalar tuzish
A.B.Orlov (1986)	refleksiv	Konstruksiyalar tuzish
	boshqaruvchi	Konstruksiyalar tuzish
V.A.Slastenin (1989)	Metodologik	Strategik daraja
	Anglash-bilish	Operativ daraja
	bashoratlovchi	Taktik daraja
Barotov SH.R.(2012)	Tushuntiruvchi	Nazariy tafakkur
	tashxislovchi	Ilmiy-amaliy tafakkur
	Loyihalovchi	Ijodiy tafakkur
	kommunikativ	Ijodiy tafakkur

Har bir funksiyani amalga oshirish mexanizmi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

TAFAKKUR FUNKSIYALARI	MOHIYATI
ANGLASH-BILISH	Pedagogik-psixologik kategoriyalar mohiyatini anglash va tushunish; Aql mahsuldorligi; Tafakkur operatsiyalari shakllanganligi; Ma'lumotlarni tez tahlil qilish; Murakkab hamda qarama-qarshi hodisalar mohiyatini tushunish.
EMPATIK	Adekvat persepsiya; Bilish faoliyatidagi muvafaqiyatlarga erishishga ko'maklashish; Qadriyatli yondashuv
METODOLOGIK	Kasbiy faoliyatning umumiy holati Ta'lim jarayoni konsepsiyasining shakllanganligi
BASHORATLOVCHI	Maqsadni anglash Bashoratlash, loyihalash Ta'lim jarayonini modellashtirish
REFLEKSIV	Maqsadni tushunish; Faoliyatga motivatsiya; Tahlilga intilish; O'z-o'zini tanqidiy baholash; Mukamallikka intilish
BOSHQARUVCHI	Faoliyatning maqsadli yo'nalganligi; Emotsional-irodaviy holatning shakllanganligi; Masalalar tahlili uchun ijobiy muhit yaratish; Ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni hosil bo'lishi.

Shu o'rinda pedagogik jarayonda yuzaga keladigan keskin vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha vazifalarni yechishga e'tiborimizni qaratsak. Muammoli masalalar ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Ularni yechish uchun standart algoritm mavjud emas. Ularni yechish uchun operativ

tafakkur zarur bo‘ladi. O‘qituvchi mehnat faoliyatida shunday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinki, birinchidan pedagogik jarayonda rejalashtirilgan va amaldagi holat o‘rtasida nomuvofiqlik kelib chiqishi, ikkinchidan o‘qituvchida bu nomuvofiqlikni bartaraf etish bo‘yicha aniq reja va tasavvur hamda faoliyat usulining yo‘qligi kuzatiladi. Bu vaziyatda 2 xil variant yuzaga keladi:

- o Birinchidan o‘qituvchida yechim usuli yo‘q. CHunki bu vaziyatni u hozirgi kunga qadar shaxsiy tajribasida uchratmagan va yo‘riqnomalarda yechim to‘g‘risida axborot yo‘q;
- o Ikkinchidan bunday vaziyat ilgari uchramaganiga qaramasdan o‘qituvchi tasarrufida alohida bartaraf etish usullari mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanishi vazifa yechish imkoniyatini beradi.

SHu sababdan ta‘lim muassasalaridagi amaliy muammolar bilan ishlab chiqilgan nazariy ishlanmalar o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish masalasi dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida pedagogik-psixologik vazifalarni yechishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-operativ tafakkurini rivojlantirishga e‘tibor qaratilishi lozimligi ehtiyojini keltirib chiqaradi. Tajriba-sinov ishlari ko‘rsatishicha talabalarning kasbiy-operativ tafakkuri xotira, diqqat, oliy nerv faoliyati, sensomotor reaksiyalar kabi psixik xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu esa o‘rganilayotgan hodisaning inson rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-biologik xususiyatini isbotlaydi. Bizning fikrimizcha talabalarning kasbiy-operativ tafakkurining rivojlanishi, bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsi xususiyatlarini namoyon qiladigan 3 bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda gumanitar, tabiiy-ilmiy hamda maxsus fanlar blokidan tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar fondi shakllanadi. Ikkinchi bosqichda shakllagan bilimlar fondini nazorat qilish va undan foydalanish koifitsienti ko‘tariladi. YA’ni talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikma va malakalar pedagogik-psixologik vazifalarni yechish imkoniyatini beradi. Kasbiy-operativ tafakkurni rivojlantirishning uchinchi bosqichida talabalar oldiga “maxsus” qiyinchilik darajalariga ega bo‘lgan vaziyatlar asosida vazifalar qo‘yilib, ulardan kasbiy-operativ tafakkurni qo‘llagan holda adekvat, tez va ratsional yechimlarni topish vazifasi qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy-operativ tafakkurni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarda turli xil vaziyatlarda turli xil pedagogik-psixologik vazifalarni yechish imkoniyatini berib, ular ongida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tez vaqt ichida xotirada tiklab, samarali natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Kasbiy-operativ tafakkurni rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda real pedagogik jarayonda yuz beradigan muammoli vaziyatlar, stress holatlarining oldini olish, vaqt tanqisligi hamda zamonaviy o‘quvchilarning intellektini rivojlantirish imkoniyati hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B.X., Qalandarov A.D. Ong va ruhiyat falsafasi.-Buxoro: Durdona,-624 b.
2. *Мышление учителя: Личностные механизмы и понятийный аппарат* / Под ред. Ю. Н. Кулюткина, Г. С. Сухобской. М.: Педагогика, 1990. 104 с.
3. Рубинштейн С.Л. Принципы детерминизма и психологическая теория мышления. М.: Наука, 1959. - 203с.
4. Теплов, Б.М. Практическое мышление / Б.М. Теплов. – Москва // Психология мышления : хрестоматия / – Издание 2-е, переработанное и дополненное. – Москва : АСТ : Астрель, 2008. – С.224.
5. G‘oziev E. SHaxs psixologiyasi va kasb tanlash. T., 1987.

SIFATLI TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV

Donaboyeva Ziyoda Muxiddin qizi

BuxIU magistr talabasi

ziyodadonaboyeva@gmail.com

+998 94 913 90 95



Annotatsiya: Maqolada innovatsiya va ta'limda innovatsiya, ularga berilgan xorijlik va O'zbekistonlik olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, ta'lim berishda turli xil usullar ya'ni, metodlar mavjudligi, innovatsion yondashuv, dars mashg'ulotlarida ta'lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalash, innovatsion taraqqiyot yo'lida kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab - quvvatlash, xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lim tizimiga innovatsiya, innovatsion jarayonlar, bilim, ta'lim metodlari, innovatsion metodlar, innovatsion yondashuv, metod, aktiv metod passiv metod, interaktiv metod, pedagogik yangilik, pedagogik faoliyat.

KIRISH. Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga va ta'limga bo'lgan e'tiboriga tayanadi. Zero, eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo'lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak."¹ Shundan kelib chiqib aytilish joizki, yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egalagan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun ta'lim-tarbiya tizimni tubdan o'zgartirish, hozirgi davr talablari darajasida rivojlantirish muhim ekanligini hayot taqozo etmoqda. Pedagog innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'limda innovatsiyani, shu jumladan, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi bugungi kunda juda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga va bugungi kun talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Olib borilayotgan amaliy harakatlar talabalarni yutuqlarga erishishga hamda olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltirishi hamda ularning kasbiy qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan esa, zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalaridan faol foydalanish bilan bog'liq va birinchi navbatda ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Shu munosabat bilan talabalarning kasbiy innovatsion faoliyati tubdan boshqacha ma'no kasb etadi. Innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, talabalar uchun ta'lim sohasidagi har qanday yangilik o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgandagini yuzaga chiqadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida talabalarni ob'ektdan sub'ektga aylantirish, birinchi navbatda, o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bog'liqdir.

Ta'lim berishda turli xil usullar ya'ni, metodlar mavjud. O'qituvchi qay uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta'lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Ta'lim metodlari shu vaqtga qadar o'zining samarasini ko'rsatib kelmoqda va dars mashg'ulotlar yangicha uslublarda olib borilishi yanada yaxshi natijalarga erishish uchun izlanishlar, yangilanishlar davom etmoqda. Ma'lumki innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o'qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi, qo'llanishi o'quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini yaratib beradi. Pedagogik yangilik-pedagogik

faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi omilidir. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samarasini oshiradi, pedagoglarning erkin fikrlash jarayonini shakllantiradi, ularda bilim olishga ishtiyoqi va zavqini oshiradi, bilimlarini mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ma'lumki, hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlabki tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lsa keyinchalik innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan. «Innovatsiya» tushunchasi o'zining yangi hayotini «innovatsion kombinatsiyalar»ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. Innovatsiya – tadbirkorlik ruhi bilan motivatsiyalangan ishlab chiqarish omillarining o'zgarishi (yangi kombinatsiyalar). Maqsad – yangi tovar turlari, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi xomashyo manbalari joriy qilish va foydalanish, yangi bozorlar va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini o'zlashtirish (monopolizatsiya maqsadida qayta tashkil qilish). U o'zining «ijodiy halokat» nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o'rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullarsifatida ko'rib chiqishni taklif qildi.² Umuman innovatsiya tushunchasiga olimlar turlicha fikr bildirganligi uning keng tushuncha ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, «Innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin»³, «Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy- texnik va boshqa sohalaridagi yangilikdir»⁴, «Innovatsiya-kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko'rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir»⁵, «Innovatsiya – g'oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o'z xislatlari bo'yicha eng yaxshi bo'lgan mahsulot va texnologiyalar yaratishga olib keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon; innovatsiya iqtisodiy foydaga yo'altirilgan holda uning bozorda paydo bo'lishi qo'shimcha daromad keltirishi mumkin.»⁶ deb ta'riflar berilganligi buning dalilidir. Bu fikrlardan anglash mumkinki bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsiya kiritib borish zaruriyati mavjud. N.Kuzmina, E.Rodgers va D.Forlar o'z asarlarida innovatsiya va ta'limga innovatsion yondashuvga nisbatan o'z fikr mulohazalarini keng doirada mulohaza qilib o'tganlar. Innovatsion talimdan foydalangan holda o'qituvchilar va o'quvchilar jamoalarini qulay ta'lim berish va qabul qilish muhitini yarata olishga alohida urg'u berib o'tishgan.

N.V.Kuzminaning fikricha «O'qituvchi o'quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib. Talabalarning shaxsiy rivojlanishi uchun metod va vositalardan faodalanishda o'quvchilar bilan hamkorlikni o'rnatish va o'rnatish o'sa har ikki tomonda ham o'zaro yordam, tushunish, o'zaro hurmat va o'zaro qo'llab quvvatlash muhiti yuzaga keladi.»⁷ Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatsion olimlardan biri E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

-talaba shaxsiga qaratilgan yondashuv.

Talabalarning shaxsiy rivojlanishga qaratilgan yondashuv.

-Bilimlarni egallashda talabalar faoliyatini tashkil eta olish yondashuv.⁸ Innovatsion imkoniyatlar - bu muntazam ravishda kombinatsiyalashgan bilimlarni kashf qilish, ulardan foydalanish demakdir. Bunda kombinatsiyalashgan jarayonlarda asosiy e'tibor beriladigan jihat – bu bilimdir.»⁹

Innovatsiya va innovatsion metodlar to'g'risida o'zbek olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borib o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tishgan. Jumladan, S.Turg'unov "Innovatsiya - maqsadga, yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka - muassasa, uyushma, jamoa va guruhlariga yangi, nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'lik bo'lgan yangiliklarni kiritishdir"¹⁰ deb ta'kidlagan bo'lsa, N.Mamadov o'zining «Umumiy ta'lim maktablarini innovatsion boshqarish» deb nomlangan tadqiqotida innovatsiya - bu boshqaruv ob'ektini o'zgartirish hamda yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik samaralarni qo'lga kiritish maqsadida muayyan sohalarga yangilikni tatbiq qilishning yakuniy natijasi ekanligini qayd etib o'tadi.¹¹ M.Jumaniyozovning fikricha "Innovatsiya - rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladigan ijodiy mehnatning natijasi. U amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy- madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning xarakter tizimi, ayni vaqtda u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlarmexanizmi bo'lib xisoblanadi."¹²

NATIJAR. Yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta'lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e'tiborlanada kuchaydi. O'zbekistonda so'nggi yillarda boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga innovatsiya kirib keldi va uni ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda kuzatishimiz mumkin. Ta'lim tizimida innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari misolida ham ko'rish mumkin. Ular: a) gender pedagogikasi; b) evristik pedagogika; v) majburiy pedagogika; g) androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi. O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida aks etsa, ta'lim mazmuniga esa innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi. O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining mavjud bo'lib, Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi. Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda virtual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin.

MUHOKAMA. 1. Aktiv metod. Bu metod ni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-mulohaza yuritishga undaydi. 2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi. 3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi. Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin. A) standart dars – dars ichidagi struktura o'zgar olmaydi. B) nostandart dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi. V) virtual dars – yani masofadan o'qitish. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogikfanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olibkeluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I.Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo'lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy o'quv yurti o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida

jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. Mamlakatimizda innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligining har tomonlama qo'llab -quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarining shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

XULOSA. Zamonaviy ta'limning dolzarb muammosi "ijtimoiy raqobatbardoshlik"dir. Bu tushuncha o'zida kasbiy etuklikni, malaka oshirish imkoniyatiga egalikni, shaxsning ta'lim olganlik darajasi, innovatsiyalarni qabul qila olish qobiliyati, kasbiy faoliyat sharoitini qiyinchiliklarsiz o'zgartira olish va mehnatning yanada foydaliroq turiga o'ta olish qobiliyatini, ijtimoiy mavqeyini va bilim darajasi bilan belgilanuvchi ijtimoiy mobilligini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni, zamonaviy sharoitlarda raqobatbardosh mutuxassisni shakllanishi faqatgina ta'lim jarayoniga muammoli va metodik yo'naltirilgan, umumiy innovatsion jarayonlarning talablariga javob beradigan, dastur va konsepsiyalar bilan asoslangan innovatsiyalarni jalb etish orqaligina amalga oshiriladi. ta'limda dars jarayonida pedagog innovatsion metodikalardan foydalanish o'quvchilarda hamkorlik qilish kompetensiyasini ham shakllantiradi. O'quvchilarda nazariy ma'lumotlarni yetarlicha o'zlashtira olmagan o'quvchilarda oddiy dars shakli va tushuntirishdan ko'ra o'quvchi tassavurida nazariy ma'lumotlar osonlik bilan qabul qilinadi. Darsjarayonida innovatsion metodikalar orqali mavzuni mustahkamlashda ba'zan bir necha xattoki butun auditoriyani ma'lumatlarni qabul qilish va mustahkamlash jarayoniga qiziqarli tarzda jalb qila olish xususiyati bilan hozirgi kunda o'z ahamiyatligi va ko'lamini tezlik bilan kengaytirmoqda. Shu bilan birgalikda dars jarayonida innovatsion metodikalardan samarali foydalanish o'qituvchining dars jarayonini o'quvchilarga yetkazib berish jarayonini samarasini oshirish bilan birgalikda o'qituvchining ko'p qirrali faoliyatini rang baran qilishda, balki o'quvjarayonini jaddalashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o'quvchilar ishtiyoqini kuchaytirish va jaddalashtirishga samarali xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>
2. Балабанов И. Инновационный менеджмент. Санкт-Петербург, 2001.
3. Жуманиёзова М. Инновацион фаолият - таъли м сифатининг кафолатидир. // j.Uzluksiz ta'lim. - Т., 2004 - № 6 – Б.89
4. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.
5. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.
6. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55
7. Мамадов Н.С. Умумий таълим мактаблари инновацион бошқариш. Педагогика фанлари номзоди дисс. - Т., 2009. - Б.17.
8. Санто Б. Инновация и глобальный интеллектуализм // Инновации. 2006.— № 9; 5.
9. Хамрокулова, Ш. Э. (2021). Экологик тарбия механизмларини такомиллаштиришда инновацион технологияларнинг аҳамияти. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 286-289.
10. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007. 4
11. Karl Rojers Shaxs bo'yicha muofiqlashtirilgan tadqiqotlar. 1949 у.
12. Kuzmina. N.T Ilg'or pedagogic texnologiyalar. Т. 1999 у.

GYMNASTICS IS THE MAIN FORM OF PHYSICAL EDUCATION LESSON

Ramazonova Zarina Sodiq qizi

Head of the Department of Physical Education of the Bukhara city vocational school



Abstract. Education and training of young students is carried out in the course of educational work in class and extracurricular activities, as well as in socially useful work. Gymnastics is given great attention in the national programs of personnel training in the rules of secondary general education and higher education, as well as in new forms of education.

Keywords. Physical education, student youth, groups, gymnastics.

Introduction. As President Shavkat Miramonovich Mirziyayev said, "the new model of education leads to the formation of a free person who thinks independently in society. We will have the opportunity to educate young people who have a strong will, full of faith and a clear purpose in life, who realize their value. After that, conscious marriage becomes the main criterion of society's life. This instruction fully applies to the work of physical education of students studying in higher educational institutions. Physical education classes are such a form that they cover all students. Classes are held with the composition of groups from these faculties. This allows for better organization and conduct of training, taking into account specific conditions and training of participants. Physical education classes are held according to a fixed schedule, on a certain day of the week, for 45 or 90 minutes during a certain period of time. Proper training ensures that the student correctly performs various exercises related to improving the success of independent work. Students do these exercises independently at home or in groups. Lessons are the basis of students' independent or group activities. In the classes, which are usually held in the student's dormitories or before practice time, gymnastics, recess and physical education minutes are introduced to the materials used. From the teacher's short conversations during the lesson, students will have clear information about the importance of physical education exercises and their need for health.

Students feel that physical education has a great practical value only when they master the methods of performing human organs (subjects and without objects) while learning independent exercises.

Among the physical exercises used in physical education classes, there are many vital exercises that can be applied in everyday life. The purpose of these exercises is to accustom students to use physical education tools every day in various conditions of learning, work, and recreation. Young people learn all this first in physical education classes. Physical education classes have their own characteristics according to their content and organization. They are held at home in the hall, on the field, in such places the movement of young people is less restricted, which creates special conditions for performing exercises and conducting training. Physical education exercises are distinguished by a large number of very diverse movement sensations that affect the body. An individual approach is necessary to master the exercises well. All of these characteristics increase the responsibilities of youth physical education.

Requirements for the lesson when performing the exercises.

-Each physical education exercise should serve as the main tool in solving the tasks assigned to the lesson.

- A complex of exercises for solving certain general and specific tasks, general tasks are included in the exercises performed during all lessons or a series of lessons, and specific tasks are included in exercises performed during a separate lesson.

- Exercises should be methodically structured correctly.

- To compile a complex of morning gymnastics exercises, physical training minute exercises in terms and pictorial records and to teach it in different ways.

- Creation of exercises affecting all parts of the body, which help in all-round physical development, strengthening of health, formation of stature.

- Correct use of the medical gymnastics exercise complex and methods of its execution.

Requirements for the volume of practical exercises to be performed by young people.

- Regular assimilation of exercises to the student's training sessions.
- To study the professional skills of determining the working capacity and physical fitness of the organism.
- Fulfilling the personal and normative requirements of the studied physical exercise methods.
- proper use of gymnastic equipment and equipment.

Use of new technologies in teaching exercises.

Educational technologies can be used in learning exercises. In this case, it is appropriate to use theoretical and methodological-descriptive notes on the development of physical training exercises through diagrams, multimedia, pictures and the necessary new literature, improving the structure of the body, and developing physical indicators of therapeutic gymnastics applied to various diseases that shape the figure.

Tasks of physical education exercises.

The results of the exercise process in physical education depend on the quality of the educational and educational work carried out in the training. In this case, each lesson can be achieved only by consistently solving the tasks. Physical education exercises are divided into 3 types:

- 1) Educational tasks
- 2) Educational tasks
- 3) Health is divided into tasks.

Education: Teaching tasks are to teach students to perform the exercises provided in the program, to improve the learned exercises, as well as to develop skills and abilities, to apply the learned exercises in different conditions. Consistent completion of educational tasks leads to systematic and solid learning of the entire educational material in the program. A relatively long time is needed to solve some educational tasks, and one lesson is enough to solve some of them. The implementation of educational tasks is usually carried out with the tasks of upbringing and health.

Educational tasks. Attention, discipline, will, organization, care of things, as well as friendship, camaraderie, striving for a goal, independence and persistence in overcoming difficulties are cultivated. Cultivating the qualities of perseverance and bravery is carried out by using exercises (jumping, balancing, running) that require the same qualities to be demonstrated in training. Gymnastic exercises are voluntary movements controlled by the mind. In the formation of movement skills, the performance of movements increases to the level of automation. This is not to say that there is no conscious movement, because bringing the movement to the level of automation requires conscious learning of physical exercises. Teachers and coaches monitor, evaluate and correct mistakes. Nevertheless, it is important to develop the ability of the participants to evaluate and control their own actions. In this, the methods of pre-sensing and testing movements are often used. After the learned gymnastic exercise techniques and skills are formed, they are taught a series of more complex physical exercises. Easy exercises reduce student activity. Therefore, it is necessary to give them physical exercises according to their physical level and improve them. Students' bodies adapt to the same form of exercise. Increasing the amount, volume, and form of exercises ensures the physical development of the children's body. Otherwise, the body of students will adapt to the same form of exercise and their organism will not develop physically.

The principle of performance and individualization means taking into account the characteristics of the students and how difficult or easy the task is given to them. It means that the process of education and training in physical education should be organized taking into account the capabilities of the participants, age and gender characteristics, level of preparation, as well as individual differences in physical and spiritual abilities. The ability to perform gymnastic exercises, on the one hand, depends on the capabilities of the participants, and on the other hand, it depends on the objective difficulties that occur during the performance of an exercise. When the teacher sets the standard of performance, it is first based on the programs and normative requirements determined for a certain contingent of students on the basis of scientific information and generalized practical experiences. The capabilities of the employees are determined by physical fitness tests, medical supervision and pedagogical observations. The principle of performance can be understood as defining the standard of physical actions that can be performed with the help of the physical and spiritual forces of the participants. Also, if vigorous forms of exercise are considered beyond the capacity of the exerciser, it becomes an impossible load. In the following periods, such loadings can also be calculated from the

opportunity of those involved. If gymnastic loads provide physical development and health in the body, they are loads that can be performed. Physical loads that have a negative effect on the body and harm health are considered impossible loads. Nevertheless, with the development of the athlete's body, the level of loads that cannot be performed decreases. Attempting to carry out a feasible load should also be under the supervision of a pedagogue and a doctor, because they give instructions to eliminate the negative effects of loads on the body. In addition to the conditions specified at each stage of physical education, the standard of performance is determined by the appropriateness of the chosen method and the organization of the training as a whole. Competences and skills are a base of previously acquired skills. Therefore, the issue of ability to perform is inextricably linked with other methods of education and training, with the methods of regularly increasing the duration of training and difficulties. One of the decisive conditions for performance in the process of physical education is the duration of the gymnastic exercise. Continuity is achieved from the natural interrelationships between different forms of movement and structurally. Training should be organized in such a way that the learned movement tasks provide easy mastering of future training tasks. This pattern is called transition from known to unknown or mastered to unmastered task. One of the most important conditions in moving from one task to another, from easy to difficult, is consistency. The benefits of regular exercise are immeasurable. The regularity of the physical education process is mainly a feature of how much it depends on the most convenient sequence of loading and rest. Continuity - physical education is a continuous process from all periods of human life. The functional and structural changes occurring in the body due to gymnastic exercises come into conflict, the conditioned reflex connection begins to fade, the achieved level of functional capabilities decreases, and even some regressive changes become apparent after 5-7 days of non-exercise. It is clear that the process of physical education should be continuous, that is, unnecessary breaks should be eliminated, and only after that, the conditions for achieving physical maturity will be created. Repetition and renewal of exercises In the process of physical education, more space is given to repetition than in most other types of education. In addition to repetition for the process of physical education, it is also important to vary, that is, to frequently change the conditions of gymnastic exercises and their performance, to gradually increase loads and to apply various methods of their use, and to change the form and content of training in general. Loading is a factor of the level of influence of gymnastics exercises on the body and the development of the body's functional capabilities. In recovery, as a consequence and effect of loading, rest is inextricably linked with loading. Taking into account the organic connection and coexistence of fatigue and recovery processes, it is possible to understand the interdependence of loading and rest. The results of scientific studies show that a person's ability to work varies during work and rest.

References:

1. Mirziyoev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. "Uzbekistan", 2017.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to fundamentally improve the management system in the field of physical education and sports". March 5, 2018. PF-5368.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan". February 7, 2017. PF-4749.
4. R.S. Salomov. Theory and methodology of physical education. T. 2014
5. R.S. Salomov. Theory and methodology of physical education. (Volume II) T. 2015
6. R.S.Salomov, Y.Y.Aripov. Fundamentals of the methodology of physical education of school-aged children. T. "Molya" 2011.
7. State educational standard and curriculum in the subject of physical education of general secondary education. (Grades 1-9). Tashkent-2017.
8. Abdullaev A., Sh. Honkeldiev. Theory and methodology of physical education. Textbook - T.: 2013. 462 p.
9. DNRakhmatova, LZKholmurodov, LBSobirova. Theory and methodology of physical education in preschool and primary education. "Uzbek book trade" publishing house, 2020
10. Bobomurodov AE Physical training, sports theory and methodology (general classification of physical qualities). "Uzbek book trade" publishing house, 2020.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SINIF RAHBARI FAOLIYATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH OMILLARI

Ma'rifat Haydarova Isomiddinovna
Jondor tuman 10-umumta'lim maktabida
direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari.



Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishdagi ayrim muammolar, axloqiy-tarbiya yo'nalishlarini hamda sinf rahbari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishdagi innovatsiyalar va takliflarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, axloqiy tarbiya, sinf rahbari, ta'lim sifati, raqobatbardosh kadr, innovatsiyon yondashuv.

Annotation: This article is devoted to some problems in the effective organization of the educational process in secondary schools, innovations and proposals for bringing moral and educational directions and the activity of the classroom teacher to a new level.

Key words: innovation, moral education, classroom teacher, quality of education, competitive staff, innovative approach

Аннотация: Данная статья посвящена некоторым проблемам эффективной организации воспитательного процесса в общеобразовательных школах, новшествам и предложениям по выводу нравственно-воспитательной направленности и деятельности классного руководителя на новый уровень.

Ключевые слова: инновации, нравственное воспитание, классный руководитель, качество образования, конкурентоспособные кадры, инновационный подход.

Kirish: Tan olishimiz va ta'kidlashimiz kerakki, yangi O'zbekistonni zamonaviy bilim va yangicha dunyo qarashga ega, fidoyi, kreativ fikrlovchi yoshlar bilan birga quramiz. Davlatimiz rahbarining ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish, yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash tizimini mutloq yangi bosqichga olib chiqish sohasidagi amalga oshirayotgan chora-tadbirlari bejizga emas. Bugun yer yuzida har bir sohada yuz berayotgan jadal islohotlar innovatsiyon yondashuvni talab etmoqda. Hozirgi zamon mutaxassisi davlatimiz siyosati va milliy istiqloq g'oyalarini hayotga faol tadbir etadigan, yuksak fuqarolik va ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, o'z ishiga ma'suliyat bilan yondasha oladigan, davlat va xalq manfaatlarini himoya qila oladigan kishi bo'lmog'i lozim. Hozirgi zamon mutaxassasidan chuqur fundamental ilmiy hamda amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etilad. Agar biz bugu rivojlangan davlatlar reytingida yuqori ko'rsatgichlarni ko'rsatib kelayotgan Janubiy Kareya, Yaponiya, Singapur, Xitoy va Malayziya kabi davlatlarning yuksalish tarixiga nazar solsak, ularning bugungi natijalari ta'lim sohasidagi islohotlarida ekanligiga guvoh bo'lamiz.

“Ko'pchilik mendan Singapurning rivojlangani haqida so'rab shunday savol berishadi: “Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu “mo'jizani” qanday amalga oshirdingiz?”

Ularga javoban shunday dedim: “Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat byudjetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi “mo'jiza”larni yaratgan insonlar- muallimlardir. Ular ilm, ahloq, mehnat va haqiqatni sevadigan, kamtar avlodni yetishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz!” Li Kuan Yu, Singapur sobiq bosh vaziri.

Muhokama va natijalar: Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib aytish mumkinki ta'lim sohasi bugungi kunning eng dolzarb va barcha uchun birday aloqisi bor bo'lgan mavzudir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so'ngi besh yillikda ta'lim sifatini yaxshilash va o'qituvchi maqomini oshirish sohasida juda katta o'zgarish va islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bugun yurtimizda ta'lim yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Zero O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustivor yo'nalish aynan ta'lim

sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Davlat rahbarining tashabbusi bilan O'zbekistonning eng chekka tumanidan tortib, shahar, viloyat va Respublika darajasida ta'limni isloh qilish kengashlari tuzildi va ularga tuman, shahar, viloyat rahbarlari bosh etib belgilandi. Tizimdagi qator muammolar xususan shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, metodikalar, darsliklar, maktabning partasidab boshlab binosi-yu o'quv sharoitlarigacha o'rganilib ularni yangilash borasida bosqichma bosqich o'zgartirishlar kiritilib kelinmoqda. Ayniqsa umumta'lim maktabi dasturlar va darsliklar faqatgina nazariy emas balki amaliy ko'nikmalarni, mantiqiy va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishga yo'naltiradigan, xalqaro ta'lim standartlariga javob bera oladiganlariga almashtirildi. Xodimlar malakasini oshirishning har yilgi umumiy davomiyligi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlari uchun kamida 30 soat, pedagog xodimlar uchun kamida 36 soat etib belgilangan. Endi o'qituvchi ta'limdagi zamonaviy va yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun har yil malaka oshirish kurslariga jalb etiladi. Bunga qadar esa O'qituvchining 5 yilda 1 oy, ya'ni 144 soatlik o'quv dasturi asosida malaka oshirishi va qolgan 4 yilu 11 oy hech qanday o'quvga jalb qilinmasdan, bu kabi o'z ustida ishlashdagi uzoq umddatli tanafuslar ulardagi kasbiy malaka ko'nikmalari susayishiga sabab bo'lga edi.

Xo'sh ta'lim sifatini oshirish uchun zamonaviy dasturlar, darsliklar tuzdik, maktab va sinf xonalarini eng so'ngi jihozlar bilan jihozlantirdik, o'qituvchining maqomini oshirish uchun unga ko'plab rag'bat va ustamalar jorey etdik. Ammo tizimda shunday soha borki unga innovatsiyon yondashmasak yaratilgan barcha imkoniyatlarimiz yuqori natija bermasligi bugun yaqqol sezilib qoldi. So'z umum ta'lim maktablaridagi "sinf rahbari" faoliyati haqida bormoqda. Sinf rahbarlik ko'p funktsiyali vazifa bo'lib, unga o'quvchi va yoshlar rivojlanishi, xususan axloqiy-tarbiyasi natijalari uchun jiddiy shaxsiy javobgarlik yuklanadi.

Bugun voyaga yetmaganlar orasida kuzatilayotgan ijtimoiy illatlar, internet, virtual dunyo, globallashuv, deviant xulq-atvor, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish kabi zararli odatlar juda keng ildiz otib bormoqda. Bung sabab oiladagi doimiy kelishmovchilik, olia va atrof-muhitdan qoniqmaslik, uydagi yetishmovchilik yoki shunchaki notog'ri tanlangan do'st bo'lishi mumkin. Ana shu o'rinda bolani salbiy ijtimoiy inqirozdan qutqarib qoluvchi yagona shaxs bu uning sinf rahbari bo'lishi mumkin.

Hammamizga ma'lumki bugun deyarli 70-80 foiz ota-onalarimiz bugun farzandlarining chiroyli kiyinishi-yu, yaxshi ovqatlanishi va unga ta'lim olishi, kelajagi uchun zamonaviy moddiy sharoit yaratish yo'lida halak. O'z-o'zidan kelib chiqadiki tarbiya 2-3 darajali vazifaga aylanib qolmoqda ular uchun. Bu borada esa katta mas'uliyat bugun sinf rahbarlar zimmasiga tushmoqda. 2-3 nafar farzandining tarbiyasiga qiynalayotgan ota-onalarning 25-30 nafariga bugun rahbar pedagoglarimiz o'z mehnatini ayamayapti.

Biz ta'limda juda ko'plab innovatsiyalar qildik ammo sinf rahbari sohasida deyarli yangilik yaratmadik. Umumta'lim maktablarida shunday "sinf rahbari" shtati joriye etish kerakki, uning asosiy vazifasi bola tarbiyasi, uning axloqiy kamolotiga qaratilgan bo'lishi kerak, xuddi prezident maktablari yoki maxsus ta'lim maskanlaridagi tarbiyachilar kabi. Amaldagi sinf rahbar nizomiga ko'ra sinf rahbari maktabdagi tayanch, to'liq stavkada ishlaydigan pedagog o'qituvchi bo'lishi kerak. To'liq stavka degani o'qituvchining har kuni 4-5 soat darsi bor degani.

Darsdan kein u kundalik com. saytida ishlashi va undan so'ng ertangi mavzulari uchun tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida ishlashi kerak. Madomiki unga fani bo'yich yuklatilgan yuklamalari hamiqadar bo'lsa u sinf rahbarlik vazifalarini qachon bajaradi. O'quvchilarning o'sib ulg'ayishini pedogogik nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilar bilan induvidal yondashuv asosida ishlash, ular qalbida vatanparvarlik, milliy g'urur, mehr-muruvvat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik g'oyalarini uyg'otish, voyaga yetmaganlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan "qachon shug'ullanadi?" degan savol tug'iladi.

Bugun kuzatuvlarim shuni ko'rsatdiki maktablarda dars soatlari kam bo'lgan, o'rindosh sifatida ishlaydigan pedagoglarga ham sinf rahbarlik vazifasi berilganiga ham guvoh bo'ldim (soati kam o'qituvchining oylik maoshi ko'proq bo'lishi uchun).

Bu sinf rahbarimiz darslari kamligi uchun erta tongdan kelib o'quvchini maktabga qabul qila olmaydilar yoki darslar tugaguncha maktabda qolib ular bilan darsdan kein ishlashga vaqtlari

bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki bu toifadagi sinf rahbarning ham o'quvchilari bilan ishlashga vaqti bo'lmaydi. Hozir biz tangananing bir tarafini ko'rdik. Tanganing ikkinchi tarafi esa, namunaviy sinf rahbarlari uchun deyarli hech qanday metodik qo'llanmalar va maxsus malaka oshirish kurslarning yo'qligidir.

Xulosa:Bundan shunday xulosa qilinadiki ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyati tubdan isloh qilishga muhtoj bo'lib qolmoqda. Taklifim, umumta'lim muassasalarida shunday sinf rahbarlik shtati joriy etilsinki unga ko'ra ushbu lavozimga qo'yilgan pedagogka bir sinfdagi o'quvchilar guruhining ta'lim va tarbiya ishlarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilsin. Bir sinf rahbarga mahorati va kasbiy natijadorligiga ko'ra 1 va undan ortiq sinflarni boshqarish yuklatilsin va oylik maoshi qayta ko'rib chiqilsin.

Ularning kasbiy salohiyati va tarbiyalash salohiyatini oshirish maqsadida maxsus dasturi qo'llanmalar ishlab chiqilsin. Kuzatuvlarim asosida shuni ayta olamanki mahoratli sinf rahbar qo'lida tarbiya topgan, va qiziqishlari, muammolari bilan alohida ishlangan o'quvchilardan hech qanday huquqbuzarlik, ma'naviy inqiroz, devyantlik, suitsid holatlari kuzatilomaydi va aksincha biz bunday o'quvchidan Yangi O'zbekiston bunyodkorini kashf etishimizga kafilman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Rahimov M., & Shodmanov Q. (2022). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga asosiy yondashuv texnologiyalari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 1267–1271. izvlecheno ot <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7932>
- 2.Ismoilov N.A., Shodmanov Q.O. Professional ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar tahlili. International scientific journal "Science and innovation" ISSN: 21813337. Series B Volume 1 Issue 8 December 2022, 859-864 b.
- 3.O.Hasanov. Liderlar kitobi.-T.,2020

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TO'GARAKLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI

Ostonova Zarnigor Usmonovna
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Kogon tuman 1-maktab



Bolalar- bizning kelajagimiz, shuning uchun ham ularning ta'limiy, ilmiy, insoniy kamoloti doim davlat ahamiyatiga molik masala sifatida qarab kelinadi. Yurtimizda keyingi yillarda maktabgacha va boshlang'ich sinf bosqichiga katta e'tibor berilyapti: maktabgacha ta'lim muassasalari barpo etilyapti, maktab darsliklarining, ayniqsa, boshlang'ich sinflarning, yangi darslik avlodi yaratildi va yaratilyapti. Jumladan, birinchi va ikkinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari bunga misol bo'ladi.

Ta'lim berishning boshlang'ich davri eng ma'suliyatli davr hisoblanadi. O'quvchilarning bu davrda to'plagan bilimlari keyingi davrlar uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bu davrda bolaga puxta bilim va ko'nikmalar berilmasa, u maktabni bitirgunga qadar past yoki o'rtacha bilim egasi bo'lib qolishi mumkin. To'garak mashg'ulotlarida ham o'quvchiga sifatli ta'lim berilsagina ko'zlangan maqsadga yetishish mumkin. Maktablarda tashkil etilayotgan to'garak mashg'ulotlarining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishiga, yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o'quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga qaratilgan bo'lishi lozim. To'garaklar o'quvchi yoshlarga qo'shimcha ta'lim va tarbiya berish bilan birga yoshlarning ongida milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishdan iboratdir.

Bugungi kun pedagoglarining oldiga qo'yilgan eng muhim vazifa kuchli bilimga ega, kreativ fikr lay oladigan, o'rgangan bilim-malakalarini faol hayotida qo'llay biladigan, har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashdan iborat. To'garak mashg'ulotlarini interfaol usullar, qiziqarli amaliy mashg'ulotlardan foydalanib olib borish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Yangi darsliklarga hamohang tarzda to'garaklar tashkil etilsa, ko'zlangan maqsadga erishish oson kechadi. Shu maqsadda, 2-sinf o'quvchilari uchun ona tili va o'qish savodxonligi fanidan to'garak mashg'uloti daftarini yaratdim. Bu to'garak mashg'uloti daftarida 34 ta o'zbek xalq ertaklari jamlangan. Nega aynan o'zbek xalq ertaklari? Chunki o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularni Ona Vatanga mehr-muhabbat hissida tarbiyalash asosiy maqsad qilib olingan. O'quvchilar ertaklarni o'qib bo'lganlaridan so'ng, shu ertak asosidagi topshiriqlarni bajarishadi. Shu o'quv yili davomida respublika miqyosida bu to'garak mashg'uloti daftarim keng qo'llanilib kelinmoqda. Qo'llanmada o'quvchilar turli mavzulardagi ertaklar bilan tanishishadi va shu bilan birga mashq va topshiriqlar, testlarni yechish, turli metodlardagi o'yin-topshiriqlarni bajarishadi hamda qiziqarli savol-javoblarni bajarish, bo'yash orqali fanlararo o'zaro bog'lanish-integratsiyani amalga oshiradilar. Qo'llanmada har bir mavzuga mos rangli rasmlardan foydalanilgan, bu o'quvchilarning tasavvuri va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ertaklar barcha davrlarda ham dolzarbligicha qolaveradi. O'quvchilar ertaklarni o'qib, ulardan hayotning ilk quyma sabog'ini oladi, adolat va ezgulik tantanasiga ishonch ruhida tarbiyalanadi. Ertaklar barcha kitobxonlarda fikrning mardonavorligi va xayolotning shijoatkorligini shakllantiradiki, bu ayniqsa, bugungi misli ko'rilmagan ishlar va kashfiyotlar davrida g'oyat ahamiyatlidir. Bu maqolada 2-sinf o'quvchilari uchun ona tili va o'qish savodxonligi fanidan yaratilgan to'garak mashg'uloti daftaridan ayrim dars namunalarini keltirib o'tmoqchiman.

Gapiruvchi daraxt

Bir yo'lovchi kattakon daraxtning tagida dam olmoqchi bo'libdi. U yotibdi-yu, ko'zi uyquga ketibdi. Bir vaqt o'rnidan turib ketmoqchi bo'lganda hamyoni yo'qolganini payqab qolibdi. Shu yaqin o'rtada bir qishloq bor ekan. Yo'lovchi nima qilarini bilmay, qattiq qayg'urib, yerga yotib dodlay boshlabdi. Uning dod-voyini eshitib odamlar to'planishibdi va: -O'g'irlik bizning yerimizda sodir bo'ldi, ishqilib, hammamiz javobgar bo'lmasak yaxshiydi, - deya har kim o'zicha gapira boshlabdi. Shu o'rtada kimdir borib bu voqeani qoziga yetkazibdi. Qozi hamyon yo'qotgan

musofirni o‘z huzuriga chaqirtiribdi va: -Nega baqirib-chaqirib hammaning tinchligini buzyapsan? – deya so‘roq qilishga kirishibdi.

-Ey hukmi odil, men daraxt tagida uxlab yotganimda hamyonimni o‘g‘irlab ketishibdi. O‘g‘rini qayerdan qidiraman endi, shuning uchun dodlab faryod urishdan boshqa choram yo‘q edi,– deb javob beribdi musofir. Qozi voqea qanday sodir bo‘lganini aniqlagach, daraxtning bitta shoxini kesib so‘roqqa olib kelishni buyuribdi. Odamlar shoxga borib kelgunlaricha qozi hovli o‘rtasida bir o‘ra qazdirib, ichiga o‘z soqchilaridan birini tushuribdi-da: -Mening so‘rog‘imni eshitishing bilan: “Ey qozi janoblari, men odamlarni ko‘zdan kechirib, o‘g‘rini tanib beraman”, degan javobni ber, – deb uqtiribdi. O‘raning ustini yaxshilab berkitishibdi. Odamlar shoxni kesib kelishgach, qozi uni o‘sha yerga qo‘yibdi-da, hech narsa bilmaganday shoxni so‘roq qila boshlabdi.

Qanday buyurilgan bo‘lsa, soqchi ham xuddi o‘shanday javob beribdi. Shu zahoti butun qishloqqa: -Daraxt ham gapirishni bilar ekan, u o‘g‘rini topib berishni va’da qildi, – degan ovoza tarqalib ketibdi. Hamyonni o‘g‘irlagan o‘g‘ri buni eshitgach, bezovta bo‘lib qolibdi. “Ish rasvo bo‘ldi, yaxshisi, o‘zim iqror bo‘lib qo‘ya qolay”, – degan qarorga kelibdi.

Shundan so‘ng u pulni olib, to‘ppa-to‘g‘ri qozining oldiga jo‘nabdi.

1- topshiriq. Audioni tinglang va savollarga yozma tarzda javob bering.

1. Yo‘lovchi qanday daraxt tagida dam olib yotgan edi?

2. Qozi so‘roq qilish uchun nimani olib keltirtirdi?

3. Siz qozining o‘rnida bo‘lganingizda o‘g‘rini qanday yo‘l bilan topa olardingiz?

2- topshiriq (“Munsterberg” metodi asosida). Ertak qahramonlarini jadvaldan toping. Misol uchun : yo‘lovchi...

b	i	l	o	u	o‘	q	k	l
o	p	o	d	sh	o	o	a	m

l	ng	t	g	y	m	z	m	sh
a	ch	u	r	u	g ^ç	i	o ^ç	a
k	n	n	s	v	a	z	g ^ç	r
a	ch	o	l	q	r	y	r	o
y	o ^ç	l	o	v	ch	i	i	z
s	o	q	ch	i	l	m	n	r

3- topshiriq. “Ortiqchasini top” metodi.Ertakka tegishli bo‘lmagan rasmni toping.





KEY CONCEPTS OF DIDACTICS IN THE EDUCATIONAL EFFICIENCY DEVELOPMENT PROCESS

*Nikadambaeva Khilola Batirovna, Nikadambaeva Durdona Ruxullaevna
Uzbekistan Journalism and Mass Communications University*

Abstract. This research paper addresses the issues of identifying the practical importance of didactics in the learning process and the extensive use of critical thinking methods to improve the effectiveness of education.

Keywords: education, effectiveness, creative thinking, independent learning, East, scholars, didactics, science, creativity.

It is expedient to further increase the effectiveness of ongoing reforms, to create conditions for the comprehensive and rapid development of the state and society, to implement priorities for the modernization of our country and the liberalization of all spheres of life [1]. From this point of view, one of the requirements of the period is to determine the practical significance of didactics in the educational process and to establish a wide use of methods for critical thinking in the process of educational efficiency improvement. The use of the scientific and creative heritage of the encyclopedic scholars of the East in the educational process also serves this purpose. The teaching methods used by them can be divided into several groups. These are the demonstration-experimental methods used by Ibn Sina; Abu Rayhon Beruni, Al-Khwarizmi's methods of forming skills and abilities; Farobi and Al-Khwarizmi's methods of testing knowledge, and others. All of them were aimed at strengthening the activities and the logical thinking development of students [4]. For instance, Farobi developed a classification of teaching methods. He divided them into practical and theoretical methods, thus advancing the ideas of the practical direction of teaching and its connection with people's lives and daily activities [3, 78]. Farobi's pamphlet on the advantages of science and art describes the requirements for the organization of the educational process and teaching methods. In his explanations of teaching methods, Al Farobi argues that in addition to imparting a variety of knowledge to students, it is also important to show them ways to learn independently, convincing them of the need for knowledge [2, 327].

The activity of teachers offers great opportunities to shape the student in a purposeful way. In particular, he/she plans the entire learning process, and in this process he/she organizes activities. He/she helps students overcome difficulties and diagnoses their knowledge and the whole process of learning. In turn, activities of students are aimed at learning in the process of education, acquiring knowledge, skills and abilities, preparing themselves for useful activities in society.

Education is the process of physical and spiritual development of an individual; the historical emergence of certain areas of his/her positive deeds, the pursuit for all-round perfection and being exemplary role-model for society. Education is the process of delivering knowledge to students with the help of specially trained specialists and the formation of their skills and abilities, as a means of consciously preparing a person for life and work as an individual. In the process of improving the effectiveness of education, the activity of learners is a multifaceted movement, which greatly helps them in solving cognitive issues.

From this point of view, the basic concepts of didactics include education, educational process, teaching principles, teaching methods, forms of learning, means of teaching, knowledge, skills, qualifications, teaching, learning, and so on. Learning is a pedagogical activity aimed at enhancing the intellectual potential of the student, and is a process of development of human mental activity. Education is accomplished through a conscious understanding of the content of the

learning process.

The educational program is a list of blocks of disciplines that provide the necessary and adequate training in accordance with the qualification requirements for undergraduate and graduate specialties.

The purpose of education is the basis for the creation of any pedagogical technology. The aim is to solve the problems of modern education and upbringing with high efficiency. The most necessary condition for creating a pedagogical technology is to be able to identify such an actual goal. Such a goal is to conduct the necessary research, creative research and other professional works.

The content of education is the amount and nature of knowledge, skills and competencies that a person should acquire in the process of learning. The content of education will have a direction and scope in accordance with the goal. It is formalized and approved in the prescribed manner on the basis of appropriate regulatory documents in the form of educational standards, curricula, programs. The content of education should be properly defined and the possibility of making the necessary changes and updates should be considered. Based on the given content, academic subjects, class hours, types of classes, etc. are determined.

Education management and marketing is a field that determines the development, production and implementation of pedagogical technologies in accordance with modern social, economic and other requirements. In education management and marketing relevant topical areas are identified, proposals for training are prepared, business plans are developed and implemented in an appropriate manner. In order to address these problems, experienced professionals of education management and marketing are involved.

The method of teaching is a joint activity of teachers and students in the educational process, designed for achieving a certain goal. The method of teaching is a way of theoretical and practical cognitive activity for fulfillment of students' learning tasks with the teacher. Teaching methods are understood as methods of achieving learning objectives and ways of theoretical and practical orientation of learning materials. Teaching methods are a way, a method of activity aimed at explaining learning materials and improving them for students. The learning process and results depend on the methods of the teacher, which determine the movement of cognitive activity of students. Therefore, in pedagogy, teaching methods are always understood as methods of the teacher and methods of cognitive activity of students, both of which are meant for achieving learning objectives.

Education monitoring is a system of organization, storage, processing and classification of information about the activities of the pedagogical system, the process of forecasting the state of the observed object and the dynamics of its development in the future. Education monitoring allows one to collect data to monitor the level of mastery of students, the preparation of a set of data needed to compare the level of learning outcomes. Monitoring of education is also a didactic basis for the implementation of the functions of an independent manager, providing prompt communication, showing the relevance of the evidence-based conclusions obtained from the activities of the pedagogical system to its purpose. Monitoring of education is also a didactic basis for the implementation of the functions of an independent manager, providing prompt communication, showing the relevance of the evidence-based conclusions obtained from the activities of the pedagogical system to its purpose. Education monitoring is constantly evolving in the process of regular tracking of research results on a scientific basis (to track the dynamic process) and comparing them with a given standard.

The quality of education is the degree to which the various participants in the learning process are satisfied with the educational services provided by the educational institution, or the level of achievement of the goals and objectives set in education. The category of quality represents a certain stage of human cognition of objective reality. In the early stages of the cognitive process, the object presents itself to the subject with some or more of its properties. In direct emotional perception, quality is seen as a set of many properties. The required level of quality education can be achieved through a certain socio-pedagogical system. This system consists of the following

subsystems: State Educational Standards (SES); normative model of future specialists; criteria and indicators for assessing the quality of learning, as well as monitoring.

In a special sense, the quality of education at the level of “student-teacher” is the level that determines the relationship between the teacher and the student, the activity of students, the correspondence of learning outcomes to education on the basis of conventional criteria. Each independent science should have its own methodology, theoretical foundations, basic concepts and ideas, scientific schools and centers to identify and study certain laws within their research object, to apply them in practice.


In conclusion, aforementioned basic concepts of didactics in the process of improving teaching effectiveness are, in a broad sense, tools that are widely used in the daily activities of every teacher, and creating a healthy competitiveness. Competitiveness defines the appropriateness of each pedagogical technology in terms of the market economy, the extent to which it performs according to societal needs. The focus of such goals on high competitiveness stems from current requirements. Competitiveness is a necessary condition for all components of pedagogical technology, the main indicator of which is the competitiveness of the teacher and the student directly preparing the final result. It requires continuous improvement to guarantee a high demand for it.

References

1. Decree No. PD-4947 “On the Action Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan”.
2. Azizhojaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (Pedagogical technologies and pedagogical skills). – Tashkent: 2006. – P. 159. [In Uzbek]
3. Mavlonova et al. Pedagogika (Pedagogy). – Tashkent: O‘qituvchi, 2001. – P. 512. [In Uzbek]
4. Nikadambaeva Kh.B. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta’lim tizimi misolida) (Methods of using computer technology in teaching “Natural Geography of Uzbekistan” (on the example of the higher education system)). Manuscript. – Tashkent. Mumtoz so‘z, 2015. – P. 264. [In Uzbek]

KO'P NUQTANING SHE'RIY MISRALARDAGI PRAGMATIK XUSUSIYATI

Ismoilova Gulshoda Bahromjonovna
BuxDU filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Toirova Guli Ibragimovna
BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida
professori, filologiya fanlari doktori
tel. raqam: +998 90 299 34 17
e-mail:tugulijon@mail.ru



Annatsiya: Ushbu maqola ko'p nuqtaning she'riy misralardagi pragmatik xususiyatlarini o'ranishga bag'ishlangan. Unda she'riy parchalardagi ko'p nuqtaning ko'rinishlari, ya'ni shoirlarning qaysi she'rlarida qo'llangani va uning xususiyatlari aniqlangan. Olimlarning tinish belgilari borasidagi fikrlari yoritilgan. Punktuatitsiyaning she'riy misralarda qanchalik ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pragmatik xususiyat, uslub, puntuatsiya, ritm, ohang, parallel, ekspressiv indikator

Аннотация: Данная статья посвящена изучению прагматических особенностей многоточия в стихотворных стихах. В ней определяется появление множественных точек в поэтических фрагментах, есть в стихах каких поэтов они употребляются, определяются их характеристики. Освещаются взгляды ученых на пунктуацию, отмечается значение знаков прерывания в поэтических стихах.

Ключевые слова: прагматический, признак, стиль, пунктуация, ритм, тон, параллель, экспрессивный показатель.

Annotation: This article is devoted to the study of the pragmatic features of multiple points in poetic verses. In it, the appearance of multiple dots in poetic fragments, that is, in which poems they are used, and their characteristics are determined. The opinions of scientists on punctuation are highlighted. The importance of punctuation in poetic verses is mentioned.

Key Words: pragmatic feature, style, punctuation, rhythm, tone, parallel, expressive indicator.

Tinsh belgilari yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqa-aralashuvni to'g'ri ta'minlash; yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma'noni aniqlashtirish, farqlash; yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ko'rsatib berish kabi pragmatik xususiyatlarni yuzaga chiqaradi. Tinsh belgilari qo'llanish o'rniga (uslubiga) ko'ra: badiiy asarlarda, publitsistikada, she'riyatda, rasmiy uslubda o'ziga xos vazifa bajaradi. A.P.Chexov «Tinsh belgilari mutolaa payti nota bo'lib xizmat qilishi» ni uqtiradi. Darhaqiqat, tinsh belgilari nutqning ohangi – intonatsiyasiga ishora kilish bilan yetkazilmoqchi bo'lgan fikr, his-tuyg'u ifodasida beqiyos katta ahamiyatga ega. Bu esa, she'rda, she'riy nutqda o'zgacha mohiyat kasb etadi. Shu ma'noda rus shoiri Aleksandr Blok «Haqiqiy shoir qalbining sharhi hamma narsada akslanadi – to tinsh belgilariga qadar...»¹ deb yozgan. Frantsuz shoiri G. Apolliner «Haqiqiy puntuatsiya – she'r ritmi va pazalar» deb izohlaydi. Yuqorida nomlari qayd etilgan mutaxassislar nechog'li haq ekanliklarini kuzatib, quyidagi she'riy parchaga e'tiborni qaratsak:

Go'zallarning malikasi ekansan,
Buni sening ko'zlarinda: o'qidim;
O'qidim-da istiqbolim qushiga,
Xayolimdan oltin qafas to'qidim (Cho'lpon)².

Ko'chirma asliyatga aynan keltirildi, ya'ni parchadagi tinsh belgilari o'sha davrda amal qilgan imlo qoidalariga muvofiq qo'yilgan deya olamiz. Xususan, Fitrat «Nahv»da yozadiki: «(.) – to'qtash belgisidir. Gaplarning oxirlariga qo'yiladi. To'qtash belgisi qaysi gapning oxiriga kelsa, shu gapda o'yning tamom bo'lg'anini, o'zidan keyingi gap bilan hech baylanishi qolmag'anini»

¹ Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.

² Ўзбек ёш шоирлари. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1922, 26-б

bildiradir. Shuning uchun bunga kelgach o'quvchining to'qtashi, undan keyingi gapni yangidan boshlashi lozimdir"¹. Fitrat ta'rifidan ma'lum bo'ldiki, band oxiridagi nuqta Cho'lpon shu o'rindagina «o'y tugagan» deb bilganini ko'rsadi. Holbuki, keyingi nashrlarning deyarli hammasida ikkinchi misra oxirida ham (.) nuqta qo'yilgan, ya'ni bu holda «o'ying tugashi» oldinroq sodir bo'layotir. Fitrat ta'rifidan ma'lum bo'lyapti, band oxiridagi nuqta Cho'lpon shu yerdagina «o'y tugagan» deb bilganini ko'rsadi. Holbuki, keyingi nashrlarning deyarli hammasida ikkinchi misra oxirida ham (.) nuqta qo'yilgan, ya'ni bu holda «o'ying tugashi» oldinroq sodir bo'layotir. Fitrat uqtiradiki, nuqtali vergul «bir-birlariga baylanishli bo'lg'anlari uchun nuqta bilan ajralishlari istanilmagan gaplar orasiga qo'yiladi»². Fitrat nuqtali vergul ishlatiladigan o'rinlarga misol sifatida keltirgan gaplarga e'tibor berilsa, garchi olim ularni jamlab «uyushqon gaplar» desada, bu tushunchaichiga bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni ham kiritib yuborayotgani ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, Fitrat «gaplar orasida «bir tinish» belgisi (;) qo'ymoq yozuvchining ixtiyoridadir. Istasa «bir tinish» belgisi joyiga nuqta ham qo'ya oladi» deb aytadi³. Cho'lpon ikkinchi misradan so'ng nuqta qo'ymagan bo'lsa, demak, qo'yishni istamagani, buni o'zining badiiy niyatiga muvofiq kelmaydi deb bilgani uchun qo'ymagani haqiqatga yaqinroq. Xullas, Cho'lpon mazkur bandni bir butun sintaktik qurilma – murakkab qo'shma gap sifatida tushungan, keyingi nashrlar esa uni ikkita mustaqil gap sifatida taqdim etgan. She'rning qayta nashrlardagi matnlarida kuzatiluvchi boshqa o'zgartirishlar: 1) ikkinchi misradagi ikki nuqtaning tushirib qoldirilishi, 2) uchinchi misra oxiridagi vergulning tushirilishi; 3) uchinchi misra boshidagi «O'qidim-da» so'zidan so'ng vergul qo'yilishini matnni hozirgi imlo va punktuatsiya qoidalariga moslashtirish orqali bugungi o'quvchining qabul qilishini osonlashtirish yo'lidagi harakatlar sifatida, umuman olganda, ma'qullash kerak.

Cho'lponning to'plamlarida ham ko'p nuqtaning turli ko'rinishlarini uchramiz. Masalan, «O'zbek yosh shoirlari» to'plamiga kirgan «Po'rtana», «Sharq qizi», «O'zbek qizi uchun» she'rlarining har birida uch martadan to'rt nuqta (...) belgisi ishlatilgan. «Tong sirlari» to'plamidagi «O'sh kechasi» she'rinda besh nuqta (.....) belgisi ishlatilgan. Shuningdek, kombinatsiyalangan tinish belgilarining ham Cho'lponda turlicha varianti uchraydi: undov belgisi + uchena nuqta (!...), undov belgisi + to'rtta nuqta (!...), undov belgisi + beshta nuqta (!.....). Shu o'rinda Fitrat ta'rifidan anglanuvchi tinish belgilar gradatsiyasini eslash o'rinli: «yarim tinish» (,) – «bir tinish» (;) – «to'qtash» (.)». Shunga o'xshab, Cho'lpon qo'llagan qo'shnuqta (.), uch nuqta (...) va ko'p nuqta (....) (.....) belgilari nutqni bo'layotgan pauza uzunligiga ko'ra farqlanadi. Bu jihatdan qaralsa, quyidagi parcha «Kel, quyosh chiqquncha o'ptir... kel – o'pay bir ertalab...» misrasida pauzalar teng emas: Kel, malak, kel, / kel, pari, kel, / kel – o'pay bir erkalab, / Kel, quyosh chiqquncha o'ptir.. / kel – o'pay bir ertalab... // Kel – quchoqlay, / kel – qo'lingni, / barmog'ingni bir ko'ray, / Kel – ko'zingga ko'z solay, / kel – ko'ray, so'ngra... / o'lay... //

Bizningcha, she'rning o'qilishida pauzalar shu tarzda qo'yilsa, hosil bo'lajak intonatsiya uning mazmun-ruhiga mos tushadi. Ko'rib turganimizdek, pauzaning uzunligi jihatidan qo'shnuqta vergulga, ko'p nuqta esa nuqtaga teng keladi. Ya'ni bu o'rinda ham, Turgenyev misolida aytilgani kabi, «vergul, nuqtali vergul va nuqtani ishlatishimizga parallellik» yuzaga keladi. Bu esa Cho'lpon uchun qo'shnuqta, uch nuqta va ko'p nuqtalar birinchi navbatda ekspressivlik indikatorlari ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi yozuvda ko'p nuqtadan keyin kichik harf bilan yozilishiyoq «yarim tinish» ni, belgining vergulga tengligini anglatadi. Shunisi ham borki, ikkinchi bandan olingan bu misralar she'r butunligida o'qiladi. Ya'ni ilk banda shoir xayoli birdan uchib ketganiyu tizinni bo'sh qo'yib, uni kuzatuvchi maqomida turganini anglatgach o'qiladi bu satrlar: hosil qilingan umumiy emotsional'nyu-mazmuniy fonda qo'shnuqta sanash ohangi va o'ychanlik kayfiyatiga xos intonatsiyaga ishora qiladi. Fikrimizcha, bungacha aytilganlar Cho'lpon she'riyatida qo'shnuqta muallif tinish belgisi sifatida qo'llangan deyish uchun yetarlidir.

¹ Ф и т р а т А б д у р а у ф. Танланган асарлар. Беш жилдлик. IV жил. –Тошкент: Маънавият, 2006, 210-б

² Ўша манба, 211-б

³ Ўша манба, 210-б

Xulosa qilib aytish mumkin, Cho'lpon tinish belgilariga muhim ifoda vositasi sifatida qaraganini ozmi-ko'pmi namoyon etdi. O'zbek adabiy tilining imlo va punktuatsiya me'yorlari hali to'la shakllanmagan, qat'iy qoidaga aylanmagan bir davrda ijod qilgan Cho'lpon ijodida tinish belgilarining ifoda imkoniyatlarini keng namoyish qila olgan. Bu yo'lda dadil tajribalarga qo'lgan. Shu bois ham shoir asarlarining qayta nashrlarini tayyorlashda ularning punktuatsiyasini zamonaviy qoidalarga moslashtirish bilan birga, o'ziga xos jihatlari – muallif tinish belgilarini ham saqlab qolish yo'lidan borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, tinish belgilarini individual qo'llash, asosan, badiiy uslubda kuzatiladi. til'- millat qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgu. Tinish belgilarini noo'rin qo'llash nafaqat gap mazmuni, maqsadi, grammatik qurilishining buzilishiga olib keladi, balki milliy madaniyatning bir qismi bo'lgan yozuvga ham dog' tushiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методikasi, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.– Ижевск, 2004 г. в. б.
7. Чўлпон шеъриятида тиниш белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2020.- №4.- Б.26-33.
8. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Махмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2015.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.
10. Ўзбек ёш шоирлари. – Тошкент: Туркистон давлат нашриёти, 1922, 26-б
11. Хайлова Е. Г. Пунктуация стихотворений И.Ф.Анненского. КД. – М., 2005 г.
12. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.
13. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
14. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.
15. Ф и т р а т А б д у р а у ф. Танланган асарлар. Беш жилдлик. IV жил. –Тошкент: Маънавият, 2006, 210-б

O'ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA AUDIOVIZUAL MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Keldiboyeva Parizoda

Payariq tumani 28-maktab o'quvchisi



Annotatsiya: O'zbek tilini chet tili sifatida o'rgatishda audiovizual materiallardan foydalanish an'anaviy ma'ruza uslubidan chiqib, interaktiv usulda dars o'tish metodlarini qo'llashni taqozo etadi. Bu esa bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda eng oson va samarali usullardan sanaladi. Bu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonini soddalashtirish bilan bir qatorda, ularga qiziqarli mashg'ulot ham bo'la oladi. Bu esa o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitishda tasvirni haqiqiy o'zbek talaffuzi orqali o'rganib sinxron tarjima qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, audiovizual materiallar, yangilik dasturlari, maqolalar, podkastlar, til o'tganish ko'nikmalari.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib, xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgani uchun dunyo xalqlarining o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlari ham ortib bormoqda. Jahonning qator nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili xorijiy til sifatida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, o'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universiteti va 100 dan ziyod maktabida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. Natijada, o'zbek tili chet tili sifatida o'qitiladigan xorijlik talabalarga o'zbek tilida sifatli ta'lim berish, ularning o'zbek tilini tez va oson o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida o'zbek tilida ilmiy metodik bazani shakllantirish va uni boyitish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa ayni vaqtda o'zbek tilini o'qitishdagi ustuvor masalalardan biriga aylandi va metodik ta'minot –kontentlarni yaratishni shart qilib qo'ydi. Biz yangi o'ta rivojlangan texnologiyalar dunyosida yashayapmiz. Bugungi kunda sun'iy aqlga ega turli-uman yangidan yangi qurilmalar, texnik vositalar yaratilmoqda. Ular nafaqat ishlab chiqarishga, balki xonadonlarimizga, hatto zamonaviy ta'lim tizimiga ham jadallik bilan kirib kelmoqda. Ta'limning boshqaruv tizimi, ta'lim jarayonlari to'liq avtomatlashtirilmoqda – o'qitishning yaxlit elektron tizimi yaratilmoqda. Dunyo ta'lim tizimida zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida audio-video va media-axborot mahsulotlarini yaratish va ulardan samarali foydalangan holda til o'rgatish ham allaqachon kafolatli ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Darslarda audio-video va media-axborot materiallardan foydalanish ta'limda audiovizual metod deb ham yuritiladi. Audiovizual (murakkab tarkibli) metod ta'limning audiovizual vositalari (diafilmlar, o'quv filmlari, kinofilmlar, animatsion filmlar, videoroliklar, slaydlar, kliplar)dan va texnik vositalar (radio, televideniye va axborotning elektron vositalari: kompyuter, planshet va smartfonlar)dan keng foydalanishni nazarda tutadi. Audiovizual materiallardan til o'rgatish darslarining istalgan bosqichlarida, nutqiy faoliyatning barcha turlarini shakllantirishda, ayniqsa, nutqni eshitib tushunish va gapirishga o'rgatishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Shunisi xarakterliki, darslarda qo'llanadigan audiovizual materiallar, xususan, videolar tilni jonli kontekstda taqdim eta oladi. Darsni real dunyo bilan bog'lay oladi va tilni harakatdagi muloqot vaziyati bilan ko'rsatadi. Bu esa talabalarning arsenalida mavjud bo'lgan til materiallarini boyitishga xizmat qiladi. Video materiallar talabalarga nafaqat ona tilida so'zlashuvchilarning jonli nutqini taqdim etadi, balki ular muloqotga kirishgan til egalarining imo-ishoralari va yuz ifodalarini ko'radi, xullas, til o'rganuvchilarni o'rganilayotgan til vaziyatiga olib kiradi. Shuningdek, videolar til o'rganishdagi madaniy to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi. Yaratilajak darsda qo'llanishi nazarda tutiladigan audio-video va media-axborot materiallar o'tilishi rejalashtirilgan darslarning mavzusi va mazmuniga mos kelishi, ulardan tizimli va oqilona foydalanish texnikasini ishlab chiqish o'ta muhimdir. Shundagina ular darsning uzviy mazmuniy qismiga aylanadi va ularning samaradorligi yanada oshadi. Shuningdek, audiovizual materiallarning samarasi til o'rganuvchi o'quvchilarning kommunikativ madaniyati va intellektual salohiyati qay darajada shakllantirilganiga ham qarab belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar mavhum va yangi tushunchalarni og'zaki va vizual shaklda taqdim etilganda osonroq o'rganadilar. Boshqa tadqiqotlarga

ko'ra, vizual axborot vositasi odamlarga matnli axborot vositalariga qaraganda tushunarli bo'ladi va keyinchalik eslashga yordam beradi. 2009-yilda o'tkazilgan Willingham tadqiqotida u o'z fikrini bildirish uchun oddiy savolni so'raydi: "Nega talabalar televideniyaedagi hamma narsani eslashadi va biz o'rgatgan narsalarni unutishadi?" "Chunki vizual media o'quvchilarga tushuncha va g'oyalarni saqlab qolishga yordam beradi", - deb javob beradi amerikalik tadqiqotchi Willingham. Shuningdek, filmlar, hujjatli filmlar, teleko'rsatuvlar va musiqa kabi bir tomonlama aloqa vositalarining imkoniyatlarini kengaytiradigan o'quv muhitini yaratish uchun texnologiyaning hal qiluvchi rolini qayd etadi. Audiovizual materiallardan nutqning to'rtala ko'nikma shakllarida ham foydalanish mumkin. Buning uchun me'yor va yosh-xususiyatlarini chegaralab, bilim darajasini ham aniqlab olish muhimdir. Masalan, biz boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarga siyosiy yangiliklar haqidagi videoni qo'yib ko'rsatolmaymiz. Shuningdek, universitet talabasini ham bolalar uchun mo'ljallangan kichik ko'rsatuvlarni tomosha qilishga majburlay olmaymiz. Shunday ekan, har bir audio-vizual materialni taqdim etishdan oldin uni kimga namoyish etmoqchi va qanday uslubda yetkazmoqchi ekanligimizni belgilab olishimiz lozim. Tinglab tushunish (Listening skill) ko'nikmasini rivojlantirish uchun biz o'quvchilar bilan audio materiallar, jumladan radioeshittirishlardan, turli mavzulardagi podkastlar, estrada qo'shiqlari, monolog va dialoglardan foydalanishimiz mumkin. Bunda ular eshitish orqali raqamlarni, joy nomlarini, ismlarni, soat vaqtlarini topishlari yoki bo'sh kataklarni, tushirib qoldirilgan so'zlar bilan gaplarni to'ldirishlari kerak bo'ladi. Ushbu vazifalar til o'rganuvchilarning eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning nutqiy ko'nikmasi, ya'ni so'zlashuv mahoratini ham oshirishga xizmat qiladi. O'zbek tilida taqdim etiladigan matnlar orqali biz xorijliklarda o'qish mahorati (reading skill) ni oshirishimiz, bunda ham media manbalaridan foydalanishimiz mumkin. Jumladan, o'zbek tilidagi gazeta va jurnallar, masalan, "Xalq so'zi", "Hurriyat" kabi qator bosma nashrlarda berilayotgan, xabar, yangilik va maqolalarni o'qish, tahlil va tahrir qilish orqali til o'rganuvchilarning ham o'qish mahorati ortadi, ham o'zbek tilida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Yozish mahorati (writing skill) ni oshirishda ham biz media mahsulotlariga tayansak bo'ladi. O'quvchilarga turli kichik sahna asarlari uchun ssenariy tayyorlashni yoki gazeta uchun ularning o'zlari maqola, xabar yoki yangiliklarni o'zbek tilida o'zlari yozishlari haqida topshiriq berish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi bir qancha bosma nashrlarni o'qib, tushungan mazmuni bo'yicha kichik bayon yozishni topshirish ham yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda samarali bo'ladi. Internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar haqida ham xuddi shunday fikr yuritsak to'g'ri bo'ladi. Xorijlik o'quvchilar bajonidil You Tube tarmog'ida o'z videolarini, boshqa ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga ma'lumotlar joylashlari va bir-birlarining virtual sahifalariga shaxsiy munosabatlarini yozishlari mumkin. Bu esa albatta ularning yozuv ko'nikmasiniyanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Birgina talab, yo'naltiruvchi o'qituvchi til o'rganuvchilarga har bir fikrni badiiylashtirilgan me'yorlar asosida yozishlarini ta'kilashi lozim. Gapirish mahoratini rivojlantirishda ham medianing barcha turlaridan bimalol foydalanish mumkin. Misol uchun, filmlarni shunchaki tomosha qilish emas, balki, o'zlarini aktyor va aktrisalardек tutishlari, shuningdek, ular kabi rol ijro etib, ularning aksentini o'zlashtirgan holda faollarni qaytarishlari kerak bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ommabop audio-vizual materiallar (filmlar, musiqa, YouTube) til o'rganuvchi har bir shaxs uchun tanish vosita bo'lib, ular e'tiborni jalb qilishga va muhokama qilinayotgan nazariyalar va tushunchalarga o'quvchilarning qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Chunki ular nazariya va tushunchalarni amalda ko'rishlari mumkin. Majoziy ma'noda, nazariya va tushunchalar ekrandan sakrab chiqadi. O'quvchilar o'zlari o'rganayotgan nazariyalar va kontseptsiyalar yordamida vositalarni tahlil qilib, analitik ko'nikmalarini oshirishi mumkin. Darsda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o'quvchilarga televizor ko'rayotganda, musiqa tinglashda yoki do'stlari bilan kinoda bo'lganida tushunchalar va yangi misollarni ko'rish imkonini beradi. Shu boisdan ham, o'zbek tilining chet tili sifatida o'qitilishida ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish eng samaraliusullardan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktikuslubiy masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.
3. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil

ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Rashidov Saydulla To'lqinjono'vich

*Akademik B.G'ofurov nomidagi Xo'jand davlat universitetining o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi*



Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlar va ularning mazmuni xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, metod, texnologiya, interfaol, bayon qilish, suhbat, muammoli vaziyat.

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. "XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir" [1]. Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadali, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kichadi. [2]. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Ona tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi. Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz - sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelinmoqda. Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon qilish metodi o'quvchilarning yoshi va eslab qolish holatidan ke'ib chiqqan holda 3-5 daqiqaga mo'ljallangan. Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savo - ljavob metodi deb ham yuritiladi. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muammoli o'qitish metodi sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga

katta ta'sir ko'rsatadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan I sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq I sinfdan boshlab beriladi va u asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. I sinfdan "Yozgan so'zlaringizni lug'atdan tekshiring", "Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing", "Rasmni kuzating. Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing" kabi topshiriqlar beriladi. Analiz-sintez metodi savod o'rgatish darslariga rustuzem maktablari va tatar o'qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. Ona tili ta'limi jarayoniga analiz tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib o'rganilgan grammatik materialni yaxshilashdir. Masalan, ot, sifat, fe'l, son kabi so'z turkumlari o'rganilayotganda ularga oid so'zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so'zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo'ladi. Analiz - sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol - topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. - Toshkent, 2008.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T.: "Sharq", 2013.
4. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
5. Golish L. V., Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., "Iqtisodiyot", 2012.
6. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
7. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

YOZMA NUTQDA TINISH BELGILARNING AHAMIYATI

Homidjonova Zuhraxon Bahromjon qizi
Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Toirova Guli Ibragimovna
BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası
professori, filologiya fanlari doktori
tel. raqam: +998 90 299 34 17
e-mail:tugulijon@mail.ru



Annotatsiya: Ushbu maqolada punktuatsion belgilarning gapdagi ahamiyati va yozma nutqda qo'llanishi haqida so'z boradi. Yozma matnning mazmuni, ma'no turlari(ottenkalari), sintaktik qismlari(strukturasi), bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, nutq, yozma nutq, personaj, darak gap, sarlavha, grafik vosita, nutq madaniyati

Puntuatsiya so'zi lotincha punktium (punkt-nuqta, belgi, shakl) so'zidan olingan bo'lib, uch ma'noda ishlatiladi: tinish belgilari sistemasini o'rgatuvchi bo'lim, tinish belgilarning qo'llanish qoidalari va tinish belgilari ma'nolarida yuritiladi. Puntuatsiya tinish belgilarning qo'llanish haqidagi yagona qonun-qoidalar yig'indisidir. Puntuatsiya tinish belgilarning miqdori, funksiyasi, qo'llanish sistemasi va tartibini o'rgatadi. Harflar yig'indisi alfavitni, to'g'ri yozuv qoidalari yig'indisi orfografiyani, to'g'ri talaffuz normalari orfoepiyani tashkil etganidek, tinish belgilar sistemasini punktuatsiyani vujudga keltiradi.

Nutq- tilning fikr ifodalash va almashinish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)tushuniladi.

Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Yozma matnning mazmuni, ma'no turlari(ottenkalari), sintaktik qismlari(strukturasi), bu qismlar orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining roli muhimdir. Yozma nutqda u yoki bu tinish belgining qo'llanishi ma'lum bir sistemaga asoslanadi. Bu sistema, avvalo o'zbek tili gap qurilishiga bog'liq holda belgilanadi. Chunki "butun til qurilishining gapdadir" (A.A.Shaxmatov).

Tinish belgilarning gap oxirida qo'llanishiga misol qilib nuqtani olish mumkin. Nuqta va uning qo'llanilishini ko'rib chiqsak. Darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ma'lumki, darak gaplardan xabar ma'nosi ifodalanadi, voqea-hodisa ta'kidlanadi. Shuningdek, ulardan iltimos, nasixat, orzu-istak, gumon, qat'iylik kabi ma'no ottenkalari ham anglashiladi. Masalan: Hozir men Toshkentdaman. Yodgor o'z Agar alohida emotsionalikka ega bo'lmasa, buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi: Foyda chiqadigan tomonini ko'zlayvering(A.Qahhor). Erkalikni Begimqulga qiling(Odil Yoqubov).

Dramatik asarlarda har bir personajning nomidan so'ng nuqta qo'yiladi va uning gapi bosh harf bilan boshlanadi. Masalan:

Dadavoy. Ordenlarimni olib chiq!

Bahor. Shu topda ordenni nima qilasiz?

Dadavoy. Kerak... Medallarni ham olib chiq! (U.U.)

Ba'zan nuqta murakkab raqamlarni sinflarga bo'lib ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Bunda murakkab sonlarni o'qish osonlashadi, metodik izchillik, qulaylik vujudga keladi: 4.500.000 tonna "oq oltin" kabi.

Yana bir tinish belgilardan biri bu ko'p nuqtadir. Sizlar bilan ko'p nuqtaning qo'llanishiniyam ko'rib chiqsak. Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga ko'p nuqta

qo'yiladi: To'yni kelasi yil qilsak qilarmiz... (A.Qahhor). Poyezdga bilet olib qo'ygan bo'lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa... (A.Qahhor).

Gapdagi turli uzilishlarni ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: Hay-hay, ukam, shundoq baobro' odam sizni ko'rgani kelsa-yu, siz xursand bo'lish o'rniga...(A.A'zam)

Mazmuni aniq ochilmagan gaplardan keyin ko'p nuqta qo'yiladi va undan keyin shu mazmunni ochadigan gap keltiriladi: 1914-yil... Shu yildan o'zbek she'riyati osmonida "Cho'lpon" degan mitti yulduz charaqlay boshladi.(N.Karimov)

Matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko'rsatish uchun gap boshiga ko'p nuqta qo'yiladi: ...Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi.(O'.Hoshimov)

Sarlavha vazifasida qo'llangan gaplardan keyin mazmun taqozosiga muvofiq ko'p nuqta qo'yiladi: Bir yigit kuylar ekan... (Oybek. She'r sarlavhasi) Iztirob ekan-ku muhabbat... (X.Do'stmuhammad. Hikoyalar turkumining nomi.)

Xulosa qilib aytganda, tinish belgilarning gapdagi o'rni muhim hisoblanadi. Agar gaplarda tinish belgilarni tushirib qoldirsak yoki tinish belgilarni noo'rin qo'llasak gapdagi ma'no, mazmun buziladi. Shunday ekan punktuatsion belgilarni o'z o'rnida qo'llash joizdir. Hozirgi kunda punktuatsiyaning roli ortib, uning funksiyasi va qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Bu hodisa respublikamizda matbaachilik, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi, o'zbek yozuv madaniyatining taraqqiy etishi, kishilar savodxonligining oshishi va ularning o'z amaliy faoliyatlarida nutqning barcha formalaridan foydalana olishlari, adabiy til ta'sirining kengayishi, adabiy til funksional stillarining paydo bo'lishi va takomillashuvi- nutq madaniyatining keng ko'lamda ravnaq topishi va o'sishi bilan izohlanadi. Punktuatsiyaning tilshunoslikning boshqa sohalari: sintaksis, orfografiya, grafika bo'limlari, shuningdek, adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi fanlari bilan hamkorlikdagi taraqqiyoti davomida oydinlashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси луғати. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.– Ижевск, 2004 г. в. б.
7. Чўлпон шеъриятида тиниш белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2020.- №4.- Б.26-33.
8. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Маҳмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2015.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.
10. Хайлова Е. Г. Пунктуация стихотворений И.Ф.Анненского. КД. – М., 2005 г.
11. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.
12. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
13. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.

ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN POLYLINGUAL EDUCATIONAL SPACE

Homidova Zarnigor Odil qizi

Buxoro viloyati, Peshku tumani 31-IDUM 1 toifali ingliz tili fani o'qituvchisi



Annotation. This article considers multilingual education as relevant direction of development of the modern educational system. Organization problem updated English lessons in a multilingual environment. English teaching technologies are described language that may be applicable in multilingual schools. The article presents such technologies like CLIL, LLAC and gaming technologies.

Keywords: multilingual educational space, multilingualism, student, English lesson, CLIL, LLAC, game technologies, language, culture, literature.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'p tilli ta'lim zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishi sifatida ko'rib chiqiladi. Tashkilli muammosi ko'p tilli muhitda ingliz tili darslari yangilangan. Ingliz tilini o'qitish texnologiyalari ko'p tilli maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiflangan tildir. Maqolada kontent va tilni integratsiyalashgan o'rganish, til adabiyoti, badiiy madaniyati va o'yin texnologiyalari kabi texnologiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ko'p tilli ta'lim maydoni, ko'p tillilik, talaba, ingliz tili darsi, kontent va tilni integratsiyalashgan o'rganish, til adabiyoti, badiiy madaniyati, o'yin texnologiyalari.

The process of introducing Uzbekistan to the international community, the integration of peoples and languages, the formation and change of relations between Uzbeks and foreigners, new goals of communication - all this serves as a prerequisite for the emergence of new requirements for specialists, which, in turn, is reflected in theory and practice of multilingual education.

Modern researchers and scientists are significantly reconsidering their views on the problem polylingualism and its influence on modern education. The labor market is increasingly the need for specialists who speak several foreign languages and are able to use them in social and professional communication.

Sociologists note that the participant in interlingual business communication who owns knowledge of more foreign languages, can understand the mentality of a representative of a foreign language culture, which is the most important aspect in the multilingual training of students. This means that multilingualism is becoming an integral component of modern education.

According to A. Sores, employers should give preference to multilingual candidates or those who speak at least one foreign language when hiring. employees with knowledge of a foreign language communicate better, cooperate successfully, negotiate and come to a compromise.

One of the most important methodological problems in the modern educational space is the organization of the learning process in a multicultural environment, which will ensure the study of a foreign language as a phenomenon of the national culture of other peoples through the student's awareness of the differences between the culture, mentality of the people of the country of the language being studied and the native country.

The study of a foreign language involves a wide and varied use of interdisciplinary connections, is characterized by multi-level, multi-functionality, humanitarian orientation, focus on personal development and its social adaptation to the conditions of a rapidly changing multicultural and multilingual world.

Teaching a foreign language in a multilingual environment should be based on the principles of developmental education, its individualization, the dialogue of cultures, and the principle of an integrative approach. Under such conditions, the integrative approach is understood not as the teaching of a foreign language and other subjects in interconnection, but as the creation of optimal conditions for the manifestation and development of various types of personality activity in English classes.

For the effective and productive organization of a multilingual educational space in an English lesson, it is necessary to use a variety of pedagogical technologies that contribute to the appropriation of the meanings of self-development and self-improvement by a person, which involves changing the nature and method of learning languages in order to prepare a multilingual personality.

So, in teaching English, CLIL technology (Content and Language Integrated Learning, or subject-language integrated learning), which is one of the most common pedagogical technologies, can be used. The use of this technology during the lesson involves the study of the subject through a foreign language, and a foreign language through the taught subject. To implement the CLIL technology, it is necessary to form multilingual groups (purposefully select a specific audience that is suitable for learning several languages), as well as adhere to the components of the technology.

The use of CLIL technology requires taking into account several aspects: the choice of a topic of interest to students, the choice and selection of lexical material according to the level of language proficiency of the group, the choice of appropriate grammatical structures, the mandatory use of text and reliance on it, and the compilation of a bright graphic organizer. Accounting for the latter aspect is mandatory, since a graphic organizer is a written communication toolkit that contributes to the representation of a student's knowledge and competencies. Thus, the compilation of such an organizer contributes to the activation of the cognitive activity of students.




Figure 1. Components of CLIL technology.

Despite the fact that CLIL is, first of all, teaching general knowledge, and not multilingualism, the following elements of this technology can be applied in an English lesson in a multilingual space:

- 1) "5 Minute Interview Activity" (five-minute interview) involves writing on stickers questions in a foreign language that you would like to ask a teacher or classmate;
- 2) "ABC dictation" (dictation) involves recording answers to questions asked by the teacher, for example, "What associations do you have when watching this video?";
- 3) "Question Loop" or "Question Loop", in which students answer questions on one topic on one side of the sheet, and on the other side - to another question;
- 4) "True - False Dictation" or "True or False", while the truth is written in the native language, and the lie in a foreign language.

Along with CLIL, the LLAC technology is distinguished, another tool for studying and learning about the culture, traditions and speech characteristics of the countries of the language

being studied. The essence of the technology is to decipher each letter of the abbreviation of the technology name: L - language, L - Literature, A -Art, C - Culture).

The technology is aimed at developing the individuality of the individual through the study of languages. There are 3 stages of the implementation of the "LLAC" technology: diagnostic stage (initial level education of students in a multilingual educational space), the design stage (game methods with the inclusion of a cultural and multilingual component), the organizational and creative stage (interaction and communication in a multilingual educational space through concepts "I want" - "I know" - "I do" - "I evaluate and create").

Thus, technologies such as CLIL, LLAC and game technologies can be used in English lessons in a multilingual educational space. It should be noted that the pedagogical tools of the teacher's activity are diverse, which is primarily due to the fact that in modern pedagogical practice a wide range of pedagogical technologies has been formed, the potential of which allows you to optimally organize a multilingual educational the space of a modern school in the framework of the training of future specialists.

LITURATURE:

1. Gizatullina, A., Sibgatullina, A., Forming a foreign language teacher's professional competencies in a multilingual educational environment / A. Gizatullina, A/ Sibgatullina // Journal of Social Studies Education Research. - 2018.
2. Kiseleva, L. S. Innovation in scientific and pedagogical activity: a tutorial/L. S. Kiseleva. - Moscow: Prospekt, 2018.
3. Mosienko, L. S. Didactic possibilities of gaming technologies in multilingual education / L. S. Mosienko // Innovative development of modern science: problems, patterns, prospects. - Penza: Science and education, 2019.
4. Tekeeva, M. B. Teaching a foreign language in a multilingual environment / M. B. Tekeeva // World of science, culture, education. - No. 1 (56). - 2016
5. Truntova, E. S. Professional education of managers in the context of multilingualism / E. S. Truntova, O. A. Volkova // Education and society. - No. 5. - 2010.
6. Khazhgalieva, G. Kh. Organization of the multilingual educational space of the university / G. Kh. Khazhgalieva // Problems of modern pedagogical education. –2018.
7. Checheva, N. A. The development of soft skills among cadets in the process of teaching a foreign language / N. A. Checheva// Internet journal "World of Science", 2018.
8. Haydarov A., Choriyeva Z. Semantic-grammatical and methodological psychological aspects of phrasal units in English. The lexical-semantic system of the language and comparative typological research: assessment, a collection of diachrony materials. - T.: Editor. 2012.

ABDULLA QODIRIYNING MA'NAVY MEROSI

Valijonova Nigora Bahtiyor qizi

Namangan viloyati Namangan shahridagi

Turan international unversitetining 1-bosqich talabasi

Telefon: +998948162266

Tulippilut507@gmail.com



Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriy ijodining serqirra ekanligi, “O‘tkan kunlar” asarida o‘quvchi ma’naviyatini yuksaltiruvchi omillardan biri kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan lavhalar tahliliga bag‘ishlandi. Shuningdek, muallif o‘z kelayotgan yosh avlod ongida adabiyotni sevish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda adabiy asar mutolaasining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlagan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, mutolaa, kitobxonlik, ijod, sog‘lom muhit

Adabiyot cheksiz ummon, u sarxad bilmaydi. Unda ko‘plab buyuk shaxslar bilan birga kichik havaskorlar ham ijod qiladi. Ijodkorlardan ayrimlarigina adabiyotda tub burilish yasaydi, uni yangilaydi. Bunday daholardan biri, shubhasiz, Abdulla Qodiriydir. U o‘z asarlari bilan nafaqat O‘zbekiston, balki Turkiston xalqlari ma’naviy ravnaqiga hissa qo‘shgan.

Or-nomus, insof va haqgo‘ylik hayotining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan Abdulla Qodiriyning tabiat in‘om qilgan iste’dodi chinakam o‘zbekona mehnatkashlik bilan uyg‘unlashgani uchun qalamidan asrlar mobaynida eskirmaydigan asarlar yaraldi. Uning asarlari har bir o‘quvchi ma’naviy dunyosining shakllanishida alohida ahamiyatga ega. U yaratgan Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor obrazlari insonlardagi ijobiy xislatlarni qadrlash tuyg‘usini kuchaytiradi.

Muallif o‘z tili bilan -Tasvirga qalam kuchi ojiz...-deb ta’kidlasa-da, asar mutolaasi jarayonidagi so‘z bilan ifodalangan ezgulik kishi ruhini poklaydi. Kumushning ota-onasi misolida kamdan kam asarlarda uchraydigan, o‘zbek millatiga xos chinakam oilaviy sog‘lom muhitni ko‘rsatadi. Mirzakarim qutidor Otabek tomonidan kelgan sovchilarga shunday javob beradi: “Otabek kabi bir yigitni o‘g‘il qilish sharafiga noil bo‘la olsam o‘zimni eng baxtli otalardan sanar edim, ammo bu to‘g‘rida hamma ixtiyor o‘z qo‘limda bo‘lmay, orada ko‘krak suti berib o‘stirgan xotin ham bor...”-deya qutidor xotini oftob oyim bilan maslahat qiladi. Qarang bu oiladagi muhit qanday go‘zal.

Qutidor tomonidan aytilgan shu bir gapning o‘zi oiladagi o‘zaro hamjihatlikni, hurmatni ko‘rsatadi. Asarni o‘qiyotgan har bir ota mulohaza qiladi, ehtimol ayrimlari o‘rnak ham olar, asarni mutolaa qilayotgan ona esa muallif idrokiga, tasvir mahoratiga taxsin o‘qiydi. Mana nima uchun bu asar xalq orasida sevimli?

-Abdulla Qodiriy asarlari o‘quvchi ma’naviyatini yuksaltiradi,- deya baho beramiz. U yaratgan “O‘tkan kunlar” asarining ma’no mundariyasi, ifoda tili doirasi nihoyatda keng. Bu asarni o‘qir ekanmiz adib ziyoli inson sifatida o‘quvchilarning kitob o‘qishiga turtki berib o‘tadi. Otabek tilidan aytilgan “Fuzuliyning yaxshilab o‘qish kerak” degan so‘zlari, unga qo‘shimcha ravishda Kumushning “Fuzuliy yaxshi kitob, men ham yolg‘iz qolgan kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim...” lavhalarini ilk bora o‘qigan kitobxon, Fuzuliyning qanday ijodkor ekanligini ham, uning she‘rlarining “ta’m”ini ham bilmasligi mumkin, lekin shunisi aniqki, Fuzuliyga va uning ijodiga nisbatan qiziqish uyg‘onadi. Ba’zi kitobxonlar uchun Fuzuliy ijodi bilan tanishishga sabab bo‘ladi. Asarda Otabek faqat Fuzuliyning emas, “Boburnoma”day muhtasham asar mutolaasi bilan ham mashg‘ul bo‘lishi bayon qilingan: “...Hasanali o‘z hujrasidan kiyinib chiqdi-da Otabek yoniga kirdi. Otabek “Boburnoma” matolaasi bilan mashg‘ul edi”.

Fuzuliy devoni va “Boburnoma” kitoblarining qaysi jihatlari Otabekni maftun qilgan. Adib o‘z qahramonini kitoblar mutolaasi orqali, ulardagi ma’naviy ozuqasi tufayli “Xon qiziga loyiq bir yigit” darajasida kamolga yetganligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Yozuvchi ma’lum ma’noda xalq orasida kitob mutolaasini targ‘ib qilgan. Kitob mutolaasining naqadar qiziqarli, zavqli jarayon ekanligini, bu jarayonda o‘quvchi bir zum o‘z iztiroblarini, turmush tashvishlarini unutishini

mahorat bilan tasvirlaydi: “Otabek xufton namozidan so‘ng turmush tashvishlaridan forig‘ bo‘lish kayfiyatida, moychiroq yoniga o‘tirib, Fuzuliy devonini qo‘liga oladi. Nima sababdandir unda “biror fojeaga tushkuvchilik holati bor edi. Kishi iztirobga tushgan kezlarida tilab emas, ixtiyorsiz ba’zi bir ishlarga urinadir”. Shuningdek, u ham jiddiy bir ravishda Fuzuliy mutolaasiga berildi”, - deya kitob mutolaasi insonga ma’naviy ozuqa berish bilan birga, turmush tashvishlarini, tushkunlikni bir zum unutishga yordam berishini aytib o‘tgan.

“O‘tkan kunlar” asarining badiiy asar sifatida umrini uzaytirgan, uning hozirgi muxlislar nazarida ham qadr-qimmat topganligining bosh omillaridan biri – unda kitobxonni o‘ylashga, mushohadaga undovchi san’atkorona badiiy tasvir vositalarining mavjudligi bilan birga, o‘z xalqini kitob mutolaasiga undovchi, targ‘ib qiluvchi jihatlarning borligi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. Toshkent “Adabiyot uchqunlari” 2018-yil
2. Xurshid Do‘stmuhammad. Ijod - ko‘ngil munavvarligi. Toshkent. “Mumtoz so‘z” 2011-yil.

KO'P NUQTANING PRAGMATIK XUSUSIYATI

Jahonova Dilyorabonu Avaz qizi
BuxDU Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Toirova Guli Ibragimovna
BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida
professori, filologiya fanlari doktori
tel. raqam: +998 90 299 34 17
e-mail:tugulijon@mail.ru



Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'p nuqtaning pragmatik xususiyati haqida so'z borgan. Ko'p nuqta qayerda, qanday maqsadda foydalaniladi. Matn ichida kelganda qanday ma'no bildirib kelganini yozuvchi ko'p nuqtaning qanday maqsadda kelishi haqida bilib olamiz

Kalit so'zlar: Punktatsiya, ko'p nuqta, ko'p nuqtaning qo'llanishi, ko'p nuqtaning maqsad vazifalari,

Punktatsiya-“nuqta”, “joy” degan ma'nolarni bildiradi. Tinish belgilari va ularning qo'llanishi bilan bog'liq qonun-qoidalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi punktatsiya sanaladi.

Gazetada dastlab ishlatilgan tinish belgilaridan ikkinchisi ko'p nuqtadir. Ko'p nuqta gazetaning 1872-yilgi 18-sonidan (4-bet) boshlab ishlatilganini ko'ramiz: dastlab rasmiy qog'ozlarda (turli hujjatlar, hisob-kitob, pochta qog'ozlari va e'lonlarda) qo'llanilgan. Gazetaning 1877-yilgi 22-sonidan boshlab gap oxirida ham qo'llanila boshlagan; 1879-yildan esa jumla o'rtasida, gap qismlari orasida ham ishlatilganini uchra-tamiz; 1901-yildan boshlab so'roq, undov kabi boshqa tinish belgilari bilan birgalikda (qo'sha) qo'llanilganini ma'lum. Ko'p nuqta quyidagi hollarda ishlatiladi:

Mazmunan tugallanmagan gaplar oxiriga ko'p nuqta qo'yiladi.

Masalan: To'ra biroz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonni ko'rsatdi:

- Mana shu imperiya ...

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho'lpon)

So'zlovchining cheksiz his-hayojonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun

Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'laydi.

-Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim,- deya yig'ladi. Bechora xalq-a, bechora xalq-a ... (T. Murod)

Qish... butun atrof oppoq libosda...

Matn yoki jumla qisqartirilsa

Anavi kuni menga bir oyat aytib edingiz. -Xo'sh, xo'sh? - Ilkimdan kelguncha... - deb boshlanar edi. - Ha -ha, bo'tam, lekin bu oyat emas hazrat Navoiyning hikmatlaridir. (X. To'xtaboyev)

Fikr bo'lib- bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa

Muhammadniyoz yolg'iz: - Turkistonda birinchi m...m...artoba tia...t...tr,- dedi-da fikrga toldi. (A. Cho'lpon)

Suhbatdoshning gapi javobsiz qoldirilsa:

-Manavi deb eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?

-...

-Tushundingizmi, deya paman?

Tushurib qoldirilgan harf, raqam, so'z kabilari o'rnida:

Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib ko'chirib yozing. Xayri...oh, a...loq, ...abar, xatti-...arakat

Raxmatning bu so'zi bilan Otabek xayolidan bosh ko'tardi:

Xudo xohlag'an vaqtda bo'larmiz...

Ushbu gapda ko'p nuqta mazmunan tugallanmay qolgan gaplar orasida ishlatilgan

-Bunda ovora bo'lish degan narsa yo'q. Iloji bo'lsa, sizni bu saroydan havlig'a ko'chiramiz. Hozirga bir kunni tayin qilib bizga mehmon bo'lingchi... (A. Qodiy. "O'tgan kunlar")

Ushbu gapda ham gap mazmunan tugallanmay qolgani uchun ko'p nutqa ishlatilgan.

Borar bir, kelar bir,

Baribir qo'shig'i : "g'ir-g'ir..."

Ushbu topishmoqni javobini hammamiz bilamiz ya'ni Arradir. Arra ishlaganda bilamiz "g'ir-gir" ovoz bilan to'xtab qolmaydi, u yana ishini davom ettirganda yana ovoz chiqaradi. O'z – o'zidan korinib turibdiki bu ham mazmunan tugallanmagani uchun bu yerda ko'p nutqa ishlatilgan.

Voqealarning tez o'zgarishi, personajning turli his-hayajoni va holatini ko'rsatuvchi gaplar oxiriga ko'pnuqta qo'yiladi. Bunday gaplar semantik va struktura jihatidan xilma-xil bo'ladi. Masalan:

-Bu tun ... Bu tun tushimda ... Ustodni ... ko'rdim... - debdi- yu yana xayolga cho'mdi. (O. Yoqubov "Ulug'bek xazinasi")

Ushbu gapda birinchi va ikkinchi ko'p nuqtalar so'zlovchining hayojonini ifodalab kelgan. Buni mazmunidan bilsak bo'ladi, ustozni buyuk shaxs bo'lgani va o'sha paytda o'g'li tomonidan azoblanayotgan edi. Buyuk insonni tushida ko'rganidan hayonlanadi, punkuatsion jihatdan ko'p nuqta ishlatilgan. Uchinchi ko'p nuqta esa uning gapi oxiriga yetmagan u tushida nimala bo'lganini aytmagan uning asosiy qismini ya'ni nimadan ta'sirlangan haqida gapiradi gapini tugallamaydi. Gap tugamasa ko'p nuqta ishlatiladi.

... Derazalariga og'ir kimxob darpardalar tutilgan, devorlariga qirmizi eroniy gilamlar osilgan sarishta go'sha bo'm-bo'sh, Bibi Yulduz, chamasi, xilvatxonaning qoq o'rtasidagi shohi parda orqasiga yashirinib olgan edi.(O. Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi")

Ushbu parchda ko'p nuqtaning qo'llanishining sababi matn qisqartirilganligi uchun ko'p nutqa ishlatilgan.

Durust. Ul zoti sharifning mehri saxovatini unutmoq ko'rlik bo'ladi. Ammo sizga bir savolim bor...

-Marhamat, taqdir...

- Siz... suyuqli nabiram Xurshida bibini Amir Ibrohimbekning kenja o'g'liga nikohlab berganimda xabaringiz bordur?

-Xabarim bor. Ammo...

-Ammo bu o'jizamiz shahzoda Abdulaziz tufayli baxtiqaro bo'lg'onidan xabaringiz bormu? – dedi Salohiddin zargar va to'satdan ko'ziga yosh oldi. (O. Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi")

Mazkur matnda ko'p nuqtalar gaplar mazmunan tugallanmay qolgani uchun ishlatilgan.

-Xayr, yashirmoqqa ham, balki, haqqingiz bordir... Ammo shu ko'yi sir saqlash bilan birar natijaga Ammo shu ko'yi sir saqlash bilan birar natijaga yetish mumkinmi?

- ...

Otabek qip-qizil qizarib gunihkorlardek yerga qarag'an edi. (A. Qodiriy "O'tgan kunlar")

Ushbu matnda birinchi o'rinda ko'p nuqta so'zlovchining mazmunan gapi tugamagani uchun ishlatilgan. Ikkinchi o'rindagi ko'p nuqta esa suhabtdoshning gapi javobsiz qoldirilganligi uchun ishlatilgan.

... Mirzo Ulug'bek katta yo'ldan bir to'p suvoriylar choptirib o'tganini eshitib, sekin o'rnidan turdi, atrofiga taajjub bilan tikildi: unga ne bo'ldi ? (O. Yoqubov "Ulug'bek xazinasi")

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozuvchi aytmoqchi bo'gan, ammo yozma nutqda berili- shi mumkin bo'lmagan va yozuvda tushirib qoldirilgan turli ma'nodagi so'zlar o'rniga ko'pnuqta qo'yiladi. Shupnngdek, dialoglarda suhabtdoshning so'zi javob- siz qolsa, o'sha o'ringa ham ko'pnuqta qo'yiladi. Ko'pnuqtaning sarlavhalarda qo'yilpsh tabiati o'ziga xos xususiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Блок А. Собр. соч. в 8 т. Т. V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
5. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
6. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.–Ижевск, 2004 г.ва б.
7. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Махмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2015.
8. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.
9. Хайлова Е. Г. Пунктуация стихотворений И.Ф.Анненского. КД. – М.,2005 г.
10. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.
11. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
12. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.

Raqamli iqtisodiyot: yangilanayotgan O'zbekistonni IT platformalari, yangi texnologiyalar va biznes modellari orqali rivojlantirish yo'llari



TABIIY XAVFI YUQORI BO'LGAN ZONALAR DAVLAT KADASTRINI ALGORITIMLASH VA DASTURLASH

Sherqulov Sherzod Jamshid o'g'li

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti

“Yer Resurslarini Boshqarish va Ekologiya” fakulteti YeK va YeF 2/1 talabasi.

mel: +998992019924, sherzodjamshidovich@gmail.com

Xoliqova Manzura Qoyirovna

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

“Muxandislik grafikasi va raqamli texnologiyalar” kafedrasida katta o'qituvchisi

mel: +998934758834, manzuraxoliqova37@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini algoritimlash va dasturlashni iqtisodiy tashkil etish, boshqarish modelini tuzish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini algoritimlash va dasturlashni kelajakda tutgan o'rni, bu sohani algoritimlash va dasturlashdan keying o'zgarishlar keng yoritilib berilgan. Yurtimizda bu sohani rivojlantirishda katta imkoniyatlar borligi haqida ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan.


Kalit so'zlar: algoritim, algoritimlash, zonalar, tabiiy xavfi, dastur, dasturlash, model, strukturalari, reestr.

Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini algoritimlash va dasturlashni, O'zbekiston bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi navbatda yurtimizda olib borilayotgan siyosat, axborot texnologiyalardan foydalanishda qulayliklar, huquqiy erkinlikni to'la-to'kis ta'minlanganligi va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari barcha sohani raqamlashtirish, algoritimlash, dasturlash, modellashtirishda butun dunyoda keng foydani moqda. Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini algoritimlash va dasturlash tabiiy xavfi bo'lgan hududlari ro'yxatga olishda, bunday hududlarni davlat rastriga o'tkazish, masofadan turib zondlash va boshqa bir qancha ishlarni bajarishda bir qancha qulayliklar yaratiladi. Qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar dasturlarni yaratish jarayonida qo'yilgan masalaning yechish algoritmini ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun algoritmlarni tuzish va dasturlarni ishlab chiqish bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlardir.

Algoritim qaysidir tilda berilgan masalani yechish uchun bajariladigan boshlang'ich berilganlar ustida bajariladigan amallarning chekli ketma-ketligi hisoblanadi.

Dasturlash esa zamonaviy elektron mashinalarda yechish uchun mo'ljallangan hamda ularga har xil aqliy mehnat turlarini bajarish nazariyasi va usullarini ishlab chiqish bilan bir qatorda dasturlar tuzish, sinash, o'zgartirish jarayonidan iborat.



Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrining unifikatsiya qilingan tavsiflari va tasvirlari to'plami, tabiiy xavf yuqori bo'lgan hududlar haqidagi ma'lumotlar, har yili ro'y beradigan xavfli tabiiy hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash ularni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqish orqali ro'y beradigan xavflari oldindan tez va aniq bajarish imkonini beradi.

Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini kadastr obyektlarini hisobga olishni, bu hududlarning holati, oldindan ro'y

beradigan texnogen xavflar tabiiy (geologik, gidrogeologik) jarayonlar oqibatlarini baholash (moddiy va iqtisodiy) da innovatsion texnologiyalardan foydalanish, dasturlarini tuzish orqali asosan inson omilini kamaytirishga qaratilgan.

- ❖ tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar tarkibida ro'y beradigan geologik, gidrogeologik hodisalar Davlat geologiya qo'mitasining "O'zbekgidrogeologiya" davlat geologiya korxonasi tomonidan nazorat qilinadi;
- ❖ seysmik xavf yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha kadastr axborotlarini tayyorlash va realizatsiya qilish uchun yagona ma'sul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti tomonidan;
- ❖ gidrometrologiya hodisalari xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha "O'zgidromet" markazi tomonidan amalga oshiriladi;

quyida sanab o'tilgan vakolatli organlar tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritishda vakolatli organlar hisoblanadi, ushbu vakolatli organlarning ish yuritish tartibini algoritmi hamda dasturini tuzish orqali birinchi navbatda inson omilini kamaytirish va barcha sohalarida to'la-to'kis innovatsion texnologiyalardan foydalanishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi. T.. "Adolat", 2015 y. -160b.
2. Xolmogorov V.L. Web – masterstva. M.:Piter 2001 g.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 29 dekabrda 1060-son qarori "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida" gi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi to'g'risida" gi 2014 yil 8 oktyabrda 2618 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizom.
5. M. Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov, A 90 M. Mamarajabov.— T.: Noshir, 2009.— 368-b.
6. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLAREWAJU ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133.
7. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th ed. (Scarecrow, 2011).

Internet resurslar

http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science

<http://WWW.rocket-library.com/>

http://en.wikipedia.org/wiki/List_of_libraries

<http://www.gov.uz> – O'zbekiston hukumatining rasmiy sayti

<http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti.

www.ziyouz.com kutubxonasi

QUYOSH ELEKTR STANSIYALARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Xalilov Shaxriyor Ixtiyor o'g'li
TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti
"TRM" fakulteti E/E 2/1 talabasi.
Xoliqova Manzura Qoyirovna
TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti katta
o'qituvchisi.



Annotatsiya: Ushbu maqolada quyosh energiyasi haqida umumiy ma'lumot, undan qanday foydalanish, energiya olish va undan samarali, oqilona foydalanish yo'llari aytib o'tilgan. Yurtimizda bu energiyaga oid qonunlar, foydalanish usullari, bu energiya iste'moli va zararlari va rivoji haqida tushuncha berilgan. Shu ma'lumotlar asosida quyosh energiyasini hozirgi zamon texnologiyalari asosida modellashirildi. Bu model aniq va ravon tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: quyosh paneli, quyosh energiya, QES, kontroller, iste'molchi, akkumulyator, inverterlar, o'tkazgich, elektr, saqlagichlar, akkumulyatorli, akkumulyatorsiz.

2026 yilga qadar quyosh va shamol elektr stansiyalari umumiy quvvatini 8 ming MVtga yetkazish zarur.

Mirziyoyev Sh.M.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bizga ma'lumki, qayta tiklanuvchi energiyalarga quyosh, shamol, suv, biomassa, geotermal energiyalar kiradi. **Quyosh energiyasi (QE)**- bu quyosh nuridan energiyani to'g'ridan-to'g'ri fotovoltaiklar (PV) yordamida, bilvosita konsentrlangan quyosh energiyasidan yoki kombinatsiyadan foydalangan holda elektr energiyasiga aylantirishdir.

Shu yili yurtimizda elektr energiyasi bir necha kVt/soatga oshirish ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda, 2030-yilga borib esa 120 mlrd kVt/soat ishlab chiqarishga erishish kutilmoqda. O'zbekistonda quyosh elektrostansiyalari qurilishi Toshkent, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida rejalashtirilgan. O'zbekiston energetikasi tabiiy gazga juda bog'liq bo'lib, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 82 % ini tashkil etadi. O'zbekiston 2030-yilga borib mamlakatning umumiy energetika balansidagi quyosh energiyasi ulushini 6 % ga yetkazishni rejalashtirmoqda. 2025-yilda qayta tiklanadigan energiyani umumiy energiya iste'moli majmuasida 19,7 % gacha oshirish, shu jumladan quyosh energiyasini 2,3 % ga oshirish rejalashtirilgan. Quyosh energiyasidan foydalanish O'zbekiston uchun juda foydali. Quyosh energiyasi tufayli tabiiy gaz ishlatilishi bir necha barobarga tejash imkonini beradi.

Quyosh energiyasi quyosh elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Quyosh energiyasini olish uchun quyosh panellaridan foydalanilmoqda. Quyosh paneli o'zaro ketma-ket va parallel ulangan quyosh elementlaridan iborat. Quyosh elementlari tashqi atrof-muhit ta'sirlaridan himoya qilish maqsadida bitta korpus ichiga joylashtiriladi. Quyosh modullarining tuzilishi quyosh elementlaring turi va qo'llanilishi joyiga qarab har xil qoplanadi. Masalan, amorf kremniy quyosh elementlari odatda egiluvchan qoplamaga mahkamlanadi, kremniy quyosh elementlari masofadan turib manba sifatida ishlatilganida old qismi qalin shisha qoplamalar bilan qoplanadi. Quyosh panellarini bizga o'zgarmas kuchlanish beradi. Dunyo bo'yicha o'zgarmas kuchlanishda ishlaydigan iste'molchilardan ko'ra o'zgaruvchan kuchlanishda ishlaydigan iste'molchilar ko'proq. Quyosh panellaridan keladigan o'zgarmas kuchlanishi bizga inverter o'zgaruvchan kuchlanishga aylantirib beradi. Ko'pgina yuqori sifatli quyosh panellari anodlangan alyuminiy ramkaga ega va ushbu materialdan foydalanish juda ko'p afzalliklarga ega.

Eng muhimi, u ko'proq issiqlikni aks ettirish qobiliyatiga ega bo'lib, quyosh batareyasining umumiy konversion samaradorligini oshirishga yordam beradi. Anodlangan



alyuminiy ni parvarish qilish ham oson. Tashqi ko'rinishini tiklash uchun uni vaqti-vaqti bilan tozalashingiz mumkin. Materiallarga quyosh nuri ta'sir qilmaydi va ko'pincha chang bilan qoplangan alternatalarga qaraganda chizishlarga chidamli bo'ladi. Anodlangan alyuminiy quyosh ramkalarining asosiy kamchiliklari shundaki, ular faqat

bitta rang - kumush rangga ega.

Kukun bilan qoplangan alyuminiy ramkadan tashkil topgan quyosh panellari funktsiyadan ko'ra uslubni afzal ko'rganlar uchun juda mos keladi. Ushbu turdagi ramkalarining aksariyati qora rangga ega va qorong'i tom plitalari bilan yaxshiroq birlashadi. Shu bilan birga, ular yangi yoki mavjud bo'lgan binoning turli elementlariga mos keladigan turli xil ranglarda bo'lishi mumkin. Kukun bilan qoplash texnikasi bilan siz hattoki porloq, mat yoki atlas qoplamasiga erishishingiz mumkin. Kukun bilan qoplangan quyosh ramkalarining asosiy kamchiligi shundaki, ular anodlangan alternatalarga qaraganda osonroq chiziladi. Bu erda foyda shundaki, siz anodlangan alyuminiy ramkalaridagi chizishlardan farqli o'laroq, chang bilan ishlangan materiallarni ta'mirlashingiz mumkin.



Matematik modellashtirish - deb o'rganilayotgan ob'ektni matematik formula yoki algoritm ko'rinishida ifodalangan xarakteristikalarini orasidagi funksional bog'lanishga aytiladi.

Model - ob'ekt, shaxs yoki tizimning informatsion tasviri hisoblanadi. Bu atama dastlab 16- asr oxirida ingliz tilida binoning rejalarini bildirgan. Fransuz hamda Italyan tillaridagi *modul so'zidan* olingan.

Modellashtirish - bilish ob'ektlari (fizik hodisa va jarayonlar) ni ularning modellari yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o'rganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gazeta.uz.

2. NOANA'NAVIY VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI. MAJIDOV T. SH. Toshkent, 2014. – 177 bet.

Internet manbalar.

1. www.arxiv.uz
2. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/04/130430_latin_solarenergy
3. <http://earw.tiame.uz/storage/web/source/1/%D0%A0%D0%B5%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B0%D1%82/Quyosh%20energuyasidan%20foydalanish.pdf>
4. https://energypedia.info/wiki/Solar_Energy
5. https://www.mhi.ca/?gclid=CjwKCAjw4ayUBhA4EiwATWyBroaiLD4DpAssX_ua7SB7Mx9lBkk6aRjHQs49xrEaytZoD0PDL0ib8hoCMPcQAvD_BwE
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Solar_energy
7. dsisolar.com
8. Uzwikipedia.com

DISKRET O'ZGARUVCHAN KIRUVCHI PARAMETRLI OB'EKTLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TIZIMLI TAHLILI




Xoliqova Manzura Qoyirovna
TIKXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti
katta o'qituvchisi
SHerkulov SHerzod Jamshid o'g'li
TIKXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti
EK va EF 2/1 talabasi
tel: +998992019924 , sherzodjamshidovich@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada diskret o'zgaruvchan kiruvchi parametrli ob'ektlarni boshqarishning zamonaviy tizimli tahlili haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Diskret o'zgaruvchan kiruvchi parametrlarni zamonaviy tizimli tahlili haqida ularni tahlil qilish usullari haqida ma'lumotlar keng yoritilib berilgan. Xususan ishlab chiqarish sohasida ham, uning boshqaruv tizimida ham diskret o'zgaruvchan kiruvchi parametrlarning o'rni katta ekanligi yaqqol yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: diskret, parametrlar, ob'ekt, kiruvchi, o'zgaruvchan, zamonaviy, tizim, agregatlar, texnologiya, avtomatlashtirish, dinamika, energiya, materiallar.

Diskret o'zgaruvchan kiruvchi parametrli ob'ektlarni boshqarishning zamonaviy tizimli tahlilini yurtimiz buyicha taxlil kiladigan bulsak, birinchi navbatda davlatimizda olib borilayotgan siyosat, barcha soxalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ishlab chikarish soxasida



rakamli texnologiyalardan foydalanish va boshka omillar sabab buladi.

Bugungi kunga kelib jahon bozorida diskret o'zgaruvchan kiruvchi parametrli ob'ektlar (DO'KPO), hususan keramik qurilish materiallariga

bo'lgan talab o'sib borayotganligi kuzatilmoqda (1.1-rasm). Quyidagi rasmda yillar kesimida ayrim davlatlarning masalan, keramik qurilish materiallarini ishlab chiqarishga e'tibor kundand-kunga oshib bormoqda.

1.1-rasm. Keramik qurilish materiallarini ishlab chiqarishning dinamik o'sish darajasi

Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot davrida muhim yo'nalishlardan biri ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hisoblanib, mahsulot sifatiga bo'lgan talabni ta'minlash uchun bir qator talablarni o'zida maqsad qilib qo'yadi. Birinchi navbatda nozosliklardan ogohlantirish va tezkor boshqaruv qarorlarini va qaror qabul qilishalgoritmlarini qabul qilish. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish tizimini takomillashtirish birinchi bo'lib, ikki qarama qarshi holat bilan izohlanadi. Birinchisi hom ashyo tarkibi sifat ko'rsatkichlarining pasayib, jahon bozoridagi raqobat tufayli yuqori sifatli mahsulotga bo'lgan talab va oshib borishi. Ikkinchidan amaldagi texnika va texnologiyaning eskirishi, foydalanish davrining qisqarishi, nosozliklarni bartaraf etish, qurilma va uskunalarni ta'mirlashga uzoq vaqt talab etilishidir.

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini boshqarish tuzilmasining murakkabligi boshqaruv tizimi oldiga bir qator talablar qo'yadi: tizimli tahlil, boshqaruv, optimallashtirish, algoritmik ifodalash, dasturlash va modellashtirish usullarini takomillashtirish.

Ishlab chiqarishni tizimli tahlili ma'lum bir korxonaga hususiyatidan kelib chiqqan holda bir qator umumiy holatlarni aniqlaydi va bularga boshqaruv tizimini ishlab chiqish va amalda joriy etishda rioya etishni talab etadi.

Boshqaruv nuqtai nazardan DO'KPOLarda ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos hususiyatlari quyidagilar:

- hom ashyo hususiyatlarini o'zgarishi texnologik agregatlar rejimini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan yuqori darajadagi parametrik va texnologik salbiy ta'sirlar;
- ishlab chiqarish faoliyati rejimi dinamikasiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi texnologik jarayonlarning maydon bo'ylab tarqoq joylashuvi va vaqt bo'yicha kechikishlar;
- hom ashyo fizik-kimyoviy tarkibining o'zgarishi, energiya, materiallar, hom ashyoning etkazib berilish jadalligi, texnologik jarayonlarni bosqichma-bosqichligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning turiligidagi o'zgaruvchanlik;
- ishlab chiqarish tuzilmasining mo'tadil emasligi. Tasodifiy faktorlar hisobiga avariya holatlarini yuzaga kelishi, hom ashyoning tarkibini va miqdorini o'zgarishi, energiya ta'minotining cheklanganligi va x.zo. yoki rejalashtirilgan qurilmalarni ta'mirlash, sozlash, ishlab chiqarish rejalari va topshiriqlarini o'zgartirish hisobiga ishlab chiqarish ichki tuzilmasini o'zgarishi;
- ishlab chiqarish tuzilmasini ketma-ket, parallel va aralashma turli quvvatdagi texnologik agregatlar bilan bog'lanishi, moddiy va energetik oqimlar, turli mexanik, issiqlik, uzluksiz va uzlukli oquvchi fizik-kimyoviy, murakkab va ehtimoliy tabiiy o'zgarishlar, hom ashyo sifati va tarkibining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va sifatiga ta'siri.

DO'KPO - boshqaruv ob'ekti sifatida bir qancha o'zaro moddiy bog'langan bo'limlardan iborat bo'ladi. Boshqarish nuqtai nazardan alohida qurilmalar, apparatlar majmuasi, seksiyalar, texnologik sxema va uchastkalariga ajratiladi. DO'KPO ko'p sonli kiruvchi va boshqaruvchi parametrlar bilan xarakterlanadi. Ishlab chiqarish korxonasiga o'zgaruvchan tarkibli hom ashyo turli fizik-kimyoviy parametrlar bilan kiradi, chiqishda belgilangan ko'rinishdagi mahsulot olinadi. DO'KPOdagi parametrlar o'zaro murakkab bog'lanishga ega. Ishlab chiqarish bir necha bosqichlarga bo'linib har bosqichda ma'lum bir sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Masalan, kermik qurilish materallarini ishlab chiqarish: hom ashyoni tayyorlash, maydalash, kuydirish va sovutish kabi bosqichlarga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Chiang Yet Ming, Bimie Dunbar P., Kingery David W. Physical Ceramics. Principles for Ceramic and Engineering. -UK : John Wiley & Sons, 1996.
2. Amoskin I. V., Blinnikov A. A., Bobsov A. A., Nikolaev N. A. Adaptivnaya sledyayushaya sistema dlya nelineynogo vozmushchennogo ob'ekta // Mexatronika, avtomatizatsiya, upravlenie. - 2005.
3. Amoskin I.V., Bobsov A.A., Nikolaev N.A., Sergeev K.A. Algoritm adaptatsii dlya stabilizatsii nelineynykh sistem v otsutstvie sektornykh ogranicheniy // Avtomatika i telexmekanika. -2006
4. Belyavskiy G.I., Puchkov E.V., Chernov A.V. Avtomatizirovannaya sistema proektirovaniya iskusstvennoy neyronnoy seti.// Programmnyye produkty i sistemy. -2011. -№ 2.
5. Bobsov A. A., Miroshnik I. V., Dinamicheskiy algoritm adaptatsii nestatsionarnykh sistem. // Avtomatika i telexmekanika. -№12. -1999.
6. V.P. SHulenin, V.V. Taboljin. Izuchenie svoystv rangovykh analogov f-kriteriya fishera pri otkloneniyax ot gaussovskoy modeli dispersionnogo analiza. vestnik tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Upravlenie, vychislitel'naya tekhnika i informatika. 2009.
7. Juchenko A.I., Yarovskiy I.V. Optimalnoe upravlenie protsessom objiga keramicheskogo kirpicha // Avtomatizatsiya proizvodstvennykh protsessov. - 2002.
8. www.constructionproducts.org.uk ONS, Construction Products Association

RAQAMLI , PEDAGOGIK VA ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI – TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILIDIR

Qushokova Umida Erkinovna
Qarshi Davlat Universiteti “Biologiya fakulteti” tyutori
e-mail : qoshoqovaumida01021@gmail.com

Tel :+998939062888

Nuriddinova Sevinch Nuriddin qizi
Qarshi Davlat Universiteti “Biologiya fakulteti” talabasi.
e-mail : snuriddinova55@gmail.com
Tel :+998908831504



Annotatsiya. Maqolada sifat va uning asosiy mezonlari, ta'lim sifati, oliy ta'limda sifatni ta'minlash yo'llari, hamda ta'lim sifatini ta'minlashda raqamli ta'lim, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarining integratsiyasini ta'lim sifatini ta'minlashdagi roli to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Texnologiya, texnologik klaster, texnologik park, texnologiya transferi, balk va nanotexnologiyalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarning o'zaro bog'liqligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: sifat, ta'lim sifati, texnologiya, raqamli ta'lim, integratsiya, innovatsiya, metod.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'ylab «Sifat inqilobi» yuzaga keldi. Dunyoning etakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e'tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi. Hozirgi kunda mahsulot sifati, texnika va texnologiya sifati, sifatni boshqarish tizimi sifati kabi atamalar o'z o'rnini hayot sifati tushunchasiga bermoqda. Hayot sifatining asosiy mezoni - ta'lim va tarbiya sifatidir [1].

Insoniyatning barcha hayotiy muhim munosabatlari (siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy va b.) – insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirga bog'liq holda shakllanadi hamda rivojlanadi. Ta'lim sifatiga bog'liq holda ushbu munosabatlar darajasi va albatta siyosiy-iqtisodiy munosabatlar ham o'zgaradi [2]. YUqorida keltirilganlardan xulosalash mumkinki, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta'lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo'lmaydi. Barcha muammolarni faqatgina yuksak darajadagi ong, to'g'ri tafakkur va beqiyos bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat yo'li bilangina hal etish mumkin. Ushbu masala yechimida ta'lim-tarbiyaga e'tiborni yanada oshirish bilan bir qatorda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish ham muhim o'rin egallaydi [3]. Bugungi kunda ilm fan va innovatsiyalar YAngi O'zbekiston taraqqiyotida strategik ahamiyatga ega ustuvor sohaga aylandi. Oliy ta'lim muassalarida biznes inkubatorlar, akselerator va kovorking o'quv kurslari, IT markazlar, Forsayt markazlar hamda texnoparklar tashkil etilmoqda. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularni ish o'rinlari bilan ta'minlash jarayonida ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqalarni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Asosiy qism. Integratsiya atamasi lotincha integratsion so'zidan olingan bo'lib qo'shilish, birlashish ma'nolarini bildiradi [4]. Ilm-fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan davrda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish bo'lajak kadrlar sifatini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala yechimida axborot, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, muvofiqlik, bir-birini to'ldiruvchanlik bo'lishi talab etiladi. Hozirgi kunda har bir pedagog yoki ishlab chiqarish xodimi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va texnik tizimlari majmuini puxta bilishi taqozo etilmoqda. SHu bilan bir qatorda pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o'z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim. SHuningdek, fan rivoji oliy

o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlaridagi olimlarning faoliyatiga, ishlab chiqarish bilan hamkorligiga, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishiga bog'liqdir [5].

Texnologiya - bu belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishning iqtisodiy samarali loyihalangan jarayonlar ketma-ketligi majmuidir. "Texnologiya" so'zi lotincha "*Thexnos*" – san'at, hunar, soha va "*Logos*" – fan degan ma'noni anglatadi.

Texnologik klaster – bitta chegaralangan hududda joylashgan va ishlab chiqarish aloqalari orqali o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar va tashkilotlar birlashmasi. Texnologik park (texnopark, TP)- ilmiy-texnik sohada tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun sharoit yaratuvchi yuqori malakali kadrlar hamda etarli axborot va eksperimental baza bilan ta'minlangan innovatsion infrastruktura sub'ekti. TP- ilmiy tashkilotlar, loyiha-konstruktorlik byurolari, o'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarining birlashmasi shaklidagi fan, ta'lim va ishlab chiqarishning hududiy integratsiyasi hisoblanadi. Jahon amaliyotida fan va ishlab chiqarish integratsiyasining eng asosiy texnik jihatlaridan biri texnopolislar, ilmiy parklar va texnoparklar hisoblanadi. Bularni o'zaro hamkorligi innovatsion jarayonlarni tashkil etishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishda, yangi turdagi sinov mahsulotlarini hamkorlikda ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Chunki, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga kerakli jihozlar va moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim omil hisoblanadi. Natijada, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi innovatsion klasterlarni shakllanishiga xizmat qiladi [6].

Texnologiya transferi – ilmiy g'oyalar va tadqiqotlarni mahsulot, tovar ko'rinishiga o'tish jarayoni, ya'ni "Innovatsion menejment", "Ilmiy ishlanmalar kommersializatsiyasi", "Tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish" kabi ko'rinishdagi faoliyatning yangi turi hisoblanadi.

1958 yili Amerika fiziklari jamiyati anjumanida professor R.Feynman (u 1965 yil Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan) mashhur ma'ruzasini o'qiydi. Olim ma'ruzasida "Fizika qonunlari va prinsiplari alohida olingan atomlar ustida manipulyasiya o'tkazish va shu orqali har xil buyumlar yaratishga monelik qilmaydi. SHunga asoslanib aytish mumkinki, insoniyat yaqin kelajakda balk texnologiya asridan nanotexnologiya asriga qadam qo'yadi", degan ilmiy xulosani ilgari suradi [7]. Balk texnologiyada insoniyat alohida atomlarni emas, balki ularning butun majmuasini ko'chirib olib buyum yasagan bo'lsa, endi nanotexnologiya asosida o'zi xohlagan atomlarni xohlagan joyga qo'yib xohlagan buyumni yasay oladi. Nanotexnologiya hayotimizga XX asr oxirlaridan, ya'ni 1981-1985 yillardan kirib kela boshladi. Hozirgi kunda esa nanotexnologiya hayotimizga fan sifatida kirib keldi. Qadimiy ilohiy kitoblarda "Momo Havo Odam a.s. qovurg'asidan yaratildi" - deb ma'lumot beriladi. SHu o'rinda "Qanday qilib erkak kishi tanasining bir qismidan ayol kishini yaratish mumkin? – degan savol tug'iladi. Bu savolga hozirgi dunyoviy fanlardan biri - nanotexnologiya ijobiy javob bermoqda. Odam a.s. tanasining ixtiyoriy qismidan ajratib olingan DNK dagi dasturga ozgina o'zgartirish kiritilib, uning jufti yaratilgani hozirgi zamon genetika fani xulosalariga ham aynan muvofiq keladi [8].

Har qanday holatda ham barcha texnologiyalar inson manfaatini qondirish maqsadida ehtiyoj uchun zarur buyum yoki oziq-ovqat mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi va ushbu texnologiyalar inson tomonidan boshqariladi. SHu sababli, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini bilish, ehtiyojning o'sishi barobarida takomillashtirish talab etiladi. Ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashuvida fan, dunyoviy ilmlar rivoji muhim rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi deyilganda sifatli, zamon talablariga javob beradigan, dunyo bozorida o'z o'rnini topadigan mahsulotni ishlab chiqarishning iqtisodiy samarali, ma'lum ketma-ketlik asosidagi jarayonlar majmui tushuniladi. Agar ushbu jarayonlar ketma-ketligi yoki boshqacha aytganda texnologiyasida ishlatiladigan texnik vositalar ma'naviy eskirmasa, ushbu texnologiya ma'lum vaqtgacha o'zgarmaydi. Bu texnologiya oldindan aniq va belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga olib boruvchi ishlab chiqarishni loyihalashdir.

Axborot texnologiyalari axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usullari va vositalari majmuidir [9]. Ishlab chiqarish va axborot texnologiyalarini bevosita to'g'ri va samarali amaliyotga joriy etilishi kadrlar salohiyatiga bog'liqdir. Kadrlar tayyorlashda esa pedagogik texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Faqat zamon talablariga javob beruvchi pedagogik texnologiyalar asosidagina biz "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga javob beruvchi

mutaxassis-kadrlarni tayyorlashimiz mumkin. Pedagogik texnologiya esa insonga ta'lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir. Pedagogik texnologiyani doimiy bir xil holda (hatto ma'lum qisqa vaqt oralig'ida ham), ya'ni oldindan loyihalashtirilgan jarayon deb bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, pedagogik texnologiyani bir qolipga sig'adigan, aniq bir o'zgarish loyiha deb bo'lmaydi. Chunki har bir auditoriya, har bir guruh uchun tinglovchilarning ma'lumoti, ilmiy salohiyati, yoshi, jinsi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq holda, kerak bo'lsa guruhdagi har bir tinglovchi uchun alohida pedagogik yondoshuv va uning texnologiyasi talab etiladi. Masalan, pedagog bir mavzuni maktab bolalariga boshqa texnologiya asosida, oliy o'quv yurti talabalariga boshqa texnologiyada, ishlab chiqarishdagi muhandis-texnik xodimlarga boshqa va oliy o'quv yurti pedagoglariga boshqa texnologiya asosida o'tishi talab etiladi. Shuningdek, oldindan ma'lum bir guruhda dars o'tishda, pedagogning oldindan loyihalashtirib kelgan dars o'tish texnologiyasi, auditoriyaning tayyorgarligi, undagi savol-javoblar natijasida yuzaga keladigan vaziyatlar asosida o'zgarishi ham mumkin. Shundaygina pedagog aniq ko'zlangan natija - ya'ni o'z bilimni tinglovchilar tafakkuriga etkazib, ularda rivojlantiruvchi faol faoliyat uyg'ota oladi. Menimcha o'qitishdan maqsad, tinglovchiga oldindan aniq, bor narsani o'rgatish emas, balki o'qishni o'rgatishdir. Chunki, biz bugun talabaga o'rgatayotgan texnik vositalar, ayniqsa axborot - kommunikatsiya tizim texnikalari tezda ma'naviy eskiradi, demak bitiruvchi o'zi mustaqil o'qib, yangi texnik vositalar bilan ishlash sirlarini bilishi, shunga o'zida amaliy ko'nikma hosil qilishi lozim [10]. Hozirgi vaqtda pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalarning rivojlanishi hamda takomillashib borishi bevosita raqamli ta'lim texnologiyalari zaminida amalga oshadi. Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitishning zamonaviy texnik vositalarini qo'llanilishi kadrlar sifatiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi esa bevosita axborot texnologiyalari rivojiga, ulardan ta'lim beruvchilar va oluvchilarning foydalana bilish darajasiga bog'liqdir. Demak, pedagogik texnologiyalarni rivoji kadrlar tayyorlash sifatiga, kadrlar sifati esa ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik va ishlab chiqarish texnologiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, axborot texnologiyalari rivoji asosida takomillashib borishi, shuningdek axborotlar makoni ta'lim va ishlab chiqarish ma'lumotlari bilan boyitilib borilishi zarurdir.

Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitishning raqamli texnologiyalarini qo'llanilishi kadrlar sifatiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki kadrlar sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri - talabalarni fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasidir. O'zlashtirish darajasini esa faqat ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali oshirish mumkin.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir [11].

Pedagogik texnologiya - insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidir. Lekin, pedagogik texnologiya bilan o'qitish metodikasini farqlash joizdir [12].

O'qitish metodikasi - ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadbiq qilishga qaratilgandir. Hozirgi kunda ta'lim berish metodi sifatida an'anaviy mashg'ulotlarga qarama-qarshi holda video va kinotexnika, televidenie, multimedia vositalari, bahs va munozaralar, suhbat, anjumanlar, "aylanma stol", og'zaki jurnal, rolli o'yinlar va shu kabi o'nlab interaktiv uslublarni qo'llanmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyot tarmoqlarining zamon talablari darajasida rivojlanishi faqat ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari zaminida emas, balki innovatsion pedagogik, axborot va ishlab chiqarish texnologiyalarining integratsiyasi asosida ham amalga oshadi.

Innovatsion korporativ hamkorligini samarali tashkil etishda innovatsiyalarning falsafiy mohiyatini tushirib berishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ushbu

integratsiyaning vorisiyligi, ushbu faoliyatni fan yoki oliy ta'lim muassasasida muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar, ular faoliyati bilan bog'liq o'quv-ilmiy markazlar, o'quv-ilmiy komplekslarning o'rni, ta'lim, fan va amaliyotning uzviyligi va uzluksizligida ichki hamda tashqi integratsiyalashuv jarayonlari bilan bog'lab amalga oshirish samarali natijalar beradi.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish maqsadida "Ta'lim-ishlab chiqarish klasterlari"ni tashkil etishni yanada kengaytirish, ularning faoliyatlarida ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq qilish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Innovatsion klasterlarni shakllanishi shu sohadagi mutaxassislar salohiyatiga ham bevosita bog'liqdir. Sababi, zamonaviy innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan malakali kadrlar tomonidan fundamental va amaliy loyihalar hayotga tatbiq etaladi. Buning natijasida "ta'lim-fan-ishlab chiqarish" aloqalarini o'zaro hamkorligi ta'minlanadi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishini o'zaro sherikchiligi kadrlarni nazariy va amaliy tomonidan innovatsion tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllanishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Raximov O.D., Ro'ziev X.J., Murodov M.O. Ta'lim sifati va innovatsion texnologiyalar. /Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2016y., 208b.
2. Raximov O.D. Ta'lim sifati-hayot sifati. //Qarshi, TATU Qarshi filiali, 2015. – 44b.
3. Rakhimov O.D., Rakhimova D.O. Educational quality in the era of globalization. // Проблемы науки. 2021. №1(60), P.36-39. DOI: 10.24411/2413-2101-2021-10101
- Davlat organlari tomonidan innovatsion strategic maqsadlar, dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash to'laqonli mexanizmlarini belgilab olish;

- Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning aksar qismini yuqori talablarga javob beradigan, zamon talablariga moslashgan moddiy-moliyaviy, intellektual, iqtisodiy va ilmiy-texnik bazani shakllantirishga yo'naltirish;

- Joylarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy-texnik axborotga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi infratuzilmaviy muassasalar tizimini rivojlantirish;

- Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda o'z resurslarini taklif qiluvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng qamrovli va diversifikatsion bozorlarni shakllantirish.

Iqtisodiyotda innovatsion mexanizmi tatbiq etish strategic ahamiyatli vazifa hisoblanadi, shuningdek, jamiyatda innovatsiya bo'lgan munosabatni shakllantirish ham innovatsion faoliyat keng joriy etilishida va rivoj topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek joriy etilgan innovatsiyalarga oid ma'lum bir ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin va bu davlatning rivojlanishida innovatsiyalarning nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatadi.

2021 yilda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar va tashkilotlarning ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish sanoati	44,2%
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2,3%
Qurilish	6,2%
Axborot va aloqa	4,2%
Ta'lim	1,2%

Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	1,7%
Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari	40,2%

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tahlil qiladigan bo'lsak, asosan ishlab chiqarish sanoatida innovatsiyalar joriy qilinganini ko'rishimiz mumkin. Biz shu innovatsiyalarni boshqa yo'nalishlarda ham ko'rsatkichlari yuqori qilib oshirishimiz lozim. Shu bilan birgalikda 2021 yil yakunlariga ko'ra, mamlakatimizda texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1038 tani tashkil etgan. Innovatsiyalar darajasi qancha yuqori bo'lsa, YaIM ko'rsatkichlari ham shuncha baland bo'ladi.

Texnologik tsikllarning roli iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishida namoyon bo'ladi, bu bir tomondan kapital ishlab chiqarish massasini oshiradi, shuningdek, uning texnologik darajasini oshiradi. Boshqa tomondan, ta'lim va malakaning yaxshilanishi tufayli ishchi kuchi va boshqaruvning malaka darajasi oshadi. Vaqt o'tishi bilan, ishlab chiqarishning texnologik darajasiga yuqori darajada erishish bilan, ishchi kuchining innovatsion xususiyatlari eng tez o'sadigan xususiyatlardir, chunki malakali ishchi kuchi nafaqat yangi texnologiyalarni tezroq o'zlashtiradi va ulardan samaraliroq foydalanadi, balki ishlab chiqarishda ham bu texnologiyalarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyevning "2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
3. Guzhina G.N. Socio-economic essence and principles of formation of the strategic management system//Bulletin of the Russian State Agrarian Correspondence University. 2009. No. 6 (11). p. 141.
4. Ayupov R.X., Boltaboeva G.R. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. T.: TMI, 2013, 202-bet.
5. Ivanov M.A., Guzhina G.N. Features of risk management in market conditions//Bulletin of the Russian State Agrarian Correspondence University. 2009. No. 7 (12). p. 198.
6. Nazarshoev N.M., Guzhina G.N., Guzhin A.A., Yezhkova V.G. Business development strategy as a tool for competitiveness management// Innovations and investments. 2016. No. 4. pp. 90-92.

BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODIDA ISHLATILGAN CHIQUINDI Al_2O_3 NI REGENERATSIYALASH JARAYONINI TADQIQ QILISH



Asadova Dilnavoz Fayzulloyevna
Buxoro muhandislik texnologiya instituti assistenti
tel.:(+99897) 301-19-04; e-mail:asadovadilnavoz@gmail.com

Annotatsiya. Jahon va mamlakatimiz sanoatida neft va gaz mahsulotlarini gidrotozalash va gidrogenizatsiya jarayonlarida alyumokobaltmolibdenli (AKM) yoki alyumonikel molibdenli katalizatorlar keng miqiyosda qo'llaniladi. Tadqiqot obyekti sifatida olingan ishlatilgan adsorbent va piroliz distillyati mineral turlarining tarkibi va xossalarini o'rganish hamda ulardan foydalanish sohasini aniqlash maqsadida regeneratsiya qilish. Regeneratsiyalangan adsorbent guruhli va elementar analiz yurdamida tahlil qilish Regeneratsiya natijasida tashuvchining yutuvchanlik xossalarini va gidrotozalash jarayonida qo'llash mumkinligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: regeneratsiya, tashuvchi, katalizator, piroliz distillyat, gidrotozalash, alyuminiy oksid alyumokobaltmolibden

Kirish. Dunyoda kimyo, neft va gaz sanoatining faol rivojlanishi maqsadli va sifatli mahsulotlar olish, neft mahsulotlarini tozalash uchun samarali adsorbentlar va katalizatorlarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keldi. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda neft va gazni qayta ishlash va neft kimyosi sohasida mahalliy, ikkilamchi xomashyo asosida samarali modifikatsiyalangan va selektiv katalizatorlar olish va ularni neft mahsulotlarini gidrogenizatsiyalash va gidrotozalash jarayonlarida amaliyotga tadbiiq etish alohida ahamiyatga ega.

So'ngi yillarda dunyo va mamlakatimiz olimlari tomonidan neft va gaz mahsulotlarining sifatini yaxshilash, ularni kimyoviy qayta ishlab yangi turdagi yoqilg'i va surkov materiallarini olish, gidrotozalash va gidrogenizatsiya jarayonlari uchun yangi turdagi selektiv katalizatorlarni ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shunday bo'lsada, respublikamizning neft va gaz sanoati uchun turli rusumli katalizatorlar valyuta evaziga import qilinmoqda. Bundan tashqari mamlakatimizdagi mavjud neft va gazni qayta ishlash korxonalaridagi texnologiyalarda katalizatorlar bilan bog'liq bo'lgan bir qator texnik-iqtisodiy muammolar kuzatilmoqda.

Mamlakatimizning neftni qayta ishlash zavodlarida yoqilg'I mahsulotlarini gidrotozalash va gidrogenizatsiya jarayonlarida alyumo-kobalt-molibdenli (AKM) yoki alyumo-nikel-molibdenli (ANM) katalizatorlar keng miqiyosda qo'llaniladi.

Bu turdagi katalizatorlarni ishlab chiqarishda asosiy xomashyo alyuminiy oksidi (Al_2O_3) bo'lib, tashuvchisi sifatida deyarli barcha qimmatbaho va selektiv katalizatorlar asosini tashkil qiladi.

"Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJda benzin fraksiyasini riforming qilish texnologik tizimida vodorod saqlagan gazni vodorod xloriddan tozalash uchun adsorbent sifatida Al_2O_3 ishlatiladi. Ishlatilgan alyuminiy oksidi regeneratsiya qilinmaydi va chiqindi sifatida zavodda ko'p miqdorda yig'ilib qolgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda va ishlatilgan alyuminiy oksidini kelajakda sifatli va selektiv katalizatorlar olish uchun tashuvchi sifatida qo'llash yuzasidan bu ishga ishlatilgan alyuminiy oksidini regeneratsiyalash jarayonini tadqiq qilish kabi maqsad qo'yildi.

Tadqiqot ob'yekti va usullari. Tadqiqot obyekti sifatida "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJ ning benzin fraksiyasini riforming qilish texnologik tizimida ishlatiladigan chiqindi adsorbent Al_2O_3 olingan.

Tadqiqotni amalga oshirishda alyuminiy oksidni regeneratsiya qilishning termik va suv bug'i

usularidan, hamda olingan natijalarni tahlil qilishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Har bir adsorbent adsorbtsiya jarayonida qo'llanilganidan keyin uning ish faoliyatini, ya'ni adsorbtsiyalash xususiyatini qayta tiklash uchun regeneratsiya qilinadi. Shu maqsadga ko'ra, benzin fraktsiyasini riforming qilish texnologik tizimida vodorod saqlagan gazni vodorod xloriddan tozalashda ishlatilgan adsorbent Al_2O_3 ni regeneratsiyalash jarayonida harorat rejimini adsorbentning adsorbtsiyalash qobiliyatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. [1]

Adsorbtsiya jarayonining asosiy yurutuvchi kuchi bu Van-der-Vals kuchi bo'lib, adsorbent to'yingan sari u zaiflashadi va shuning uchun adsorbentni unga yutilgan qo'shimchalardan tozalash uchun quyidagi 3 ta asosiy texnik usuldan foydalaniladi:

- harorat tebranishlari usuli: harorat oshishi bilan Van-der-Vals kuchining ta'siri kamayadi. Harorat azotning issiq oqimi yoki 110-160°C haroratda bug' bosimining oshishi bilan ortadi;
- bosim tebranish usuli: qisman bosim pasayganda, Van-der-Vals kuchining ta'siri kamayadi;
- ekstraksiya – suyuqlik fazalarida desorbsiya. Adsorbtsiyalangan moddalar kimyoviy yo'l bilan chiqariladi. [2]

Bu usullarning barchasi kamchiliklarga ega. Adsorbentga yutilgan ba'zi moddalar uning g'ovaklarida qolishi mumkin. Bug' regeneratsiyasidan foydalanganda barcha adsorbtsiyalangan moddalarning 1/3 qismi hali ham adsorbentda qoladi.

Past haroratli termik regeneratsiya – adsorbentni bug' yoki gaz bilan 100-400°C da ishlov berishdan iborat. Ushbu jarayon juda oddiy va ko'p hollarda u to'g'ridan-to'g'ri adsorbentlarda amalga oshiriladi. Yuqori entalpiya tufayli suv bug'i ko'pincha past haroratli termik regeneratsiya uchun ishlatiladi. Bu xavfsiz va ishlab chiqarishda mavjud.

Kimyoviy regeneratsiya va past haroratli termik regeneratsiya Al_2O_3 ning to'liq tiklanishini ta'minlamaydi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan eng keng tarqalgan regeneratsiya bu termik regeneratsiyadir. Termik regeneratsiya jarayoni quyidagi uch bosqichdan iborat:

- adsorbent taxminan 105°C da quritiladi;
- kislorodsiz inert atmosferada yuqori haroratli desorbsiya va parchalanish (400-700°C);
- oksidlovchi gaz (bug' yoki karbonat angidrid) orqali qoldiq organik gazlanish yuqori haroratlarda (800°C) sodir bo'ladi.[3]

Issiqlik bilan ishlov berish bosqichi adsorbtsiyaning ekzotermik xususiyatidan foydalanadi va adsorbtsiyalangan organik moddalarning desorbsiyasi, qisman yo'q qilinishi va polimerizatsiyasiga olib keladi.

Ishlatilgan Al_2O_3 ni regeneratsiyalash jarayonini laboratoriya sharoitida 2 xil usulda: havo kislorodi ishtirokisiz termik va suv bug'i yordamida amalga oshirildi.

Olingan natijalar va tahlillar.

Tadqiqotlar Buxoro muhandislik texnologiya instituti "Kimyo" kafedrasiga qarashli ilmiy laboratoriyada olib borildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi chiqindisi bo'lgan adsorbent Al_2O_3 ga havo kislorodi ishtirokisiz quruq 300-900°C haroratlarda intervalida termik ishlov berildi va olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval


Al_2O_3 ga havo kislorodi ishtirokisiz quruq 300-900°C harorat intervalida termik ishlov berish natijalari

Uzunlik, mm	Harorat, °C	Waqit, min.	Uzunlikning dastlabki vazni, g	Uzunlikning regeneratsiyadan keyingi vazni, g
		360	500	
		360	500	
		360	500	

			500	
			500	
			500	

1-jadvalda keltirilgan tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, havo kislorodi ishtirokisiz adsorbent Al_2O_3 ga termik ishlov berishda haroratni $300^{\circ}C$ dan $600^{\circ}C$ gacha oshirganda adsorbent vazni tegishli ravishda 484 g dan 435 g gacha kamaygan, ammo haroratni yana $900^{\circ}C$ gacha oshirish davom ettirilganda adsorbent vazni o'zgarmay qolganini aniqlash mumkin. Bu natijalarga asoslanib, ishlatilgan adsorbent Al_2O_3 ni havo kislorodsiz termik usulda regeneratsiyalashda $600^{\circ}C$ haroratda adsorbent o'z vaznini maksimum darajada yo'qotganini va regeneratsiyalash darajasi maksimumga etganini xulosa qilish mumkin.

Ishlatilgan adsorbent Al_2O_3 ni termik regeneratsiyalashdan olingan tadqiqot natijalari asosida adsorbent vaznini regeneratsiyalash haroratiga bog'liqlik grafigi ishlab chiqildi va bu grafik 1-rasmda keltirildi




1-rasm. Al_2O_3 ni termik regeneratsiyalashda adsorbent vaznini regeneratsiyalashda haroratiga bog'liqlik grafigi

Ishlatilgan Al_2O_3 ning regeneratsiyalanish darajasi $600^{\circ}C$ haroratda maksimum nuqtaga etishini inobatga olgan holda, regeneratsiya jarayonini vaqtga bog'liqligini aniqlash bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirildi. Olingan natijalar 2-jadval va 2-rasmda keltirildi.

2-jadval

Al_2O_3 ga havo kislorodi ishtirokisiz $600^{\circ}C$ haroratda termik ishlov berish natijalari

Namuna	Harorat, °C	Vaqt, min.	unaning dastlabki vazni, g	unaning regeneratsiyadan keying vazni, g
	600			
	600	120	500	
		180	500	
		240	500	
			500	
			500	
			500	
			500	



2-rasm. Adsorbent massasining regeneratsiya harorati o'zgarmas 600°C da vaqtga bog'liqlik grafigi

2-jadvalda va 2-rasmdagi nomogrammda keltirilgan tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Al_2O_3 ni o'zgarmas 600°C haroratda termik regeneratsiyalash mobaynida jarayon vaqti 60-360 min. intervalida o'zgarishi bilan mos ravishda adsorbent vazni ham 491-434 g intervalida kamaygan, ammo vaqtni yana 360-480 min. intervalida oshirishga qaramasdan adsorbent vazni o'zgarmay qolgani aniqlandi.

3-rasmda ishlatilgan Al_2O_3 ning dastlabki (a) va regeneratsiyalanganidan keyingi (b) ko'rinishlari tasvirlangan.



a



b


3-rasm. Ishlatilgan Al_2O_3 ning dastlabki (a) va regeneratsiyalanganidan keyingi (b) ko'rinishlari

Ishlatilgan Al_2O_3 ni 2-usul, ya'ni suv bug'i yordamida regeneratsiyalash bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirildi. Olingan natijalar 3-jadval va 4-rasmda keltirildi.

3-jadval

Al_2O_3 ni 300-900°C haroratlar intervalida suv bug'I yordamida regeneratsiyalash natijalari

Uzunlik, mm	Harorat, °C	Regeneratsiya vaqti, min.	Uning dastlabki vazni, g	Uning regeneratsiyadan keyingi vazni, g
		360	500	
		360	500	
		360	500	
			500	
			500	
			500	



4-rasm. Al₂O₃ ni suv bug'i yordamida regeneratsiyalashda adsorbent vaznini regeneratsiyalash haroratiga bog'liqlik grafigi

3-jadvalda va 4-rasmdagi nomogrammada keltirilgan tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Al₂O₃ ni suv bug'i yordamida 300-900°C haroratlar intervalida regeneratsiyalash mobaynida dastlab harorat 300-500°C intervalida o'zgarganida, adsorbent vazni 496 g dan 472 g gacha kamayganini va haroratni 600°C dan 900°C gacha oshirilishda davom etilganda adsorbent vazni aksincha 472 g dan 498 g gacha oshishi aniqlandi. Bunday holat suv bug'ining yuqori 600° C haroratda H₂ va O₂ gacha parchalanishi hisobiga kislorodning adsorbentga yutilgan organik moddalar bilan birikib, yuqori haroratga chidamli kompleks birikmalarni hosil qilishi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan eksperimental tadqiqotlar va natijalarning tahlili asosida “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJda benzin fraksiyasini riforming qilish texnologik tizimida vodorod saqlagan gazni vodorod xloriddan tozalash uchun ishlatilgan chiqindi adsorbent Al₂O₃ ni regeneratsiyalash uchun jarayonning maqbul (optimal) parametrlari: havo kislorodi ishtirokisiz termik ishlov berish harorati – 600°C va jarayon davomiyligi – 360 min. ga tengligi ilmiy va amaliy jihatdan isbotlandi. Bu usulda ishlatilgan Al₂O₃ ni regeneratsiyalash deyarli to'liq amalga oshganini inobatga olib, uni amaliyotga joriy qilish uchun tavsiya qilindi.

Ishlatilgan Al₂O₃ ni suv bug'i yordamida yuqori haroratda regeneratsiyalash jarayonida suv bug'ini parchalanishidan hosil bo'lgan kislorodning adsorbentga yutilgan organik moddalar bilan birikib, yuqori haroratga chidamli kompleks birikmalarni hosil qilishi natijasida regeneratsiya oxirigacha bormagani ilmiy asoslandi va bu usulda ishlatilgan Al₂O₃ ni regeneratsiyalash maqsadga muvofiq emas deb topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khayitov R.R., Shermatov B.E., Narmetova G.R. Regeneration of activated carbon used in adsorption purification of alkanolamines // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. – Vienna, 2016. – № 7-8. – P. 75-77.
2. Васильев Л.Л., Канончик Л.Е., Мишкинис Д.А., Рабецкий М.И. Адсорбционные системы хранения природного газа при пониженных давлениях и температурах // ИФЖ, 2003. – Т. 76. – № 5. – С. 30-37.
3. D.F.Asadova, S.B.Botirov., "Gidrotozalash jarayonida ishlatiladigan katalizatorlarning xossalarini o'rganish". SCIENCE AND EDUCATION Scientific Journal ISSN 2181-0842 Volume 3, ISSUE 4 April 2022. 222-226 б.

Madaniyat va san'at sohalari rivojlantirish

YANGI O'ZBEKISTON – MA'RIFATLI JAMIYAT

Savriyeva Hurriyatxon Ochilovna

*Buxoro viloyati Vobkent tumani 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi*



Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik g'oyasi asosida yuksak ma'naviyatli jamiyatni yaratishda yoshlarning roli va ularni qalban birlashtirish. Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans davrini qurishda yoshlarning o'rnini, ularga berilayotgan imkoniyatlar va ulardan oqilona foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, o'zbek xalqi, tinchlik, besh tashabbus, yoshlar, ma'naviyat, ma'rifat.

Mamlakatimizni 2017 -2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

2022- yilning sentabr oyida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O'zbekistonning yaqin besh yildagi taraqqiyot strategiyasidan ko'zlangan maqsadlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini jamlagan —Yangi O'zbekiston strategiyasi nomli kitobi chop etildi. Unda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Ushbu asar —Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamlil islohotlarimizning yaqqol ifodasidir, so'zlari bilan boshlanadi. —Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida nashr etilgan ushbu kitob konseptual ahamiyatga ega bo'lib, unda mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar aniq bayon etilgan.

Ushbu kitobning beshinchi yo'nalishga asosan ma'naviy va ma'rifiy sohalarda islohotlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda —Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Zero, bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgani e'tiborga loyiq. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti: —Bizning davlat siyosatimizda bundan buyon ham barcha millat va elat vakillarining milliy o'zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat

beriladil, deya alohida ta'kidlab o'tgani bejizga emas.

Bugungi kunda davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, yangi islohotlar amalga oshirish bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston"ni qurish, "Uchinchi Renessans" davrini yaratishga qaratyotgan islohotlari har bir yurtdoshimiz yuragida kelajakka bo'lgan ishonch va ezgu maqsadlarni qo'yimoqda: "Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, iqtisodiy ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir. Yangi O'zbekiston-demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir".

Xulosa qilib aytganda, so'nggi besh yil davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Bularning bari ma'naviyat va ma'rifatga qaratilgan chora tadbirlar ekani har tomonlama bo'y ko'rsatmoqda. Ma'naviyati, ma'rifati yuksak xalqni hech qanday kuch yenga olmasligidadir. Yoshlarga berilayotgan bu e'tiborlar esa o'z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarning xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Berilayotgan shuncha imkoniyatlardan foydalanmaslik esa jinoyat bilan tengdir. O'zbekistonning yosh bir fuqarosi bo'lib, Yangi O'zbekistonni qurish va Uchinchi renessans qurishdeh bir davrda yashayotganimda faxrlanaman va butun O'zbekiston yoshlarini bu ishda faol bo'lishlariga chaqiraman. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning va Uchinchi Renessansning poydevorlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev —Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodirl, Toshkent – —O'zbekiston|- 2018
2. Sh.M.Mirziyoyev ||Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladil, Toshkent – —O'zbekiston|- 2019
3. Mirziyoyev Sh.M."Yangi O'zbekiston strategiyasi". -T:"O'zbekiston".2021-yil 15-b
4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga bergan intervyu.
5. Mirziyoyev SH.M."Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".-T:"O'zbekiston",2017.-104 b

III RENESSANS MENING NIGOHIMDA...

Mashhura Do'stmurodova
Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi



Bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, vatanimiz taraqqiyoti uchun, O'zbekistonning eng yangi uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo'lda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga qo'shilayotgan yoshlarimiz – asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir”- deydi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Bilamizki dunyoni g'oyalar boshqaradi. G'oyalar esa dunyoqarash, bilim va tafakkur kuchiga suyanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamon, qolaversa axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalar uchun kurash ham anchagina murakkabdir. Bu murakkablikni yengish uchun Prezidentimiz yoshlar uchun bir qancha cheksiz imkoniyatlarni yaratmoqdalar. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan bayram nutqida O'zbekiston taraqqiyotida 3-Renessans bo'lishini ta'kidladi. Milliy yuksalish uchun maqsadni ko'zlamog kerak. 3-Renessans har qanday sohada qiladigan ishlarmiz va rejalarimiz rivoji uchun muhim sanaladi.

“Renessans” fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Xalqimiz uchun uzoq muddatli sinovlardan keyin qayta jonlanish, tez rivojlanib taraqqiyot cho'qqisiga chiqishni bildiradi. Mustaqillikning dastlabki yillarida “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” shiori olg'a surildi. Rivojlanish davom etgan sari bu tushuncha takomillashib “Ozod va obod vatan, erkin va forovon hayot” iborasini yaratdi. Bu urg'u faqatgina davlatga emas balki, har kishi uchun Aziz vatanga befarq bo'lmaydigan jamiyat a'zosini shakllantirdi. Biz bu tushunchani aholining barcha qatlamlariga ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan o'rnini, boshqa xalqlar yutuqlari bilan taqqoslab buni yoritishimiz zarur. Yangi Renessansning sharoitlari va talablari mutlaqo o'zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo'yan. “Ilm izlab Chinga bo'lsa-da, bor”, “Sendan harakat — mendan barakat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” va ko'plab shu kabi hadislar, ajdodlarimizning qo'llanmalariga aylangan edi.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etadi. Inson – Yangi Renessans ijodkoridir. Bugungi kunda yoshlarimiz uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari tug'risida”gi qonunda yoshlarni ijtimoiy va huquqiy muhofaza qilish, iste'dodlarni qo'llab quvvatlash qamrab olingan. Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta'lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlangani ham biz uchun ahamiyatlidir. Chunki, har bir shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqining mavjudligi qonun asosida qabul qilinib, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham mustahkamlab qo'yilgan. Har bir yosh avlod o'zining iqtidor va iste'dodini namoyon qilishga haqlidir. Mana shularning davomi sifatida prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lsa, oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar ustunidir. Bu borada bir qator huquqiy qonunlar ishlab chiqildi. Ular yoshlarni qo'llab quvvatlashga rag'batlantirishga oid, rahbar kadrlarni esa yuksaltirish uchun yangi tizimni shakllantirdi.

Yangi yoshlar siyosatini qurishda mamlakatimiz Prezidentining shaxsan ishtirokini alohida ta'kidlab o'tishim joizdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomligini yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatida ko'rayotganining yaqqol tasdig'i sifatida

boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim islohotining takomillashayotganligidir. Xorijiy ta'lim muassasalaridan o'zimizdagi oliy ta'lim o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayotnlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimni sinab ko'rish masalalari buning yorqin misolidir. Bundan tashqari izlanuvchi yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Yosh olimlar" innovatsion tanlovi uchun 30 milliarddan ortiq mablag' ajratilganining o'zi ham katta imkoniyatdir. Shaxsan o'zim Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti 1-bosqich talabasiman. Biz uchun yurtboshimiz tomonidan ko'plab imkoniyatlarning yaratilayotganligi shijoatimizga kuch bag'ishlaydi. Yurtboshimiz tomonidan institutimizning barcha qulayliklarga ega bo'lgan yangi binosi tez fursatlarda qurib topshirilgani ham bizga bo'lgan katta e'tiborning yaqqol namunasidir deb bilaman. Bugungi kunda institutimiz infratuzilmasi kampus darajasiga keltirilib, uning hududida zamonaviy jihozlangan o'quv binolari, minglab o'quv va ilmiy adabiyotlarga ega kutubxona, zamonaviy sport majmuasi, sog'lom ovqatlanish uchun sharoitlarga ega talabalar oshxonasi, talabalar amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yuqori texnologik o'quv simulyatsiya markazi o'z faoliyatini yuritmoqda. Xalqaro ilmiy aloqalar- do'stlik va hamkorlikka boshlovchi yo'ldir. Bugungi kunda institutimizda 25 ta mamlakatdagi 150 dan ortiq tashkilotlar bilan ta'lim munosabatlarida xalqaro aloqalar olib borilmoqda. Buxoro Davlat tibbiyot instituti Erasmus dasturi doirasida amalga oshiriladigan "MODEHED" loyihasining a'zosi. Loyihaning asosiy maqsadi: O'zbekiston va Qozog'iston universitetlarida sog'liqni saqlash fanlarini o'qitish orqali aholi salomatligini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Oliy ta'lim jarayoni to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazildi. Asos sifatida Yevropaning ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi qabul qilindi. Yangi standartlar va malaka talablari asosida kredit-modul tizimiga mos ravishda OTM tomonidan 625 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 634 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalar hamda 4,7 mingdan ziyod o'quv dasturlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi. So'nggi olti yilda (2017-2022 yy) respublika oliy ta'lim muassasalarining xorijiy universitetlar bilan o'zaro hamkorlik dasturlari hamda "El-yurt umidi" jamg'armasi grantlari doirasida 6 ming 151 nafar professor-o'qituvchilar xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborildi. Ularning 2185 nafari Yevropa, 445 nafari Amerika, 1059 nafari Osiyo, 2462 nafari MDH mamlakatlariga yuborildi. Shu bilan bir qatorda talabalarga transport vositalaridan foydalanish uchun imtiyozli chiptalarni xarid qilish maqsadida Transport vazirligining axborot tizimlariga integratsiya qilish natijasida talabalardan "talabalik guvohnomasi"ni qog'oz ko'rinishida talab qilishga chek qo'yildi. 2022-yildan boshlab, talabalarga ijara pullarini qoplab berish maqsadida ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasining maxsus platformasiga taqdim etish orqali ijaraga beruvchi va talaba o'rtasida elektron shartnomalar tuzish yo'lga qo'yildi. 2020-2021-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun to'lov-kontrakt miqdorini o'quv yili davomida teng ulushlarda to'rtga bo'lib to'lash huquqi berildi. Talabalar turar joylarida 5 muhim tashabbus doirasidagi klub va to'garaklar uchun 500 ga yaqin maxsus jihozlangan xona ajratildi va ulardan talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda foydalanilmoqda. Muntazam ravishda oliy ta'lim muassasalarida ish beruvchilar bilan hamkorlikda turli mehnat yarmarkalari hamda biznes uchrashuvlar tashkil etish orqali talabalar bo'sh ish o'rinlariga yo'naltirilib, ularning ish bilan bandligi ta'minlanmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalar bilan hokim va rektor uchrashuvlari doimiy o'tkazilmoqda.

Xalqimiz shifokorlarni inson salomatligini asrashdek ezgu va savobli ishga butun borlig'ini bag'ishlagan fidoyi zotlar, deb biladi va hamisha qadrlaydi. Chunki odamlar sizlarga o'zlarining eng bebaho boyliklarini – hayotlarini ishonib topshiradi. Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sinoning: "Inson dardiga darmon bo'lmoq – olijanoblikning eng yuksak namunasidir", degan so'zlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Biz uchun xalqimiz sog'ligini mustahkamlash eng ustuvor vazifadir. Prezidentimiz shifokorlarni inson salomatligini asrashdek ezgu va savobli ishga butun borlig'ini bag'ishlagan fidoyi zotlar, deb biladi va hamisha qadrlaydi. Chunki odamlar sizlarga o'zlarining eng bebaho boyliklarini – hayotlarini ishonib topshiradilar.

Hozirgi kunda nafaqat xorijda balki O'zbekistonda ham tibbiy ta'lim tizimida atrof-muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning

dolzarbliigi ortib bormoqda. Inson organizmida antibiotik preparatlarga qarshilik kuchaygani xavfli omil sifatida bugunning dolzarb masalasidir. Qanday preparatlar ustida izlanish olib borish keragu, qaysilarini ishlab chiqarish jarayonini to'xtatish kerak. Global epidemiya boshlansa uni davolaydigan dorining bo'lmasligi achinarli holatdir. Sog'liqni saqlashning ustuvor muammolari – bu profilaktik tibbiyotning rolini taminlash, sog'lom turmush tarzi konsepsiyasini joriy qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017 til 4 aprel 174-sonli qaroriga asosan, institutimizning ilg'or xorijiy klinikalar va oliy tibbiy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorligini kengaytirish, yetakchi xorijiy mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb etish borasida keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy professor o'qituvchilar tashrifi vaqtida mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha o'quv seminarlar, leksiyalar va master klasslar o'tkazilishiga erishilmoqda. Bu ham yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning yuksak bir namunasi. Institutimiz ilmiy laboratoriyasida onkologik kasalliklarni tashxislash va ularga davo muolajalarini asoslovchi immunogistokimyoviy tekshirish uslubi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz Prezidenti rahbarligida joriy yilning 14-mayida Onkologiya va onkogematalogiya muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan vedioselektor yig'ilishida kasalliklarni erta tashxislashga erishish va zamonaviy tashxis usullarini amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha soha mutaxassislariga topshiriqlar berildi. Bir so'z bilan aytganda, Prezident tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan tibbiy ta'limni kompleks rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlar tibbiy ta'lim tizimini xalqaro standart talablariga moslashtirilish va yosh olimlarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish orqali yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlashga xizmat qildi.

Mana shunday islohotlarning amalga oshirilishi zamiraida 3-Renessans g'oyalarining ta'siri katta bo'lmoqda. Men o'ylamanki, jamiyatni yangilash, buyuk maqsadlar sari olg'a qadam tashlashda ilm-ma'rifat bizning tayanch kuchimiz bo'ladi. Bugungi zamonaviy ta'lim dargohlarida ana shu ilm-ma'rifatni olib, 3-Renessansga o'z hissamizni qo'shamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Sh.M.Mirziyoyev —Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir!, Toshkent – —O'zbekiston|- 2018
- 2.Sh.M.Mirziyoyev ||Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi!, Toshkent – —O'zbekiston|- 2019
- 3.Mirziyoyev Sh.M."Yangi O'zbekiston strategiyasi". -T:"O'zbekiston".2021-yil 15-b
- 4.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga bergan intervyu.
- 5.Mirziyoyev SH.M."Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".-T:"O'zbekiston",2017.-104 b

“ОСМОНДАН ЯШИНДАЙ ЭНГАН ТУЛПОР АВЛОДИНИ БЎЙСИДИРГАН ЧЎҒУРТМАЛИК ЙИГИТ ТИМСОЛИДАГИ ҚАВЧИН ЭЛИ”

(ёхуд кухна Ҳузор (Ғузор)нинг Қавчин эли Чўғуртма қавми
Ўғузхон юрти аслий турклар авлодлари урф одат, моҳорат аналари
тарихини сақлаётган авлодлари ва маданий миллий мерослари ҳақида)

Соатов Халил Қудратович

Иқтисод фанлари номзоди

Қашқадарё вилояти, Ғузор тумани,

Чўғуртма маҳалла фуқаролар йиғини раисининг

Кексалар ва фахрийлар ишлари бўйича маслаҳатчиси. Меҳнат фахрийси



*“Биз халқимизнинг маданий меросини сақлашимиз ва келажак авлодларга
етказишимиз керак. Ҳамма-ўз тарихини улуглайди. Лекин бизнинг
мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йуқ. Бу
меросни чўқур ўрганишимиз, ҳалқимизга, дунёга етказа билишимиз керак”..*

Шавкат Мирзиёев.

Янгиланаётган Ўзбекистон тарихидаги ўзгаришлар ва Ўзбекистоннинг маданий мероси жаҳон туркумларида ноёб лойихаси бўйича гап кетганда унга аъзо бўлишга Қашқадарё вилояти Ғузор туманида биз яшаётган кухна манзил Чўғуртма МФЙини замонлар эврилиши асирлар кечиши салтанат ва сулолалар алмашинуви билан қадимий мозейдаги “**унитилган Қавчин эли ва унинг буюклари сиймоси**” худди увол булган тупроқ каби тарихнинг қалтис қора тугунларида тугилиб қолган қадимий қавчин эли қишлоқларининг сардори Чўғуртма ва унинг етти қавми авлодлари номлари одамлар хотирасидан унит булиб утмиш тарихи том маънода қора тугунлар гирдобида қолган манзил бироқ ўзининг қадим авлод вакиллари мерос булиб келаётган урф одатлари маҳорат ва маданий миллий мерослари тарихини ўзлигини йўқотмаган инсонлар ҳақида олиб бораётган илмий тадқиқотларимизда жумладан бу эл оилаларида тарбия топаётган забардаст Янги Ўзбекистон ёшлари мисолида худуд ер ости ва усти қатламларидаги аломатли оссари атиқали далилий ашёлар топилмалари буюк бобо авлодлари ривоят, урф одат ва аналари маданий миллий мерослари билан ўйғунлашиб мавзу моҳиятини ўзида мужасамлаштиради.

Худоёров Уйғун Холмурод ўғли 1997 йилда Ғузор туманини Чўғуртма қишлоғида туғилган, том маънода мустақиллик фарзанди, у беш яшарлигидан Худоёр бобоси билан одақ Чўғуртманинг маҳаллий аҳоли “*қавчин эли эски туралар кули*” деб аталувчи кул сойликлари урнида авлодларидан мерос одатлари яъни от ва йилқилар галаларини навбат билан ширкат хўжалигини дони йиғиштириб олинган жойларда ҳамда бу худудга туташ қадим шакарбулоқ туқойлару шилбийлар қавми яшаган ва унинг аъзим шаҳарлари урнидаги вақт ҳукми ила майдону кенг яйловга айланган даштларида уюрларни боқиб юрадиган амакилари ва отасидан хабар олишгани давлат хўжалиги ишидан қайтган Худоёр бобосини машинасига чиқиб олар ва у ерда бобосининг дусту Туроббой ўғиллари билан чорва моллари ва отларини боқишгани олиб чиқишар, бобоси минган отини олдиға набирасини миндириб олар кулнинг Сичқон тепасида тикилган утовда йиғилиб кечги нонушта қилишар ва суҳбатлар қуришиб, гуринг ҳам булиб турарди.



*Суратда қадим Чин искифагини, Субоҳ (Ҳузор) тўралари кули,
яъни ёзги қароргоҳ чорбоғи (сақизчи асир араблар бу манзилни
Новқат Қурайиш деб аташган ва яшаган) юқорисидаги тепа
қароргоҳни советлар давридан Сичқон тепа деган ном билан
бизгача етиб келган унинг шарқ тарафидан қадим карвон йўли
Хитой, Сугд Чини, Ҳиндистону, Балх, Бухоро, Самарқанд, Кеш ва*

Термизни боғловчи унғ қанот чораҳоли карвон йули утган.

Боболаримизни айтиши буйича биз Ўғузхон ва Кукхон авлодлари булмиш чин эли Чўғуртма (чўғ беги (оташпарастлик) ибодатхонаси номи ва Нўҳ алайҳсалом бобомиз хунарлари кулолчили касблари билан шўғулланувчилар) келиб чиққан қавмидан эканмиз, амирлик ва шурулар икки замонни курган қишлоғимиз оқсоқоли Назар ўғли Мустафакул бобомиз ҳамда маҳаллий тарихчи Шоди бобо Нормурадов хотира ривоятларини таҳлилларига кура милоддан аввалги III-асрда вужудга келган Хун хоқонлигини олий ҳуқумдори “Тангри кут”(исми номаълум, мил.ав.270-240) (Хитой манбасида “Тангри фарзанди” деган маънони англатган.) Ҳозирги Амударёни катта сувини улар Ўғиз деб аташган ва дарё остидан ер ости лаҳим йули қазиб, биз томонга ушбу манзилга утиб келишган, ва ушбу ерда Туман Тангрикут (240-210) фарзандларидан бирини исмини шу аъзим катта дарё номига Ўғиз (Ботур Тангрикут) деб қуйган экан. Ўғиз (Модэ)хон милоддан аввалги (210-174) III- аср охирида Хитойни босиб олиб улпон ундирган ва бу Ўғизхон ушбу хонликда 73 йил ҳуқумронлик қилган даврда бутун Турон худуди ягона давлатга бирлаштирилган ва ушбу манзилдан бошқарилган. Ўзора манфатларни яхшилаш учун Хитой маликаларидан бири Тангрикутга турмушга берилади ва ушбу қавчин манзилида ундан купайган ва у билан бирга келган аслзода ва хизматкорлар ҳам купайгандан купайиб кетга. Ғарб билан Хитойни боғлаб турувчи ушбу чораҳоли савдо карвон йули ҳам улардан дунёга келган афсонавий самодан энган Кўкхон ва унинг бедов тулпори ҳақида яратилган дoston афсоналар ҳозирги даврга қадар етиб келган, унинг авлодлари ҳозирги Қурғонтепа қадимда Сунаж номи билан аталган ушбу манзилдан ҳам карвон йулларини асосий қисми назорат этилган. Қавчин эли, Чўғуртма қавми (Ғузор) тарихи бевосита Турк хоқонлиги билан боғлиқ, шунинг учун Ат-Табарийнинг маълумотларига кўра, VIII-аср бошларида Ҳузор алоҳида мустақил вилоят сифатида фаолият юргизган ва унга Сабукра исимли турк подшоҳи ҳукмронлик қилган. Бухоро-Балх катта карвон йули айнан Насаф ва Субах орқали ўтган. Субахдан иккинчи карвон йули Кеш томонга қараб чиққан. Субах Қашқа воҳасини жанубий Сўғд- Бахтар ўлкаси, Чағаниён билан ҳам боғловчи асосий манзил ҳисобланган. Ривоятларимизда Қавчин эли Чўғуртма қавми чораҳасидаги қадим Чўғ беги қуҳна оташпараст (Сакифагин) ва зардуштийлар (саккизнчи аср Искифагин) ибодатхоналар шаҳри Сунаж дастлабки барпо этилган манзилдан уч юз йилдан, кийин Субах пайдо булган оралик масофаси бир фарсахлик йул ва иморатлари бир-бири билан туташиб кетганлиги сабабли қадим тарихларда Сунаж ва Субах бир манзил деб аташган, Археолгик маълумотларга қараганда Субах Қарши йулида жойлашган ҳозирги, Ўликтепа шаҳар харобоси урнида VIII-асрда Субах Муққанна кузғолони билан боғлиқ воқеалар марказига айланган.. аниқ манзили Искифагин ибодатхоналар шаҳри Чўғуртма карвон йули чораҳасидаги, ҳозирда ёши ун икки асирга баҳоланган қадим Чин марварид тут ёнидаги Ҳожабош ота зиёротгоҳи маъжмуасидаги қадим қаьлалар тепаликлари ҳисобланади. Тураб бобо ҳам отасидан қолган думбирани кечқурилар олиб чиқар ва у киши ҳам авлодлар мероси “Қундуз ва юлдуз дoston”идан парчалар айтиб, берар шу дostonдан “От-йигитнинг қаноти,” Оти борнинг қаноти бор,” От тегди –қанот тегди”, “От дўсти –ота дўсти,” “Яхши от- ярим ризқ,” “От ушлаган – азобидан кутулур” (ушлаган –бу ўринда “бокқан, асраган” маъносида ишлатилган), ”Отли йигит-бахтли йигит” халқ мақоли термаларини айтар мен эса Худоёр бобомни қуйнида ухлаб қолар эдим, бобом менга беш ёшимда от миниш сирларини ургата бошлади, туккиз ёшимда улоқ чопиш купкарисига қатнашишимга рухсат бердилар 31-сонли мактабда ҳамда Қарши саноат коллежидан ўқишдан буш булдим дегунча қишлоққа отлар ёнига югириб келардим, президентимиз Яккабоғда зотдор “Қорабайир отлари” насилчилиқ мажмуасини ташкил этилганини эшитиб, отам ва онамдан у ерда оддий от боқар булиб ишлашга рухсат беришларини сурадим, чунки отлар билан ҳамнафас булиш учун у ерга ишга киришни мақсад элтиб, олгандим, олдинига улар тажубланишди, истагим кучлилигини сезишиб рухсат беришди. Ҳар қалай ишга киришимда раҳбарлар мен билан суҳбатлашиб, отбоқарликка ишга қабул этилдим. Орада менга беркитилган отларга меҳр билан боболаримдан урганган услубларда қандайдир ички ишонч ва эшитган “Қундуз ва юлдўз “дostonидаги ҳамда Тути

момамни авлодларимиз ҳақида айтган гуёки ” **Кўкхон ва унга кўк от осмондан аллоҳ таъмонидан, тушган энган бедов**”ни буйсиндириш ҳақидаги ривоят эртаклари тушларимга кириб чиқарди, отларга меҳир билан қарай бошладим, руспубликадан келган от спорти мутахасислари мени отлар билан човоғонлик услубларимни синчиклаб урганишди ва от спорти билан шуғинланиш мутахасислик гурихга ишга утказишди.

Кухна Қавчин элини етти қишлоқларидан барча сара қорабайир отларни урушга олиб кетишган улар фронтда нобуд булган, фақат Хусан Ботир деган қишлоқдошимиз эса отини, акаси Кулоб беги булган Муродбек юртига бериб юбориб чапоғон отларини сақлаб қолган экан, кўриқдан ўтолмай қайтган отлар араваларга қушилиб юк ташишда фойдаланилган. Тути момамни айтиши буйича Ахмедов Хусан бобони ҳозирги уйи урнига колхознинг йиғилиш ўтказадиган махсус жойи бор булиб. Уша жойда ҳар ҳафтада бир кун кино қуйишар экан, кинони Қора Дуст бобам ҳам барча каби оила аъзолари бирла қолдирмай қуришаркан. Бу галги кино 9 май арафасида ғалаба кунига тўғри келибди. Кинодаги ҳарбий парадни отлик армияси қисми утаётганда, олдинги қисимда якка байроқ кутариб бораётган темир тусли кўк от минган зобит бораркан, шунда бобом ирғиб уридан туриб, кинондаги шу жойига тухтатиб тур киночи болам деб экран яқинига борибди ва қара Эргаш, Эшмурод бу от ахир биз қавчинларни отимизку, қулоғидаги эни, кўкрагидаги оқ холи, қадам ташлашлари, уша – ушаку деб, отини тириклигидан уйинга тушиб йиғлар, у кишига қушилиб Эргаш, Эшмурод бобо ҳамда йиғилган Чўғуртма аҳли у бизнинг асли авлодларимизга самодан Аллоҳ берган (туширган) от деб, ҳайқиришган экан.



Суратда Сўнаж (ҳозирги қургон)тепа ва қаъланинг сақланиб қолган ҳимоя хандаги доимо сув билан тула турган устида эса қутарма кунрик булган экан уртадаги куктошни бизга боболаримиз осмондан Кўкхонга туширилган самовий тош деб таърифлашган бизгача ана шу қисми етиб келган, учунчи суратда эса ушбу қаълани дарвозасини устун билан беркитадиган таянч тоши.

Қишлоғимизни 31-сонли мактабида уч авлод учрашувидамиз Янги Ўзбекистон ва маҳалламиз тарихи билан ёшларимиз ўртасида кекса, ўрта ёш авлодлар орасида қизиқарли суҳбатлар бўлиб туради. Унга кура яна бир мавзу топилмалар сири ҳақида бўлиб, Чўғуртма қишлоғи ерларини ҳар бир қарич жойи, қадимий осори атиқаларга бойдир. Чўғуртмалик Илёсбой Даминов томонидан ўн икки яшарлигида сизга юқорида таърифлаган қурғонтепа Сунаж қаъласи ёнидан топиб олинган қадимий санам.



Суратда юқоридан биринчи оқ мрамар тотем санам, унинг ён тарафида бўғдой бошоғи, бир тарафида инсон юзи қиёфаси булса, иккинчи тарафида от таъсури, кейинги

таъсвир эса, Баҳодир Маманов яшайдиган хонадондан топилган санам отлар сапол шакли булса учунчиси Баҳромхон Камоловни қаъла қурғон атрофларидан топган ута ноёб сапол санамлар бу манзилда одамлар, қадимдан яъни Одам алайҳсалом авлоди Идрис алойҳсалом давридан буён яшаётганлигидан, кейингисида бошоқ тасвирли қадим мис танга бу манзил қухна давлатчилигидан хабар бериб турубди. Бу манзилда ибтидойи жамо тузими давридаёқ йилки сутларини оқизилган кичик ҳажимдаги кубаша ҳамда ёнида сутдан ёғларини қулда ажратадиган куви идишни ва навбатдаги тасвирда эса, ушбу манзилда ҳар қадамда учрайдиган ер ости хумдонларида метал эритилиб, тайёрланган қавим жанговор чўқмор қуроли барчаси Сўнаж (қўрғонтепа) қаъласи, қарвон саройи ва бозорлари манзиллари топилмалари.

Икинчи бир мисолимизда Янги Ўзбекистон мафқурасида улғайтган суратда олти ёшли қизалоқ Абдураимова Маҳарбиби Абдуғани қизи унинг суратлари ортидаги тасвирда тепадан ушбу манзилдаги Қўрғонтепа яқинида яшашлиги сезилиб турибди. Ота-онаси тупроққа ишлов берган томарқасидаги ер остидан эътибор беринг нималарни топибди.



Унинг жамғармасида бедов тулпор от ва чавондоз эгасини сополдаги санам тасвири, қадим аёлларимизни ип игиришда ишлатган урчуқ тоши, суюқлик ичиладиган сопол қадах идиш оталари Абдуғанини айтиши буйича, уйларини ёнида яқингача жарлик ичида хумдон бўлиб, аҳоли эҳтиёжлари учун хумдондаги пишиқ ғиштларни олиб кетиб турган, топилмалар бу манзилни қадимийлигидан садо бериб туради.

Менда ҳам ун уч ёшлигимда шундай воқеа бўлган қуй ва от, йилқиларни қурғон қаъласи ва унинг бизни қишлоқ билан ажратиб турадиган жарликдаги яйловга боқардик, кунлардан бир кун қаъла яқинидаги жарлик қирғоғида аниғи тадбиркор Аъзам Бекмурадов балиқчилик учун олган манзилдан бир хум синиғи унинг ичида эса бир синиқ сирли сариқ қўёш рангини таратиб турган сапол товоқ, унинг остида эса, қатланган мол териси чикди терини очиб қараб маҳлиё бўлиб қолдим терига қурғон қаъласи ичлари билан, атрофдаги сув хандаги дарвозалари, атрофдаги шаҳарча ва қарвон йуллар ва бошқа жой манзаралари тасвирланган атрофларига эса сузлар ёзилган, айримларини ўқишга ҳаракат қилдим ҳозир эсласам Ўрхун ёзуви эди.

Онам ҳар куни румолларига менга тушлик озуқани туғиб белимга боғлаб қўярдилар тушликни еб бўлиб, румолни белимга боғлаб қуйивдим ёдимга тушиб сирли товоқ ва терига чизилган тирих (чизмани) белимга боғладим ва молларни отда яёв чошиб қайтариб кечга уйга келиб румолни ечай десам у алоқачон қайрагидир тушиб қолган экан, хафа бўлиб Тути момамга булган воқияни айтдим, ҳа болам хафа бўлма у ерлар бизлар ёшлигимизда қишлоқ эди, айтган жойингда қишлоқдошимиз Шукрилла Пардев ва ака, амакилари муллалар, эски шаманлар авлоди яшарди уларни авлодларига тегишли ута қадимдан қолган яширилган сирлар силсиласига алоқадор бўлиши мумкин. Эрталаб йурган йулларингни қидириб қургин балки топилиб қолар энди бориб дарсингни тайёрлаб ухлагин тойчоғим дедилар, бир икки кун роса қидирдим афсуски румол ва ичидагини топалмадим, илоҳим топган киши асраб қуйган булсинда.

2019 йил 22 майда отчилик мажмуасига от боқар бўлиб ишга кирдим, 2020 йилдан от спорти билан шуғиллана бошладим, шу йили 4 декабрида Яккабоғ, Тошкент марофонида ун отликлар сафида қатнашдим, уша йили Вилоят ҳокими кубогини қулга киритдим, 2021- 2022 йилларда республика от мусобақаларида утқазилган чемпионатда қатнашиб, мамлакат чемпионлигига сазовор (полго, човган уйини буйича) булдим, Ҳозирда вилоят миллий гвардияси манижларида хизмат бурчун, бажармоқдаман йилнинг якунуй чемпионатида жаъмомиз Ўзбекистон биринчилигни қулга киритди эришган йутуқларим буйича ҳурматли Президентимиз Ш.М.Мерзиёев қулларидан 2021 йил 29 июнь куни “Келажак Буниёдкори” ҳукумат мукофатни олдим.



10-IMI matematika o'q'uvchisi
e-mail: normurodqurbonov1958@gmail.com



Anotatsiya: mazkur maqolada trapetsiyani o'рта chizig'lari to'g'risida ma'lumotlar berilgan va unga doir ba'zi masalalarni yechilishi ko'rsatilgan. Trapetsiyani ikkinchi o'рта chizig'ini uning tomonlari bilan ifodalangan formulasi ham berilgan. Maqolada ko'rsatilgan ma'lumotlar darsliklarda uchramaydi.

Аннотация: в данной статье дана информация о средних линиях трапеции и решении некоторых задач. Дана формула её второй линии по сторонам трапеции. Данная информация этой статьи в учебниках не встречается.

Annatation: this article shows the information about the midline lines of the trapezoid and how to solve some problems related to it. The formula for the second middle of a trapezoid, represented by its sides, is also given. The information presented in the article is not found in textbooks

Kalit so'zlar: trapetsiya, o'рта chiziqlar, yuza, diagonal, uchburchak, perpendikulyar.



Ключевые слова: трапеция, средняя линия, площадь, диагональ, треугольник, перпендикуляр.

Key words: trapezoid, medians, surface, diagonal, triangle, perpendicular.

Qavariq to'rtburchakning uchta o'рта chizig'i mavjud. To'rtburchakning qarama-qarshi tomonlarini va diagonallarini o'rtalarini tutashtiruvchi kesmalar uning birinchi, ikkinchi va uchinchi o'рта chizig'lari deb aytiladi. Trapetsiya qavariq to'rtburchak hisoblanadi. Parallelogramm (to'g'ri to'rtburchak, romb, kvadrat) uchun bu o'рта chizig'lar uncha muhim emas. Ammo, trapetsiya uchun bu o'рта chiziqlar juda kerakli hisoblanib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish juda ko'pgina masalalarni yechilishini osonlashtiradi. Shuning uchun bu o'рта chizig'lar ta'riflarini trapetsiya uchun keltiraylik. Trapetsiyaning yon tomonlarini o'rtalarini tutashtiruvchi kesma trapetsiyaning birinchi o'рта chizig'i, asoslarini o'rtalarini tutashtiruvchi kesma trapetsiyaning ikkinchi o'рта chizig'i, diagonallarini o'rtalarini tutashtiruvchi kesma trapetsiyaning uchinchi o'рта chizig'i deyiladi. (1-rasm) Bu borada darsliklarda ma'lumotlar keltirilmagan. O'quvchilar trapetsiyaning o'рта chizig'lari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishsalar va undan masala yechishda foydalansalar foydadan xoli bo'lmaydi.

ABCD trapetsiyaning $BC = b$ va $AD = a$ asoslari ($BC < AD$), $AB = c$ va

$CD = d$ yon tomonlari, $BD = f_1$ va $AC = f_2$ diagonallari bo'lsin. 1-rasmda MN , KP , EF kesmalar mos ravishda trapetsiyaning birinchi, ikkinchi va uchinchi o'рта chizig'laridir.



1. Trapetsiyaning birinchi va ikkinchi o'рта chizig'larining uchlari ketma-ket tutashtirilsa parallelogramm hosil bo'ladi. Bu parallelogrammning perimetri trapetsiyaning diagonallari uzunliklari yig'indisiga teng bo'ladi.

2. Trapetsiyaning ikkinchi va uchinchi o'рта chizig'larining uchlari ketma-ket tutashtirilsa parallelogramm hosil bo'ladi. Bu parallelogrammning perimetri trapetsiyaning yon tomonlari uzunliklari yig'indisiga teng bo'ladi.

3. Trapetsiyaning o'рта chizig'lari kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linadi.

4. Agar trapetsiyaning birinchi va ikkinchi o'рта chizig'lari teng bo'lsa, uning diagonallari perpendikulyar bo'ladi va aksincha, agar trapetsiyaning diagonallari perpendikulyar bo'lsa, uning

birinchi va ikkinchi o'rta chizig'lari teng bo'ladi

5. Agar trapetsiyaning birinchi va ikkinchi o'rta chizig'lari perpendikulyar bo'lsa, bunday trapetsiya teng yonli bo'ladi va aksincha, agar trapetsiya teng yonli bo'lsa, uning birinchi va ikkinchi o'rta chizig'lari perpendikulyar bo'ladi.

6. Trapetsiyaning birinchi va ikkinchi o'rta chizig'lari o'zaro teng bo'lsa, trapetsiyaning o'rta chizig'lari uchlari bitta aylana yotadi.

7. Trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i uni ikkita tengdosh trapetsiyalarga ajratadi.

8. Trapetsiyaning birinchi o'rta chizig'i uning balandligini teng ikkiga bo'ladi. **9.** Trapetsiyaning yon tomonlarini davom ettirilganda ularning keshishgan nuqtasi va diagonallarining keshishgan nuqtasi ikkinchi o'rta chizig'i yotgan to'g'ri chiziqda yotadi.

10. Uchlari trapetsiyaning asoslarida va o'rta chizig'lari keshishgan nuqtasidan o'tuvchi, uni ikkita tengdosh trapetsiyalarga ajratuvchi cheksiz ko'p kesmalar mavjud.

O'rta maktab darsliklaridan ma'lumki, $MN \parallel AD \parallel BC$ bo'lib $MN = \frac{a+b}{2}$,

$EF \subset MN$ bo'lib, $EF = \frac{a-b}{2}$ bo'ladi.

Trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'ini tomonlari orqari ifodalangan formulani keltirib chiqaraylik. Buning uchun quyidagi teoremani ko'rib o'taylik.

Teorema. [4] ABCD trapetsiyaning BC va AD asoslari ($BC < AD$), MN birinchi o'rta chizig'i KP ikkinchi o'rta chizig'i bo'lsin. Trapetsiyaning bu o'rta chiziqlari kvadratlari yig'indisi uchun quyidagi tenglik o'rinli. (2-rasm).

$$MN^2 + KP^2 = \frac{1}{2}(2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2). \quad (1)$$

Isbot. Istalgan qavariq to'rtburchakning tomonlari o'rtalarini tutashtirsak parallelogramm hosil bo'ladi. Parallelogrammning diagonallari kvadratlari yig'indisi uning hamma tomonlari kvadratlari yig'indisiga tengdir. U holda: $MN^2 + KP^2 = 2(MK^2 + MP^2) = 2\left(\frac{1}{4}AC^2 + \frac{1}{4}BD^2\right) = \frac{1}{2}(AC^2 + BD^2)$.

$\triangle ABD$ uchun $BD^2 = AB^2 + AD^2 - 2 \cdot AB \cdot AD \cdot \cos A$.
 $\triangle ACD$ uchun $AC^2 = AD^2 + CD^2 - 2 \cdot AD \cdot CD \cdot \cos D$. Yuqoridagi tengliklarni hadma-had qo'shsak:

$$BD^2 + AC^2 = 2AD^2 + AB^2 + CD^2 - 2AD(AB \cos A + CD \cdot \cos D). \quad (2)$$

$CF \parallel AB$, $\triangle CFD$, $FD = AD - BC = a - b$. $CF = AB$, $CE \perp AD$.

$$FE = CF \cdot \cos F = AB \cdot \cos A, \quad ED = CD \cdot \cos D.$$

$$FD = FE + ED = AB \cos A + CD \cdot \cos D.$$

Yuqoridagi tengliklarni hisobga olsak, u holda

$$MN^2 + KP^2 = \frac{1}{2}(2AD^2 + AB^2 + CD^2 - 2AD \cdot FD) = \frac{1}{2}(2AD^2 + AB^2 + CD^2 - 2AD \cdot (AD - BC)) = \frac{1}{2}(2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2). \quad \text{Demak, (1)-tenglik to'g'ri ekan. Teorema isbotlandi. Bu teoremani isboti jarayonida}$$

$AC^2 + BD^2 = 2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2$ tenglikni to'g'riligini ham isbotladik. Yuqoridagi teoremadan quyidagi natijalar kelib chiqadi.

1-Natija. Trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i KP uchun quyidagi formula o'rinli.

$$KP = \frac{1}{2}\sqrt{2c^2 + 2d^2 - (a-b)^2}. \quad (3)$$

Haqiqatan: (1)- tenglikka asosan: $KP^2 = \frac{1}{2}(2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2) - MN^2 =$

$$= \frac{1}{2}(2b \cdot a + c^2 + d^2) - \left(\frac{a+b}{2}\right)^2 = \frac{1}{4}(2c^2 + 2d^2 - (a-b)^2). \quad \text{Bundan,}$$

$KP = \frac{1}{2}\sqrt{2c^2 + 2d^2 - (a-b)^2}$ tenglik kelib chiqadi. Mazkur formula darslik va o'quv qo'llanmalarda uchramaydi. (3)-formuladan ko'rinadiki, ABCD trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\triangle CFD$ ning FD tomoniga tushirilgan medianasiga teng bo'lar ekan.

2-Natija. Trapetsiyaning katta asosi hosil qilgan burchaklar yig'indisi 90° ga yoki kichik asosi hosil qilgan burchaklar yig'indisi 270° ga teng bo'lsa, uning ikkinchi o'rta chizig'i asoslari

ayirmasini yarmiga teng bo'ladi, ya'ni uchinchi o'rta chizig'i uzunligiga teng bo'ladi.

Haqiqatan: $\triangle CFD$ uchun $\angle CFD + \angle CDF = \angle BAD + \angle CDA = 90^\circ$ bo'lsa, $\angle FCD = 90^\circ$ bo'lib, $\triangle CFD$ to'g'ri burchakli uchburchak bo'ladi. U holda $c^2 + d^2 = (a - b)^2$ bo'lib, yuqoridagi (3)- formulaga asosan

$$KP = \frac{1}{2} \sqrt{2(a - b)^2 - (a - b)^2} = \frac{a - b}{2}.$$

3-Natija. To'g'ri burchakli trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\frac{1}{2} \sqrt{4c^2 + (a - b)^2}$ yoki $\frac{1}{2} \sqrt{3c^2 + d^2}$ ga teng bo'ladi.

Haqiqatan: $\triangle CFD$ uchun $\angle F = 90^\circ$ bo'ladi. Pifagor teoremasiga asosan:


$d^2 = c^2 + (a - b)^2$ yoki $(a - b)^2 = d^2 - c^2$ tengliklar o'rinli bo'lib (3)- formulaga asosan, trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\frac{1}{2} \sqrt{4c^2 + (a - b)^2}$ yoki $\frac{1}{2} \sqrt{3c^2 + d^2}$ ga teng bo'ladi.

4-Natija. Teng yonli trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\frac{1}{2} \sqrt{4c^2 - (a - b)^2}$ ga teng bo'ladi.

Haqiqatan: (3)- tenglikka $c = d$ bo'lsa,

$$KP = \frac{1}{2} \sqrt{2(c^2 + c^2) - (a - b)^2} = \frac{1}{2} \sqrt{4c^2 - (a - b)^2} \text{ bo'ladi.}$$

Trapetsiyaning yuzi uning birinchi va ikkinchi o'rta chizig'lari va ular orasidagi burchakning sinusini ko'paytmasiga teng, ya'ni $S = MN \cdot KP \cdot \sin \varphi$ formula o'rinlidir. (3-rasm). Haqiqatdan ham bizga ma'lumki, trapetsiyaning yuzi uchun $S = MN \cdot h$ formula o'rinlidir, bunda MN uning birinchi o'rta chizig'i, h balandligi. K niqtadan $KE \perp AD$ ni o'tkazaylik. U holda: $\angle MOK = \angle EPK = \varphi$ bo'ladi. $\triangle KEP$, $\angle E = 90^\circ$, $h = KP \sin \varphi$. Buni hisobga olsak: $S = MN \cdot KP \cdot \sin \varphi$ bo'ladi.



1-masala. Trapetsiyaning ikkinchi va uchinchi o'rta chizig'lari kvadratlari yig'indisi uning yon tomonlari kvadratlari yig'indisining yarmiga teng ekanligini isbotlang.

Yechish. $KP^2 + EF^2 = \frac{1}{4}(2c^2 + 2d^2 - (a - b)^2) + \frac{1}{4}(a - b)^2 = \frac{1}{2}(c^2 + d^2).$

Demak, $KP^2 + EF^2 = \frac{1}{2}(c^2 + d^2)$ tenglik o'rinli ekan.

2-masala. Trapetsiyaning uchta o'rta chizig'lari kvadratlari yig'indisi uning barcha tomonlari va diagonallarining kvadratlari yig'indisining to'rttdan bir qismiga teng ekanligini isbotlang.

Yechish. $MN^2 + KP^2 + EF^2 = \frac{1}{4}(a + b)^2 + \frac{1}{4}(2c^2 + 2d^2 - (a - b)^2) + \frac{1}{4}(a - b)^2 = \frac{1}{4}((a^2 + b^2 + c^2 + d^2) + (2ab + c^2 + d^2)) =$

$\frac{1}{4}(a^2 + b^2 + c^2 + d^2 + f_1^2 + f_2^2).$ Bu yerda $2ab + c^2 + d^2 = f_1^2 + f_2^2$ tenglikdan

foydalandik. Demak, $MN^2 + KP^2 + EF^2 = \frac{1}{4}(a^2 + b^2 + c^2 + d^2 + f_1^2 + f_2^2)$

tenglik o'rinli ekan.

3-masala. Trapetsiyaning uchinchi o'rta chizig'ining kvadratining to'rtlangani uning barcha tomonlari kvadratlari yig'indisidan diagonallari kvadratlari ayirmasiga tengdir, ya'ni $(2EF)^2 = a^2 + b^2 + c^2 + d^2 - f_1^2 - f_2^2$ tenglik o'rinlidir. Bu masalani mustaqil yeching.

$a > 0$ va $b > 0$ sonlar berilgan bo'lsin. Bu sonlarning o'rta garmonigi $\frac{2}{\frac{1}{a} + \frac{1}{b}}$, o'rta geometrigi \sqrt{ab} ,

o'rta arifmetigi $\frac{a+b}{2}$, o'rta kvadratik $\sqrt{\frac{a^2+b^2}{2}}$ qiymatlari uchun quyidagi tengsizliklar o'rinlidir.


$$\frac{2}{\frac{1}{a} + \frac{1}{b}} \leq \sqrt{ab} \leq \frac{a + b}{2} \leq \sqrt{\frac{a^2 + b^2}{2}}.$$

Bu tengsizliklarning to'g'riligini geometrik ko'rinishini aynan trapetsiyada ko'rish mumkin.

Haqiqatdan ABCD trapetsiya berilgan bo'lib, $BC = b$ va $AD = a$ asoslari ($BC < AD$) va O diagonallarining kesishgan nuqtasi bo'lsin. (4-rasm)

U holda:

- 1) a va b sonlarni o'rta garmonigi - $\frac{2}{\frac{1}{a} + \frac{1}{b}}$ esa, EF kesma uzunligiga teng bo'lib, bu kesma trapetsiya asoslariga parallel va diagonallarining kesishgan nuqtasidan o'tadi.
- 2) a va b sonlarni o'rta geometrigi - \sqrt{ab} esa, GH kesma uzunligiga teng bo'lib, bu kesma trapetsiya asoslariga parallel va uni $BCHG$ va $GHDA$ o'xshash trapetsiyalarga bo'ladi.
- 3) a va b sonlarni o'rta arifmetig'i - $\frac{a+b}{2}$ esa, trapetsiyani birinchi o'rta chizig'i MN kesma uzunligiga tengdir.
- 4) a va b sonlarni o'rta kvadratik qiymati - $\sqrt{\frac{a^2+b^2}{2}}$ esa, KL kesma uzunligiga teng bo'lib, bu kesma trapetsiya asoslariga parallel va uni ikkita tengdosh $KBCL$ va $AKLD$ trapetsiyalarga ajratadi. (4- rasm)



4-mas:

to'rtburchakning yuzini toping. (5-rasm).

Yechish. Yuqoridagi 1-fikrga asosan $MKNP$ to'rtburchak parallelogrammdan iborat. $\angle PMK = \alpha$ bo'lsin. $MK \parallel AC$, $MP \parallel BD$ bo'lganligi sababli $\angle COD = \alpha$ bo'ladi. Bunda O diagonallarining kesishish nuqtasi. U holda

$$S_{MKNP} = MK \cdot MP \cdot \sin \alpha = \frac{1}{2} AC \cdot \frac{1}{2} BD \sin \alpha = \frac{1}{2} \left(\frac{1}{2} AC \cdot BD \sin \alpha \right), S_{MKNP} = \frac{1}{2} S.$$

5-masala. Trapetsiyaning yuzi ikkinchi o'rta chizig'i hamda diagonali va ular orasidagi burchakning sinusini ko'paytmasiga tengligini isbotlang. **Yechish.** Berilgan ABCD trapetsiya. KP - ikkinchi o'rta chizig'i va AC diagonali orasidagi burchak φ bo'lsin. $S_{ABCD} = KP \cdot AC \cdot \sin \varphi$ ni isbotlaymiz. (6-rasm)

A va K , C va P nuqtalarni tutashtiramiz. $\triangle ACP$ va $\triangle PCD$ larda $\angle APC = \angle CPD$. Bu tomonlarga tushirilgan balandliklar teng bo'lganligi sababli ular tengdoshdir. $\triangle ABK$ va $\triangle AKC$ lar ham tengdosh. Bundan:

$$S_{tr} = 2 \cdot S_{AKCP} = 2 \cdot \frac{1}{2} KP \cdot AC \cdot \sin \varphi = KP \cdot AC \cdot \sin \varphi, S_{ABCD} = KP \cdot AC \cdot \sin \varphi.$$

6-masala. A_1B_1CD trapetsiyaning asoslari $A_1B_1 = a$, $CD = b$ ($b > a$) bo'lib, uning uchinchi o'rta chizig'i A_2B_2 ga teng. Hosil bo'lgan A_2B_2CD trapetsiyaning uchinchi o'rta chizig'i A_3B_3 ga teng va hokazo. $A_1B_1, A_2B_2, A_3B_3, \dots$ kesmalar uzunliklari ketma-ketligi uchun umumiy formulani toping.

Yechish. Berilgan trapetsiyaning A_2B_2 uchinchi o'rta chizig'i uning diagonallarini o'rtalarini tutashtiruvchi kesma bo'lib, trapetsiyaning birinchi o'rta chizig'ida yotadi. Bu kesmani uzunligi

$$A_2B_2 = \frac{b-a}{2} = \frac{1}{2}b - \frac{1}{2}a \text{ ga teng.}$$

A_2B_2CD trapetsiyaning A_3B_3 uchinchi o'rta


chizig'i uning diagonallarini o'rtalarini tutashtiruvchi kesma bo'lib, bu kesmani uzunligi $A_3B_3 = \frac{1}{2}CD - \frac{1}{2}A_2B_2 = \frac{1}{2}b - \frac{1}{2} \cdot \frac{b-a}{2} = \frac{b+a}{4}$ ga teng. $A_4B_4 = \frac{3b-a}{8}$, ba hokazo... A_{n+1} va B_{n+1} nuqtalar A_nB_nCD trapetsiyaning o'rta chizig'ida yotadi. Agar $A_nB_n = a_n$, va $A_{n+1}B_{n+1} = a_{n+1}$ bo'lsa, quyidagi tenglik o'rinli:

$$A_{n+1}B_{n+1} = -\frac{1}{2}a_n + \frac{1}{2}b$$

Demak, $A_{n+1}B_{n+1}$ kesmalar ketma-ketligi $a_1 = a$, $q = -\frac{1}{2}$,

$d = \frac{1}{2}b$ bo'lgan arifmetik-geometrik progresiyani tashkil etadi.

Arifmetik-geometrik progresiyani n - hadi



$a_{n+1} = q^n \left(a_1 + \frac{d}{q-1} \right) - \frac{d}{q-1}$ formulasiga asosan,

$a_{n+1} = \left(-\frac{1}{2} \right)^n \left(a - \frac{b}{3} \right) + \frac{b}{3}$ bo'ladi.

Javob: $a_{n+1} = \left(-\frac{1}{2} \right)^n \left(a - \frac{b}{3} \right) + \frac{b}{3}$.

Trapetsiyaga doir masalalar maktab geometriya darsliklari va o'quv qo'llanmalarida asosiy o'rinni egallaydi. Bu masalalarga doir o'quvchilarni qiziqishi, trapetsiyaning o'rta chizig'lari tushunchalarini kiritilishi bilan yanada oshadi. Natijada ular juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu esa ularni matematikani chuqurroq o'rganishga undaydi va fanlar olimpiadasida yuqori natijalarni egallashida zamin yaratadi.

Mustaqil yechish uchun masalalar

ABCD trapetsiya uchun BC va AD asoslari $BC < AD$ bo'lsin.

1. KP - ikkinchi o'rta chizig'i uchun $\overline{KP} = \frac{1}{2}(\overline{BA} + \overline{CD})$ tenglikni isbotlang, bunda K nuqta kichik asosining o'rtasi, P nuqta katta asosining o'rtasi.
2. Yuqoridagi vektorli tenglikdan foydalanib, trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'ini tomonlari orqali ifodalangan formulasini keltirib chiqaring.
3. ABCD trapetsiyani AB va DC yon tomonlarini davom etirilganda keshishgan nuqtasi O bo'lsin. $\triangle AOD$ va $\triangle BOC$ larni o'xshashligidan hamda OP kesmani $\triangle AOD$ ni medianasi ekanligidan foydalanib, trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i formulasini keltirib chiqaring.

Adabiyotlar:

1. Болтянский.Г.,Сидоров Ю.В.,Шабунин М.И., Лекции и задачи по элементарной математике. -М.: Издательство Наука, 1972г.
2. Ботиров Г.И., Курбанов Н.Х.,Арифметико-геометрическая прогрессия// Журнал Математика в школе , 2023г. №3.стр.57-62.
3. Кушнир И.А.,Вторая средняя линия трапеции// Журнал Математика в школе , 1993г. №2.стр.56-57.
4. Qurbonov N.X.,Trapetsiyani ikkinchi o'rta chizig'i // Jurnal FMI,2021yil, №3.83-89-betlar.

BUXORO VILOYATIDAGI OVCHILIK XO‘JALIKLARI VA ULARNING BIOLOGIK XILMA - XILLIKNI SAQLASHDAGI ROLI

Raxmonov Rashit Raximovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrası dotsenti



Hayvonlarni ovlash hayvonot dunyosidan foydalanishning keng tarqalgan usuli bo‘lib, bu odatda ovchilik xo‘jaliklarida amalga oshadi. Bunday xo‘jaliklar nafaqat hayvonlarni ovlash, balki ularni muhofaza qilish orqali biologik xilma-xilligini saqlab qolish yo‘nalishida ham faoliyat yuritadi. Ov qilish va hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo‘yicha Xalqaro kengashning (*CIC–Conseil International de la Chasse*) asosiy maqsadi barqaror ovga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, u hayvonlarni ovlashni tabiiy resurslardan foydalanishning oqilona usuliga aylantirish bo‘yicha dunyo miqyosida faol o‘rin egallaydi. Ushbu Xalqaro kengash hayvonlar sonining kamayishiga olib kelmaydigan ovni tabiiy resurslardan barqaror foydalanishning bir turi sifatida baholaydi, ovchilarga esa hayvonot dunyosini saqlab qolishga o‘z hissasini qo‘shuvchi sifatida qaraydi.

Bugungi kunda har qanday ekotizimning barqarorligi undagi biologik xilma-xillik va uni saqlab qolishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar samaradorligi bilan o‘lchanadi. Zoogeografik xususiyatiga va ovchilik sohasidagi davlat siyosatiga bog‘liq holda, ovchilik xo‘jaliklarining tashkiliy tuzilmasi, uni yuritish tizimi va samaradorlik darajasi ham turlicha bo‘ladi.

Respublikamizning cho‘l zonasida, jumladan Buxoro viloyatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonining nisbatan kamligi, hayvon turlarining yashashini ta‘minlovchi muhitlarning asosan suv havzalari va ularning qirg‘oq zonalarida shakllanganligi bu erda biologik xilma-xillikni saqlashda ovchilik xo‘jaliklarining ahamiyatini yanada oshiradi. Viloyatda ovlanadigan turlar orasida qum tovushqonidan (*Lepus Tolai*) tashqari deyarli barcha turlarning hayoti ovchilik xo‘jaliklaridagi tabiiy va sun‘iy yaratilgan sharoitlar bilan bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida, xo‘jaliklar faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Buxoro viloyatdagi ovchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligi pastligiga qaramay, ular nafaqat ov ob‘ektlari, balki mintaqadagi fauna barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Chunki bu erdagi bioxilma-xillikning asosiy qismi ovchilik va baliqchilik xo‘jaliklari egallagan maydonlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotlar jarayonida ovchilik xo‘jaliklari joylashgan joydagi ko‘llarda suv sathining pasayishi bu erda ovlanadigan turlar bilan birga, butun ekotizimda turlar sonining kamayishiga va sonining pasayishiga olib kelishi qayd etildi. SHu asosda aytish mumkinki, ov xo‘jaliklari hayvonlardan foydalanish bilan birga, ular yashaydigan muhitni muhofaza qilish, ov jarayonini nazorat qilish va boshqa biotexnik tadbirlar orqali ekotizimlar barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda, jamoat tashkiloti sanalgan “O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi Davlat qo‘riqxonalari, milliy tabiiy bog‘lari va ovchilik xo‘jaliklari boshqarmasi tasarrufidagi davlat o‘rmon-ov xo‘jaliklari va xususiy ovchilik xo‘jaliklari ovchilik faoliyati bilan shug‘ullanadi. “O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi” tasarrufida 38 ta ovchilik xo‘jaliklari bo‘lib, ular egallagan umumiy maydon 673.950 ga ni tashkil etadi. Joylarda mazkur birlashmaning viloyat bo‘limlari ham faoliyat yuritadi.

Buxoro viloyatida ovchilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar soni 10 ta bo‘lib, umumiy maydoni 102324 ga ni yoki viloyat umumiy er maydonining (39 400 000 ga) 2,5 % ni tashkil etadi. Buxoro viloyatida Qoraqir, SHo‘rko‘l, Qumsulton kabi 3 ta ovchilik xo‘jaligi O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi, 2 ta Qorako‘l davlat o‘rmon-ov xo‘jaligi va Qorovulbozor o‘rmon ov xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tasarrufida va 5 ta “Peshku Qoraqir Qo‘rg‘oni”, “Neftgazmontaj”, “Damir sulton fayz”, “Buxoroneftqurilish-montaj”, “G‘ijduvon sho‘rko‘l” MCHJ lari ovchilik bilan shug‘ullanadi. Viloyatda qayd etilgan xo‘jaliklar chegarasidan tashqarida ham ov qilish jarayonlari amalga oshiriladi.

Ovchilik xo‘jaliklarining tabiat va inson xo‘jaligidagi ahamiyati undagi turlar xilma-xilligi, soni va xo‘jalikning iqtisodiy samaradorligi (rentabelligi) bilan belgilanadi.

Ovchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligi xo‘jalikning geografik joylashuvi, muhitning antropogen omillar ta‘siriga berilganlik darajasi, brakon‘erlik, amalga oshirilayotgan biotexnik tadbirlar, ov qilish me‘yorlarining to‘g‘ri belgilanishi va boshqa qator omillarga bog‘liq holda kechadi.

YU.O.Mitropolskaya qayd etishicha, O‘zbekistonda biologik resurslardan, jumladan, hayvonot dunyosidan barqaror foydalanmaslik, noqonuniy ov qilish va ov xo‘jaligini yuritishni samarasiz boshqarish oqibatida hudud faunasiga xavf etkaziladi.

O‘rganishlar natijasida, ovchilik xo‘jaliklari faoliyatining asosini tashkil etuvchi biotexnik tadbirlarni (maxsus oziqlanish joylari, sun‘iy uyalar yasash, yirtqichlardan himoya qilish, boshpanalar tashkil etish, em-xashak tayyorlash va boshq.) amalga oshirishning talabga javob bermasligi xo‘jaliklarning iqtisodiy ahvolidan yomonlashuviga va turlarning etarli darajada muhofaza qilinmasligiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi

Viloyatdagi ovchilik xo‘jaliklarining ekologik jihatdan qulayligi sababli bu erda O‘zbekiston Respublikasi “Qizil qitobi”ga, Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqining “Qizil ro‘yxati”ga va CITES (“Yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to‘g‘risida”gi Konvensiya)ning ilovalariga kiritilgan noyob va yo‘qolib ketayotgan turlar (*Barbus brachycephalus-Orol mo‘ylovdori*, *Tratoscincus sciscus-Sink gekkoni*, *Varanus griseus-Bo‘z echkamar*, *Egretta garzetta- Kichik oq qarqara*, *Platalea leucorodia-Qoshiqburun*, *Aythya nyroca-Oqko‘z o‘rdak*, *Gazella subgutturosa- Jayron*, *Lynx caracal- Qoraquloq va boshq.*) uchraydi. Mazkur turlarning xo‘jaliklarda uchrashi ularning ma‘lum darajada muhofaza qilinishi bilan birga, ba‘zan antropogen omillar ta‘siridan nobud bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda. SHu asosda ovchilik xo‘jaliklarida yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi noyob turlarni muhofaza qilish bo‘yicha alohida chora-tadbirlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Ma‘lumki, Orol dengizining qurishi va irrigatsiya tizimidagi qator o‘zgarishlar suv va suv oldi qushlarining havzalar bo‘ylab qayta taqsimlanishiga, suv biotsenozlarini muhofaza qilish masalalari dolzarbligining yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa regionda suv havzalarining tirik organizmlar hayotidagi rolini yanada oshishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekistonda buyurtmaxona maqomiga ega bo‘lgan ko‘llar (Sudoche, Qoraqir, Arnasoy, Dengizko‘l, Xadicha, Qumsulton) respublikada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar umumiy maydonining atigi 7,5 % ni tashkil etishini inobatga olganda, kelgusida ularning maydonini yanada kengaytirish zarur. Buxoro viloyatidagi davlat buyurtmaxonasi maqomiga ega bo‘lgan Qoraqir, Dengizko‘l, Xadicha va Qumsulton ko‘llari uchib o‘tuvchi va qishlovchi qush turlarining hayotida muhim ahamiyatga ega. SHunday bo‘lishiga qaramasdan, mazkur ko‘llarning deyarli barchasida ov faoliyatining amalga oshirilishi qushlarning yashashi uchun bir qator noqulayliklar tug‘dirmoqda. Bunday ko‘llarda ov qilish bo‘yicha moratoriy (ov qilishni ma‘lum muddat cheklash) e‘lon qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda shunday amaliyot Qozog‘iston va Qirg‘izistonda qo‘llanilmoqda. SHu bilan bir qatorda, To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlarini ham Ramsar ro‘yxatiga kirganligi va ularga bugungi kunda ornitologik buyurtmaxona maqomini berish, nafaqat mazkur ko‘llarda, balki viloyatdagi ovchilik xo‘jaliklarida ham biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar, jumladan, ov qilish va baliq ovlash huquqiy jihatdan qator qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, ushbu sohada xalqaro munosabatlarga integrallashuv maqsadida 1997 yilda “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (CITES)ga, 1998 yilda “YOvvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyaga, 2001 yilda “Suvda suzuvchi qushlarning asosiy yashash manzili bo‘lgan xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq erlar to‘g‘risida”gi Konvensiyaga qo‘shilgan.

Hozirgi vaqtda ov qilish va ovchilik xo‘jaligini yuritishga tegishli munosabatlar

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, va “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi “Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi 290-sonli qarori hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2006 yil 22 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida ov va baliq ovlash qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 27-sonli buyrug‘i bilan tartibga solinadi.

Amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili ov qilish va ov xo‘jaligini yuritishni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan hamda bartaraf etilishi zarur bo‘lgan ayrim bo‘shliqlar, qarama-qarshi va havolanki normalar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Qayd etilgan muammolar respublikamizda sanoat va sport ovinining hamda ov turizmining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi bilan bir qatorda, ovchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy ahvoli pasayishiga olib kelmoqda. Mazkur holatning ayrim jihatlari boshqa davlatlarning soha tarmoqlarida ham qayd etiladi. Ushbu muammolarning aksariyati soha qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lib, uni takomillashtirishni taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentyabrdagi “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi gi 545-I-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 dekabrda “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi 710-II-son Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob‘ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi 914-son qarori.

5. Азимов Д.А. и др. Биологическое разнообразие: стратегия сохранения // Узбекский биологический журнал. –Ташкент, 1998. –№2. – С. 55-61.

6. Бақоев С.Б., Раҳмонов Р.Р. Гнездование птиц в водоемах г.Бухары // Наземные позвоночные животных аридных экосистем: Материалы международной научной конференции. – Ташкент, 2012. – С. 48-51.

7. Raxmonov R.R., Raximov J.R. O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan Buxoro viloyati suvliklarida uchraydigan qushlar biologiyasi // Professor-o‘qituvchilar va talabalarning 59-ilmiy-nazariy anjumani materiallari to‘plami. – Buxoro, 2015. – B. 87-89.

8. Raxmonov R.R., Rayimov A.R. Antropogen omillarning ovlanadigan hayvon turlariga ta’sirini baholash // Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xiva, 2019. –№2. –B. 27-29.

9. Raxmonov R.R., Xolboyev. F.R. Ovchilik tarixiga oid ma’lumotlar // Hayvonlar ekologiyasi va morfologiyasi: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2018. – B. 79-83.



СПОСОБ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ПСИХОРЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ФЕБРИЛЬНЫХ СУДОРОГАХ У ДЕТЕЙ

Равшанов Сардор

*Студент Бухарского государственного медицинского института
имени Абу Али Ибн Сина*

*Научный руководитель: Висола Фуркатовна ГАФФАРОВА
PhD, ассистент кафедры неврологии*

Резюме: в статье представлены результаты сравнительного исследования детей с фебрильными и афебрильными судорогами. Установлено, что фебрильные судороги развиваются при гипертермии вследствие соматического заболевания и сопровождаются диффузными микроорганическими симптомами, не влияющими на когнитивное развитие ребенка.

Ключевые слова: дети, приступ, фебрильные судороги, афебрильные судороги эпилепсия.

Актуальность: Фебрильные судороги (ФС) на сегодняшний день часто встречающийся вариант пароксизмальных состояний у детей [1-5]. Фебрильные судороги (приступы, ФС) на сегодняшний день часто встречающийся вариант пароксизмальных состояний в педиатрической практике. Это эпизоды эпилептических приступов, возникающие у детей дошкольного возраста при гипертермии, не связанной с нейроинфекцией. ФС являются доброкачественным, возрастозависимым, генетически детерминированным состоянием, при котором головной мозг восприимчив к эпилептическим приступам, возникающим в ответ на высокую температуру. [4,6]. По данным литературных источников, распространенность фебрильных судорог у детей от 6 месяцев до 5 лет составляет порядка 2-5%. Мальчики болеют чаще, чем девочки в соотношении 1,5-2:1. Пик заболеваемости наблюдается в возрасте 18 месяцев [8].

Фебрильные судороги у детей - гетерогенное патологическое состояние. Точная этиология и патогенез не установлены. Одним из возможных факторов развития патологии является незрелость ЦНС у детей до 6 лет, которая проявляется в склонности к генерализации процессов и слабости тормозной деятельности.

Цель исследования: изучить психоречевых нарушений при фебрильных судорогах у детей.

Критерии включения в исследование: температура, судороги, возраст с 6 месяцев до 15 лет.

Критерии исключения: интракраниальная инфекция (энцефалиты, менингиты), возраст более 5 лет, отсутствие температуры.

Методы исследования включали сбор анамнеза, клинико-неврологического обследования, электроэнцефалографию головного мозга (ЭЭГ) и магнитно-резонансную томографию (МРТ головного мозга).

Для достижения поставленной цели были отобраны 120 детей с фебрильными судорогами в возрасте с 6 месяцев до 5 лет. Средний возраст детей составил $3,2 \pm 0,12$. Среди детей с фебрильными судорогами преобладали дети - 2-3 летнего возраста: 2-х летних детей было 36,7%, 3-х летних 26,7%. Отмечено снижение количества пациентов с возрастом: дети 4 лет составили 23,3%, а 5 лет - 10%. Среди обследованных детей с фебрильными судорогами в половом соотношении было больше мальчиков - 63,3%, девочки составили

36,7% случаев.

Первый этап исследования заключался в сборе анамнеза, клинико-неврологического обследования и тестирования на установления задержки речевого развития (ЗРР) или психоречевого развития (ЗПРР).

Диагностика судорожных состояний у детей проводилась в соответствии с критериями, рекомендованными Международной классификацией эпилепсий и эпилептических синдромов (1989).

Результаты исследования: анализ данных Денверской шкалы показало, что в группе с фебрильными судорогами у 40% (48 из 120) пациентов психомоторное развитие соответствовало возрасту по всем 4 шкалам. У 43,3% пациентов отмечалась задержка речевого развития, у 30% детей было нарушение индивидуально-социального развития, мелкая моторика была нарушена у половины пациентов, а крупная моторика у 36,7% (табл. 1).

Таблица 1

Бальная оценка по Денверской шкале

ДДСТ	Общее количество детей, n=120	
	Норма	Задержка
Речевая	68 (56,7%)	52 (43,3%)
Индивидуально-социальная	78 (60%)	48 (40%)
Мелкая моторика	60 (50%)	60 (50%)
Крупная моторика	76 (63,3%)	44 (36,7%)

Температура - одно из основных условий возникновения фебрильных судорог. Нами анализировались отдельные характеристики температуры, связанные с появлением фебрильных судорог: уровень температуры во время возникновения судорог, наличие температуры до начала судорог, темп нарастания температуры с появлением судорог.

Температура, при которой у детей возникали фебрильные судороги, чаще была выше 38,5°C (56,7%), лишь 6,7% детей имели температуру тела менее 38°C. Приступ судорог был первоначальным симптомом лихорадочного заболевания у 10% пациентов, в 90% случаев дети уже болели и были с температурой. Судороги возникали чаще при быстром нарастании температуры (50%), и только в 3,3% случаев было отмечено появление судорог при резком снижении температуры.

Температура, при которой возникают фебрильные приступы, чаще всего вызвана острыми респираторными заболеваниями, отитом, пневмонией, кишечными инфекциями, воспалениями мочевыводящих путей. Эти инфекции являются причиной большинства фебрильных расстройств в детстве. В нашем исследовании в подавляющем большинстве случаев фоновым заболеванием у детей была острая респираторная инфекция (86,7%).

Изменения в неврологическом статусе встречались в обеих группах с достоверным преобладанием у детей основной группы (табл. 2).

Таблица 2

Результаты неврологического обследования

Показатели	Группы				Оценка значимости различий
	основная (n=72)		сравнения (n=48)		
	Абс.	%	Абс.	%	
Без изменений	22	30,6	22	45,8	P>0,05
С изменениями, в т.ч.:	50	69,4	26	54,2	P>0,05
- черепные нервы	21	29,2	2	4,2	P<0,01
- двигательная сфера	12	16,7	5	10,4	P>0,05

Нами было проведено ЭЭГ исследование головного мозга, которое как правило

проводилось не менее 10 дня после случая судорог. У детей с фебрильными судорогами ЭЭГ бодрствования в 76,7% была без патологии, в 23,3% регистрировались изменения на ЭЭГ, которые были преимущественно неспецифическими: легкое замедление фоновой активности ЭЭГ (20,4%), а также короткие диффузные разряды тета- и дельта- волн амплитудой до 100 мкВ в фоне (3,3%). В группе сравнения патологические изменения на ЭЭГ регистрировались у 12,5% (6/48), а в основной группе в 30,6% (22/72).

Относительный риск развития ЗППР (RR) у детей с ФС при наличии в неврологическом статусе очаговых неврологических симптомов составляет 4,0 (95% ДИ 1,3 - 12,1; $p = 0,01$), а при отсутствии отклонений в неврологическом статусе - 0,5 (95% ДИ 0,3 - 0,9; $p = 0,009$).

Относительный риск развития ЗППР (RR) у детей с ФС при наличии патологических изменениях на ЭЭГ составляет 1,6 (95% ДИ 1,0 - 2,4; $p = 0,03$).

Относительный риск развития ЗППР (RR) у детей с ФС при наличии неблагоприятном течении беременности и родов составляет 1,9 (95% ДИ 1,1 - 3,1; $p = 0,01$), а при отсутствии нормальном - 0,6 (95% ДИ 0,4 - 0,8; $p = 0,001$).

Выводы: Таким образом, полученные результаты свидетельствуют о снижении развития у детей ЗППР и своевременной его коррекции, а также в повышении качества жизни детей с ФС. Определены предикторы риска развития ЗППР у детей с ФС: х1 – сложные ФС (RR = 3,6; 95% ДИ 1,6 - 8,4; $p = 0,003$), х2 – клонические судороги (RR = 15,4; 95% ДИ 1,0 - 243,6; $p = 0,05$), х3 - нарушения в неврологическом статусе в виде очаговых неврологических симптомов (RR = 4,0; 95% ДИ 1,3 - 12,1; $p = 0,01$), х4 – патологические изменения на электроэнцефалограмме (RR = 1,6; 95% ДИ 1,0 - 2,4; $p = 0,03$).

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Дадали Е.Л., Шарков А.А., Шаркова И.В., Канивец И.В., Коновалов Ф.А., Акимова И.А. Наследственные заболевания и синдромы, сопровождающиеся фебрильными судорогами: клиничко-генетические характеристики и способы диагностики. *Русский журнал детской неврологии* 2016; 11(2): 33-41. DOI: 10.17650/2073-8803-201611-2-33-41
2. Тиганов А. С. Патология психического развития // ФГБН Научный центр психического развития от 21.02.2020.
3. Филичева Т. Б., Чиркина Г. В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. Практическое пособие. — М.: Айрис-пресс, 2004.
4. Graves R.C., Oehler K, Tingle L.E. Febrile seizures: risks, evaluation, and prognosis. *Am Fam Physician* 2012; 85(2): 149-153.
5. Gupta A. Febrile Seizures. *Continuum (Minneapolis Minn)* 2016; 22(1): 51-59. DOI: 10.1212/CON.0000000000000274
6. Ka-nivec I.V., Konovalov F.F., Akimova I.A. Hereditary diseases and syndromes accompanied by febrile convulsions: clinical and genetic characteristics and methods of diagnosis. *Russian Journal of Child Neurology* 2016; 11(2): 33-41.
7. Kimia A.A., Bachur R.G., Torres A., Harper M.B. Febrile seizures: emergency medicine perspective. *Curr Opin Pediatr* 2015; 27(3): 292-297. DOI: 10.1097/MOP.0000000000000220
8. Mewasingh L.D. Febrile seizures. *BMJ Clin Evid* 2014; 2014: pii: 0324.
9. Sharko, E.E. Quantitative electroencephalographic analysis in epilepsy children / E.E. Sharko // *Med. Razgl.* – 2012. – Vol. 51, Suppl. 5. – P. 66.
10. Trinka E, Cock H, Hesdorffer D., Rossetti A.O., Scheffer I.E., Shinnar S., Shorvon S, Lowenstein D.H. A definition and classification of status epilepticus-Report of the ILAE Task Force on Classification of Status Epilepticus. *Epilepsia* 2015; 56(10): 1515-1523. DOI: 10.1111/epi.13121
11. Wilmsurst J.M., Gaillard W.D., Vinayan K.P., Tsuchida T.N., Plouin P., Van Bogaert P. et al. Summary of recommendations for the management of infantile seizures: Task Force Report for the ILAE Commission of Pediatrics. *Epilepsia* 2015; 56(8): 1185-1197. DOI: 10.1111/epi.13057

GENETIK SAVODXONLIK VA TIBBIY MADANIYAT UYG'UNLIGI

Jabborova Oysha Iskandarovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti



Annotatsiya. Maqolada “tibbiy biologiya” fanini o‘qitishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Fanni o‘qitishning ustuvor yo‘nalishlariga asosiy e’tibor qaratilgan. Irsiy kasalliklarni oldini olishdagi ahamiyati tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. Ustuvor yo‘nalishlar, irsiy kasalliklar, sog‘lom avlod, genetik bilim.

Sog‘lom avlodning tug‘ilishi aholining genetik bilimlardan yetarli darajada xabardor bo‘lishi, ularning genetik savodxonligi va tibbiy madaniyatini oshirishga bevosita bog‘liqdir. Irsiy kasalliklar sabablarini aniqlamay hamda ularning ayrim xossalarini avloddan-avlodga uzatilish qonuniyatlarini chuqur anglamay turib, sog‘lom avlodning dunyoga kelishiga ishonch bildirish aslo mumkin emas. SHu sababli aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tibbiy va genetik bilimlarni (savodxonlikni) keng targ‘ib qilish maqsadga muvofiqdir. Bu borada “Tibbiy biologiya” fanini o‘qitishning roli beqiyosdir. Bu predmetni o‘zlashtirish afzalliklarini quyidagi holatlar bilan tavsiflash mumkin:

Birinchidan, bo‘lajak mutaxassislarni organizmning individual rivojlanishi va turli genetik kasalliklarning kelib chiqish sabablaridan xabardor etish, ularning mavjud biologik bilimlarini yanada boyitishga yordam beradi;

Ikkinchidan, “Tibbiyot genetikasi” fanining rivoji sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

“Tibbiy biologiya” o‘quv fanini tarkibiy va mazmunan takomillashtirishda genetik, biologik bilimlarning rivojlanishi, irsiy kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, tasnifi hamda ularning oldini olish yo‘llari borasidagi tadqiqotlarning amalga oshirilishi o‘ziga xos o‘rin tutadi. N.P.Bochkov, E.A.Bogomazov, E.F.Davidenkova, I.S.Liberman, E.T.Lilin, A.Motulskiy, J.A.Musaev, N.K.Nishonboev, A.T.Oqilov, YO.X.To‘raqulov, P.I.Toshxo‘jaev, F.Fogel, J.H.Hamidov, N.M.SHomatov, V.P.Efroimson va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda “Genetika” va “Tibbiyot genetikasi” fanlarining rivojlanish tarixi, ayrim belgilarni genetik boshqarilishi, genlarni o‘zaro ta’siri, tibbiy genetik usullar hamda turli ko‘rinishdagi genetik kasalliklar va ularning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

D.K.Belyaev, K.B.Butayev, N.M.Verzilin, R.A.Gurova, L.Denna, B.V.Zaxarov, V.M.Korsunskaya, YU.N.Polyanskiy, A.O.Ruvinskiy, E.Sinota, B.X.Sokolovskaya, E.I.Suknova, J.O.Tolipova, S.S.Fayzullaev, A.T.G‘ofurov va boshqalarning ishlarida esa, ta’lim muassasalarida “Genetika” va “Tibbiyot genetikasi” fanlarini o‘qitishning didaktik va metodik jihatlari, talabalarga umumiy biologik, tibbiy va genetik bilimlarini berishdagi pedagogik yondashuv mohiyati hamda “Tibbiy biologiya” va “Tibbiyot genetikasi” fanlarini o‘qitishda samaradorlikka erishish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Odam genetikasi morfologiya, fiziologiya va biokimyo bilan bir qatorda zamonaviy tibbiyotning nazariy asoslaridan biri bo‘lib, u odam irsiyati va o‘zgaruvchanligi xodisalarini molekulyar, hujayra, organizm, populyasiya kabi har xil miqyosda o‘rganadi. Odam genetikasi tibbiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lsada, u doimiy ravishda umumiy biologiyaning evolyusiyasi, ontogenez kabi konsepsiyalaridan va mendelizm, irsiyatning xromosoma nazariyasi, DNK- ning ma’lumot tashishdagi roli kabi muhim genetik kashfiyotlar asosida taraqqiy etdi. Hozirgi davrda odam genetikasi odam genomini o‘rganish, sitogenetika, molekulyar va biokimyoviy genetik, immunogenetika, taraqqiyot genetikasi, populyasion genetik sohalarda jadal rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston o‘zining mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab, barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga etkazish, ularning salomatligini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimizda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan

“Sog‘lom ona – sog‘lom bola” dasturi doirasidagi chora tadbirlar yillar davomida yangi bosqichga ko‘tarildi. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha poytaxtimiz va viloyatlarimizda zamonaviy tibbiy uskunalari bilan jihozlangan *diagnostika, skrining va perinatal markazlari, yangi tug‘ruq majmualari* barpo etildi.

O‘zbekistonda bugun erkin fikrlaydigan, mamlakat taraqqiyotiga o‘ziga xos munosib hissa qo‘shayotgan barkamol yosh avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda yorug‘ kelajagimiz bo‘lganbolalarga ishonch va hurmat-e‘tibor bilan qaralib, ularning sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olinayotganligi bejiz emas, albatta. Bularning barchasi har qanday irsiy kasalliklarni oldini olish, sog‘lom farzandlarni voyaga yetkazishga qaratilgandir.

Ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar yoshlarning mustaqil fikrlashini ta‘minlash borasida bir qator vazifalarni qo‘ymoqda. Talabalarda bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda **modulli o‘qitish** texnologiyasini qo‘llash yaxshi samara beradi. O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yilda bo‘lib o‘tgan YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi. «Modulli o‘qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma‘nosi - faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma‘noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Hozirgi kunda tibbiy va boshqa fanlarni o‘qitishda modulli ta‘limdan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki modulli o‘qitish, kasbiy ta‘limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik yondashuvi asosida o‘qitish mazmunini maqbulash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta‘minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o‘qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin: fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi o‘qitish texnologiyalari.

Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha konsepsiyalar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtai nazardan, o‘qitish jarayoni to‘laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta‘lim dasturi mazmuniga muvofiq, kasbiy faoliyat elementlarini talaba tomonidan ketma-ket o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Turli konsepsiyalar doirasida, modulli ta‘lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o‘z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko‘rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki; o‘quvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar.

SHular bilan bir qatorda, bu prinsip quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- katta hajmdagi o‘quv material, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma‘lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o‘quv material, osonroq o‘zlashtiriladi;
- o‘quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko‘rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

SHu bilan bir qatorda, o‘quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etishi lozim. O‘quv jarayonining tashkil etilishini, modulli o‘qitish tizimining tarkibiy qismi sifatida

qarash mumkin. O'qitishning modulli tizimi xususiyatlaridan biri, o'quv jarayonini jadallashtirish hisoblanadi. SHuningdek, bu jarayonni ikki yo'l bilan amalga oshirish mumkin:

- o'qitish jarayonida modulli o'qitish prinsiplari asosida o'quv axborotini «siqish»;
- o'qitish davrini kamaytirish tufayli o'quv grafigini va uning asosida mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirish.

Tibbiy fanlarni modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (o'quv fanlar orasida va o'quv fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitishda talabalarni o'z qobiliyatiga ko'ra, bilim olishi uchun to'la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

“Tibbiy biologiya” fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham – o'qitishning modul tizimiga o'tish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бужиевская Г.И. «Основы медицинской генетики» - Киев. Здоровье - 2001, 135стр.
2. Гинтер А.В. Наследственные болезни в популяциях человека. – М.: Медицина, 2002.
3. Фогель Ф., Мотульски А. Генетика человека Т2. М: «Мир»,1990.
4. *Фогель Ф., Мотульски А. Генетика человека: В ТЗ.-М.: мир,1989*
5. Энглевский Н.А. - 25.01.2010 г – Проблемы и перспективы современной медицины, биологии и экологии. Фундаментальные науки и практика Т.1
6. Отамуратов С.С. Национальное самосознание социально активной части молодежи его функционирование в условиях независимости Узбекистана (социологический анализ): Автореф. дис...канд. соц. наук. – Ташкент: НУУ, 2000. – 20 с.
7. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи.: Автореф. дис. ... доктора псих. наук. – Ташкент: НУУ, 2005. – 38 с.

ЧАСТОТА ВЫЯВЛЕНИЕ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО СИНДРОМА И ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНИ ПЕЧЕНИ СРЕДИ УМЕРШИХ

Туляганова Ш.Р.

Научный руководитель: к.м.н., ассистент Бердикулов Н.С
Ташкентская Медицинская Академия Республика Узбекистан, г.
Ташкент



Введение.

Метаболический синдром – характеризуется увеличением массы висцерального жира, снижением чувствительности тканей к инсулину что вызывает нарушение углеводного липидного, пуринового обмена и повышение артериального давления. Метаболический синдром (МС) может вызвать сердечно-сосудистые заболевания, вредный холестерин и жиры в крови повышение артериального давления, сахарный диабет 2 типа, старческое слабоумие, синдром поликистоза яичника и импотенция у мужчин и конечно же ожирение печени. Также поражает мозг сердце, поджелудочную железу и печень. А в сосудах обнаруживается фиброзная бляшка, высокое кровяное давление и высокий уровень глюкозы в крови. [1].

В наше время это является социальной проблемой, которая с каждым годом встречается все чаще и чаще. Люди, у которых выявлено абдоминальное ожирение или любой другой его вид, попадают в группу риска развития таких заболеваний: сахарный диабет, гипертоническая болезнь, атеросклероз сосудов, жировой гепатоз, стеатогепатит, стеатоз поджелудочной железы, ЖКБ, ночное апноэ и другие заболевания, развитие которых тесно связано с метаболическим синдромом. Результаты исследований последних лет показывают расширение списка этих заболеваний, ассоциированных с избыточной массой тела и ожирением. Выявлена тесная связь между нарушениями липидного и углеводного обмена, развитием инсулинорезистентности (ИР) и заболеваниями желудочно-кишечного тракта (ЖКТ). [2]

Dolzarbliqi. Jahon miqyosida yurak-qon tomir xavfining asosiy belgilarini (YUQTX) erta aniqlash va oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan odamlarning klinik natijalari psixologik holatning og'irligi bilan deyarli to'g'ri chiziqli munosabatlarga ega. Xavotir- depressiv alomatlar, shuningdek, tavsiya etilgan dori terapiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar va ularning xavf omillarini nazorat qilish va oldini olish, yurak-qon tomir kasalliklari, ularning asoratlarini kamaytirish va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan terapevtik va profilaktika choralarini takomillashtirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish bugungi kunda butun dunyoning dolzarb vazifalaridan biridir.

Maqsad miokard infarktni o'tkazgan surunkali yurak yetishmovchiligi bor bemorlarning psixologik holatini kasallikning kechishi, hayot sifati bilan bog'liq ravishda erta baholash usullarini takomillashtirish, davolashga yondashuvni optimallashtirishdan iborat.

Natija va taxlillar Bemorlarning klinik holati KHBSH shkala bo'yicha baholandi. I FC bilan og'irgan bemorlar 13 (5,9%) bemor edi, II FC - 95 (41,4%) va III FC 116 (52,7%) bemorlar aniqlandi. 91 (69,5%) bemorda gipertoniya kasalligi (GK) aniqlandi, ularning kasallanishi $6,9 \pm 3,1$ yilni tashkil etdi. Olingan ma'lumotlarni taqqoslash uchun asosiy guruh bilan jinsi va yoshi bilan taqqoslanadigan 20 kishidan iborat sog'lom odamlar guruhi (nazorat guruhi) tekshirildi.

Tekshiruvda murakkab aritmiya, bosh miya qon aylanishining oʻtkir buzilishlari, diabet, oʻpkaning surunkali obstruktiv kasalliklari, jigar va buyrak kasalliklari boʻlgan bemorlar kiritilmagan. Asosiy terapiyaning tuzilishi quyidagicha edi: APF ingibitorlarini 89% bemorlar, ARBlar - 11%, BAB - 96%, diuretiklar - 39%, spironolakton - 55%, eplerenon - 31%, aspirin - 100%, nitratlar - 31%, statinlar bemorlarning 93% qabul qilgan.

Tadqiqotda bemorning anamnezi, kasallik va hayotiy anamnestik xususiyatlari, murakkab laboratoriya tekshiruvlari (umumiy qon tekshiruvi, siydikning umumiy tahlili, biokimyoviy qon tekshiruvi: bilirubin, ALT, AST, qand, karbamid, kreatinin va xolesterin miqdori, koagulogramma hisobga olingan), instrumental tadqiqotlar (EKG, exokardiografiya) va psixologik holatni baholash uchun testlardan foydalanilgan.

Statistik maʼlumotlarni qayta ishlash uchun STATISTICA-6,0 dasturi yordamida oʻrnatilgan statistik ishlov berish funksiyalaridan foydalangan holda, Microsoft Office Excel – 2013 dasturiy toʻplami ishlatilgan. Biz oʻrganilayotgan koʻrsatkichning oʻrtacha arifmetikasi (M), oʻrtacha ogʻish (SD), oʻrtacha xato (m), nisbiy qiymatlar (chastota,%), oʻrtacha qiymatlarni taqqoslashda olingan oʻlchovlarning statistik ahamiyati Studentning (t) kriteriyasi bilan normal taqsimotni (ekssess kriteriyasi boʻyicha) tekshirishda xatolik ehtimolini (R) hisoblash bilan va tengligi bilan general dispersiyalar (F - Fisher testi) orqali aniqlandi. Sifat xususiyatlari boʻyicha guruhlarini taqqoslaganda biz χ^2 mezonidan foydalandik. Miqdoriy oʻzgaruvchilar oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganish uchun, Pirsonning chiziqli korrelyasiya koeffitsientini hisoblash bilan korrelyasion tahlil ishlatilgan. $R < 0.05$ ishonchlilik darajasi statistik jihatdan muhim oʻzgarishlar sifatida qabul qilindi.

Tekshirilgan bemorlarda, soʻrovnomalarni qayta ishlash va tahlil qilishdan soʻng, 186 (84,5%) psixologik buzilishlarning har xil darajadagi koʻrsatkichlar aniqlandi. SYUE FC I bilan tekshirilgan bemorlar orasida depressiya bilan ogʻrigan bemorlar 19,4% ni, xavotirlik oʻzgarishlari bilan 33,5% ni tashkil etdi.

FC II bilan depressiyaga chalingan bemorlar 36,4% ni, xavotirlik holatlari boʻlgan bemorlar esa 23,2% ni tashkil etdi. FC III bilan ogʻrigan bemorlarda ruhiy tushkunlik bilan ogʻrigan bemorlar 39,8% ni tashkil etdi, 18,5% bemorlarda xavotir kuzatildi. Istiqbolli tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, depressiya SYUE bemorlarida oʻlimni va kasalxonaga yotqizish darajasini oshiradigan mustaqil xavf omilidir (5). Bemorlarning 43,7 foizida engil depressiya, bemorlarning 31,5 foizida oʻrtacha, bemorlarning 24,8 foizida ogʻir depressiv holat kuzatilgan (2-rasm).

SYUE bilan ogʻrigan bemorlarga mavjud muammolarni inkor etish darajasi, repressiya (gʻoyani va unga bogʻliq boʻlgan his-tuygʻularni ondan chiqarib tashlash), hissiyotlarni boshqarish va vaziyatni oqilona izohlashga haddan tashqari bogʻliqligi bilan ajralib turardi. YUrakning ritmi buzilishi bilan kasallangan SYUE bor bemorlarida xavotirlik koʻrsatkichi 92% ni tashkil etdi va qorinchalar ekstrastoliyasi bilan kasallangan bemorlar guruhida sezilarli darajada koʻtarilgan va yuqori korrelyasiya darajasiga ega ($r = 0.73$; $P < 0.001$).

Kompensatsiyaning yaqqolliigi rad etishning mavjudligi bilan bogʻliq edi: SYUE bilan ogʻrigan bemorlarda rad etish koʻrsatkichi qanchalik yuqori boʻlsa, shunchalik xavotirlik- depressiv oʻzgarishlar aniqlandi. Ushbu xususiyatlarning kombinatsiyasi barqaror edi ($R = 0,9$; $P < 0,001$). Xavotirlik va depressiya shaklidagi kayfiyatning buzilishi bir-biri bilan chambarchas bogʻliq edi ($r = 0.50$; $P < 0.001$) va yosh bemorlar uchun xos boʻlgan ($r = -0.46$; $P < 0.05$ va $r = -0.66$; $P < 0.001$ navbati bilan).

Depressiyaning boshlanishi SHOKS ($r = 0.46$; $P < 0.05$) boʻyicha klinik simptomlarning ogʻirligi va 6DYUT ($r = 0.49$; $P < 0.05$) bilan baholangan mashqlar tolerantligining pasayishi bilan mutanosib edi. Depressiya nafaqat bemorlarning prognoziga, balki kasallikning klinik holatiga ham salbiy taʼsir qiladi (1). Intellektualizatsiya mavjudligi qulay omil sifatida qaraldi, chunki ushbu turdagi psixologik mudofaa mexanizmiga ega boʻlgan SYUE bilan ogʻrigan bemorlarga affektiv buzilishlar xos boʻlmagan ($R = 0.59$; $F = 2.9$; $P < 0.05$). Psixologik himoya mexanizmlari va yurak urishi (inkor $r = 0.42$; $P < 0.05$), ogʻriq (regressiya darajasiga bogʻliqlik $r = 0.46$; $P < 0.05$) kabi klinik alomatlarining ogʻirligi oʻrtasidagi munosabatlar aniqlandi. Depressiya va bemorlarning somatik holatining ogʻirligi oʻrtasidagi munosabatlar barqaror edi ($P < 0.05$).

Xulosalar:

1. Miokard infarktini boshdan kechirgan SYUE bilan kasallangan bemorlarning 84,5% kasallikning og'irligi bilan bog'liq bo'lgan xavotir- depressiv kasalliklarga chalingan.
2. FC I-II SYUE bo'lgan bemorlarda xavotirlik o'zgarishlar va FC III bilan og'rigan bemorlarda depressiv buzilishlar ustun bo'lgan. Xavotirlik buzilishi SYUE bilan og'rigan bemorlarning 76,4 % va depressiv kasalliklarning 66,4 % kuzatilgan.
3. Xavotirlik va depressiyaning birga kelishi bemorlarda 32,7% ni tashkil etdi. SYUE bilan og'rigan bemorlarda depressiyaning boshlanishi SHOKS ($r = 0.46$; $P < 0.05$) bo'yicha klinik simptomlarning og'irligi va TSH ($r = 0.49$; $P < 0.05$) bilan baholangan mashqlar tolerantligining pasayishiga mutanosib edi.

Adabiyotlar

1. Камилова У.К., Кодирова Ш.С. Изучение психологического состояния у больных с хронической сердечной недостаточностью// Евразийский кардиологический журнал.-2016- №. 3.- стр 82-85.
 2. Кодирова Ш. С., Хамроева Ю. С. Психологические особенности больных с ишемической болезнью сердца //Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 7 (19).
 - 3.Кодирова Ш. С., Хамроева Ю. С. Влияние грандаксина на психоэмоциональное состояние больных с хронической сердечной недостаточностью, перенёвших инфаркт миокарда//Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 5 (17).- стр -.120-122.
- Кодирова Ш.С., Джаббарова М.Б. Clinical and psychological analysis of patients with chronic heart failure// Новый день в медицине.- 2020. №2(30).- стр.159-161

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Sodirjonov Muxriddin Maxammadaminovich
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat univeristeti
E-mail: sodirjonov@mail.ru
Telefon: +998-94-170-17-14



Ijtimoiy transformatsiya turli jamoalar, ijtimoiy tizimlar, ijtimoiy institutlar va boshqa ijtimoiy muassalarning ijtimoiy o'zgarish jarayonida qo'llaniladigan ibora sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ko'pincha "ijtimoiy o'zgarishlar" tushunchasi "rivojlanish" tushunchasi bilan aniqlashtiriladi. Shuningdek, faylasuf va sotsiologlar tomonidan "transformatsiya" atamasi o'tgan asrning ikkinchi yarmigacha juda kam foydalanilgan. Jamiyatdagi o'zgarishlar, tarixdagi "taraqqiyot", "evolyutsiya", "inqilob" va "islohot"lar kabi tushunchalar yopdamida qo'llanilgan. Zamonaviy sotsiologiyada "ijtimoiy transformatsiya" atamasi "innovatsiya" va "modernizatsiya" tushunchalarining modifikatsiyasi sifatida ham tadqiqotlar olib boriladi.

Mamlakatimizda innovatsion rivojlantirish mexanizmlarining muvaffaqiyatli shakllanishi, birinchi navbatda, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hosilasidir. Rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashimizda davlatning ustuvor strategik siyosati va uning amalga oshirish mexanizmlarining o'ri katta. Ma'lumki, jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo'ladi. Inson kapitalining rivoji ham shaxsning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liq. Inson aql-idrok sohibi bo'lganligi bois real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o'rab turgan ijtimoiy-muhitda ro'y berayotgan jamiki voqealarning ta'siri kuchlidir[3, –B. 4].

Inson salomatligi eng asosiy kapitalidir

Bugun yurtimizda tibbiyot sohasiga alohida e'tibor qaratilyapti. Avvalo, kasallikni davolashdan ko'ra oldini olish va aholining tibbiy madaniyatini ko'tarish bosh masalalardan. Shu bilan birga, aholi yashash sharoitlarining sifatiga jiddiy ahamiyat berilgani esa kishilarning umr ko'rish darajasi uzayishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi va o'lim ko'rsatkichlari kamayib borishiga xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash inson kapitalining tarkibiy qismi sifatida nazariy va amaliy tomondan ham katta qiziqish uyg'otdi. Agar an'anaviy ravishda inson kapitali fuqaroning ta'lim va malakasiga bog'liq bo'lsa, yaqinda u sog'liqni saqlash omillarini qamrab oladigan kengroq tushunchaga ega bo'ladi. Inson kapitali tushunchasi bugungi kunga kelib faqatgina iqtisodiyot yoki ishlab chiqarishda emas, balki mamlakatdagi har bir fuqaroning individual xususiyatlari – salomatlik, ta'lim, qobiliyati va iste'dodlari, orttirgan malaka hamda tajribalari, ijtimoiy, psixologik, dunyoqarash va odamlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, uning tarkibiy tuzilishi nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham anglashdan iborat. Sog'lom insonlarda kasallik tufayli ish joyida bo'lmaslik holatlari kam uchraydi va natijada ish unumdorligi oshib, ishlab chiqarish reytingi ko'tariladi. Shu nuqtai nazardan, salomatlik darajasi ta'lim bilan bevosita bog'langan inson kapitalining ajralmas qismi deb baholanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2020-yilga kelib 74,6 yoshga etdi, onalar o'limi bir yarim marta, bolalar o'limi esa to'rt marta kamaydi.[1. – B.57.] Demografik asosga qurilgan kapitalning asosiy tuzilmasi hisoblangan sog'liqni saqlash yoki salomatlik komponenti uzoq yillar davomida sifatli

tibbiyot yordamida jismoniy va aqliy mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada shakllangan qadriyatlar tizimiga aylanib bordi. Ayniqsa, 2020 yilning mart oyidan dunyo bo'yicha COVID-19 tufayli e'lon qilingan pandemiya sharoitida sihat-salomatlik butun insoniyat uchun birinchi raqamli qadriyat sifatida inson kapitalini tashkil etdi.

Qashshoqlik shunchaki pul yo'qligini anglatmaydi

Bilimlar jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko'nikma-malakalar esa ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu hodisa doimiy ravishda ta'limni moliyalashtirib borishni talab etadi.

Inson kapitali ahamiyatini bir nechta turli usullarga asosan baholash mumkin. An'anaga binoan, iqtisodchilar buni ko'proq ta'lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Tadqiqotlar har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foizga oshirishini isbotladi. Ta'limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o'ziga to'q oilalarda tug'ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va u butun umri davomida qator afzalliklarni, qulayliklarni qo'lga kiritadi. Aksincha, nochor oilalar farzandi shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi[6].

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta'lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to'rt komponent birlashmasidan tashkil topadi: madaniy va etnik xususiyatlar; umumiy ta'lim; kasb-hunar ta'limi; asosiy malaka fazilatlar. Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib, moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi har bir yosh shaxsning shaxsiy mulkidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday inson kapitalining mukammalligi uning eng muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim sifatiga bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'limga alohida urg'u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangicha davr ruhiga mos fazilatlar (bosiqlik, vazminlik, diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter, tashkilotchilik, tashabbuskorlik va hokazo)ga ega kadrlarga har joyda talab yuqori. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetda olingan ta'lim pragmatik belgilarni ifodalovchi toifasi bandlik darajasining nafaqat miqdori, balki sifatini ham oshiradi.

Oilada inson kapitalini shakllantirish omillari

Inson kapitali rivojidadagi zarur omilni demografik tarkibiy qism bilan bog'liq ijtimoiy muhit shaxs va jamoalarning hududiy elementlarini avloddan-avlodga o'tadigan vorisiylik tizimi belgilaydi.

Inson kapitalini rivojlanish manbalari va omillarini uning ichki va tashqi darajasidan kengroq o'rganish natijalariga ko'ra, inson kapitali uchun oila darajasidagi investitsiyalarga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Chunki inson kapitalining barcha tarkibiy qismlari oila o'z farzandiga kiritadigan investitsiyalar orqali shakllantiriladi va ko'paytiriladi. Insonning intellektual va psixofiziologik qobiliyatlarini oilada rivojlantirish uning kelgusida kamolga yetishi va inson kapitali muntazam takomillashib borishining poydevoridir. Bu orada esa, yurtimizda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy printsipi asosida tadrijiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Oila – har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Oilaning bolaga ta'siri spetsifik, o'ziga xos bo'lgani uchun, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi ham o'ziga xos va takrorlanmasdir. Ijtimoiy kapital va resurslar manbalarining vujudga kelishida oilaning roli beqiyosdir. Oilada ota-onaning salohiyati orqali oilaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini realizatsiya qilish bilan bosqichma-bosqich bo'ladi. O'z navbatida sog'lom oila va farzandlar davlat uchun investitsiya hisoblanadi[6]. Oila farovonligi moddiy farovonlik bilan bir vaqtda, oila a'zolari va farzandlarning salomatligi, ijtimoiy turmush tarzining sog'lomligi, tinchligi bilan belgilanadi.

Mikro darajaning asosiy omili ham oila bo'lib, birlamchi o'zaro ijtimoiy munosabatlarning asosiy elementidir. Jamiyatning ushbu bo'lagida bola ijtimoiy munosabatlarning boshlang'ich ko'nikmalari, shu jumladan, oilada etnik-madaniy me'yorlar tizimi, xulq-atvor odatlari kapital sifatida shakllanadi. Tadqiqot ma'lumotlaridan ma'lumki, oilada inson kapitali "sotsializator" sifatida ta'lim va tarbiya muassasalarining ongga ta'sirida ustunlik qiladi. Agar oila va maktab turli xil qadriyatlar hamda stereotiplar tizimini tarqatgan bo'lsa, bu raqobatda oila yutib chiqadi, chunki oiladagi tarbiya uzluksizdir va nafaqat ongli, balki ongsiz darajada ham amalga oshiriladi.

Inson kapitalini yakka shaxs miqyosida olib qaraganda asosiy investori – mazkur kapital egasining o'zidir. Inson kapitaliga investitsiya kiritish ishonch darajasini ham oshiradi. O'qimishli insonlar boshqalarga ko'proq ishonadi, ishonch darajasi baland bo'lgan jamiyat odatda nisbatan yuqori iqtisodiy o'sishga erishadi. Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish sohasini optimallashtirish natijasida yangi ijtimoiy muhit, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan inson kapitali paydo bo'ldi.

Fan va ta'limga asoslangan jamiyatda inson kapitali qadri

Zamonaviy jamiyatning haqiqiy holati tahlil qilinadigan bo'lsa, uning rivojlanishida axborot texnologiyalarining ahamiyatini anglab yetmaslik mumkin emas. Ma'lumki, "axborotga kim egalik qilsa, u dunyoga egalik qiladi" degan ibora zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy shioriga aylandi. 2019 yilning yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga yo'llagan Murojaatnomasida 2020 yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qildi va ushbu yilda mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burilish yasashi kerakligini ta'kidlagandi. "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi"[2].

To'g'ri, ta'lim kerak, ammo u tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi shart. O'tgan davr mobaynida ta'limda turli salbiy stereotiplar shakllanishi kuzatildi. Jamiyatda ijtimoiy mavqeni oshirish uchungina oliy ma'lumotli bo'lish, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar, oliy ta'limni tanlash yoki yoshlarda maktab ta'limidan so'ng hayotiy pozitsiyalarini talaba bo'lish yoki talabalikka qarab belgilashi kuzatildi. Ta'lim jarayonlarida esa ularga ushbu mahoratlar mexanik tarzda o'rgatildi. Masalan, siz shunchaki ma'ruzalarni tinglaysiz, ma'lum bir detallarni yodlaysiz, formulalarni qo'llaysiz va ta'lim asosan, shundan iborat bo'lgan. Taqdim etilgan fikrni shubha ostiga olish, ochiq bayon etish va asosiysi, mustaqil fikrlashga juda kam holatlarda e'tibor qaratildi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'lik sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi [1. – B.230]. Shu nuqtai nazardan ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning muhim usuli, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib moddiy fapovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Shuni ta'kidlash keppakki, inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi har bir yosh fuqaroning shaxsiy mulki hisoblanadi.

Sotsiumda axborot-texnologik innovatsiyalarga bog'liq o'zgarishlar "chizig'i" texnik jihat va iqtisodiy tomondan sotsiomadaniy tomonga transformatsiyalashdi. Inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi innovatsiya masalalari dolzarblashdi. Ishlab chiqarish sohasi ketidan, madaniyatning boshqa sohalari ongli, maqsadli innovatsion faoliyat obyekti bo'ldi. Bu esa bir qator tadqiqotchilarga ijtimoiy-madaniy tipida innovatsion rivojlanishga uzil-kesil o'tishini tasdiqlashga imkon beradi.[7. – C. 37] Kapital uchun shakllangan ustuvorliklardagi almashinuvlar to'g'risidagi ilmiy prognoz konsepsiyalari ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sohalari tendensiyalarini o'rganishga qaratildi. Masalan, amerikalik sotsiolog D.Bellning "postindustrial jamiyat" nazariyasi[4. – C. 47] asosan madaniyat sohasini qamrab olgan bo'lsa, ispaniyalik mutafakkir olim M.Kastels ishlarida siyosiy kapital masalalarini ko'rishimiz mumkin.[5. – C. 601]

Axborotlashgan jamiyatda ma'lumot berish va axborot olish har doim bilimga asoslangan,

lekin ular o'rtasida keskin farqlar mavjud. Xususan, sotsiumda moslashuvchan texnologiyalar vujudga kelib, jamiyatning axborotlar tizimini paydo qilishi "post-industrial" jamiyatga o'tishi sharoitida yaqqol ko'zga tashlanadi. Internet, interaktiv televidenie, kibermakon, ijtimoiy tarmoq va boshqa axborot texnologiyalarining inson kapitalini ta'minlashga asos vazifasini bajaruvchi vositaga aylanishi kuzatiladi. Hozirda axborot raqamli texnologiyalar orqali uzatilmoqda, o'z navbatida fan va ta'limga asoslangan jamiyatda inson kapitali qadri ham o'zgarib bormoqda. Inson endi katta hajmdagi axborotni xotirada saqlay olmaydi, chunki uni istalgan vaqtda tarmoqdan olish imkoni bor. Endi mavjud ma'lumotlar bilan ishlash va yangilarini yaratish qobiliyati oldingi o'rinlarga chiqdi. Inson kapitalining mohiyati ham shunga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: О'zbekiston, – 2021. – Б.230.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь.
3. М.Бекмуродов. Инсон капитали-тараққиёт омили. Тошкент. "Маънавият", 2015. 4-бет.
4. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.: Academia, 2004. – С. 47
5. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура: Пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана. — М.: ГУ ВШЭ, 2000. – С. 601
6. Содиржонов М. Инсон капитали ривожининг онги, билими, ахлоқ-одоби, дунёкарашига боғлиқ." //Янги Ўзбекистон" газетаси. – 2022. – Т. 10.
7. Фототов А.Г. Россия: Инновации и развития. – М.: "Изд-во Бином", 2010. – С. 37

“YANGI O‘ZBEKISTON MA‘RIFATPARVARI” NOMLI ILMIY-MA‘RIFIY MAQOLALAR TANLOVI ISHTIROKCHILARI MAQOLALARI

ЎЗБЕК ТИЛИ МАЪНАВИЯТ ВА МУСТАҚИЛЛИК БЕЛГИСИ

Бобокалонов Рамазон Ражабович

*Бухоро давлат университети Француз филологияси кафедраси профессори,
филология фанлари доктори*

Аннотация: Мақолада ўзбек адабий тили маънавият сарчашмаси эканлиги, маънавият ва тил тараққиётига ҳар бир фуқаро масъулиятли бўлиши зарурияти ҳамда тилнинг кадр-қиммати учун курашиши лозимлиги ҳақида мушоҳада юритилган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, тил, маърифат, маънавият, миллат, маданий ва маънавий мерос, урф-одат, жамият, тинчлик, фаровонлик.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномасида: “Бир ҳақиқатни ҳеч қачон унутмайлик: биз буюк тарих, буюк давлат, буюк маданият яратган халқмиз. Биз – ҳеч қачон меҳнатдан қочмайдиган, қийинчиликдан қўрқмайдиган, адолатни қадрлайдиган, азму шижоатли, буюк халқмиз. Барчамиз бир тану бир жон бўлиб, яқдил ва аҳил бўлиб ҳаракат қилсак, ҳалол-пок бўлиб, яхши ният билан меҳнат қилсак, ҳар қандай марраларни эгаллашга, бошқача айтганда, тарихимизнинг янги саҳифасини яратишга қодир халқмиз. ... Нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билими, савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маънавият керак. Илм йўқ жойда қоқоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади” [1].

“Эмаклаб юрган одам ҳеч қачон учолмайди,” дейди халқимиз. Халқимиз азал-азалдан маърифатли бўлишни энг улуғ ва ноёб фазилат ҳисоблайди. Инсонни маърифатга тил бошлайди. Шу сабабли “Тилга эътибор, элга эътибор,” – деб баҳо беришади. Ҳар бир инсоннинг ҳаётда, жамиятда, сиёсатда ўз нуқтаи назари ва қарашлари бўлишини тил белгилаб беради. Биз ҳар доим дунё таммаддунига халқимизнинг қўшган илмий, тарихий ва маънавий-маърифий ўрни бекиёс эканлигини ғурур билан шарафлаймиз. Ёшларни шунга муносиб тарбиялашни долзарб вазифа қилиб олганмиз. Бугун Янги Ўзбекистонда давлатимиз сиёсати байроғи остида маънан соғлом, руҳан тетик, қалбан инсонпарвар ва юксак маънавиятли жамият қуришга қаттиқ бел боғлаганмиз. Бироқ Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда: “Шуниси аниқки, маънавият ва тил хусусида олиб бораётган ишларимиз давлатни ҳам, халқни ҳам қониқтирмайди. ... Кўп сафар андишали бўлди. Билганимизни билиб, гапира олмадик. Энди халқ манфаатини ўйлаб бажарадиган ишларимиз кўп” [1]. Айни замонда мамлакатимизнинг мавқеи жаҳон узра кундан-кунга бўй чўзмокда. Обрў-нуфузи ошиб бормокда. Умумбашарият олдида бурч ва масъулиятимиз ортмокда. Ички ва ташқи олам билан ижтимоий-сиёсий муносабатлар яхшиланмокда. Халқни рози қилиш, инсон қадрини улуғлаш, фаровон турмушни яратиш, қўшничилик, тинчлик ва тотувликни юксак даражада таъминлаш, камбағалликни камайтириш каби саъй-ҳаракатлар давлат ва халқимиз зиммасига катта масъулият юклайди. Бу эса миллий қадриятимиз бўлган тилимиз нуфузи билан боғлиқдир.

Тилимизни хор қилсак, миллий руҳимиз, иймон-этиқодимиз, маънавиятимизга путур етади. Жаҳид улуғлари тил ва адабиётни ўзбек халқининг бойлиги деб фахрланиб гапиришган, Тил, маърифат ривожини ва тараққиёти учун курашиб қурбон бўлишган. Алишер Навоий “Туркистон мулкининг шайхул-машойихи” деб таърифлаган Хожа Аҳмад Яссавий ҳам биринчилардан бўлиб туркий тил мавқеини юқори кўтарган уламо эди. Яссавий бобомиз ҳатто Қуръони Карим ва Ҳадиси Шарифнинг ҳам туркийда янграшини истаган эди: «Хушламайдур олимлар бизни айтган туркини, Орифлардан эшитсанг, очар кўнгил мулкини. Оят, ҳадис маъноси туркий бўлса мувофиқ, Маънисига етганлар ерга кўяр бўркини» [3, 57].

Плюрализм замонида фикрлар ранг-баранг бўлиши – табиий. Бироқ эзгуликка шоиста мақсад – тилимиз ва ёшларимизни келажак учун асраш, улар билан она тилимиз ва унинг нуфузи ҳақида ҳақиқатни билиш, миллий ўзликни танитишда ҳар доим ҳамфикр бўлиш, пировардида, бундан муддао: она тилимиз, миллий ғоямиз ва юксак маънавиятимиз байроғини янада баландроқ кўтаришдан иборатдир. Бугун бизга ҳаётнинг ҳар бир жабҳасида кенг маънода ҳалоллик, шаффофлик ва жасорат – зарур. Тил миллатнинг бирлиги ва бирдамлигининг тимсолидир. У миллатни ягона халқ сифатида ўз атрофида бирлаштиради ва дунёга бўй чўзади. Инсон учун ВАТАН, ОТА-ОНА, ОИЛА қанчалик қадри ва муқаддас бўлса, ўз она тили ҳам шу қадар азиздир. Шу боис тилни «ОНА ТИЛИ» деб атайдилар. Тил инсон вужудида қон-қонига сингиб оқади. Инсондаги жамики эзгу фазилатлар, она тилининг бебаҳо жозибаси орқали намоён бўлади. Она тили шарофати билан ИНСОН қалбида эзгуликнинг соф туйғулари аланга олади. Она тилини билмаган хорижий тилни ҳам яхши ўзлаштира олмайди. Сувсиз дарё бўлмаганидек, тилсиз миллат ҳам вужудга келмайди. Тил сув каби инсон руҳиятини тозалаб туради, танага жон, мияга озука беради, қалбни ёритади, шуурни бойитади. Миллатимизга муносиб бўлган тил, ўзимиз билан яшайди. Тили йўқнинг – миллати йўқ. Тилни асраш, миллат ва халқни асрашдир [3, 57].

Тил – миллатнинг буюк бойлиги, бебаҳо хазинаси, туганмас мулкдир. Чунки миллатнинг тарихи, унинг маданий, маънавий мероси, урфодатлари ва анъаналари тил ва адабиётида мужассам бўлади. Она тилини улуғлаш, асраб-авайлаш, ўша тилда сўзлайдиган ҳар бир инсоннинг бурчидир. Тил – миллат қиёфасининг бир бўлаги. Шунинг учун дунёдаги барча халқлар ўзининг миллий расмий тилига эга. Алишер Навоий: “Сўз инсон табиатининг ишвагар дилбари, у кўзга кўринмайдиган парисифат нозаниндир”, деб таърифласа, Носир Хисрав: “Сўз ичра мудом ақл яшириндур, сўз чимилдиғу ақл келиндур” – дея мажозий маъно беради. Алишер Навоийнинг: “Кўнгил маҳзанининг қулфи тил ва ул маҳзаннинг калидин сўз бил” ҳикматли сўзи ҳам халқ ичида – машҳур. Инсон қалбининг хазинаси – тил ва бу хазинанинг калити сўздир. Инсоннинг қай даражада маънавиятга эга эканлиги унинг тилида, гўзал нутқида намоён бўлади.

Тил мулоқот вазифасини бажаради. Тилсиз миллат тараққиётга эришмайди ва ривожланмайди. «Тил миллатнинг руҳидир», дейди буюклар. Бу таърифда улкан маъно яширинган. Тилини йўқотган жамият тарихини бой беради. Манқуртликка маҳкум бўлади, тилсиз эл жонсиз жисмга айланади. Дунё халқарида: «Италян тили – опера тили. Француз тили – забони муҳаббат. Инглиз тили – драматургия ва сиёсат тили. Немис тили – файласуфлар тили», - деган ўхшатишлар мавжуд.

Ўзбек тилимиз-чи?! Она тилимиз бу тилларнинг қай биридан кам?! Абдулла Қодирий бунга қандай жавоб берганига бир аср гувоҳ: “Ўзбек тили камбағал эмас, балки ўзбек тилини камбағал дегувчиларнинг ўзи камбағал. Улар ўз нодонликларини ўзбек тилига тўнкамасинлар... Биз бугун тил, жамият ва давлат ҳақида ҳаққоният ва ҳақиқатни тан олишимиз лозим.” Дарҳақиқат, бизнинг она тилимиз – Алишер НАВОСИ, Бобур НАФАСИ, Қодирий ДАРДИ, Авлоний ОРЗУСИ, Абдулла ҚАСРИ, Пиримқул НАСРИ, Эркиннинг ТЯН-ШОНИЮ Муҳаммад Юсуф АРМОНИ – ўзга тилларнинг ҳаммасидан бебаҳо. Бу тилни дунёга танитиш ёшларнинг зиммасида. Тил, бу маданий ҳодисадир, шунинг учун ҳар мамлакатнинг мероси унинг адабий тили дурдонасида жилоланади. Тил – миллатнинг мавжудлик шарт. Миллат вужуд бўлса, тил – руҳ. Миллат дарахт бўлса, тил унинг илдизидир. Бу – аксиома, исбот талаб этмайди. Тилнинг миллат, давлат ва жамият тараққиётидаги ўрни жуда муҳим, ўта зарур ва долзарб масаладир.

МИЛЛАТ, ДАВЛАТ, ЖАМИЯТ тараққий қилар экан, унинг тили бўй чўзади. Давлат ва жамиятдаги ўзгаришлар биринчи навбатда унинг тилида, хусусан, луғат бойлигида ўз аксини топади. Иккинчи навбатда унинг адабиёти ва санъатида кўзга ташланади. Тил – миллат маънавиятининг муқаддас тимсоли. Тил – миллий қадриятларни бирлаштириб, туташтириб, фарқлаб намоён этиб турувчи энг мустаҳкам занжир, бой ва чексиз маънавий хазина. “Ҳар бир миллатнинг мавжудлигини ва яшаётганини намоён этадиган омилар бўлади. Тил ана шундай мавжудлик ҳодисасидир. Тил шунчаки сўзлашиш воситаси эмас. У

миллат маънавияти ва маданиятининг тошойнаседир. Модомики, миллатнинг ўз тили бор экан, демак, унинг дунёга айтар сўзи ҳам бор. Тил мозийдан гоҳ “Ўрхун-Энасой битиклари”, гоҳ “Девону луғотит турк”, гоҳ “Кутадғу билиг” бўлиб жаранглаб турибди. Чунки бу тилни не-не улуғ зотлар тенгсиз идроки ва фидойилиги билан асраб келди, сайқаллади. Модомики, тил ижтимоий характерга эга экан, ижтимоий ҳаётдаги тараққиёт тилдаги тараққиётни белгилаб беради [2].

Қайси жамиятда тинчлик, фаровонлик ҳукм сураётган бўлса, шу ерда тил, маърифат ва маданият тараққий топади. Аксинча ҳолда, булар ҳақида фикр юритиш амримаҳол. Миллатнинг равнақи учун, энг аввал, ақл ва ғайрат керак. Ғайрат эса иштиёқдан, меҳр-муҳаббатдан туғилади. Ақл ва ғайрат ишончни, ишонч ҳаракатни юзага келтиради. Миллатнинг жони-жаҳони, бахт-саодати, муқаддас хумо куши ҳам – тил ва маънавият. Миллат кўкка тил ва адабиёти билан парвоз этади. Шунинг учун Пифагор: “Ҳар қандай халқнинг урф-одатларини билай десанг, аввало унинг тилини билишга урин” деб бежиз айтмаган. Тил шундай бир боғки, унда ҳар бир ниҳол ва ғунчанинг ўрни бор. Ниҳол эътиборсиз, парваришсиз қолса, боғнинг кўрки ва таровати бузилади. Инсоннинг ўз она тилига муносабати унинг маънавияти мезонидир. Ўз тилини ҳурмат қилмайдиган одамни маънавиятли санаш мутлақо нотўғри. Барча турдаги таълим муассасаларида, давлат корхоналарида ўзбек тили – ҳукмрон. Ҳатто, бошқа миллатга мансуб дипломат, муҳбир, сиёсатчи, зиёлилар ҳам ўзбек тилига эҳтиром кўрсатишга мажбурдирлар. Элчи ва сиёсатдон ажнабийлар ҳам она тилимизга ҳурмат бажо келтириб, дил изҳорларини намоён этишга унинишлари ҳам шундан далолат беради. Ҳар бир фуқаро оммавий сахнада тил одобига амал қилишга – мажбур. Ўзбекистон қаҳрамони Муножот Йўлчиева, Ўзбекистон халқ артисти Фаррух Зокиров, Шерали Жўраев, Кумуш Раззоқова, Озодбек Назарбеков, Насиба Абдуллаева, Маҳмуд Намозов каби ўнлаб севимли санъаткорлар нафақат халқимиз, балки дунё шунавандалари ҳурматида сазовор санъаткорлар саналишади. Бундай санъаткорлар халқни эъзозлагани учун ҳурматга сазовор. Улар ижро этган кўшиқлар билан халқимиз жуда ҳам – бахтиёр. Аммо афсус, бачканалик орқасидан қувиб, нутқ одоби доирасидан четга чиқадиган айрим “хонандалар” ҳам учрайди. Халқ ва миллат олдида адабий тил қоидалари ва тил одоби масалаларига беписанд қараш, кибр, вайсақилик билан ўз ижодига соя солиш маънавиятга доғ туширади [3, 57].

Тил этикети, тил одоби ва миллат руҳиятига зид муносабатда бўлиш нафақат журналистга, балки зиёлига ҳам номуносиб. Она тили меъёрлари ва қоидаларини бузиб гапиришга ҳеч ким ҳақли эмас. Чунончи, ўзбек тили шеваларга – бой. Ҳамма шевалар ўзига хос – гўзал. Ҳамма шевалар ҳам бетакрор ва сўзлашиш учун қулай. Бироқ, улар – маҳаллий мулоқот воситаси. Халқ ҳузурида ЎЗБЕК АДАБИЙ ТИЛИ – қадрли. Адабий тилда гапириш Республикамиздаги барча расмий, норасмий матбуот воситалари адабий тил меъёрларига амал қилган тарзда фаолият олиб бориши – зарур. Барча давлат идоралари ўзбек адабий тилида иш юритишга қодир бўлиши талаб этилади. Аммо зангори экран, радио, жамоат жойларида ҳар бир инсоннинг ўз шевасида эркин мулоқот қилиши ўзбек маънавиятига путур еткази. Бу иллат – ўзбек адабий тилини ҳурмат қилмаслик белгиси. Тил этикетини бузишга ҳеч бир сиёсий арбобнинг, зиёлининг, санъаткорнинг ҳақи – йўқ.

Нейропсихологингвистикада ўз она тилисида яхши гапиролмаган шахсларнинг миясида нуқсонли бўлиши кўрсатиб ўтилади. Фарбда шоу-бизнес вакиллари, таниқли сиёсатдонлар, машҳур санъаткорлар вақт-вақти билан психологлар ва неврологлардан маслаҳат олиб туришади. Улар харизмалли қобилиятларини йўқотмаслик учун самимийроқ, оддийроқ бўлиш сирларини сўраб-суриштириб билишади. Фейл-атворларининг кам-кўст жиҳатларини бошқалар назари билан тест қилишади. Халқ эътиборидан қолмаслик учун мавжуд нуқсонларини бартараф қилишга чора излашади. Ҳаттоки, сахнада ўзини тутиш, таъзим бажо қилиш усуллари, оз ва соз гапириш, содда ва самимий бўлиш, жест, мимикадан ўринли фойдаланиш кабиларни ўрганиб боришади. Аудиториядагиларга гўзал табассум улашиш, маъромида хурсанд жилмайиш, илтифот кўрсатиш, жароаённи обдон кузатиш, ўз касбининг маҳорат сирларидан воқиф бўлиб бориш муҳим аҳамият касб этади. Ортиқча гапириш ҳам

ҳар қандай харизмали инсон ёки раҳбар карьерасини ҳалокатга чорлайди, халқ эътиборидан қолдиради, симпатия ўрнида антипатия пайдо бўлади.

Бугун ўзбек тили ўзбек халқи ва миллати учун давлат титули саналади. “Она Ватан чегаралари қай даражада ҳимояга муҳтож бўлса, унинг маънавий бойликлари ҳам шу қадар қадрлашга – муҳтож. Шу маънода, миллий тил қаршида ҳар доим масъулиятли бўлишга – мажбурмиз.” Зеро, ўзбек тили маънавият ва мустақиллигимиз белгисидир. Тил миллатнинг руҳи, кўзгуси бўлиши билан бирга шу миллат зиёлиларининг шаъни, ору номуси ҳамдир. Уни асраш эса виждоний бурчимиз ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони, 23 октябрь, 2019.
2. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Ёшлар нашриёт уйи, Т.: 2018
3. Бобокалонов Р. Тил, миллий руҳ ва маънавият. Бухоро, 2020, 57 бет.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI JAMIYAT QURISH G‘OYASINING ASOSIY TAMOYILLARI

Kdirbayev Qonisbay Muratbay o‘g‘li

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti MTU tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi O‘zbekistonda “yangi ma’naviy makonni yaratish – ma’rifatli jamiyatni qurish” g‘oyasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, muhim mezon va tamoyillari tahlil etilgan. Bunda asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning asarlari va mavzuga doir respublikamiz olimlarining kitoblari metodologik manba sifatida belgilandi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, ma’rifatli jamiyat, ma’naviy makon, ma’naviy ta’lim-tarbiya, ma’naviy-mafkuraviy asoslar, ma’naviy-ma’rifiy omillar, milliy-ma’naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, faol fuqarolik pozitsiyasi, innovatsion tafakkur.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida yurtimiz haqida so‘z yuritilganda – Yangi O‘zbekiston, – Yangi O‘zbekiston strategiyasi, – Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot tajribasi degan iboralar tez-tez tilga olinmoqda. Buni so‘ngi yillarda mamlakatimizda ro‘y berayotgan tub islohotlarning amaliy natijasi, taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yganimizning o‘ziga xos ifodasi deyishimiz mumkin. Yurtimiz taraqqiyotining bugungi bosqichini jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan sifat o‘zgarishlari bilan izohlashimiz mumkin. Xususan, bu borada siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlar bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi yangilanishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratgan holda “ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”¹ deya ta’kidlaydilar. Shu sababli ham bugun yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizda “**yangi ma’naviy makonni yaratish**” va “**ma’rifatli jamiyatni qurish**” kabi muhim g‘oyalar bu boradagi say-harakatlarimizning muhim mezoni, dasturilamali bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Globallashib borayotgan va ma’rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi dunyoda ma’naviy hayotimizda o‘zgarishlar dinamikasining tadrijiy rivojlanish darajasi, unga xos umumiy qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog‘liq o‘ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz darkor”, - deydi Yurtboshimiz o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida.²

Shu o‘rinda B.Ochilovning “Global hodisalar muayyan jamiyatdagi kishilar, ayniqsa yoshlar ma’naviyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda”³ deya ta’kidlashini eslash joiz.

Qayd etish lozimki, globallashuv jarayoni keng tarqalgan, turli buzg‘unchi g‘oyaviy tahdidlar va axborot xuruji tobora kuchayib borayotgan bugungi davrda yangi ma’naviy makonni yaratish va ma’rifatli jamiyatni qurish g‘oyasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etib, asosan yoshlar ongida ularga qarshi qurol, ma’naviy immunitet vazifasini bajaradi.

Buning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, avvalo ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratgan holda xalqimizning, avvalo yoshlarning bilim va salohiyatini, ularning ijodiy faolligini oshirish orqali jamiyatda ma’nan sog‘lom, hur fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, ma’naviy jihatdan komil insonni kamol toptirish kabi muhim vazifalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Barkamol insonning shakllanishida ma’naviyatning ro‘liga alohida diqqat qaratgan holda professor Q.Nazarov quyidagi fikrni bildiradi: “ma’naviyat insonning ichki va tashqi xatti-harakati,

¹ Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 249-bet.

² Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 268-bet.

³ B.Ochilova. Milliy-ma’naviy yuksalishda mos qadriyatlar va vorisiylik. – T.: “Istiqlol”, 2009. 117-bet.

go‘zalligi, his-tuyg‘ulari, kechinmalarini aks ettiradi”¹. Darhaqiqat ma‘naviyat tushunchasi insonlarda yuqori darajada taraqqiy topgan insonparvarlik hislatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Ma‘naviyat sohasini rivojlantirish masalasi ayni paytda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Insonparvarlik tamoyillari negizida barpo etilayotgan yangi jamiyatimizning, yangi qadriyatlar tizimimizning asosini tashkil etmoqda. Chunki, inson ongi va qalbini monopulyatsiya qilish jarayoni keng tus olgan bugungi kunda, ma‘naviy-ma‘rifiy omillarning umumiy qonunlarini o‘rganishning dolzarbiligi yanada ortmoqda. Milliy-ma‘naviyatimizga qarshi qaratilgan, har qanday salbiy kuchlarga bardosh bera oladigan, ma‘rifatli jamiyatni shakllantirishda yangicha falsafiy, ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqilishining zarurati paydo bo‘lmoqda.

Ayni damda ushbu muhim jihatlarning mohiyatini teran anglagan Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda quyidagi ustuvor vaziflarning bajarilishi lozimligini ta‘kidlaydi:

- ❖ turli ma‘naviy buzg‘unchilik, vayronkorlik harakatlari va xurujlarning oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma‘naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilishga alohida e‘tibor qaratish;
- ❖ jaholat, umumiy saviyaning pastligi buzg‘unchi g‘oyalarga ishonuvchanlik va ularning ta‘siriga berilish holatlarini bartaraf etish uchun puxta ishlangan va zamonaviy ijtimoiy fan yutuqlariga tayanadigan ma‘naviy ta‘lim-tarbiyaning izchil amalga oshirilishiga erishish;
- ❖ bu borada ta‘lim bosqichlari, ma‘naviyat va ma‘rifat tizimi uchun zarur o‘quv va amaliy dasturlar tuzish va ularni joriy etish;
- ❖ aholining ma‘naviy-ma‘rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko‘tarish, ushbu yo‘nalishdagi ta‘lim-tarbiya ishlarini aniqlash, bu boradagi samarali faoliyat mexanizmini yaratish;
- ❖ axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyatni takomillashtirish;
- ❖ sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tadbiiq etish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish.²

Alohida ta‘kidlash zarur, bugungi kunda mamlakatimizda har bir insonning erkin va faravon yashashi, yosh avlodning har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, ruhan sog‘lom, irodali, iymon-e‘tiqodi butun bo‘lib ulg‘ayishida jamiyatda ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning yuksak darajada shakllanganligi va ushbu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan omillarning ahamiyati beqiyosdir.

Binobarin, o‘zining milliy man‘aviyatiga, qadriyatiga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan insonni tarbiyalash va shunga mos ma‘naviy muhitni, **yangi ma‘naviy makonni yaratish, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosini, Yangi uyg‘onish – Ushinchi Rennesans davrining poydevorini** tashkil qiladi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Yangi ma‘naviy makon deganimizning o‘zi nima? U qanday shaklda bo‘ladi? Uni qanday barpo etish mumkin? Nimalarga e‘tibor qaratish darkor? “Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma‘naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma‘rifatli jamiyatdir”,³ deb e‘tirof etadi muhtaram Prezidentimiz. Haqiqatdan ham, yangi ma‘naviy makon deganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga tayanadigan, milliy g‘urur va iftixorimizga, milliy g‘oyamizga suyanadigan, o‘zida yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirgan, huquqiy bilimlarni mujassamlashtirgan ma‘rifatli jamiyatni tushinamiz.

Ayni paytda respublikamizda milliy ma‘naviyatimizni rivojlantirish, uni yangi bosqichga ko‘tarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda bir tomondan xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, tarixiy an‘analari, boy ma‘naviy-madaniy merosi, axloqiy o‘g‘itlari va qadriyatlariga asoslanayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, hozirgi globallashuv jarayoni natijasida yuzaga kelayotgan qator

¹ Q.N.Nazarov. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). – T.: “Akademiya”, 2011. 91-bet.

² Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 251-252-betlar.

³ Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 254-bet.

muammolarga, shu jumladan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga xavf soluvchi turli-tuman tahdid va xatarlarga qarshi kurashishning ahamiyati hisobga olinmoqda.

Ma'lumki bugun o'zidagi barcha bilim va istedodini jamiyat manfaati, Vatan ravnaqi uchun baxshida etishga tayyor bo'lgan har tomonlama yetuk insonlarsiz, barkamol yoshlarsiz mamlakatimizni dunyoning eng ilg'or davlatiga aylantirish, xususan, Yangi O'zbekistonni barpo etishning aslo iloji yo'q.

Shu ma'noda jamiyatda yangi qadriyatlarning shakllanishida avvalo ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, milliy g'oyaviy va mafkuraviy asoslarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, o'qitish jarayonida ular bilan bog'liq interaktiv usullarni joriy etish kabi muhim vazifalarning bajarilishini taqozo qiladi.

Shu jihatdan, dunyoning taraqqiy topgan eng ilg'or davlatlarining bugungi kunga qadar allaqachon bosib o'tgan, bu borada yetarlicha tajribaga ega bo'lgan, ularning ravnaq topishida o'zining samarali ta'sirini ko'rsatgan g'oyaviy-ma'naviy yangilanish bosqichining hozirgi O'zbekistonga xos muhim vazifa va ustuvor yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratishimizni talab qiladi. Ular o'z navbatida yangi qadriyatlar tizimi shakllanishining muhim mezoni, ma'naviy-ma'rifiy omili bo'lib xizmat qiladi. Ularni quyidagicha e'tirof etishimiz mumkin:

birinchidan, xalqimizning insonparvarlik, Vatanparvarlik, xalqparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi ezgu g'oya va oliyjanob maqsadlarini o'zida mujassamlashtiruvchi amaliy tadbir va targ'ibot ishlarini tizimli yo'lga qo'yish, mamlakatimizning yangi qiyofasining shakllanishida ma'naviy-ma'rifiy omillarning ta'sirchanligini yanada oshirish;

ikkinchidan, dunyo tajribasidan muvaffaqiyatli o'tgan va milliy mentalitetimizga xos zamonaviy tafakkur tamoyillarini kuchaytirish orqali jamiyatimizda yangi ma'naviy makonni bunyod etishning samarali mexanizmlarini joriy etish;

uchinchidan, bugungi o'ta tahlikali zamonda xalqimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, har qanday tahdid va xatarlarga, buzg'unchi g'oyalarga bardoshli kuchli davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma'naviy-mafkuraviy asoslarini yanada mustahkamlash;

to'rtinchidan, Yurtimiz ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlarga befarq bo'lmagan, mamlakatimizning jahonda eng taraqqiy topgan davlatlar qatoridan joy olishida o'zida daxldorlik hissini shakllantirgan, shuningdek, o'zining faol fuqarolik pozitsiyasi va innovatsion tafakkuri bilan ajralib turadigan komil insonlarni ta'rbiyalashning konseptual tamoyillari va amaliy faoliyat mezonlarini ishlab chiqish;

beshinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lgan, har qanday buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqali jamiyatimizda har tomonlama ma'naviy barkamol insonni ta'rbiyalash.

Bu vazifalarning bajarilishi avvalo mustaqil ona diyorimizda tug'ilib, endigina o'sib-unib, ulg'ayib, kamol topib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy dunyosining boyishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan fuqarolarimizda milliy ong, milliy g'urur va iftixor kabi ideallarning yanada mustahkamlanishiga imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
2. Q.N.Nazarov. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi). – T.: "Akademiya", 2011. 384 bet.
3. B.Ochilova. Milliy-ma'naviy yuksalishda mos qadriyatlar va vorisiylik. – T.: "Istiqlol", 2009. 117-bet.

ЖАМИЯТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗГАРИШ ДИНАМИКАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

Раззакова Наргис Юлдашевна

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

таянч докторанти (PhD)

e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com

Аннотация. Мақолада жамият тараққиётининг турли босқичларида оила масаласи таҳлил этилган. Оилавий муносабатларнинг ўзгариш динамикаси трансформацияси аниқ кўрсаткичлар асосида тадқиқ этилган.

Калит сўзлар. Оила, оилавий ҳаёт, трансформация, динамика, промискуитет, никоҳ.

Оилавий ҳаётнинг шакллари жиддий ўрганиш XIX асрда бошланган. Ю.Семеновнинг «Никоҳ ва оиланинг келиб чиқиши» номли асарида уқтирилганидек, «Оила шаклланишининг тарихий босқичида ишлаб чиқариш фаолияти яхши бўлиши учун нафақат ишлаб чиқариш муносабатларининг маълум тизими бўлишини талаб қилган, яъни хусусий мулкчилик муносабатлари, тақсимлаш ва балки ишлаб чиқариш бирлашма аъзолари ўртасида жинсий муносабатларга ҳам ўз таъсирини кўрсатган¹. Яъни, айнан агамия ишлаб чиқариш жамоасида саноат ривожини учун энг зарур шартлардан ҳисобланган. Тўлиқ агамия туфайли насл ёлғиз мавжуд бўла олмаган. Насл пайдо бўлиши дуал-насл ташкилотнинг шаклланиши билан бир вақтда бўлган. Жинслар ўртасида ўзаро маълум ижтимоий муносабатлар ташкилоти пайдо бўлди. Насл ва дуал-ташкилотнинг пайдо бўлиши билан муносабатлар промискуитет маъно-мазмунга эга бўлган. Промискуитетнинг ўрнига никоҳ келди, индивидлар ўртасида эмас, балки гуруҳлар ўртасида муносабатлар устувор аҳамият касб этган. Яъни, никоҳ муносабатларининг биринчи шакли гуруҳли, дуал-наслий никоҳ бўлган. С. Вольфсоннинг фикрича, «Беқарор жинсий муносабатлардан маълум бир никоҳ шаклларига ўтиш «ибтидоий жинсий уюшманинг йўқолиш жараёнидир»².

Бу жараён мазкур уюшмаларни деформация қилувчи урф-одатлар пайдо бўлиши билан кузатилади³. Оила бўйича кўтарилган дастлабки илмий масалалар И.Баховен, Л.Морган, М.Ковалевскийлар ишлари билан боғлиқ. Масалан, Морган ўзининг «Қадимги жамият» (1877) номли китобида оила ва турмуш эволюциясининг қуйидаги тарихий даврларини кўрсатади: Промискуитет – ёввойи эркак ва аёлларнинг тартибсиз жинсий ҳаёти (40-50 минг йил авв.). Жинсий муносабатга ҳар қайси қариндош киришиши мумкин бўлган.

Ота-боболаримиз қадим-қадимдан ёшларни оилада умумбашарий туйғулар, ўлмас Шарқ фалсафаси, миллий қадриятларимиз руҳида тарбиялаб келганлар. Улар асрлар давомида тилимизни, дилимизни ва динимизни, ўзбекни ўзлигини ҳар томонлама асраб-авайлаб, баркамол авлодларни вояга етказиб келганлар. Айниқса, шарқда яратилган қатор асарлар ёшларни мафкуравий жиҳатдан тарбиялашда баркамол инсон қилиб шакллантиришда асосий мезон, қоида, қўлланма ислоҳотдан иборат пандномалар сифатида хизмат қилиб келган. Бу борада Юсуф Хос Хожибни “Қутадғу билиг”, Кайковусни “Қобуснома”, Шайх Саъдийнинг “Гулистон”, “Бўстон”, Абдурахмон Жомийнинг “Баҳористон”, Навоийнинг “Маҳбуб ул қулуб”, “Хайротил ул Аброр”, Кошифийнинг “Ахлоқи мухсиний”, Жалолиддин Девонийнинг “Ахлоқи Жалоли”, Муҳаммад Саъдий Қошғарийнинг “Адаб-ас солихин” каби асарларни ўзбек миллий ахлоқини, маънавиятини, маданиятини, қадриятини юксалтиришда катта эътиборга молик шох асарлардир.

Жамиятнинг турли даврларида оила масаласини ёритиб келган шарқ мутафаккирлари

¹ Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. – Москва: 1974.

² Вольфсон С.Я. Семья и брак в их историческом развитии. – Москва, 1937.

³ Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. – Москва: 1974.

ва давлат арбоблари – Абу Наср Фаробий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Амир Темур, Мир Алишер Навоий, Шал (Тилеуке) Кулкеўғли, Аҳмад Дониш, Абай Қўнанбаев, Ризоуддин ибн Фахруддин, Фахр-ул Банот Сибғатуллоҳ қизи, Абдурауф Фитрат ва бошқаларнинг асарларидаги оила-никоҳ муносабатлари, оиладаги шахслараро муносабатлар, ота-онанинг вазифалари, фарзандлар бурчи ҳақида ғоятда ибратли маслаҳат ва ўғитлар баён этилган.

Ҳурматли президентимиз, Ш.М.Мирзиёев айтганларидек, Биз одатда жамиятимиз ҳаётига қарши қаратилган хавф-хатарлар ҳақида гапирганда, кўпинча четдан кирадиган таҳдидларни тушунамиз. Лекин эски замондан қолган айрим салбий ҳолатлар, афсуски, бугунги тинч ва ёруғ ҳаётимизга соя солиб турибди. Лоқайдлик, бир-бирини кўролмаслик, оилада эр-хотин, қайнона-келин, кўни-кўшнилар ўртасидаги келишмовчилик, аёлларга беписанд қараш – бундай ярамас иллатлар бизга, бизнинг халқимизга мутлақо ярашмайди.¹

Буюк саркарда Амир Темур ҳам оила қуриш масалаларига давлат юмушларидек жуда жиддий эътибор берган. Соҳибқирон, хусусан, келин танлаш ҳақида қуйидаги фикрларни билдирган: «Ўғилларим, набираларим ва яқинларимни уйлантирмоқ ташвишида келин изламоққа эътибор бердим. Бу ишни давлат юмушлари билан тенг кўрдим. Келин бўлмишнинг насл-насабини, етти пуштини суриштирдим. Хос одамлар орқали соғлиқ-саломатлигини, жисмонан камолотини аниқладим. Келин бўлмиш насл-насаби, одоб-ахлоқи, соғлом ва бақувватлиги билан барча қусурлардан холи бўлсагина эл-юртга катта тўй-томоша бериб, келин тушурдим² дея ўз позицияларида бўлганлар».

XX аср Туркистон жаҳидчилик ҳаракатининг улкан намоёндаларидан бири Абдурауф Фитрат оила масаласига ва унинг жамият ҳаётидаги тутган ўрнига алоҳида эътибор қаратади. Алломанинг «Оила ёки оила бошқариш тартиблари» асарида оила қуриш заруратидан тортиб, оила аъзоларининг ўзаро муносабатлари, ота-она, фарзандларнинг ҳуқуқ ва бурчлари, фарзанд тарбияси ҳақидаги қарашлари чуқур ёритиб берилган³.

Ал-Мағират бинни Шаъба⁴ “Мишкот ал-малоих” да ривоят қилади: “Мен бир аёлга совчиларимни юбордим. Ҳазрат Пайғамбар эшитиб сўрадилар: “Сен уни кўрдингми?” Мен: “Йўқ”, - деб жавоб бердим. Ҳазрат буюрди: “Уни кўргин, орангизда бу муҳаббатга сабаб бўлажак”⁵.

Жуфтлик оила – доимий жуфтликларни ташкиллаштириш катта ёки кичик, (узок ёки қисқа) муддатга, аммо бирга яшаш назарда тутилмаган. Эр ҳам, хотин ҳам бир нечта эр ёки бир нечта хотинга эга бўлиши мумкин эди. Бу поғонада қариндошлар ўртасида жинсий алоқага чек қўйилган. Л.Файнбергнинг ёндашувига кўра, «дуал-гуруҳли никоҳ насл қолдиришни сифатли даражада амалга оширишни таъминлаган»⁶.

Айни ҳозирги никоҳга киришиш жараёнида эркак ва аёл муносабатларига аҳамият берилмай қўйди. Ҳамманинг ҳаёлида фақат тўй қилиш ва уни бошқаларникидан дабдабали қилиш муҳим ҳисобланади. Никоҳ шартномаси маҳрнинг замонавий кўриниши ҳисобланади. Бу бизга Европадан кириб келмаган. Олдин ҳам Ўрта Осиё халқларида никоҳ шартномаси мавжуд бўлган. Маҳр ҳам бекорга киритилмаган. Бу аёлни ҳимоя қиладиган механизм. Ўша аёлнинг турмуши бузиладиган ёки эри вафот этадиган ҳолатларда аёлни ҳимоя қилиш. Маҳр беришдан қочиш жуда ёмон ҳолатларга олиб келмоқда. Никоҳ шартномаси тузишни, маҳр беришни исташмайди. Айримлар келинни уйига рўйхатга қўйишни исташмайди, оқибатда фарзандлари билан кўчада қолиш ҳолатлари рўй беради.

Демакки, Ислом маърифатини сингдиришимиз керак, уни тарқатишдан чарчаш керак эмас. Масалан, Францияда бундай дарслар киритилган, бизга ҳам керак шу нарса. Тарбия

¹ “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.” – Тошкент – Ўзбекистон – 2017 йил. Ш.Мирзиёев, 350-351 бетлар.

² Амир Темур ўғитлари. Бўрибой Аҳмедов. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2007 йил. 26 б.

³ Оила ёки оила бошқариш тартиблари”. Абдурауф Фитрат.-Тошкент “Маънавият” – 2000 йил. 108 б.

⁴ Ал-Мағират бинни Шаъба. Саҳобалардан, 660 йилда вафот этган.

⁵ Оила ёки оила бошқариш тартиблари”. Абдурауф Фитрат.-Тошкент “Маънавият” – 2000 йил. 25 б.

⁶ Файнберг Л.А. У истоков социогенеза / от стада обезьян к общине древних людей. – Москва: 1980. – Б. 116.

каби дарсларда ўргатишимиз лозим. Диншунос эмасман, лекин ота-боболаримиз “Махр”ни қандай берилиши ҳақида сингдиришган бизга. Биз ҳам болаларимиз онгига сингдириб бориш, уни одатга айлантиришимиз керак.

Ҳозирда Оила кодекси янгидан ишланди, назаримда бу кодексида мана шу масалаларнинг инобатга олиш керак. Ёки бунинг мажбурият ҳиссини, масъулиятини кўтаришимиз керак. Чунки аёллар мулксизлиги жамиятга жуда катта зарар келтиряпти. Бу масала устида диншунос олимларимиз, депутатларимиз ишлаши керак. “Махр”ни одатга айлантириш, масъулият юкини юқорига кўтариш лозим. Агар бунга юридик шакл бериш имкони бўлса уни киритиш ёки бунга имкон бўлмаса, болаларимиз онгига сингдириш, тарбиялашда эътиборни кучайтиришимиз керак.

Шу жиҳатдан, оила феноменининг тарихий-гадрий таракқиётига нафақат миллий-тарихий анъаналар нуқтайи назаридан, балки глобал тарихий анъаналар асосида ёндашиш, унга баҳо бериш ва изланиш жамиятимиздаги оила масалаларининг жаҳондаги таракқий этган мамлакатларнинг айни шу соҳадаги тажрибасидан самарали фойдаланган ҳолда янада ривожлантириш учун тегишли шарт-шароитларни яратиш давр талабига айланди.

Ҳар бир мамлакатда оила ва никоҳ институти дин, урф-одат, маданият, ахлоқ, анъана таъсирида шакллланган.¹

Турли социологик таълимот ва йўналишлар вакиллари социология фани предмети тўғрисида турлича фикрлар билдирганлар. Бу, энг аввало, ҳар қандай ижтимоий ва гуманитар фанлар предмети каби тадқиқот олиб бориш фаолиятига боғлиқ бўлганлигидандир. Масалан, социология фани асосчиси О. Конт социологияни жамият тўғрисидаги позитив фан деб ҳисоблаган. Э. Дюркгейм эса социология предметини ижтимоий маълумотлардан иборат деб билган. Немис социологи Г.Зиммелнинг таърифича, социология —хусусий ижтимоий фанларининг билиш назарияси. Яна бир немис социологи М.Вебернинг фикрича, социология ижтимоий хулқ тўғрисидаги фандир. Ижтимоий хулқни М. Вебер инсоний муносабатлардан иборат деб билган.

Оила ёш авлод учун жамият, маданиятнинг типи қандай бўлишига қарамасдан, ҳимоя ва ўзаро турмуш имконини яратувчи ижтимоий муҳит ҳисобланади².

Бугун бу мудҳиш бало-қазонинг олдини олмасак, бор кучимизни шунга сафарбар этмасак, эртага кеч бўлади.

Албатта бу борада бахсга ўрин йўқ. Сабаби қалб хотиржамлиги, инсонга бахтни хис қилишга, ўзликни билишга, ён-атрофидаги атроф-ҳодиса ва табиатга бўлган меҳр ҳиссини беради. Ва инсон ўзидан қувонч нуруни таратади. Бу нур эса яхшилиқ яратувчиси сифатида инсонни комиллик сари етаклайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. – Москва: 1974.
2. Вольфсон С.Я. Семья и брак в их историческом развитии. – Москва, 1937.
3. Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. – Москва: 1974.
4. “Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.” – Тошкент – Ўзбекистон – 2017 йил. Ш.Мирзиёев, 350-351 бетлар.
5. Амир Темур ўғитлари. Бўрибой Аҳмедов. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2007 йил. 26 б.
6. Оила ёки оила бошқариш тартиблари”. Абдурауф Фитрат.-Тошкент “Маънавият” – 2000 йил. 108 б
7. Ал-Мағират бинни Шаъба. Саҳобалардан, 660 йилда вафот этган.
8. Оила ёки оила бошқариш тартиблари”. Абдурауф Фитрат.-Тошкент “Маънавият” – 2000 йил. 25 б.
9. Файнберг Л.А. У истоков социогенеза / от стада обезьян к общине древних людей. – Москва: 1980. – Б. 116.

¹ Пешперова И.Ю. Брак и семья: традиционные и коллизийные аспекты в международном семейном праве./ «Россия в глобальном мире», 2014, № 4 (27). –С. 464-466.

² Гидденс Э. Социологи. “Шарқ” нашриёт -матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти Тошкент -2022 йил.

10. Пешперова И.Ю. Брак и семья: традиционные и коллизионные аспекты в международном семейном праве./ «Россия в глобальном мире», 2014, № 4 (27). –С. 464-466.
11. Гидденс Э. Социологи. “Шарқ” нашриёт -матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти Тошкент -2022 йил.
12. Конфуций. Сухбат ва мулоҳазалар. Тошкент: “Янги аср авлод”. 2014. 39.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Парвиз Бобошарипов Рустамзода,
Фаргона вилояти, Сўх тумани 8-сонли УЎТ мактаби Информатика ва ахборот
технологиялари фани ўқитувчиси*

Аннотация. Ушбу мақолада таълимда юқори натижага эришиш учун ахборот-коммуникация технологиялардан самарали фойдаланишнинг аҳамияти, турлари ва методлари ҳақида фикр юритилади. Мақолада бундай методнинг турли босқичлари орқали ўқувчилар юқори натижаларга эришишлари ҳақида батафсил тўхталиб ўтилди.

Калит сўзлар. Самарадорлик, ахборот-коммуникация, замонавий АКТ, лойиҳа, кўргазмалилик, электрон ресурс.

Бугунги кун ўқитувчиси замонавий техника ва технологиялардан профессионал даражада хабардор бўлиши, шу орқали дарс жараёнида ўқувчиларни дарсга кўпроқ жалб эта олиши замонавий педагогнинг муҳим вазифаларидан бири бўлиб қолди, чунки бугунги ёшларнинг дунёқарashi ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш ҳисобидан кўплаб маълумотларга эга эканлиги барчамизга аён дир. Шу билан бирга ўқувчилар ва дарсликлар ўртасидаги муносабат, ҳамкорликни шакллантириш, ўқувчиларнинг дарсликларда берилган топшириқлар билан мустақил равишда шуғулланиш кўникмасини шакллантириш таълим-тарбия жараёнидаги муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Бу вазифа ўқитувчидан дарс жараёнини ташкиллаштиришда катта масъулият ва ижодкорликни талаб этади.

Замонавий педагогик тажрибалар ўқувчиларни мустақил ишлашга ўргатиш, билим олишга бўлган қизиқишларини янада орттириш, шунингдек ўзимизни ва ўзгаларни баҳолай олишни талаб этади.

Шунга кўра педагог олдида турли саволлар пайдо бўлади: Маълум бир фандаги бирор мавзунини ўрганишда таълим жараёнининг босқичларида қандай таълим шаклларидан фойдаланиш мумкин? Топшириқларнинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда қўшимча дидактик материаллар, турли воситалардан фойдаланиш орқали қандай самарадорликка эришиш мумкин?

Замонавий ўқитиш—ўқитувчидан катта ижодий куч талаб этиладиган ва алоҳида тайёргарлик билан ўтиладиган мураккаб таълим жараёни ҳисобланади. Бу жараён ўқувчиларга мустақкам билим берувчи материалларни ўзида акс этган таълим концепциясинини ишлаб чиқиш ва ҳар бир мавзунинг хусусиятлари ва имкониятларини инобатга олиб дарсга тайёргарлик кўришни тақозо этади. Ижодийлик принципи асосида ташкил этилган бундай ноанъанавий дарслар орқали, албатта, юқори самарадорликка эришилади.

Одатда, ноанъанавий дарслар маълум бир мавзунини ўзлаштиргандан сўнг барча ўқувчиларни дарсга қатнаштирган ҳолда ўқитувчи назоратида ўтказилади. Бундай дарсларда турли методик, педагогик ва психологик мақсадларни ўзида мужассам этган натижаларни кузатишга эришиш мумкин: ўқувчиларнинг маълум мавзу бўйича билим, кўникма ва малакалари назорат қилинади; ўрганувчиларнинг машғулотга нисбатан жиддий муносабатлари шакллантирилади; бунда ўқитувчининг машғулотдаги минимал иштироки кузатилади.

Юқори самара берувчи ноанъанавий услублар сифатида машғулот-ўйин, машғулот—диалог, машғулот—танлов каби таълим турларини мисол келтириш мумкин.

Замонавий жамият ривожланиши шуни тақозо этадики, бугунги кунда ҳар қандай соҳани, шу жумладан таълим-тарбия соҳасини ҳам компютер ва ахборот воситаларисиз тасаввур этиш қийин. Шу нуқтаи назардан таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологиялардан самарали фойдаланиш ўқитувчи фаолиятининг самарадорлигини оширади, педагогик фаолиятнинг хилма-хиллигини таъминлайди.

Бу таълим тури нафақат ўқувчиларнинг мустақил билим олишга ундайди, балки ўрганиш жараёнининг қизиқарли, жонли бўлишига замин яратади.

Замонавий АКТ муҳим дидактик хусусият—кўргазмалилик хусусияти касб этади. Ушбу таълим технологияси маълумотларга бой, чиройли, хилма-хиллилик, билимларнинг реал ҳаётга яқинроқлиги билан янада тушунарли бўлишига имкон яратади. Бундан ташқари ахборот-коммуникация технологияси таълим жараёнида муаммоли вазиятлар яратиш, креативликни шакллантириш, кўзланган мақсадга тезроқ ва осонроқ етиш учун имконият яратади.

Ҳар бир метод ўзида ижобий ва салбий хусусиятларни мужассам этади ҳамда ҳар қандай методни хоҳлаган дарсларимизда қўллаш ҳам тўғри келмайди, улар дарс турига қараб қўлланади (такрорлаш, янги мавзу баёни ёки презентация). Кўп ҳолларда бу педагогнинг ўзига ҳам—унинг ахборот-технологиясининг ўзлаштирганлик даражаси, ўрганиладиган мавзу доирасидаги профессионаллик компетенциясига ҳам боғлиқ бўлади. Бундан ташқари, ўқитувчиларнинг ҳаммалари ҳам АКТ борасидаги билимлари етарли ва ўз дарсларида ундан бемалол фойдаланишади, деб айта олмаймиз. Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда, таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш борасидаги методик таъминот етарли эмаслиги, бу соҳада ҳали қилиш керак бўлган вазифалар кўп эканлиги маълум бўлади.

Дарс жараёнида ахборот-технологиялардан фойдаланиш мавзунини пухта ўзлаштириш самарадорлигини кўтаради. Ўқувчиларнинг мустақил равишда мултимедияли презентациялар ва лойиҳаларни тайёрлашлари уларнинг ахборот-технология соҳасидаги билимларининг натижаси сифатида кўрсатиш мумкин.

Дарс жараёнида интерактив доскаларни аудио воситалар билан бирга ишлатиш кўргазмалилик принципини англашни осонлаштиради. Бунда кўргазмаларни нафақат презентация шаклида намойиш этиш мумкин, балки синф тахтаси ҳам махсус маркери ва бошқа имкониятлари билан фойдаланиш мумкин.

Таълим жараёнида АКТдан фойдаланиш айниқса, чет тили дарсларида ўқувчиларда маълумотлар манбасининг фойдали жиҳатлари ва камчиликларни аниқлаш қобилияти, улар билан ишлашнинг мос технологиясини танлаш, маълумотларни қайта ишлашни ўрганиш жараёни каби муҳим компетенцияларни шакллантиришда муҳим ўрин тутади.

Юқоридагилардан келиб чиқадики, АКТ орқали ташкил этилган дарсларни қуйидаги босқичларга бўлиш мумкин:

Концептуал босқич—ушбу босқичда билимни шакллантириш, мустаҳкамлаш, умумлаштириш ёки такомиллаштиришга қаратилган дидактик мақсад аниқлаштирилади. Шунингдек, дарс машғулотининг мақсади ва педагогик топшириғидан келиб чиқиб таълим жараёнида ахборот-коммуникация воситаларидан фойдаланиш зарурати ва ўқувчи қобилиятини ривожлантириш ҳақида баҳслашади. Шунга кўра зарурий таълимий электрон ресурслар аниқ бир метод йўналиши бўйича танланади: ўрганувчи, информацион-қидирувли, имитацион, демонстрацион, назорат, ўйинли ўргатувчи.

Технологик босқич—дидактик мақсаднинг талабларидан келиб чиқиб, уларнинг таҳлили ва танланиши, машғулот шакли (презентация, виртуал эскурсия, ўрганувчи дарс) танланади.

Бундан ташқари бу босқичда ўқитувчи техника ва дастурий таъминотни (компьютер мултимедияси, дастур воситалари) аниқлаб олади.

Операцион босқичда дарснинг асосий структур компонентлари— ўқитувчи—ўқувчи—дарсликнинг ўзаро функционал алоқларининг йўллари аниқлаштирилади.

Дарснинг технологик харитасини тузиш орқали машғулот босқичма-босқич режалаштирилади: ҳар бир босқичнинг мақсади, давомийлиги, ўқувчиларнинг дарсдаги иштирокини ташкилаштириш шакллари, ўқитувчининг дарсдаги фаолияти ва вазифалари, дарсдаги назорат шакллари ва ҳ.к.

Юқорида келтирилган имкониятлар ва компьютер воситасидан фойдаланиш орқали нафақат тажрибали ўқитувчилар, балки ёш педагоглар ҳам юқори таълим

самарадорлигига эришишлари мумкин.

Дарсларда ахборот-коммуникация воситаларидан фойдаланиш қуйидаги таълим самарадорликларини ўзида мужассам этади:

1) ўқувчиларнинг бир соат давомида катта ҳажмдаги маълумотларга эга бўлишлари;

2) ҳар бир ўқувчининг мустақил ишлаши;

3) коммуникатив вазият яратиш ва бунда ўқиш, сўзлаб бериш, ёзиш каби кўникмаларга эришиш;

4) ўқувчиларнинг дарсдаги онгли фаол иштирокини таъминлаш;

АКТ бугунги кунда ўқув ва ўрганишнинг турли соҳаларида муҳим ўрин тутди.

Бу техник воситадан фойдаланишда бизга турли презентациялар, хужжатли филмлар, онлайн архивлар, Ziyonet, Maktab.uz, dr.rtm.uz порталлари, олий ўқув ва умумтаълим муассасаларининг информацион-ресурс марказлари ва дунёнинг етакчи кутубхоналари яқиндан ёрдам беради.

Шундай қилиб, йилдан йилга таълим соҳасида ахборот-коммуникация технологияларидан кўпроқ фойдаланишга бўлган эҳтиёж ортиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида ўқув материални янада қизиқарлироқ, жозибали ва кўргазмалироқ ўзлаштиришга, ўқувчиларнинг мустақил ўрганишларига муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Джураев Р.Х. ва бошқ. Таълим сифатини назорат қилиш ва бошқариш самарадорлигини ташкил этишда мактаб таълими педагогик амалиётига интерактив ўқитиш жиҳозлари ва методикасини жорий этиш: Электрон интерактив доска SENSE-BOX фойдаланувчилар учун қўлланма. Тошкент: ЎзПФТИ, 2013.

2. Беляева Л.А., Иванова Н.В. Презентация Power Point и её возможности при обучении иностранным языкам // Иностранные языки в школе, 2008, №4.

3. Борисенков В.П. Вызовы современной эпохи приоритетные задачи педагогической науки // Педагогика, 2004, №1.

4. Г.С.Кинжаева. использование информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения // Тил ва адабиёт таълими, 2016, №9

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH BILAN IQTISODIY TARAQQIYOT SARI

Malika Babadjanova

Nukus shahar 2-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi bandligi tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilingan. Jumladan, mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. ishsizlik, bandlik, ehtiyoj, islohotlar, malaka, xarajatlar, biznes loyiha, kredit mehnat resurslari

Bugungi kunda mamlakatimizda mehnatga layoqatli kishilarning bandligini ta'minlash, fuqarolar farovonligini oshirish, hayot darajasini yuksaltirish masalasiga kata e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki ishsizlik sababli ko'plab muammolar kelib chiqadi. Shu bois, har bir insonning tur,ush darajasini yanada yaxshilash, mahallalarda ishsizlar uchun munosib sharoitlarni yaratish juda muhim sanaladi.

Yurtimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan amalga oshirilayotgan islohotlar insonni har tomonlama kamol topish maqsadlariga yo'naltirilgan. Shunga ko'ra, respublikamiz inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchini tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Ayni damda ishsizlikni kamaytirishning eng maqbul yo'li bu aholini kasbga o'qitish, odamlarda tomorqa yerlariga, yerga bo'lgan ehtiyoji va munosabatini o'zgartirishdir. Bu borada har bir tuman va qishloqlarning yaratilgan imkoniyat va sharoitlaridan kelib chiqib, dehqonchilikka shug'ullanadigan oilalarga yer maydonlari ajratish, issiqxonalar barpo etish, chorvachilikka qiziquvchilar uchun esa qoramol olishlari, parrandachilikka qiziquvchilar uchun maxsus inkubatorlar olib kelinib o'z tadbirkorliklarini yo'lga qo'yilayotgani yuqori samara bermoqda, albatta. Bu bilan qanchadan-qancha yoshlarning, yigit-qizlarning ish bilan bandligi ta'minlandi, ular o'z daromad manbaiga ega bo'lishdilar.

Haqiqatan ham iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki insonlarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Mazkur masalada biz Nukus shahar 2-sonli kasb-hunar maktabi o'quvchilari uchun dars jarayonida ularning iqtisodiy savodxonligini oshirib borishga, ishsizlik oqibatlarini, ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar olib boramiz. O'quvchilarning mehnatsevarligini oshirish maqsadida turli to'garaklarga jalb qilib bormoqdamiz. Shuningdek, amaliyot jarayonlarida har bir kasbning o'ziga xos xususiyatlari borasida ham amaliy ishlar olib boramiz.

Mehnat bozorida ishsizlarning 90%ga yaqini munosib ishga joylashishga ko'maklashish yuzasidan muhtojlik sezishi achinarli holat, albatta. Shuning uchun buning oldini olish maqsadida ularga munosib, qiziqarli va qo'lidan keladigan ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan ish o'rinlarini yaratish joizdir. Munosib ish joyiga ega bo'lish uchun mehnat bozorida ishchi kuchi ham ancha raqobatbardosh bo'lishi zarur.

Bundan tashqari hozirgi kunda yerni haqiqiy egasiga, ya'ni xalqqa berish uchun hokimlar, sector boshliqlari bilan birgalikda qaysi paxta va g'alla maydonini qisqartirishni aniqlab, ularni

ishsiz aholiga berish bo'yicha zarur choralarining ko'rilishi ham iqtisodiy taraqqiyot sari qo'yayotgan dadil qadamdir. Mana shundan kelib chiqib, yer olgan aholiga urug' va ko'chatlar yetkazib berish, yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olishni moliyalashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Bu tizim orqali esa qanchadan-qancha fuqarolarimiz ish bilan, daromad bilan ta'minlashga erishilyapti.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan taklif va talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat'i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Darvoqe, bugun yangi O'zbekistonda katta o'zgarishlar, yangiliklar ko'z o'ngimizda yuz bermoqda. Ilgarilari ishsiz va daromad manbaiga ega bo'lmagan yoshlar, xotin-qizlar bugun deyarli ish joyiga, daromad manbaiga ega holda farovon hayot kechirmoqdalar. Ularning faoliyati nafaqat jamiyatga, balki mahalla-ko'yiga, qishlog'iga, butun yurtimizga foydasi tegyapti. Demakki, aholini bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy taraqqiyotga yetishimizdan darakdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020 y. Xalq so'zi №276(7778).
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. - T.: "FAN", 2019. - 592 b
3. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.Қ., “Персонални бошқариш” Дарслик. - Т.: 2008 3. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти назария ва амалиёт. Дарслик. “Фан”. Т.: 2019
4. Самадов А.Н., Останакулова Г.Н. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Т.: Молия-иқтисод, 2008
5. Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2005.
6. Қосимова М.С., Ходиев Б.Ю., Самадов А.Н., Мухитдинова У.С. Кичик бизнесни бошқариш. Ўқув қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 2003.

NAVRO`Z UMUMXALQ BAYRAMINI MILLATIMIZ MADANIYATIDAGI O`RNI

Fozilova O`g`iloy Fayoz qizi

BuxDU 1-bosqich tayanch doktoranti,

Buxoro tuman 26-umumiy o`rta ta'lim maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya. Navro`z O`zbekistonda qadrli bayram bo`lib, mamlakatning madaniy o`ziga xosligini shakllantirish va namoyon etishda muhim o`rin tutadi. Bayram mamlakatning boy madaniy merosi, mustahkam mahalla rishtalari, chuqur ma`naviyatni ifodalaydi. Ushbu maqolada Navro`z bayrami, uning kelib chiqish tarixi, an`analar, qadriyat, mehr-oqibat, urf-odatlarimiz, milliyligimiz, madaniyatimiz bilan butun dunyo xalqlari orasida alohida o`ringa ega ekanligimiz haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar. Navro`z, sumalak, qadriyat, afsona, umumxalq, o`zbek, meros, yangilanish.

Navro`z har yili 21-mart kuni O`zbekistonda nishonlanadigan an`anaviy bayramdir. Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Afg`oniston xalqlari orasida juda qadim zamonlardan beri keng nishonlanib kelinayotgan Navro`z bayrami bu xalqlar madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Navro`zning qachon paydo bo`lgani haqida yana bir yangi fikr Zoir Ziyotovning “Navro`z – moziydan sado” kitobida keltirilgan. Muallif e`tiroficha, kitob shumerlarning mixxati asosida yozilgan, Navro`z, “yil boshi” bayramini shumerlar bilan bog`liq holda tasvirlaydi: “Forslar shumerlarga qarindosh bo`lgan elam turklarning merosxo`rlari edi, ularning yerlarida o`z davlati (Parsa)ni tuzib (eramizdan avvalgi VII asrlar), elam xalqlarining an`anaviy buyuk yutuqlarini, shu jumladan, yangi yilni ham qabul qilganlar va unga “Navro`z” nomini berganlar”. Bayram 3000 yildan ortiq vaqtdan beri nishonlanib kelinmoqda va o`zbek kalendaridagi eng muhim sanalardan biri hisoblanadi. Navro`z bahorning boshlanishi va tabiatning yangilanishi bayramidir. Navro`z so`zi “yangi kun” deb tarjima qilinadi va bu bayram tarix davomida turli madaniyatlar, jumladan, fors, zardushtiy va islom jamoalari tomonidan turli shakllarda nishonlangan. Bu qadimgi Forsda paydo bo`lgan deb ishoniladi va u yerda diniy bayram sifatida nishonlanadi. O`zbekistonda Navro`z katta ishtiyoq bilan nishonlanadi va mamlakatda eng ko`p nishonlanadigan bayramlardan biri hisoblanadi. Bu O`zbekiston bo`ylab nishonlanadi, xalq an`anaviy musiqa, raqs va taomlardan bahramand bo`lish uchun yig`iladi. O`zbekistonda Navro`z bayrami tarixi mamlakat madaniy merosi bilan chuqur bog`langan. O`zbekiston boy tarixga ega bo`lib, asrlar davomida turli madaniy ta`sirlarga ega. O`zbekistonda Navro`z bayrami o`zida ko`plab an`anaviy elementlarni, jumladan, musiqa, raqs va mamlakatning turli mintaqalarining taomlarini o`z ichiga oladi. O`zbekistonda Navro`zning madaniy ahamiyati yangi yil boshlanishi bilan cheklanib qolmaydi. Bu negativlikdan voz kechish, pozitivlikka e`tibor qaratish va bor narsasi uchun minnatdorchilik bildirish vaqti hisoblanadi. Bu birdamlik, tafovutlarni bartaraf etish va xilma-xillikni qabul qilish vaqti. Navro`z bayrami turli yoshdagi, jins va millat vakillari uchun ochiq. O`zbekistonda Navro`z oilaviy yig`ilishlar uchun muhim vaqt va odamlarning o`z madaniyati va merosi bilan bog`liqligini tasdiqlash uchun imkoniyatdir. Bayram odamlarga birlashish, an`anaviy musiqa va raqsdan bahramand bo`lish, bayramning o`ziga xos xususiyati bo`lgan an`anaviy taomlar va taomlarni baham ko`rish imkonini beradi. O`zbekistonda asrlar davomida sodir bo`lgan ko`plab madaniy va siyosiy o`zgarishlarga qaramay, Navro`z bayramini nishonlash an`anasi doimiy bo`lib qoldi. Bugungi kunda Navro`z butun O`zbekiston bo`ylab nishonlanadi va mamlakat madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

Ma`lumki, xalqlar, millat va elatlarni turli ijtimoiy-madaniy qadriyatlar birlashtirib turadi. Bu qadriyatlarining bir qismi ularni harakatlantiruvchi ichki qonuniyatlari asosida o`zgarib boradi. Ba`zan bir xalq ardoqlagan qadriyatni qaysidir xalq aynan oladi va o`z milliy qadriyatlari chegarasini kengaytiradi. Boshqa bir xalq esa uni muayyan o`zgarishlar asosida qabul qiladi, o`zga moslaydi, o`z qadriyatlari bilan uyg`unlashtiradi. Qadriyatlarining bunday o`zgarishi fanda “ijtimoiy metamorfizm” deb ataladi. Navro`z bayrami ham kelib chiqishiga ko`ra qaysi xalqqa tegishli

bo'lishidan qat'i nazar bugungi kunda haqiqiy milliy bayramlarimizdan biri sanaladi. U hozirgi shaklga kelgunga qadar tashkiliy va mazmuniy jihatdan turli o'zgarishlarga uchradi. Ba'zan diniy, ba'zan siyosiy sabablarga ko'ra taqiqlandi. Mamlakat mustaqillikka erishgan kundan beri bu bayram xalqimizning eng ardoqli bayrami sifatida nishonlab kelinmoqda. Navro'z Bahor faslining boshlanishi, tengkunlik tantanasidir. Qadimdan tabiat sirlarini bilishga qiziqqan ota-bobolarimiz Yer va uning Quyosh tizimidagi harakatini kuzatish asosida vaqtni belgilashgan. Navro'z, fasllar almashinuvi, iqlim 10 yangilanishi, yangi kun, yangi hayot ramzi bo'lish bilan birga, o'ziga xos birdamlik bayrami hamdir. Bu shunchaki saylu tomosha yoki odatiy bayramlardan emas. Bu bayram o'zlikka qaytish, ota-bobolarni yodlash, bemorlar, yetim-yesirlar va mehrga tashna insonlar holidan xabar olish bayramidir. Bu bayram xalqni yuksak fazilatlar atrofida birlashtiruvchi, millat ruhida Vatan tuyg'usini mustahkamlovchi bebaho qadriyatdir. O'zbek xalqi asrlar mobaynida Navro'zni ezgulik, mehr-shafqat va saxovat bayrami sifatida qadrlab keladi.

Ana shunday iliq tuyg'ular baxsh etuvchi bahor faslida qadimiy bayramlardan biri sanalgan Navro'z Sharq xalqlari o'rtasida keng nishonlanadi. Shu o'rinda, avvalo, Navro'z so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. Navro'z so'zi forscha bo'lib, "nav" – yangi, "ro'z" – kun, ya'ni "yangi kun" ma'nosini beradi. Navro'z shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi). Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram. Navro'z Turkiston, Sharq xalqlarining qadimiy an'anaviy yangi yil bayramidir. Shamsiy taqvim hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi kun va tunning tengligiga, ya'ni 21–22-mart kunlariga to'g'ri keladi. Navro'zni bayram sifatida nishonlash ahmoniyalar davri (mil.av. V–VI asr)dan boshlangan deb hisoblanadi. Bayramning paydo bo'lishi to'g'risida turli rivoyatlar mavjud bo'lib, Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida uni shoh Jamshid nomi bilan bog'laydi. Abu Rayhon Beruniy "Osor ul-boqiya" kitobida ma'lumot berishicha, bayram farvardinning oltinchi kuniga qadar davom etgan. Sosoniy podsholari olti kunda olti toifa xalqni qabul etganlar va tortiqlar ulashganlar. Navro'z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an'anasi ham bo'lgan. Umar Hayyomning "Navro'znoma" kitobida yozilishicha, Navro'z bayrami o'tkazishning maxsus tartib-qoidasi 37 bo'lgan. Uy-joylarni tozalash, ko'kat va gullar bilan bezash, ota-ona, yaqin qarindoshlar bilan diydorlashish, marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish kabilar xalq orasida keng odat tusiga kirgan. Boshqa xalqlar singari o'zbeklar ham bu kunni qadim zamonlardan buyon yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan qarshi olganlar. Tojik va eron xalqlarida bayram dasturxoniga nomi "s" harfi bilan boshlanadigan yetti xil taom qo'yish (haftsin) odati bor. Bu bayramni nishonlash uchun hamma bir necha kun avval tayyorgarlik ko'radi. Odatda, bir necha kun avval undirishga qo'yilgan bug'doydan ayollarimiz sumalak taomini tayyorlashadi. Erkaklar ham undirilgan bug'doy va go'shtda bir kun davomida halim taomini pishirishadi. Bundan tashqari, barra ismaloq, yalpiz kabi bahoriy ko'katlardan ko'k somsa, ko'k chuchvara kabi taniq taomlar ham tayyorlanadi. Qishdan horg'in chiqqan inson tanasiga bu kabi taomlar haqiqiy quvvat baxsh etadi. Bayram kechasi yoshlar tonggacha uxlamasdan turli ertak va hikoyalar aytib, o'yin-kulgu bilan kutib olishgan. Bayramning birinchi kuni otchopar, ko'pkari, uloq kabi sport o'yinlari o'tkazilgan. Xalq sayillarida turli dorbozlik, masxarabozlik, askiya kabi xalq tomoshalari namoyish etilgan. Bu bayram nafaqat yangi yil, balki dehqonchilikning ham boshlanish bayrami sanalgan.

Vatanimiz mustaqil bo'lgach, juda katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston nafaqat mustaqilligini o'zining urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini o'zligini qo'lga kiritdi. Eng boy yurt o'zining tarixiga, milliy urf-odatlariga ega bo'lgan yurt hisoblanadi va O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Vatanimizning umumbashariy qadriyatlari va milliy urf-odatlarini haqida so'z yuritar ekanmiz, eng avvalo, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o'zida mujassam qilgan Navro'z bayrami ko'z oldimizga keladi. "Navro'z mehr-oqibat, qadriyat bayrami bo'lishi bilan birga milliylikimizni butun bo'y-basti bilan ham ko'rsatib beradi deydi", - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimi Maxfirat Zikirova. Aslini olganda, Navro'z bu – yangi kun demakdir. Navro'z bu – yangilanish, yasharish, tun va kunning tenglashishidir. Navro'z qadim asrlardan bizga meros bo'lib kelgan bayramdir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham Navro'z haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Navro'z – chinakam xalq bayrami, milliy o'zligimiz ko'zgusi, ma'naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir" [2]. Navro'z bayrami umumxalq bayrami

hisoblanib, necha ming yillardan buyon keng nishonlanib kelinadi. 2010-yilda Navro`z bayrami BMT Bosh assambleyasi tomonidan Xalqaro Navro`z kuni sifatida belgilangan va YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meroslar ro`yxatiga kiritilgan. Bilamizki, mart oyidan bahor bayramlari boshlanadi, birinchi bo`lib 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami, undan so`ng o`lkamizga Navro`z o`zining o`zgacha shukuhi bilan kirib keladi. Navro`z bayramida har bir xonadon, yoshi ulug` insonlar, bemor kishilar ziyorat qilinadi. Ushbu ulug` kunda bir-biri bilan xafalashgan insonlar bir-biri bilan yarashadi. Doshqozonlarda sumalaklar pishiriladi, ko`k somsa, halim, chuchvara, patir kabi shifobaxsh taomlar qilinadi va hamma bir-biriga ulashadi. Navro`zda uy-joylar tozalanadi, daraxtlar oqlanadi, yaxshi niyatlar qilinadi. Har yili Navro`z bayrami yurtimizda keng miqyosda nishonlanadi. Har bir shahar va qishloqlardagi mahallalarda obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish va umumxalq hasharlari uyushtiriladi. Shu bilan birga hunarmanchilik ko`rgazmalari, kitob rastalari milliy buyumlar, ko`klam, ya`ni bayramona dasturxonlar tashkil etiladi. Umumxalq sayillari o`tkaziladigan joylar milliy bayramona bezatiladi. Folklor guruhlari badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san`ati vakillari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar va artistlar tashrif buyurishib, bayramda bayramona kayfiyat ulashiladi.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Navro`z O`zbekistonda ming yillik boy tarixga ega muhim milliy bayramdir. Bayram mamlakatning madaniy merosi bilan chambarchas bog`liq bo`lib, odamlarning birlashishi va o`z madaniyati va an`analari bilan bog`liqligini nishonlash uchun muhim imkoniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom Toshkent, 1968, 255-bet
2. Qodirov M. Tomosha san`ati o`tmishdan lavhalar, 97-bet
3. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. 1988, 80-bet
4. Shodiyev B. Navro`z bayrami. Toshkent 2001-y.

BUYUK IPAK YO`LI XALQLARI MADANIYATIGA ZAMONAVIY INNOVATSIYALAR JORIY ETISH YO`LLARI (O`zbekiston misolida)

Sag`dullayev Hamidulla
Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi
e-mail:khamidullasagdullayev053@gmail.com
Tel +998915694907

Annotatsiya: Sharq xalqlarining milliy madaniyat bo`lagi hisoblangan o`tov-uylarga bo`lgan sayyohlarning qiziqishining ortishi tufayli, milliyligimiz va zamonaviy ruhni uyg`unlashtirgan holda, tashrif buyuruvchilarni ham madaniyat ham qo`lay sharoitli o`tov-uy konstruksiyasi bilan tanishtirish orqali mamlakatimiz turizmiga bo`lgan qiziqishni oshirish.

Kalit sozlar: tabiat qo`ynida dam olish , milly madaniyat, o`tov, sayyohlar fikri, qulaylik.

Zamonaviy muhitda yashayotgan har qanday inson sershovqin va stressli shahar hayotidan bir muddat tinch va osuda tabiat bag`rida dam olishni xohlaydi. Tabiat qo`ynida dam olishda asosiy jihatlar esa:

- 1) Xushmanzara joy;
- 2) Toza muhit;
- 3) So`lim tabiat hisoblanadi.

Mana shunday imkoniyatlarga ega bo`lgan O`zbekistonda joylashgan tabiiy rekreatsion hududlarga Boysun Zarafshon Zomin hamda Qoraqalpog`iston Respublikasi ayrim hududlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.


Ma`lumki, O`zbekistonga tashrif buyuruvchi ko`pchilik xorijiy mehmonlarning asosiy qismi yurtimizdagi tarixiy-me`moriy yorgorliklarining go`zalligi, salobati va tarix silsilasidan hali hanuz bus-butun o`tib kelayotganligini o`z ko`zlari bilan ko`rish uchun kelgan bo`lsa, boshqa tomondan aholining oddiy turmish tarzi, tabiat bilan hamohang tarzda yashayotganligiga qiziqishnig oshishi, tabiat qo`ynida dam olishni, alpinizm va tog` sporti bilan shug`ullanishni, yurtimizni respublika va xalqaro maydonda ko`hna qadryatlarimizning ajralmas bir bo`lagi sifatida tanilgan "Boysun bahori,, kabi milliy festivallarimiz bilan yaqindan tanishish, nafaqat tanishish balki o`zlari ham shu milliylikning bir qismi bo`lishni xohlovchilar soni ham kundan-kunga oshib bormoqda.

Tabiat qo`ynida hordiq chiqarishdagi asosiy masala joylashuv masalasi bo`lib, vujudga kelishi mumkin bo`lgan sharoitidan kelib chiqib, mazkur vaziyatda mahalliy mehmon uylariga talab oshadi. Lekin viloyatimiz aholisining asosiy qismi hali mehmon uylar tushunchasiga yetarli darajada e`tibor qaratmaganligi, qabul jarayoni va joylashuv sharoitidagi muammolar va sayyohlarning shikoyatlar va takliflarini inobatga olgan holda mazkur masalaga yechim sifatida tabiat qo`ynida dam olishni istagan hamyurtlarimiz va xorijiy mehmonlarga o`tov-uylarida tunash taklifi ishlab chiqilmoqda. To`g`ri, o`tovda yashashning nimasi innovatsiya? Tarixdan ma`lumki o`zbek, qozoq, qirg`iz xalqlari asosiy qismi o`tovda yashagan va aynan mana shu tarixiylik xorijiy mehmonlarning e`tiborini jalb etmoqda. O`zbekistonga tashrif buyurgan va o`tovda tunagan sayyohlar o`rtasida o`tkazilgan so`rovnomalar natijalariga ko`ra odatiy o`tov-uylarining kamchiliklari sifatida uch holatni ko`rsatish mumkin:

- 1) Dastlabki asosiy kamchiliklardan biri yoritish bilan bog`liq bo`lsa ;
- 2) Keyingi navbatda issiqlik jamlashni mavjud emasligi va
- 3) Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash imkoni yo`qligi ta`kidlangan.

Boysun tumanida joylashtirilgan oddiy o'tovlarning ko'rinishi. 1-rasm.

Yuqoridagi masalalar va muammolarga yechim sifatida o'tov-uylarining tom qismini milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan holda, hozirgi kunda asosiy elektr bilan ta'minlovchi tizim; egiluvchan monokristalli quyosh fotoelektr panellari bilan qoplash yo'li bilan yorug'likdan yig'ilgan energiya orqali, o'tov konstruksiyasini ham yoritish ham microline mato orqali isitish va oziq ovqat mahsulotlarini tayyorlashda yechim sifatida taklif qilinmoqda.



Monokristall quyosh paneli va uning o'tovga qoplanish qismi. 2-rasm

Mazkur sahifada loyihaning 3D ko'rinishi ishlab chiqilgan.



Quyosh panellari orqali yoritiladigan o'tovning ichki ko'rinishi. 3-rasm

Ushbu loyiha afzalliklari va foydali jihatlari quyidagilarda iborat:

- 1) Avvalo ushbu loyiha hech qanday ortiqcha jihozlar talab qilmasligi;
- 2) Konstruksiyaning yengil, olib yurish va o'rnatish uchun qulayligi;

3) Har qanday landshaft va ob-havo sharoitiga mosligi;

4) Moliyaviy jihatdan katta mablagʻ talab etmasligi juda muhim.

Moliyaviy harajatlar hisobi:

1) Monokristalli quyosh panelining quymati 2,475,000 soʻm;

2) Oʻtov (tarkibiy qismlari bilan) 3,270,000 soʻm;

3) Boshqa qoʻshimcha harajatlar 250,000 soʻm;

4) Umumiy xarajatlar hisobi jami: 6,000,000 soʻm.

Mavsumiy foyda olish miqdori:

1- kunlik turpaket doirasida 200 ming soʻm;

2- kunlik turpaket doirasida 350 ming soʻm;

3- kunlik turpaket doirasida 500 ming soʻm.

Xulosa oʻrnida, monokristalli quyosh fotoelektr panellari bilan qoplash yoʻli bilan yorugʻlikdan yigʻilgan energiya orqali ham yoritiladigan ham isitilish imkoniyatiga ega boʻlgan oʻtov konstruksiyali dam olish maskanlari yurtimizga kelgan turistlar oqimini kutib olish va kuzatib qoʻyish jarayonida minimal harajat qilib va maksimal darajada joylashtirish, qulaylik va foyda olish imkoniyatini yaratadi. Statistika maʼlumotlariga tayanadigan boʻlsak, Surxondaryo viloyati miqyosida ekoturizm uchun sayyohlar tashrif muddati 133 kundan, 270 kungacha davom etadi, bundan kelib chiqadiki, birgina sayyohlar foydalanuviga berish orqali, loyihaning oʻz-oʻzini oqlash imkoniyati minimal hisobda 12 kundan, maksimal hisobda 30 kungacha oʻz xarajatlarini qoplaydi. Risk miqdori: 8/1 ulushda minimal darajada, 6/2 maksimal darajada taqriban olindi. Ushbu ishlanma faqat foydalanish uchungina emas balki, oʻz navbatida milliy qadriyatlarimizning zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashish asosida integratsiyalashuviga yorqin misol boʻla oladi

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar :

- 1) A.M.Abduvohidov. Turizmدا innovatsiya. Darslik Toshkent.2011-y
- 2) B.Sh. Safarov, I.S.Tuxliyev. M.R. Boltayev, S.A. Abduxamidov, Turizm „, Nazariya va Amaliyot “ Toshkent 2018-y
- 3) S.R. Safayeva. Turizm va Oʻzbekiston Milliy meʼrosi. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. 2018-y
- 4) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining „, Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi” PF 5781- son farmoni. Toshkent. 13-avgust 2020-y
- 5) www.uzbektourism.com
- 6) Oʻzbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi rasmiy sayti: www.stat.uz
- 7) Global sun power (GSP) korporatsiyasining Oʻzbekiston boʻyicha mahsulot yetkazib berish boʻlimi rasmiy sayti maʼlumotlari. www.glotr.uz

ИНГЛИЗ ТИЛИДА ГЕНДЕРНИНГ ЛЕКСИК ИФОДАСИ

Бабаджанова Умида Атабековна

Урганч Олимпия ва паралимпия спорт турларига тайёрлаш маркази ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада “гендер” атамасининг лексик хусуситлари, сўз туркумларига нисбатан муносабати, морфемика ва синтактик бирлик сифатидаги хусусияти таҳлил қилинган.

Аннотация. В данной статье проанализированы лексические свойства термина «гендер», его отношение к частям речи, свойство как морфемное и синтаксическое единство.

Annotation. In the given article lexical properties of the term “Gender” are analysed, its relation to parts speech, characteristics as morphemic and syntactic unity.

Калит сўзлар: гендер, табиий жинс, аффиксация синтактик бирикма, препозитив кўрсаткич, қиёсий таҳлил.

Ключевые слова: гендер, естественный пол, аффиксация, синтаксическое соединение препозитивный показатель, деривативный показатель, сравнительный анализ.

Key words: gender, a natural sex, affixation, syntactical connection, a prepositive indicator, a derivative indicator, the comparative analysis.

Инглиз тилида род категорияси бошқа тилларга караганда катта аҳамиятга эга эмас. Род категорияси референтнинг жинси ва предметларнинг, асосан, олмошлар билан мослашувида намоён бўлади. “Бу, аввало, кишилик олмошлари (he, she, it), эгалик (his, her, its) ва ўзлик (himself, herself, itself) олмошлари ёки уларнинг ўрнини босувчи тирик мавжудотлар жинсига мос бўлган, ёки инаниматив предметларни кўрсатувчи олмошлардир. Шунга кўра, “табиий жинс” тушунчаси унинг расмий ифодасидан устун туради, яъни “родда нафакат” сўзларнинг ўзи, балки маълум даражада шу сўзлар орқали ифодаланувчи предметлар таснифланади”.

Замонавий инглиз тилида гендер кўрсаткич, асосан, **от** сўз туркумига тегишли, маскулин род сўзларидан ясалган феминин род сўзларида намоён бўлади. Маскулин род **отлари** эса баъзи ҳоллардагина гендер кўрсаткичга эга сўзлар сифатида қаралади, чунки улар, асосан, умумий сўзлар сифатида қабул қилинган. Демак, феминин род отлари маскулин род **отларида** нисбатан тилда родни сақлаш каби беқиёс аҳамиятли вазифани бажаради.

Инглиз тилида гендер кўрсаткичли отлар уч хил усул билан ҳосил бўлади:

- 1) аффиксация (teacher-teacheress);
- 2) лексик ифода (boy/girl);
- 3) синтактик бирикма ҳосил қилиш йўли билан мослашув (male nurse, he dog).

Гендер кўрсаткичга эга бўлган лексик жуфтликлар, асосан, оилавий муносабатлар (father-mohter, uncle-aunt, daughter-son ва ҳ.к.), ижтимоий роллар (king-queen, lord-lady ва ҳ.к.) ва хайвонлар (bul – cow, cock-hen, etc.) номларида акс этади. Аёллик ва эркаклик факрлари синтактик алоқага киришган формал кўрсаткичлар орқали ҳам ифодаланиши мумкин:

- Препозитив гендер кўрсаткичлар: female officer, Mr. John, Miss Thorburn, lady doctor, girl graduate, male nurse.

Гендер кўрсаткичли элемент билан келган қўшма сўзлар: an Englishman, a Scotsman.

Дериватив гендер кўрсаткичлар: Actress Julia.

Кишилик олмошларлари орқали ясаладиган дериватив гендер кўрсаткичли сўзлар: he lion, she lion, he-goat, she-goat каби¹.

Келтирилган кўрсаткичлардан – **ess**, шубҳасизб феминин кўрсаткичб лекин **-or/-er** доим ҳам маскулин кўрсаткич ҳисобланмайди. Чунки **-or/-er** умумий маънога эга бўлган ва феминин род ҳосил бўладиган маскулин род кўрсаткичидир.

Longman Grammar of Spoken and Written English (2004) да келтирилишича **-man** ва -

¹ Longman grammar of Spoken and Written English. London:Longman, 2004, p.312

woman билан туговчи сўзларнинг частотаси бир миллион сўзга нисбатан 620/4¹. Бу кўрсаткич инглиз тили вакиллари ва ёзувчиларининг **-woman** билан туговчи сўзларни **-man** билан туговчи сўзларга нисбатан кам қўллашдан дарак беради. **-woman** шакли сўзларнинг деярли барчаси ёнма-ён қўлланилган **-man** шакли жуфт сўзига эга бўлиб, **-man** шакли сўзлар, кўп ҳолларда, умумий маънода қўлланилади.

-woman ва **-man** билан туговчи сўзларнинг бир миллион сўзга нисбатан қўлланиш частотасининг қиёсий кўриниши қуйидагича берилади:

- Spokeswoman/spokesman-20/115,
- Policewoman/policeman - 5/35,
- Chairwoman/chairman – 1/115,
- Businesswoman/businessman - 1/ 20,
- Congresswoman/congressman – 1/5,
- Horsewoman/horseman – 1/5².

Шунингдек, луғатда **-woman** шакли жуфт сўзга эга бўлмаган **-man** қўшимчали сўзлар келтирилган: **airman, alderman, ambulanceman, anchorman, barman, boatman, cabman, cameraman, churchman, clergyman, countryman, craftsman**. Луғатда – **ess** сўзлардан фақат **seamstress** маскулин шаклга эга эмаслиги аниқланди³.

